

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

DILOROM SALOHİY

**NAVOIYSHUNOSLIK.
ALISHER NAVOIY G'AZALLARINI
SHARHLAB O'RGANISH**

O'quv qo'llanma

Oldingi foydalanishlar miqdori	2017 yil 1-9 oylar	2018 yil 1-9 oylar	2019 yil 1-9 oylar
1	2	3	4
5	6	7	8
9	10	11	12
13	14	15	16
17	18	19	20
21	22	23	24
25	26	27	28
29	30	31	32
33	34	35	36
37	38	39	40
41	42	43	44
45	46	47	48
49	50	51	52
53	54	55	56
57	58	59	60
61	62	63	64
65	66	67	68
69	70	71	72
73	74	75	76
77	78	79	80
81	82	83	84
85	86	87	88
89	90	91	92
93	94	95	96
97	98	99	100
101	102	103	104
105	106	107	108
109	110	111	112
113	114	115	116
117	118	119	120
121	122	123	124
125	126	127	128
129	130	131	132
133	134	135	136
137	138	139	140
141	142	143	144
145	146	147	148
149	150	151	152
153	154	155	156
157	158	159	160
161	162	163	164
165	166	167	168
169	170	171	172
173	174	175	176
177	178	179	180
181	182	183	184
185	186	187	188
189	190	191	192
193	194	195	196
197	198	199	200
201	202	203	204
205	206	207	208
209	210	211	212
213	214	215	216
217	218	219	220
221	222	223	224
225	226	227	228
229	230	231	232
233	234	235	236
237	238	239	240
241	242	243	244
245	246	247	248
249	250	251	252
253	254	255	256
257	258	259	260
261	262	263	264
265	266	267	268
269	270	271	272
273	274	275	276
277	278	279	280
281	282	283	284
285	286	287	288
289	290	291	292
293	294	295	296
297	298	299	300
301	302	303	304
305	306	307	308
309	310	311	312
313	314	315	316
317	318	319	320
321	322	323	324
325	326	327	328
329	330	331	332
333	334	335	336
337	338	339	340
341	342	343	344
345	346	347	348
349	350	351	352
353	354	355	356
357	358	359	360
361	362	363	364
365	366	367	368
369	370	371	372
373	374	375	376
377	378	379	380
381	382		

Oldingi foydalanishlar
miqdori

[illegible]

8589

avoly g'azallarini
(anma)

DILOROM SALOHY

NAVOIYSHUNOSLIK

**ALISHER NAVOIY G'AZALLARINI
SHARHLAB O'RGANISH**

Universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi), pedagogika institutlarining o'zbek tili va adabiyoti fakultetlari uchun o'quv qo'llanma

*Samarqand davlat universiteti
ilmiy kengashi tomonidan
nashrga ruxsat berilgan
(2019 yil, 28 noyabr,
4 - bayonnoma)*

Samarqand – 2019

UO'K: 821.512.133 (092)
KBK: 83.3 (50*)
S26

Mas'ul muharrir:
Boqijon To'xliyev,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Karomat Mullaxo'jayeva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Razzoqov,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Salohiy, Dilorom. Navoiyshunoslik. Alisher Navoiy g'azallarini sharhlab o'rganish (o'quv qo'llanma). / D. Salohiy. – Samarqand: SamDU, 2019. –236 b.

Ushbu o'quv qo'llanma respublika oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari bakalavriat ixtisosligi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, navoiyshunoslik fanining Alisher Navoiy g'azallarini sharhlab o'rganish kursi mavzularini qamrab oladi. Unda Navoiy boy lirik merosining mavzu ko'lami, nasriy bayonlari va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqot ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limdan ulug' shoir lirik merosining o'rganilishi va tarkibi haqida umumiy ma'lumotlar, ikkinchi bo'limdan esa g'azallar sharhlari o'rin olgan.

Qo'llanmada muallifning O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyasiga ko'ra 2013 yil "Zarafshon" nashriyotida chop etilgan "Navoiy nazmiyoti" nomli o'quv qo'llanmasi materiallaridan ham foydalanilgan.

O'quv qo'llanma Samarqand davlat universiteti ilmiy kengashining 2019 yil 28 noyabrda 4-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN-978-9943-6316-7-0


Dilorom Salohiy, "Navoiyshunoslik. Alisher Navoiy g'azallarini sharhlab o'rganish", 2019.

TAQDIM

Bugungi kunda mukammal shakllangan va taraqqiy etayotgan jahon navoiyshunosligi tajribasi ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodining sharq badiiy tafakkuri oliy mahsuli ekanini e'tirof etmoqda. Bu olamshumul ijodning o'zigacha mavjud bo'lgan forsiy va turkiy adabiyot erishgan barcha yutuqlarni mujassam etgan, xususan, turkiy adabiyotning keyingi taraqqiyotiga zamin yaratgan poetik, falsafiy, badiiy-estetik qarashlar tizimini shakllantirgan mukammal nazariyaga asoslanganligi ayon bo'ldi.

Alisher Navoiy she'riyati bugungi kunda o'zbek adabiyotshunosligi fani sarhadlaridan ancha kengroq doirada, juda ko'p xorijiy mamlakatlar olimlari ilmiy ishlarida ham o'rganilmoqda. Bugungi kunga qadar Navoiy lirik merosining mukammal nashrlari amalga oshirildi, buning asosida shoir biografiyasi, dunyoqarashi, ijodiy metodi va adabiy-tanqidiy qarashlari, san'atkorligi masalalariga doir dalillar to'plandi va tahlil etildi, shuningdek, shoir ijod etgan tarixiy sharoit va uning buyuk mutafakkir faoliyatiga ta'siri masalalari o'rganildi.

O'zbek adabiyotshunosligida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiy merosi va badiiy mahoratini o'rganish sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va bu ilmiy yutuqlardan respublikamiz oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlarining barcha bosqichlarida foydalanilmoqda. Xususan, birinchi, ikkinchi kurslarda o'tiladigan «O'zbek mumtoz va milliy o'yg'onish adabiyoti» fanini, yuqori kurslarda ikki yil davomida o'qiladigan "Navoiyshunoslik" ixtisoslik kursi va Navoiy ilmiy-badiiy, nasriy hamda lirik ijodini chuqurroq o'rganishga moslangan tanlanma fanlarni, magistratura yo'nalishidagi maxsus fanlarni o'tishda shu kunlarga qadar A. Qayumov, B. Valixo'jayev, A. Hayitmetov, A. Abdug'afurov, Yo. Is'hoqov, I. Haqqulov, S. G'anieva, R. Vohidov kabi olimlar asarlari asosiy qo'llanma vazifasini bajarib keldi. Ammo, fanimiz



milliy mafkuramiz zaminida rivojlanib borayotgan bugungi kunda adabiy merosni o'rganishning yangi mezonlari qaror topdi, yangi adabiy manbalar kashf etildi, yangi fikr-qarashlar ro'yobga chiqqan boshladi. Shu boisdan XX asrning 80-yillari oxirigacha chop etilgan va ulug' shoir she'riyati masalalarini yoritishga bag'ishlangan darslik va qo'llanmalardagi ayrim qarashlarni qayta nazardan o'tkazish, ayrim masalalarga aniqlik kiritish, munosabat bildirish ehtiyoji paydo bo'ldi. Ana shu ehtiyojga javoban yurtimiz o'z siyosiy mustaqilligiga ega bo'lgan va qadimiy milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz tiklangan keyingi chorak asr davomida navoiyshunos olimlar N.Komilov, M. Muhiddinov, A.Abduqodirov, Sh.Sirojiddinov, A.Erkinov, G.Xollieva, U.Jo'raqulov, K.Mullaxo'jaeva, Z.Mamadaliyeva, O.Davlatov, I.Pardaeva, A.Razzoqov va D.Yusupovalarning ilmiy tadqiqotlari hamda o'quv adabiyotlari yuzaga keldi. Ushbu qo'llanma muallifi ham tadqiqotida o'zbek filologiyasi fakulteti bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlarga tuzilgan yangi dastur asosida "Navoiyshunoslik" fanining "Alisher Navoiy g'azallarini sharhlab o'rganish" qismi uchun shoir lirikasi g'oyaviy va badiiy-estetik xususiyatlarini yoritishni ko'zda tutadi. Buning sababi shundan iboratki, muallif Navoiy she'riyati sohasida bajarilgan avvalgi tadqiqotlarni to'ldiruvchi, ba'zi o'rinlarda yangicha munosabatni talab etuvchi ilmiy dalillar va mulohazalarni bayon etadi, bu sohada qator masalalarga yangicha yondashadi.

O'quv qo'llanmada Alisher Navoiy she'riyati taraqqiyoti tarixini kuzatish, shoir g'azaliyoti g'oyaviy-badiiy qimmatini haqida fikr yuritish va Navoiy poetik uslubi o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi nazariy masalalarga diqqatni jalb etish ko'zda tutiladi. Fanimizning bu sohada qo'lga kiritgan yangi ilmiy natijalari, yosh olimlar tadqiqotlarida olg'a surilgan g'oyalar va fikr-mulohazalar e'tiborga olinadi. Xususan, ulug' shoir ijodida ilm-ma'rifat talqini va kichik lirik janrlar tadqiqi masalalari yoritilishida filologiya fanlar bo'yicha Falsafa doktorlari (PhD) Alisher Razzoqov va Iroda

Pardayeva, o'zbek mumtoz adabiyotida turkona uslub masalalari tahlilida ilmiy izlanuvchi Rahima Daminova tadqiqotlarida keltirilgan yangi ma'lumotlardan foydalanildi. Albatta, tadqiqotda qusur va kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ushbu o'quv adabiyoti haqidagi har qanday xolisona fikr va mulohazalar muallif tomonidan samimiyat bilan qabul qilinadi, minnatdorchilik bildiriladi va kelgusida nazarda tutiladi. (Manzilimiz: Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. E-mail: dsalohiy@gmail.com; diloromopa1959@umail.uz).

Mazkur qo'llanma garchi filolog-bakalavriat va magistrant talabalarga mo'ljallangan bo'lsa-da, undagi yangi adabiy-ilmiy material, adabiy-ma'rifiy yo'nalishdagi tahlil natijalari hamda xulosalar katta va kichik ilmiy izlanuvchi xodimlar, adabiyot tarixi mutaxassislari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA LIRIK JANRLAR TARAQQIYOTI

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy she'riyatini o'rganish tarixi va manbalari.

Dars rejası:

1. Alisher Navoiy she'riyatining o'z zamondoshlari va keyingi asrlar mualliflari tomonidan o'rganilishi.
2. Navoiy poetik uslubi va badiiy tasvir prinsiplarini nazariy asoslarda ilmiy o'rganish.
3. Navoiy lirikasi sohasida olib borilgan tekstologik tadqiqotlar. Sharhlar.

Tayanch so'z va iboralar: *badiiy ijod, tafakkur, iste'dod, e'tirof, talqin, nashr, Navoiy, ma'naviy, lirik, epik, meros.*

1.

Alisher Navoiy lirik ijodi o'ziga qadar turkiy adabiyot crishgan barcha yutuqlarni umumlashtirib, butun Sharq adabiyoti, xususan g'azalchiligini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Akademik Oybek yozganidek, shu boisdan ham "Navoiyning yoshlikdan boshlab to umrining so'ng sanalariga qadar yozgan lirik she'rlarini ihotat etgan "Chor devon"ning ideya va badiiy shakli, tili va masterligi, tarixiy ahamiyati va boshqa jihatlardan chuqur tadqiq etish ko'p yilga cho'ziladigan og'ir va muhim ishdır".¹ Navoiy nazmiyoti go'zalliklarini kashf etish va uning bu sohadagi ilmiy-nazariy qarashlarini o'rganish tarixi salkam olti asrni ishg'ol etib turibdi. Bu katta tarixiy jarayon Navoiy lirik merosini tekshirish uslubi, yo'nalishlari va ilmiy ahamiyati jihatidan to'rt bosqichda davom etganligini kuzatish mumkin. Chunonchi, turkiy tildagi g'azalni o'z davrining yetuk lirik janri sifatida katta taraqqiyot bosqichiga ko'targan malik ul-kalom Mavlono Lutfiydan boshlab o'sha davrning Kamol Turbatii, A'loiy Shoshiy, Abulqosim Bobur,

Nayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi shoir va allomalari Navoiy ilk lirikasi yuksak badiiyligiga tahsin o'qib, yuqori baho berar ekanlar, buni bevosita yosh shoirning kelgusidagi katta muvaffaqiyatlariga, butun Sharq badiiy tafakkurining o'lmas dahosi sifatida taniluviga ilk guvohlik, bashorat deb tushunmoq joizdir. She'riy san'atning bu nozikfahm allomalari yosh Alisher Navoiyning o'z g'azallarida badiiy mazmun va badiiy shakl unsurlaridan ularning o'zaro uzviy bog'lanishi asosida ustalik bilan foydalana olganligi, bu sohadagi yetuk badiiy mahoratiga diqqatlarini jalb etganlar. Bu esa Navoiy ilk nazmiyoti uning davrida yaratilayotgan asarlardan alohida ajralib turganligini, unga bo'lgan jiddiy qiziqishni ta'kidlab, bevosita bu shoir badiiy ijod uirlarini o'rganish sohasiga poydevor bo'lib xizmat qildi. Navoiy «Ilk devon» ining uning o'zi tomonidan emas, balki she'riyat muxlislari tomonidan tuzilishi sharq devonchiligi tarixida misli ko'rilmagan hodisa bo'lib, bu ham o'z navbatida shoir lirikasining sharq g'azalchiligi an'analari va u davrda shakllanib ulgurgan normativ poetika mezonlari asosida maxsus tekshiruv manba'si bo'luvi lozimligiga bir ishora edi. Shu tariqa Navoiyning ilk lirikasidagi san'atkorlik mahoratiga o'ziga xos yondashuv, uni chin ma'noda favqulodda iste'dod sifatida tan olish, targ'ib etish tarzidagi ijodiy munosabatlar turkiy va fors-tojik she'riyati yetuk mutaxassisleri tomonidan yuzaga keldi va bu jarayon Navoiy ijodining 25 yoshgacha bo'lgan davrini qamrab olib, uni ilmiy ijodiy o'rganishning birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu davrda Navoiy lirik shoir sifatidagina mashhur bo'lib, uning g'azal, ruboiy, muxammas, musta'zod janrlaridagi asarlari va hasbi hol tipidagi masnaviysi ma'lum edi. Bundan ko'rinadiki, Navoiyning poetik mahorati uning katta, mashhur zamondoshlari tomonidan asosan 5 lirik janrda yaratilgan asarlari yuzasidan e'tirof etilib (bizgacha yetib kelgan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ko'proq g'azal janridagi), u ham bo'lsa, o'rta asrlar sharq adabiyotshunosligi uslubiga xos bo'lgan umumiy fikrlardan iborat edi. Ammo, mashhur shaxslarning shoirga

¹ Ойбек. Навоий гулшани. — Тошкент: Бадний адабиёт, 1967. 31-б.

bo'lgan e'tibri va uning ijodi yuzasidan bildirilgan mazkur umumiy fikrlar Navoiyning bu davrda o'z lirikasi misolida turkiy g'azalchilikni badiiy tasvir jihatidan yangilayotganligi (Lutfiy e'tirofi: bir bayt misolida), she'rlarida emotsional-ruhiy ta'sirning va badiiy lavhalarining betakrorligi (Abulqosim Bobur, Sayyid Hasan Ardasher bilan bog'liq xotiralar tafsilotlari), adabiy-tanqidiy qarashlarining o'ziga xos mazmun va yo'nalishga ega ekanligi (Shayx Kamol Turbatiy bilan uchrashuv epizodi va b.) kabi masalalarni qamrab oladi.

Alisher Navoiy esa umumiy ta'rifu tavsifdan farqli o'laroq o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida Mavlono Lutfiy ijodi turkiy she'riyatning yozma adabiyot an'analari doirasidagi taraqqiyotini boshlab berganligini ta'kidlaydi. Ulug' shoir «Majolis un-nafois»da turkiygo'y shoirlar haqida so'z yuritir ekan, Mavlono Yaqiniy, Mavlono Atoiy, Mavlono Muqimiy, Mavlono Kamoliy, Mavlono Sakkokiy, Mavlono Gadoiy boralarida «turkiygo'ydur, atrok orasida ko'p shuhrat tutti», deb yozadi, ammo, Mavlono Lutfiy muqobalasida ularni «forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi», deya baholamaydi. Buning sababi shundan iboratki, Mavlono Lutfiyga qadar va unga zamondosh bo'lgan turkiygo'y shoirlar ijodi asosan ma'lum ma'noda mavzu va mazmun jihatidan chegaralangan «turkiy» janridagi she'rlar doirasida qolgan bo'lsa (kichik lirik janrlarni istisno etganda), Lutfiy «turkiy» she'r imkoniyatlaridan, uning vazni va badiiy tasvir usullaridan foydalanib, yangi mazmun va shakldagi g'azallar yaratdi. Navoiyning adabiyotshunoslikka doir asarlarida tilga olingan o'rta asr o'zbek she'riyatidagi adabiy-badiiy yo'nalish asosini «turkiy» janri va bu janrda she'r yozgan «turkiygo'y» shoirlar ijodi tashkil etadi. Shoir «Majolis un-nafois» asarida «turkona» istilohini qo'llar ekan, bu ma'noda «turkiy» she'rning o'ziga xos xususiyatlari – turk tili, ishqiy mavzu, sodda va tushunarli, ta'sirchan badiiy tasvir va ramal bahridan iborat ekanligini bayon etadi. Mavlono Lutfiy ijodi sharq poeziyasida klassik maqomdagi fors-tojik she'riyati va turkona she'riyatning

go'zal bir tarzidagi uyg'unlashuvi, sintezi sifatida namoyon bo'lganligini qayd etadi. Shu boisdan ham o'z ijodining mavqeyi va darajasini ravshan idrok etgan Mavlono Lutfiy o'n ikki mingdan iborat forsiy va turkiy abytini turkiy she'riyatni mumtoz maqomga ko'tarayotgan Alisher Navoiyning bitta baytiga almashtirishni orzu qiladi.

Mavlono Abdurahmon Jomiy esa Alisher Navoiyni va uning bosh vazir sifatida olib borgan faoliyatini Yusuf payg'ambar faoliyati bilan tenglashtiradi. Feodal zulmining oldini olish va adolat o'rnatish, bunda mamlakatni boshqarishdagi bosh vazirning roli «Haft avrang»da asosiy masala qilib qo'yilgan edi.

Podshoh – Fir'avn Yusufni Zulayhoning kuyovi Azizi Misr o'rniga bosh vazir etib tayinlaydi. Mamlakatning 14 yillik ixtiyorini unga topshiradi. O'zi esa Yusufga halaqit bermaslik uchun shu muddatga mamlakat ishlaridan chetlashadi. Yusuf aql va tadbir bilan g'allani ehtiyojga qarab odilona tarqatadi. Haqiqatan ham o'z davrida tadbirkor vazir «Navoiyning buyuk madaniyat arbobi, she'riyat va san'at homiysi sifatidagi shuhrati yaqin sharq o'lkalarida afsonaviy bir tus olgan»²:

Muborak bar shahu arkoni davlat,
G'azanfarhaybatoni shersavlat!
Ba taxsis on javonmarde k - sh az der,
Nasab chun nom boshad sher bar sher.
Yake dar az diji davron kananda,
Yake sarpanja bo go'ron zananda.
Ba rasmi ta'miya z - on burdamash nom,
Ki monad dur az on andeshai om.
Va gar ne, kay tavon z - on fahmi darrok,
Ba sad huqqa naxuft in gavhari pok.
Kunad dar she'r tab'ash mo'shikofy,
V - az on mo' no'gi kilcash sha'r bofy.

² X. Арест. Ахдий Багдодий Навоий ҳақида. // ЎТА, 1977, №4, 43-6.

Nihad z-in sha'ri mushkin domi dilho
Dihad az she'ri shirin komi dilho...
Vale, dar borgohi odamiyat,
Chuz o' kam yoft rohi mahramiyat...³

Ana shu jihatlardan Navoiy lirikasiga nisbatan bo'lgan bu davrdagi adabiy-tanqidiy munosabatni uning ijodi badiiy afzalliklarini e'tirof etgan holda, munosib baholash, targ'ib etish tarzidagi ijodiy o'rganish deb ko'rsatish mumkin.

Navoiyni nafaqat yetuk zullisonayn shoir, balki lirikaning 16 janrida samarali ijod qilgan buyuk mutafakkir sifatida juda keng miqyosda maxsus o'rganish badiiy-tarixiy xarakterdagi asarlar va risolalarda uning o'z zamondoshlari va keyingi asrlarda yashagan mualliflar ijodida xam ko'zga tashlanadi. Shoir g'azallarining chuqur mazmuni, ilg'or g'oyaviy-falsafiy asoslardagi estetik namoyishi Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Sulton Husayn Boyqaro, Davlatshoh Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Kamoliddin Binoiy, Abdulloh Xotifiy, Hakimshoh Qazviniiy, Zayniddin Vosifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar tomonidan katta hurmat bilan tilga olinadi. Shoir ijodi badiyatini tanqidiy o'rganishning bu bosqichi uning avvalgi davridan umumiy ta'rif-tavsif mazmunidagi fikrlardan konkretlikka - Navoiy lirikasining son va sifat jihatidan originalligi, aruz vaznining turkiy g'azalchilik asosidagi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi (Zahiriddin Muhammad Bobur), badiiy san'atlarning an'anaviy poetika qonuniyatlarini rad etmagan holda ijodiy rivojlantirilishi (Atulloh Husayniiy, Zayniddin Vosifiy) kabi ilmiy, tahliliy asoslardagi yo'nalishlari bilan farq qiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, Navoiy poetikasi sohasida zamonaviy adabiyotshunoslik fani nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy tadqiqotlarning dunyoga kelishida Navoiy merosi yuzasidagi

adabiy-tanqidchilik tarixining bu davrida yaratilgan asarlar asosiy manba'lardan bo'lib xizmat qiladi. Chunki, turkiy klassik g'azalning eng baland ravnaqi davrida uning dinamikasini ta'minlovchi Navoiy lirikasi yuzasidan bildirilgan adabiy-tanqidiy mulohazalar o'sha davr adabiyotshunosligi xarakterini, lirikaning bevosita o'rta asrlar musulmon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini (o'sha davr adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan), uning jamiyat turli tabaqalariga mansub she'riyat muxlislari bilan munosabatini va boshqa ko'p masalalarni oydinlashtirishga sabab bo'lishi shubhasizdir.

2.

Navoiy g'azaliyoti badiiyligini, uning poetik uslubi va badiiy tasvir prinsiplarini nazariy asoslarda ilmiy o'rganish XX asr boshlarida (30-yillarning ikkinchi yarimlarida) akademik Oybek, prof. E.Bertels, A.K. Borovkov, Maqsud Shayxzoda, Hodi Zarif asarlarida amalga oshirildi. Akademik Oybekning 1936 yilda yozilib, 1961 yilda «O'zbek tili va adabiyoti masalalari» jurnalining 1, 2, 5-sonlarida e'lon qilingan Navoiy g'azaliyoti haqidagi ikki maqolasida shoir lirikasining asosiy mohiyati, poetikasining xususiyatlari sohasida fikr yuritiladi. Jumladan, muallif shoir poetik uslubini tahlil etar ekan, uning badiiy tasvir prinsiplariga alohida e'tibor beradi. Bir o'rinda: «Navoiyning poeziyasi metaforikdir, - deb yozadi olim, - Navoiyning metaforalari aksar haqiqatan chuqur, original bo'ladi. Fikr va narsalar orasida kutilmagan, yangi munosabatlarni, yangi tomonlarni ochajak bir xarakterdadir... Umuman, Navoiyda so'z yuqori narsalarga ishora qilishi kerak».⁴ Oybek Navoiy poeziyasining mazmun va badiiy shakl jihatidan xarakterli belgilarini qayd etar ekan, «Navoiy poeziyasida o'tkazilgan g'oyalarning ijtimoiy-sinfiiy xarakteri, badiiy formaning belgisi ideologiya bilan shartlanganligi, umuman

³ Митрошев А. Таслири Навоӣ дар "Юсуфу Зулайхо"и Чоӣӣ. //Садон Шарк. 1971, № 5. С. 140.

⁴ Ойбек. Асарлар. XIX томлик. IX том. - Тошкент: Фан, 1974. 38-6.

Navoiy uslubini tug'dirgan sharoit va h.k. masalalar qoldikim, asl ilmiy tekshirish busiz bo'lmaydi», - degan xulosaga keladi⁵.

Alisher Navoiy lirikasini nazariy jihatdan tadqiq etishda Maqsud Shayxzodaning ilmiy faoliyati ayniqsa diqqatga sazovordir. Olim «Navoiyning lirik qahramoni» nomli ilmiy ishi va shu sohadagi qator maqolalarida⁶ shoir lirik qahramoni xususiyatlari, uning g'oyaviy intilishlari, shoir lirikasidagi badiiy tasvir prinsiplarini o'rganish haqida mulohazalar bildiradi.

Shayxzoda ilmiy tekshirishlarining uslubiy asoslari Navoiy lirikasini nazariy o'rganishning o'ziga xos yetuk bosqichi sifatida ko'zga tashlanadi. Navoiy poetikasini o'rganish sohasida keyingi davrda chiqqan va chiqayotgan monografik tadqiqotlarda Shayxzoda ilmiy uslubining bevosita ta'siri borligi muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu narsa o'zbek adabiyotshunosligining zamonaviy jahon adabiyotshunosligi uslubiy asoslarida taraqqiy etishiga vosita bo'lgan sabablardan biridir.

Navoiy poetikasi masalalarini maxsus o'rganish Hodi Zarifning «Ruboiy», «Lutfiy va Navoiy» nomli maqolalarida tilga olinib, shoir lirikasining g'oyaviy-badiiy mohiyati, o'zbek poeziyasi an'analarining Navoiy she'riyati taraqqiyotida tutgan o'rni kabi sohalarida jiddiy fikrlar bayon qilinadi.

Samarqand navoiyshunoslik maktabi asoschilari akademik Vohid Abdullayev⁷ va professor Abdurahmon Sa'diy⁸ tomonidan amalga oshirilgan katta ilmiy qimmatga molik tadqiqotlarda ham Navoiy lirikasi xususiyatlari, undagi original badiiy tasvir ko'rinishlari,

uning nazariy asoslari va adabiy ta'sir doirasi kabi masalalarga ahamiyat beriladi.

O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligining 60-yillardan bugungi kunlarga bo'lgan faoliyati Navoiy lirikasi masalalarini poetika ilmining nazariy asoslari, spetsifik qonuniyatlari nuqtai nazaridan ilmiy o'rganishning hajm va ilmiy salohiyat, salmoq jihatidan yuksak taraqqiyot bosqichiga chiqayotganligidan guvohlik beradi.

N.Mallayevning «O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoiyning roli», «Navoiy lirikasi»⁹, akad. V.Zohidovning «Ulug' shoir ijodining qalbi»¹⁰, A.Abdug'afurovning «Navoiy ijodida satira»¹¹, shuningdek, M.Yunusov, E.Rustamov, O.Nosirov, I.Haqqulov, Sh.Sharipovlarning monografik tadqiqot va maqolalari shoir lirik merosini turli yo'nalishda tekshirishga bag'ishlanadi.

B.Valixojayevning Navoiy lirikasi badiiyati xususiyatlari va shoir san'atkorligi ko'rinishlariga bag'ishlangan «Mumtoz siymolar», «Alisher Navoiy she'riyati» nomli asarlari va bir qator maqolalarida¹², M.Muhiddinovning adabiy aloqa va o'zaro ta'sir masalalari aspektidagi «Alisher Navoiy va uning salafllari ijodida inson konsepsiyasi» nomli doktorlik dissertatsiyasida, R.Orzibekovning «O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammab» nomli monografiyasida shoir poetikasiga aloqador muhim masalalar tahlil etiladi.

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, buyuk mutafakkir ilmiy-badiiy merosining shu kungacha tadqiq etilmagan qirralarini ochib berishga e'tibor kuchayib ketdi. I.Haqqulov, S.Olimov kabi olimlarning bu sohadagi faoliyatlari

⁵ Oйбек. Асарлар. XIX томлик. IX том. - Тошкент: Фан, 1974. 40-б.

⁶ Қаранг: Шайхзода М. «Алишер Навоий лирикасининг баъзи бир поэтик усуллари ҳақида» («Ғаройиб уссигар» девони асосида), «Устоднинг санъатхонасида», «Ғазал мулкисининг султони» ва б.

⁷ Абдуллаев В.А. Навоий Самарқандда. Тошкент, 1968.

⁸ Абдурахмон Саъдий. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашларига доир// Докт. дисс., 1958; Малиев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожда Навоийнинг роли// «Ўзбек тили ва адабиёти масалалари». 1961, 3-сон; Навоий лирикаси. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-том. Тошкент, 1963.

⁹ Зоҳидов В. Улуг' шoir иждодиинг қалби. - Тошкент, 1970.

¹⁰ Абдуғафуров А. Навоий иждодида сатира. - Тошкент, 1979.

¹¹ Қаранг: Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. - Тошкент, 1974; Барҳаёт шеърини// Ленин йўли. 1986, 8 февр.; Алишер Навоий иждодида туркий ва туркий-ғўйлик ҳақида// Ад. Жанрлар ва бад. Маҳорат мас-ри. - Самарқанд, 1988; Мумтоз сиымолар. - Тошкент: Абдулла Қодирий и-даги ХМН, 2002.

diqqatga sazovordir. I.Haqqulov Navoiyning falsafiy-tasavvufiy dunyoqarashi, ilohiyotga munosabati, asarlaridagi teran ma'rifiy ma'no – mazmun, timsollar va ramzlar haqida qator monografiya, risola va ilmiy maqolalar yozdiki, bu hodisa navoiyshunoslik fanining o'ziga xos yangi yo'nalishdagi taraqqiyotiga sabab bo'ldi.¹²

Ammo, Navoiy lirikasini o'rganish sohasidagi mazkur katta ilmiy jarayonda yuzaga kelgan tadqiqotlarga xos umumiy xususiyat shuki, ularda umuman Navoiy lirikasi haqida, shoir poetik tasvirining ayrim usullari, mahorat masalalari va boshqa sohalarida maqola yoki monografik tadqiqot mavzui doirasida fikr yuritiladi.

Navoiy poetikasining asosiy xususiyatlari, undagi obrazlar tizimi, badiiy tasvir usullari, lirik janrlar rivojiga taalluqli sistemali ravishdagi izchil tadqiqotlar A.Hayitmetovning «Navoiy lirikasi» va Yo.Is'hoqovning «Alisher Navoiy ilk lirikasi», «Navoiy poetikasi» kabi monografiyalari va qator maqolalarida tahlil etildiki, bu narsa Navoiy lirikasini poetikaning o'ziga xos tizimi qonuniyatlari nuqtai nazaridan ilmiy-uslubiy yo'nalishda o'rganishni boshlab berdi.

«Navoiy lirikasi» asarida¹³ A.Hayitmetov Alisher Navoiy lirikasining tur xususiyatlari, tematikasi va asosiy obrazlarini tadqiq etadi. Muallif shoir lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, uning sharqona lirik an'analarga munosabati masalalarini batafsil muhokama etadi. A.Hayitmetov «Alisher Navoiyning ijodiy metodi masalalari»¹⁴, «Navoiy dahosi»¹⁵ monografiyalarida ham shoir lirikasi va ijodiy uslub uslubining bir qator muhim xususiyatlari, uning lirik asarlarida ijodiy uslub uslub ifodasi mavzuiga diqqatini jalb etadi.

¹² Қаранг: Ҳаққулов Иброҳим, Закирбанд шер қошида. – Тошкент: Юлдузчи, 1989. – 223 б.; Ҳаққулов И. Ғазл гулшани. – Тошкент: ФАН, 1991. – 70 б.; Ҳаққулов Иброҳим, Камол эг касбим... – Тошкент: Чўлпон, 1991. – 240 б.; Ҳаққулов И. Шейрниг – рухий муносабат. – Тошкент: Адибнёт ва санъат, 1989. – 240 б.; Навоийга қайтиш. – Тошкент: "TAMADDUN", 2015. 312 б.

¹³ Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент, 1962.

¹⁴ Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Тошкент, 1963.

¹⁵ Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. – Тошкент, 1970.

Yo.Is'hoqov birinchi bo'lib Navoiy lirikasining badiiy evolyusiyasini bosqichma-bosqich, uning ilk davridan balog'at bosqichiga yetgunga qadar namoyon bo'ladigan xususiyatlarini, shu bosqichlar orasidagi umumiy bog'lanishni o'rganish maqsadida shoirning «Ilk devon»iga murojaat qiladi.¹⁶ «Ilk devon»ning, uning asosida Navoiy ilk lirikasining maxsus o'rganilishi shoir ijodiy mahoratining tadrijiy takomili, san'atkorligi va g'oyaviy dunyoqarashining o'ziga xos o'zgarishlari, kamolot bosqichiga yetish jarayonini kuzatishga imkon beradi.

Olim o'zining keyingi asari «Navoiy poetikasi»¹⁷da lirik janrlar va badiiy tasvir poetikasi xususiyatlarini muhokama etadi. Bu asar Navoiy poetikasini o'rganish sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun o'ziga xos tayanch manba' bo'lib ham xizmat qiladi. Chunki, o'zbek lirik poeziyasining janr jihatidan boyib, mukammal holga kelishida Navoiy g'azaliyotining o'rni va roli masalasi, shoir poetikasining ichki spetsifik qonuniyatlari va poetik uslubining originalligini ta'minlovchi asosiy omillar bu asarda izchil tahlil etilgan. Bundan tashqari, muallif bu asarida birinchi bo'lib o'zbek poeziyasida o'zining ma'lum an'alariga ega bo'lgan lirik janrlarning Navoiy lirikasida yangicha rivojini va turkiy adabiyotda paydo bo'lmagan yoki qat'iy qonuniyatiga ega bo'lmagan ba'zi bir janrlarning shoir g'azaliyotidagi yangi hayotini kuzatadi. Ikkinchidan, «asosiy lirik janrlarni, adabiy kanon va an'alar bilan munosabati nuqtai nazaridan sistemali tahlil etish asosida, ularning ichki dinamikasi va adabiy jarayondagi mavqeyini belgilash hamda shu asosda Navoiyning lirik janrlarning taraqqiyot tarixidagi rolini ko'rsatish»¹⁸ masalasi ilk bor tadqiqot doirasiga tortiladi. Uchinchidan, Navoiy badiiy tasvir poetikasi uchun xos bo'lgan yetakchi shamoyil badiiy tasvir vositalari va sharq poetikasining an'anaviy qonuniyatlari

¹⁶ Исҳоқов Ё. Аlisher Navoiyning ilk лирикаси. – Тошкент, 1965.

¹⁷ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент, 1983.

¹⁸ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент, 1983. 9-б.

nuktai nazaridan ochib beriladiki, bu ham asarning muhim ilmiy qimmatini belgilaydi.

Alisher Navoiy lirikasi masalalarini yangicha yo'nalishda, o'ziga xos ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish XX asr 90-yillarida A.Abdug'afurov tomonidan yo'lga qo'yildi. Olim Navoiy lirik devonlarining yaratilish davrlarini aniq belgilash, devonlarga kirmay qolgan she'rlarni aniqlash yuzasidan kuzatuvlar olib borish, devonlar debochalarida namoyon bo'lgan buyuk shoimning o'ziga xos badiiy tasvir uslubini ochib berish, shu nuqtai nazarlardan Navoiyning o'zidan keyingi shoirlar ijodiga bo'lgan ta'sirini tekshirish kabi masalalarni tadqiq etishni maqsad qilib qo'yadi. «Badoe' ul-bidoyu», «Xazoyin ul-maoniy» devonlarining tartib berilish sanalari jiddiy ilmiy dalillar asosida aniqlanishi olimning navoiyshunoslik fani rivoji uchun amalga oshirgan muhim xizmatlaridan biridir. Shuningdek, Navoiy qalamiga mansub bo'lib, boshqa shoirga nisbat berilgan she'rlar, shoir ijodiga nisbatan bo'lgan e'tiborsizlik natijasida yuzaga kelgan chalkashlik, xatoliklarga ham olim birinchilardan bo'lib ochiq munosabat bildiradi.¹⁹

Ulug' shoir she'riyatidagi badiiy san'atlar, ularning xususiyatlari, istiloh va ta'riflari va shu bilan bog'liq juda ko'p masalalarni alohida mavzu sifatida o'rganish lozimligini "G'azal mulkingning sultoni"

¹⁹ Qarant: Abdug'afurov A. Navoiy shiirasi. 1-kitob. - Toshkent: FAN - 1966. - 316 b.; Abdug'afurov A. Eri va tug'ulgan kuychilari. - Toshkent: Adabiyot va san'at - 1979. - 160 b.; A. Abdug'afurov. Buyuk beshlik saboklari. - Toshkent: Adabiyot va san'at - 1995. - 184 b.; A. Abdug'afurov. Qalbi kashida qadriyatlar. - Toshkent: Adabiyot va san'at - 1998. - 216 b.; Abdug'afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboxlari. (Birinchi maqola) // Uzbek tili va adabiyoti. - 1994. - № 4-56. - B.9-16; A. Abdug'afurov. «Xazoyin ul-maoniy» jumboxlari. (Ikkinchi maqola) // Uzbek tili va adabiyoti. - 1995. - № 1. - B.10-18; Abdug'afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboxlari // Uzbek tili va adabiyoti. - 2000. - № 5. - B.3-11; Abdug'afurov A. «Badoe' ul-bidoyu»ning tuzilish sanasi // Uzbek tili va adabiyoti. - 1989. - № 4. - B.3-9; Abdug'afurov A. Shariyat saroyi // Uzbekiston adabiyoti va san'ati. - 1998. - 6-fevral; Abdug'afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboxlari // Uzbek tili va adabiyoti. - 1998. №6. - B.3-10.

nomli maqolasida Maqsud Shayxzoda shunday uqdirgan edi: "Taassuf bilan aytishga to'g'ri keladiki, klassik poetikani tekshirish ishlari, xususan, poetika andozalari bilan buyuk shoirlarimiz ijodini o'lchash va tahlil qilish masalalari adabiyotshunosligimizda juda kam shakllangan sohalarandir".²⁰ Taniqli olim A.Rustamov ustoz olim belgilab ketgan bu sohada qimmatli tadqiqot yaratdi. U Navoiy asarlari badiiyati sirlarini chuqur o'rganib, "Navoiyning badiiy mahorati" nomli kitob yozdi²¹ va unda "Navoiyning badiiy vositalari", "Navoiyning qofiya va sa'j'lari", "Navoiyning vaznlari" nomli sarlavhalar ostida shoir mahorati, ijodining badiiy yetukligi asoslarini chuqur tadqiq qilib berishga muyassar bo'ldi.

Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari taniqli olim H.Qudratullaev ilmiy ishlarida o'zining keng va batafsil ifodasini topdi.²²

Xullas, Alisher Navoiy lirikasi ma'no sarhadlarini tushunib yetishga bo'lgan e'tibor shoirning o'z davridan buyon uzluksiz ortib borayotgan bo'lsa-da, bu o'rinda XX asr navoiyshunosligining o'rni alohida bo'lganligini ta'kidlab o'tmoq lozim.

Zamonaviy navoiyshunoslikda M.Imomnazarovning alohida o'rni borligini ta'kidlash zarur. Olim Alisher Navoiy asarlari konkordansining ilmiy va uslubiy tadqiqi bo'yicha o'ziga xos yo'nalishini yaratgan. Unda qayd etilishicha, 1967-1990 yillar (24 yil) davomida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid 107 ta alohida kitob va risolalar, turli nashrlarda shoir ijodidan 230 ta namunalar va 2418 ta maqola e'lon qilingan.²³ O'z-o'zidan bu qadar katta hajmdagi ishlarda Alisher Navoiy merosi talqinida o'xshash va farqli jihatlar bo'lishi tabiiy ekanligini qayd etadi olim.

Navoiyshunos olim Sh.Sirojiddinovning "Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" nomli

²⁰ Shayxzoda M. Asarlar. VI tomlik. 19-t. - Toshkent: Badiiy adabiyot, 1972. 48-6.

²¹ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979.

²² Qudratullaev H. Navoiyning adabiy-estetik qarashlari. - Toshkent: FAN, 1990. - B.7.

²³ Imomnazarov M. Navoiyshunoslikda kiritilgan ma'lumotlar. - Toshkent: FAN, 1990. - B.7.



monografiyasida 20 dan ortiq mualliflarning asarlarida buyuk o'zbek mutafakkiri va shoirining hayoti hamda faoliyatiga bahol berilgani ta'kidlanadi. Kitobda olim Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" asaridagi Navoiy tarjimai holiga oid asosiy ma'lumotlar mundarijasini 17 bandeda sanab ko'rsatadi, Xondamirning Alisher Navoiy haqida maxsus bitilgan "Makorim ul-axloq" asari asrlar davomida Navoiy dahosi mohiyatiga yetishga intilgan muxlislarga ochqich vazifasini o'taganligiga e'tibor qaratadi.²⁴ Monografiyada keltirilgan asarlarning aksariyati fors tilida yozilgan bo'lib, ulardan Navoiy qalamiga mansub shaxsiy qaydlardan tashqari, faqat ikkitasi turkiy tilda bitilgan. Bular - Husayn Boyqaroning "Risola" hamda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlaridir.

Navoiyshunosligimizning keyingi davri vakillari ham navoiyshunoslik she'rshunosligi sohasida o'zlarining bir qator izchil ilmiy tadqiqotlarini yuzaga keltirdilar. Shoir devonlari manbalari, tekstologiyasi va germenevtik talqinlari sohasida A.Erkinov, shoir lirikasi tasavvufiy talqinlari xususida K.Mullaxo'jaeva, Z.Mamadaliyeva, N.Bozorova, N.Bekova, M.Rajabova, O.Davlatov, Z.Hamidova, A.Razzoqov va N.Ramazonovlar o'zlarining qimmatli tadqiqotlarini yaratdilar. Bu jarayon, xususan o'zbek navoiyshunosligi sohasida bugungi kunda katta ilmiy-ijodiy rivoj va muvaffaqiyat bilan davom etmoqda. Alisher Navoiy ijodining bugunga qadar turli yo'nalishlarda o'rganilishi haqida ancha mufassal ma'lumot akademik B.Valixo'jaevning "Mumtoz siymolar"²⁵ va iqtidorli olim D.Yusupovanning "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)" nomli o'quv qo'llanmasida keltirilgan.²⁶

²⁴ Сирожиддинов Ш. Аlisher Navoiy. Манбаларнинг хиссий-типология тексология таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 9.

²⁵ Валихўжаев Б. Mumtoz siymolar. П жилдлик, 1-ж. – Тошкент: Абдулла Қодирий н-даги ХМН, 2002. 61-65-б.

²⁶ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғонини адабиёти (Аlisher Navoiy даври). – Тошкент: "TAMADDUN", 2016. 268-269-б.;

Navoiy nazmiyotini o'rganishning mazkur xronologiyasi nazariy nuqtai nazardan amalga oshirilgan asarlar yuzasidan bo'lib, bu sohadagi matnshunoslik, ya'ni shoir lirik merosining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar ham katta ahamiyatga egadir.

3.

Navoiy asarlari, shu jumladan, uning lirikasi sohasida olib boriladigan tekstologik tadqiqotlar adabiyotshunoslik taraqqiyoti uchun ikki yo'nalishda xizmat qiladi: 1) Navoiy she'riyatning ilmiy-tanqidiy tekstini yaratish va bu asosda shoir lirikasi ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarini amalga oshirish uchun; 2) mazkur sohadagi tekshiruvlar Navoiy lirik merosi yuzasidan olib boriladigan nazariy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar uchun ham asosiy zamin vazifasini o'taydi. Navoiy lirik merosini tekstologik nuqtai nazardan o'rganish sohasida amalga oshirilgan eng birinchi katta tadqiqot O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi respublika davlat mukofoti laureati, filologiya fanlari doktori H.S.Sulaymonovning 1961 yil oktyabr oyida himoya qilgan «Alisher Navoiy lirikasining tekstologik tadqiqoti» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasidir. Yirik olim Navoiy devonlarining jahon kitob xazinalarida saqlanayotgan 200 dan ortiq turli nusxalarini ko'rib chiqib, ulardan 20 tasini tadqiqot uchun asos qilib oladi va «Xazoyin ul-ma'oni» devonlarining muallif nusxasini yaratadi. Bundan tashqari, shoir devonlari fotonusxalarini sinchiklab o'rganish, o'nlab qo'lyozmalarni bir-biriga solishtirish natijasida olim Navoiyning hali fanga noma'lum bo'lgan ikki rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya» va «Navodir un nihoya» ni aniqladi. Navoiyning forsiy she'rlar to'plami - «Devoni Foni» ham bevosita H.Sulaymonovning sermashaqqat izlanishlari natijasida fanga ma'lum etildi. Ana shu qo'lyozmalar asosidagi izlanishlar jarayonida u Navoiy she'riyatining xronologiyasi, tarkibi, mundarijasi kabi bir qancha muhim ilmiy muammolarni hal etadi. H. Sulaymonov ko'p yillik mehnat va uzoq izlanishlar samarasi sifatida yuzaga kelgan

Navoiy lirik asarlari mukammal tekstlarining nashrlari masalasiga ham jiddiy e'tibor berdi. «Xazoyin ul ma'niy» ning olim tomonidan tiklangan avtor redaksiyasi 1959-60 yillarda O'zbekiston SSR «Fan» nashriyotida chop etildi. Olimning bu ilmiy faoliyati Navoiy lirikasining keyingi davrdagi tadqiqotchilari uchun keng va qulay imkoniyatlar yaratdi. «Navoiy devonlarini tekshirish natijasida H. Sulaymonov chiqargan ilmiy xulosalar birinchi galda shuning uchun ham qimmatliki, qo'lyozmalarning aksariyati Navoiy hayotligida yaxshi kotiblar tomonidan ko'chirilgan, ko'plarining kolofonida ko'chirilish sanalari bor».²⁷ H.Sulaymonovning 1967 yilda O'zbekiston SSR FA Davlat Adabiyot muzeyiga asos solishi va unga rahbarligi davrida Navoiy lirik merosining keyingi ilmiy tadqiqotlari va ilmiy hamda ommaviy nashrlari uchun zamin yaratildi.

Navoiy asarlarining 60-yillarda nashr etilgan ko'ptomli to'plamlari ulug' shoir adabiy merosining yagona ilmiy-tanqidiy tekstini tuzish ishini yanada takomillashtirish uchun xizmat qildi, bu sohadagi ko'pgina masalalarni, chigalliklarni hal etishga yo'l ochdi. 1987 yildan boshlab O'zFA Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti hamda H.S.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar instituti tomonidan shoir mukammal asarlari to'plami nashrlarining amalga oshirilishi adabiyotshunoslikning juda ko'p sohalarida jiddiy qidiruv va tadqiqot ishlarini olib borishga da'vat etdiki, biz bu haqda maxsus to'xtalmoqchimiz.

Navoiyning «Badoe' ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devonlari Hamid Sulaymonov tomonidan Parij Milliy kutubxonasi va Britaniya muzeyidagi qo'lyozmalar asosida fanga ma'lum etilgan edi. Keyinchalik bu devonlarning Toshkent nusxalari ham aniqlandi. Jumladan, «Navodir un-nihoya» devonining yagona nodir qo'lyozmasi haqida 1968 yilda Porso Shamsiev «Navoiy asarlarining yangi topilgan qo'lyozmalari» nomli maqolasida ma'lumot beradi. Oradan yigirma yillar muddat o'tkach, bu

devonlarning tekstologik tahrir etilib birinchi marta chop etilishi adabiy hayotimizda muhim hodisa bo'ldi. Bu adabiy hodisaning muhimligi shundaki, birinchidan, Navoiy matining «Badoe' ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devonlari bilan boshlanishi shoir lirik merosini uning tabiiy xronologik tartibi asosida o'rganish uchun imkon yaratadi.

Adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlarning muhim asoslaridan biri - badiiy asarlar yuzasidan yozilgan ilmiy sharhlardir. Navoiy o'zining barcha adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ilmiy asarlarida sharhlarga keng o'rin beradi. Shoirning «Majolis unnafois» asari buning yorqin timsolidir. Jumladan, shoir tazkiraning 8-majlisida Husayniy devonidagi g'azallar misolida sharhning mo'jaz namunasi ko'rsatib berdi. Navoiy Husayniy devoniga baho berar ekan, uning boshqa shoirlar ijodida va devonlarida uchramaydigan jihatlariga e'tibor beradi. Navoiyning bu sohadagi ilmiy uslubi hali ochilmagan juda ko'p fazilatlariga ega bo'lib, maxsus tadqiqotlarni kutmoqda.

Navoiydan avval o'tgan sharq filologlari asarlarida, shoir zamondoshlari va undan keyingi davr adabiyotshunosligida ham sharhlar katta mavqe' egallaydi. Zero, **sharhlar adabiyotshunoslik nazariyasi va uning taraqqiyoti uchun har doim ilmiy manba', aniq negiz bo'lib xizmat qilgan.** Shu nuqtai nazardan davrimiz navoiyshunosligida shoir asarlari yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy-analitk sharhlar tekstologiya fanining maxsus tarmog'ini shakllantirdi, desak xato qilmaymiz. Bu yo'nalishda 60-yillardan keyin yaratilgan asarlar Navoiy merosini benuqson, mukammal tushunish, undan chin ma'noda badiiy zavq olish uchun katta imkoniyat bo'lib xizmat qiladi. Bu sohaning izchil rivoji akad. A.P.Qayumov ilmiy faoliyati bilan bog'liqdir. Olim Navoiyning «Xamsa» si dostonlari yuzasidan yaratgan «Hayrat ul-abror» talqini, «Farhod va Shirin» sirlari, «Ishq vodiysi chechaklari» nomli asarlarida dostonlarning g'oyaviy - badiiy yo'nalishi va estetik fazilatlarini ochib berishda adabiy tahlil - sharh usulidan

²⁷ Қайумов А. Алишер Навоий. — Тошкент: Камалак, 1991. 58-б.

unumli foydalanadi. Mazkur ilmiy faoliyatning izchil rivoji natijasida keyingi yillarda adabiyotshunoslarimiz Navoiy lirikasining badiiyligi sirlarini tadqiq etishda jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar.²⁸ Yirik adabiyotshunos olim N. Komilovning «Ma'nolar olamiga safar» kitobi Hazrat Navoiy g'azallariga yozilgan sharhlardan tarkib topgan.²⁹ Buxorolik nuktadon olim R. Vohidovning bu olim faoliyati haqidagi quyidagi e'tirofi haqligiga birgina shu kitobning o'ziyoq dalil bo'la oladi: «Najmiddinning g'azallar sharhi, tasavvufga doir tadqiqotlari istiqbol mafkurasi bilan qurollangan ilmiy hayotimizda nodir hodisalardir».³⁰

Kitobda Alisher Navoiyning 50 g'azaliga sharh yozilgan va olimning mavzuga oid 5 maqolasi ilova qilingan.

Olim har bir so'z, ibora, ishora ma'no-mazmuni qatlariga chuqur kirar ekan, «Navoiyni tushunish uchun hakim bo'lish kerak», degan xulosaga keladi. Chunki, shoir g'azallarining har baytida bir hikmat nazarda tutilgan. Bu hikmat esa ulug' shoir falsafiy tafakkuri, e'tiqodi hosilasidir. Olim oddiy inson mushohada qobiliyati qiyinchilik bilan o'zlashtiradigan g'oyat murakkab ilmiy masalalarni sodda va oson bir tarzda tushuntiradi, ortiqcha tafsilotlarga o'rin bermaydi. «Tashqi dunyo va undagi narsalar mohiyat emas, balki hodisadir, - deb yozadi olim. Mohiyat – Ruhi mutlaq yoki orif ko'nglidagi ma'rifat. Ayni vaqtda, moddiy dunyo – shakl, ruh esa – mazmun».³¹

Adabiyotshunos olim B. Tuxlievning bu sohadagi faoliyati ayniqsa e'tiborga sazovor bo'lib, olim taniqli navoiyshunoslar K.Mullaxo'jaeva, D. Yusupova, Z.Mamadaliyeva, O.Davlatov ilmiy-ijodiy guruhi bilan «Xazoyin ul-ma'oni» devoniga kirgan g'azallar

²⁸ Shoirning 550 yillik yubileyi munosabati bilan ekanligi sharhlarning bir qismi «Alisher Navoiy. G'azallar. Sharhlar» nomi bilan kitob shaklida nashr etildi. Toshkent: Kamalak, 1991.

²⁹ N.Komilov. Ma'nolar olamiga safar. - Toshkent: "TAMADDUN", 2012.

³⁰ R. Vohidov. Ilohiy nashr jomiasida. - Samarqand: «Zarafshon», 1998. 54-6.

³¹ N.Komilov. Ma'nolar olamiga safar. - Toshkent: Tamaddun, 2012. 165-6.

sharhlarini to'plab, nashr ishlarini amalga oshirmoqda.³² Bu esa kelgusida Navoiy asarlarining sharhli nashrlarini amalga oshirish uchun ilmiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Navoiy o'zining olamshumul ijodi misolida lirikaning jamiyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida tutgan o'rni, uning badiiy ijod, qolaversa, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohalarini rivojiga bo'lgan ta'siri doiralarini ham ko'rsatib berdiki, bu narsa uni keng ko'lamda - g'oyaviy-badiiy, adabiy-estetik, ilmiy-nazariy aspektlarda yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Alisher Navoiy ijodini o'rganish va unga baho berish necha bosqichda va qanday mazmunda davom etdi?
2. «Ilk devon» ni o'rgangan olimlar kimlar va ularning tadqiqotlari haqida fikringiz qanday?
3. Alisher Navoiy qaysi asarlarining ilmiy-tanqidiy nashrlari yaratilgan?
4. Navoiyga zamondosh bo'lgan qaysi olimlarni va ularning asarlarini bilasiz?
5. Ulug' shoir she'riyati masalalarini o'rgangan navoiyshunos olimlar haqida ma'lumot bering.
6. Navoiyshunoslik fanining tekstologiya sohasida qanday yutuqlarni qo'lga kiritganligi haqida ma'lumotga egasiz?
7. Manbashunos va matnshunos olimlar va ularning tadqiqotlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Tahlil, talqin, sharh, izoh, nasriy bayon kabi tadqiqot usullarining ma'nolarini tushuntirib bering.

³² Tўplab nashrga tayёрlovchi B. Tuxliev.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. Toshkent: FAN, 1966. 152 b.
2. Abdullayev V. Navoiy Samarqandda. - Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968. 136 b.
3. Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1995. 184 b.
4. Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganish problemalari. Ilmiy maqolalar to'plami. - Samarqand: SamDU, 1990. 182 b.
5. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar. - Toshkent: Sharq, 2016.
6. Atoullloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. 400 b.
7. Valixojayev B. Mumtoz siymolar. II jildlik. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.
8. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - T.: O'zYU Adabiyot jamgarmasi nashriyoti, 2006.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - Toshkent: Yulduzcha, 1990. 368 b.
10. Is'hoqov Yo. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. - Toshkent: FAN, 1965. 140 b.
11. Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi. - Toshkent: FAN, 1983. 168 b.
12. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar. - Toshkent: "TAMADDUN", 2012. 316 b.
13. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979. 308 b.
14. Shayxzoda M. Asarlar. VI tomlik. 4 t.: G'azal mulkingning sultoni. - Toshkent: Badiiy adabiyot, 1972. 372 b.
15. Sharq mumtoz poetikasi. MANba va talqinlar - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 429 b.
16. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). - Toshkent: "TAMADDUN", 2016. 302 b.
17. Qayumov A. Alisher Navoiy. - Toshkent: Kamalak, 1991. 173 b.

18. G'iyosiddin Xondamit. Makorim ul-axloq. - Toshkent: "Akademnashr" - 2018. 370 b.
19. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. - Toshkent: FAN, 1975.
20. Hakimov M. Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi. - Toshkent: FAN, 1983. 199 b.
21. Haqqulov I. G'azal gulshani. - Toshkent: FAN, 1991. 70 b.
22. Haqqulov I. She'riyat - ruhiy munosabat. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. 240 b.
23. Haqqulov Ibrohim. Navoiyga qaytish. 3-kitob. - Toshkent: "TAMADDUN", 2016. 316 b.

Alisher Navoiy she'riyati

Dars rejasi:

1. Alisher Navoiy she'riyati misolida sharq devonchiligi an'alarining yangilanishi.
2. Navoiyning turkiy tildagi devonlari.
3. "Devoni Foni".

Tayanch so'z va iboralar: *g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, janr, badiiy san'atlar, devon, debocha, xazoyin.*

1.

Sharqda devon tartib berish an'anasi ancha qadimiy tarixga ega. Devon tartib berish, she'rlar majmuasini yuzaga keltirib kitob yaratish arablarda islom dinigacha bo'lgan davrda ham mavjud bo'lgan. Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" kitobiga yozgan so'zboshisida Ismatulla Abdullaev sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy so'zlariga asoslanib, arab she'riyatida asosiy o'rin tutgan qasida Muhammad (s.a.v.) dan bir yuz ellik yillar ilgari paydo bo'lganligi haqida gapiradi.³³ Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, u paytlarda turli-tuman mavzularda yozilgan hamda hajv janrini ham o'z ichiga qamrab olgan qasidalaridan devon tuzish odat bo'lgan. Mahmud Koshg'ariyning yirik olim Solih Mutallibov tomonidan nashr etilgan nusxasida Koshg'ariy tomonidan "shoir yozdi", "shoir dedi", degan iboralar ishlatiladi-ki, shuning o'ziyoq turkiy tilli xalqlar orasida ham she'riy to'plamlar yuzaga keltirish tajribasi uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin, biz tushunadigan ma'nodagi mumtoz devonlar IX-X asrlardan keyin yuzaga kela boshlagan. Shubhasiz, she'riy majmua, devon tartib berishning o'ziga xos xususiyatlari, an'analari ham ana

³³ Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr". — Toshkent: "Fon", 1976. 46-6.

shu davrlarda shakllangan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, o'sha paytlarda devonlar qofiya yoxud radiflari ma'lum harflar bilan tugagan she'rlarni bir kitob shaklida muqova bilan ihtolash asosida kitob yaratishdan iborat bo'lgan. So'ngra, arab yozuvida yigirma sakkiz harf mavjud bo'lganligi uchun devonlarda ham ana shu harflarni ma'lum miqdordagi she'rlar bilan to'ldirish asosiy qoidalaridan hisoblangan.

G'azal janri forsiy va turkiy tillardagi adabiyotlarda X asrlardan keyin shakllana boshlab, XIU asrlarda o'z takomilini topadi.³⁴ Ammo bu hodisa turkiy tildagi adabiyotda forsiy tildagi adabiyotga nisbatan qariyb bir asrdan ko'proq vaqt keyin sodir bo'lganligini ham qayd etib o'tmoq lozim. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" kitobida bitta-ikkita g'azal uchrashi fikrimizni asoslay oladi. Zeroki, bu davrlarda Nosiri Xusrav (1004-1088) kabi forsiygo'y shoirlar sohibidevon bo'lganlar. Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda devon tartib berishning yana boshqa talablari ham avjud bo'lgan. Xususan, shoirlar devon tartib berganda unga hamd va na'tlardan keyin birinchi galda qasida janrida yozilgan she'rlarni kiritganlar. Shundan so'nggina boshqa janrlardagi she'rlarga o'rin berilgan.

Alisher Navoiy devon tartib berishning bunday an'alariga tanqidiy munosabatda bo'lgan. Bu o'rinda navoiyshunos olim Yo. Is'hoqovning: "Navoiyning devon poetikasi sohasidagi mavjud an'analarga tanqidiy munosabati yigitlik davridayoq shakllangan"³⁵ligi xususidagi mulohazasi zahirida katta haqiqat yotadi. Agar ulug' shoirning o'zi tuzgan birinchi rasmiy devoni bo'lmish "Badoe' ul-bidoya" debochasidagi devon takomili yuzasidan bildirgan fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Navoiyning faqat o'z davri she'rshunosligidagina emas, balki

³⁴ Қаранг: Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. 4-т.: Ғазал мулкнинг султони. — Тошкент: Бадий адабиёт, 1972.

³⁵ Исхоқов Ё. Навоий поэтикаси. — Тошкент: "Фон", 1983. 12-б.

umuman ko'hna sharq poetikasi sohasida kashshoflarcha yo'l tutganligining guvohi bo'lamiz.

"Badoe' ul-bidoya" devoniga yozilgan debocha Alisher Navoiyning badiiy ijod masalalariga munosabatini o'rganish jihatidan ham muhim ahamiyatga molikdir. Shoirning ma'lumot berishicha, u "umr shabistoni sham'lari nuridan munavvar hamda yigitlik gullari atridan muattar" bo'lgan davrlaridayoq uning ko'ngliga mahbuba ishq g'ul'g'ula soladi. Natijada uning tilidan "nazm durdonalari to'kila boshlaydi". Uning yozgan she'rlari "xarobot durdno'shlari, munojot xirqapo'shlari, avom va fozil xalq orasida" mashhur bo'ladi. O'z zamonasining "karim ul-xulq ozodalari, azim ush-sha'n shahzodalarining iltifotiga musharraf bo'ladi". Ayniqsa tug'ma iste'dod sohibi bo'lgan Navoiyning ijodi temuriy shahanshoh Sulton Husayn Boyqaro nazariga tushishi uni badiiy ijod bilan jiddiy shug'ullanishiga rag'bat beradi. Bu yirik davlat arbobi, yuksak madaniyat va salohiyat sohibi bo'lmish shaxs Navoiy ijodining ibtidosidan to intihosiga qadar eng samimiy muxlisi, muhojisi, mudaqqiqi bo'lgan. Navoiy o'z ijodining ilk davri va ilk tanqidchisi haqida debochada shunday samimiy so'zlarni bitadi: "... matla'e yo ortuqroq yo tamom g'azal tilim xomasi taqirig'a kelsa erdi, filhol ani mushkbor qalam birla kofurkirdor safhag'a raqam qilib, oqu qaroni andin maxtut qilur erdi va yana ham anga qarobat hisobliq tezfa'm shahzodalar va musohib intisobliq xushtab' mirzodalar mutaaddid savob qilib, soyir ulusqa yoyilur erdi va oshiqpesha beqarorlar jalisi mehnati va ma'shuqsheva gul'uzorlar anisi suhbat bo'lub, xavosu avom arosida ishtihori tamom va intishori molokalom topar erdi".³⁶

Debochada shoir o'zidan avval o'tgan va o'ziga zamondosh bo'lgan Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiyarlarni she'riyat fanining payg'ambari darajasida e'tirof qiladi. Yosh qalamkashlardan esa o'zining "forsiydisor va turkiyshior yori azizi" Shayxim Suhayliyni katta

hurmat bilan tilga oladi. Buning boisi shuki, bu shoirlar she'rlarida ma'no latif badiiy libosga omuxta qilingan holda yuzaga chiqarilgan. Shunday ekan, Navoiy bu donishmand zotlarni:

Oyni yorug', charxni demak baland,
Tab'i baland elga emas dilpisand

degan haqiqatni anglab yetmagan shoirlardan ajratib ko'rsatadi.

Debochada yana shu narsa e'tiborga loyiqki, badiiy ijod uchun osoyishta, ma'mur, adolatga asoslangan davlatning yuzaga kelishi, davlat boshlig'ining esa dono, xalqparvar bo'lishdan tashqari ma'rifatparvar ham bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy o'z hayotining ma'lum davrlarida ana shunday imkoniyatga ega edi, ya'ni "mulk shabistoni bir davlat mash'ali bila ravshan bo'ldi". Davlat rahbari Sulton Husayn Boyqaro unig do'sti, musohibi, muqaviyi, ijodining mudaqqiqi ham edi. Shuning uchun ham Navoiy yozgan har bayt shohbayt, har bir noma – shohnoma rutbasiga ega bo'ldi:

Bo'ldi, chu shoh surdi isloh etarg'a xoma,
Har bayti – shohbayte, har noma – shohnoma.

Navoiy ba'zi asarlarida Husayn Boyqaro shaxsiyati va siyosatidagi nuqsonlarni ham tanqid qilgan va shu yo'l bilan podshoh saltanatining ravnaqiga foyda yetkazgan.

Alisher Navoiy birinchi devonini tuzishgacha bo'lgan davrlarda badiiy ijodga o'ta talabchanligidan o'z she'rlarini "xoshok singari qadri arzon" deb hisoblar edi. Husayn Boyqaro unga badiiy ijod mahsuloti shoirga farzand bo'lishi, hatto shoirninggina emas, elning ham farzandi sifatida qadr topishi haqidagi fikrlarni uqdiradi. Uning:

Ulus tab'ing sahobi yomg'uridin,
Bo'lub serob, bal nazming duridin

³⁶ Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 1-j. – Toshkent: "Farg", 1987. 13-6.

degan so'zlaridan badiiy ijod faqatgina xususiy ish emas, balki ijtimoiy ish ekanligiga imon keltiradi hamda zudlik bilan devon tartib berishga kirishadi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy devonlarining tuzilish jihatidan avvalgi devonchilikdan farqlari asosan uning "Badoe' ul-bidoya" devoniga yozgan debochasida bayon etiladi. U badiiy ijodda xalqqa foydali mazmunning muhimligi, badiiy shaklning ham go'zal ishlangan bo'lishi, g'azal yaratganda ko'proq mavzuning yakpora usulda yozilishiga e'tibor berish, har bir lirik nav' xususiyatiga ko'ra mazmun tanlash, sevgi-muhabbat mavzuidagi she'rlarda ham ma'rifatomez fikrlarni jo qilish, bu nav' she'riyatda behayo tavsifni yo'latmaslik kabi masalalar yoritilishiga e'tibor qaratadi. Bizningcha, Alisher Navoiyga devon tuzish masalasida Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy ibrat rolini o'ynagan bo'lishi mumkin. Bu hodisa Alisher Navoiyning Hofiz Sheroziy haqida umrining oxirlarida yaratgan bir asarida: "asrori g'aybiya va maoniyi haqiqiyaki, surat kisvatida va majoz libosida ado qilibdurlar", deb yozishi, Hofiz she'rlarining "alfoz latiflig'i, tarki pokizalig'i, ado salosati va latofati, ma'ni g'ariblig'i" xususida havas bilan so'zlashi va "hyech-devon Hofiz devonidan yaxshiroq emas", degan fikrga qo'shilishi fikrimizga dalil bo'la oladi.³⁷

2.

Alisher Navoiy o'zbek va tojik tillarida o'n olti she'riy janrda asarlar yaratdi. Uning «Xazoyin ul-maoniy» majmuasi va boshqa she'riy devonlarida g'azal birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun taniqli olim Maqsud Shayxzoda uni «G'azal mulkingning sultoni» deb ta'riflagan edi.

³⁷ Алишер Навоий. Асарлар. ХУ ҷилдик. ХУ-т. — Тошкент: Гафур Ғудом н-даги АСН нашриёти, 1970. 184-б.

Navoiyga qadar g'azal yaratish an'anasi qariyb besh asrlik tarixni qamrab oladi. Navoiy poetika sohasida o'zigacha bo'lgan an'analarni ijodiy davom ettirdi. U uch daryo - arab adabiyoti, fors-tojik adabiyoti, turkiy adabiyot - suvini ichib, o'z badiiy mahoratini kamolga yetkizdi.

Alisher Navoiy lirik mcrosi yetti turkiy va bir fors-tojik tilidagi devonda jamlangan. Uning manbalari quyidagilar:

1. «Ilk devon». Bu devonning ikki nusxasi mavjud, ular Sankt-Peterburgda Saltnakov-Shchedrin kutubxonasida saqlanadi. Devon Navoiy davrining mashhur xattoti Sultonali Mashhadiy tomonidan tuzilgan, deb taxmin qilinadi. Chunki, uning kotibi Sultonali Mashhadiydir. Devonning ikkinchi nusxasi 1568 yili Hirotda Mahmud kotib tomonidan ko'chirilgan.

Mazkur devon 870-hijriy, 1465-66-melodiy yillarda shoirning muxlislari tomonidan tuzilgan. Devonga juda zukko she'riyat muxlisi tartib bergan. Asar yetti rangdagi bezaklar bilan nihoyatda chiroyli bezatilgan. Devonning faksimil (foto) nusxasini birinchi marta professor Hamid Sulaymonov nashrga tayyorladi va uni «Ilk devon» deb nomladi.

Alisher Navoiy bu devon haqida o'zining birinchi rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya» debochasida shunday deydi: «Xaloyiq orasida ming bayt – ikki ming bayt ortuqroq – o'ksukrakkim, o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lib erdi».³⁸

«Ilk devon» uch ming baytga yaqin asardir. Unda to'rt she'riy nav'dagi asarlar mavjud. Bular: g'azal, mustazod, muxammas va ruboiy. Devonga 391 g'azal joylashtirilgan bo'lib, shulardan ikkitasi «Ul parivash muddaiga mehribondur, bizga yo'q» misrasi bilan boshlanuvchi g'azal 203, 228-o'rinlarda va «Yuzungni ko'rди, ko'zlarimni bog'la, ey qotil» misrasi bilan boshlanuvchi g'azal 237, 281-o'rinlarda ikki qaytadan berilgan. Shunga ko'ra, devondan Navoiyning 389 g'azali o'rin olgan, muxammas va mustazod – 1 tadan, ruboiy esa 41 ta. Devon:

³⁸ Алишер Навоий. МАТ. 20 ҷилдик. 1-ж. — Тошкент: "Фан", 1987. 24-б.

Iloho, podshoho,
kirdigoro,
Sanga ochug' nihonu oshkoro

matla'li hamd bilan boshlanadi. Bu g'azal devonni tuzgan yoki ko'chirgan kishi tomonidan birinchi – «ochuvchi» g'azal sifatida tanlab olingan. Keyinchalik, u Navoiyning tahriri bilan «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga joylashtirilgan. Devon ruboiy janridagi asarlar bilan tugaydi. Oxirgi ruboiy ushbu:

Oxir dami umr ista shitob, ey soqiy,
Tutg'il manga oncha mayi nob, ey soqiy,
Kim hashrda mast o'layu, xarob, ey soqiy,
To anglamay, etsalar azob, ey soqiy.

Ushbu devon Alisher Navoiyning 24-25 yoshlariga qadar yozgan lirik merosini qamrab oladi. Devonning oqquyunli turkmanlar mujallad qilgan nusxasi haqida navoiyshunos olim A.Erkinov ma'lumot beradi.³⁹ Mazkur devon 1378-1508 yillarda Ozarbayjon va G'arbiy Eron hududida hukmronlik qilgan o'g'uz turklari bo'lmish Oqquyunlilar sulolasi muxlislari tomonidan tuzilgan va fanda "Oqquyunli muxlislar devoni" nomi bilan yuritilmoqda.⁴⁰

II. «**Badoe' ul-bidoya**». («Go'zallikning boshlanishi»). «Badoe' ul-bidoya» devonining tuzilgan davri haqida taniqli adabiyotshunos olimlar Hodi Zaripov, Hamid Sulaymonov, Maqsud Shayxzoda, Natan Mallacvlar fikr bildirib, umumiy tarzda 1469 yildan 1470 yilning o'rtalarigacha bo'lgan davrni belgilaydilar. Professor A.

³⁹ Erkinov A. Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan yana bir devon. // UTA, 2012, 1-son, 28-34-6.

⁴⁰ Bu haqda yana qarang: Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва милодий уйғонинг адабиёти (Алишер Навоий davri). – Toshkent: "TAMADDUN", 2016. 34-35-6;

Abdug'afurov esa bu devon 1478-79 yillarda tuzilgan ekanligini ta'kidlaydi.⁴¹

Devonning XV asrda kitobat qilingan nusxalari jahonning turli kitob ma'xazlarida saqlanadi. Uning 1481-1482 yillarda ko'chirilgan bir nusxasi Londonda, 1484 yilda yozilgan bir nusxasi Bokuda, 1486 yilga taalluqli bir nusxasi Toshkentda, XVI va XX asrlarga tegishli ikki nusxasi Samarqandda saqlanmoqda.

Devon haqida birinchi ma'lumotni Hamid Sulaymonov «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga yozgan so'zboshisida keltiradi. Uni birinchi bo'lib nashrga tayyorlagan olim esa Sharofiddin Sharipov edi. Alisher Navoiyning 20 tomlik MATi nashr etilishi munosabati bilan filologiya fanlari nomzodi Maryamxon Rahmatullaeva devonning ikkinchi, ancha mukammal nusxasini nashrga tayyorladi.²

Alisher Navoiy 1469 yilda Xuroson poytaxtini egallagan do'sti Sulton Husayn Boyqaro taklifi bilan Hirotga qaytgach, podshoh hokimiyatini mustahkamlash uchun ko'p vaqt va katta kuch sarfladi. Ammo, tabiatidagi o'ta kamtarlik va oriyatchanlik bois o'z she'rlarini devon sifatida tartibga keltirmadi. Bunga Sulton Husayn Boyqaroning befarq qarab turmaganligi, do'stiga devon tuzish uchun farmon berganligi haqida "Badoe' ul-bidoya" devoni debochasida shunday satrlar keltiriladi:

Nido yetkurdi nogah munshiyi roz,
Ki: - «Ey afsungaru afsonapardoz...
So'zung bir avj uza chekti alamni,
Ki surdung arsh lavhig'a qalamni...
Valekin bu qadar bikri parison,
Banot un-na'shdek bo'lmish parishon.
Tilarbiz bu parishon bo'lsa majmu',
Ravon bo'lkim, emastur uzr masmu'.

⁴¹ Bu haqda qarang: А. Абдуғафуров. «Бадоеъ ул-бидоя»нинг тuzилиши санаси.// UTA, 1991, 4-сон, 3-9-бетлар. ² Қаранг: Аллппер Навоий. МАТ. 20 томлик, 1-том. Т.: Фан. 1987.

Bu nav' istaydur emdi royi oliy,
Ki qilg'ay fikrating devon xayoli...
Chu bilding hukm, bor, ishtin ruju' et,
Ravon maqsud sori – o'q furu' et.
Murattab qilmag'uncha, tinma bir dam,
So'z o'ldi muxtasar, v-Allohu a'lam.⁴²

«Badou' ul-bidoya» ning ungacha yozilgan devonlardan ajralib turuvchi xususiyatlarini shoir o'zining shu devonga yozgan debochasida ko'rsatib o'tadi. Bunday tub farqlar debochada ko'rsatilishicha, beshtadir. «Necha nav' ishkim, munda mar'iy bo'lubturur, o'zga davovinda ko'rinmaydurur», - deb yozadi shoir. Bular quyidagilar:

- Alisher Navoiy o'zigacha yaratilgan devonlarning qusuri sifatida devon tartib beruvchilar forsiy va turkiyzabon shoirlar yozuvida mavjud bo'lgan 4 harfga e'tibor qilmasliklarini ta'kidlaydi va u devonini 32 harf bilan tugagan she'rlardan iborat qilib tartib beradi;

- Navoiy devonining yana bir xususiyati unda har bir haftadagi she'rlarning boshida hamd yoxud na't shaklidagi she'rlar kiritilishidir. Navoiyning e'tiroficha, har bir harfga bitilgan g'azaliyotning avvalgi harflarga bitilgan g'azallar bilan uslub jihatidan tafovutlari mavjud bo'lib, unga rioya qilmaslik sohibi devonlarning nuqsonidir;

- Shoir o'z devonining xususiyati sifatida ko'rsatgan yana bir belgisi – har bir haftadagi turkum she'rlarning g'oyaviy va badiiy ta'sir quvvatiga alohida e'tibor qaratganligida ko'zga tashlanadi. Navoiyning fikricha, muhabbat mavzuida yozilgan she'rlarda ham «nasihatoro va ma'vizatoso» baytlar kiritilishi lozim;

- «Badoe' ul-bidoya» ni o'zga devonlardan ajratib turuvchi yana bir xususiyati shundan iboratki, g'azal yozgan ayrim

shoirlar she'rlarining tadrijiylik, yakporalik jihatiga e'tibor qilmaydilar. Navoiy devonida she'rlarning yakpora bo'lishiga e'tibor beriladi;

- nihoyat, «Badoe' ul-bidoya»ning beshinchi xususiyati - unda shoirning o'z zamonida shoe' bo'lgan barcha nav' (janr)dagi she'rlarini devon tarkibiga kiritishidir.

Devonga faqat masnaviy va qasida janrida yozilgan asarlar kiritilmagan. Shunday qilib, devondan 777 g'azal, 3 ta musta'zod, 5 ta muxammas, 2 ta musaddas, 3 ta tarjeband, 46 ta qit'a, 85 ta ruboiy, 10 ta lug'az, 52 ta muammo, 10 ta tuyuq, 53 ta fard o'rin olgan. Bu jihatdan «Badoe' ul-bidoya» janrlar nuqtai nazaridan Navoiygacha tuzilgan va Navoiy davrida tartib berilgan devonlar ichida eng mukammal devon hisoblanishga loyiq.⁴³

III. «Navodir un-nihoya» («Nihoyatda ko'p nodirliklar»).

«Badoe' ul-bidoya» devonidan keyin oradan 6-7 yillar o'tgach, Navoiy ikkinchi devoni – «Navodir un-nihoya» ga tartib beradi. Bu devonning 1487 yili Hirotda mashhur xattot Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan nusxasida esa 860 g'azal bor. Bu devonlar Hamid Sulaymonov tomonidan Parij Milliy kutubxonasi Britaniya muzeyidagi qo'lyozmalar asosida fanga ma'lum etilgan edi. Keyinchalik bu devonlarning Toshkent nusxalari ham aniqlandi. «Navodir un-nihoya» devonining yagona nodir qo'lyozmasi haqida 1968 yilda Porso Shamsiev «Navoiy asarlarining yangi topilgan qo'lyozmalari» nomli maqolasida ma'lumot beradi.

O'zbek adabiyotshunoslari tadqiqotlarida «Navodir un-nihoya» devoni «... 1486 yilda tuzilgan deb taxmin qilinadi».⁴⁴ A. Abdug'afurov Husayn Boyqaroning «Risoi Husayn Boyqaro» asari 1485 yilda yozilganligini tasdiqlovchi xulosalarida bu asarda Navoiyning faqat bitta devoni – «Badoe' ul-bidoya» haqida fikr bildirilganligini ta'kidlaydi. «Navodir un-nihoya» ning esa 1487

⁴² Аlisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 1-j. – Toshkent: "Fan", 1987. 19-b.

⁴³ Бу ҳақда тулароқ маълумот олиш учун қаранг: Д. Салоҳий. «Бадоеъ ул-бидоеъ» маълумоти. Т.: Фан. 2004. 134 б.

⁴⁴ Абдуғафуров А. Эрк ва эгулик куйчилари. Ташкент, 1979 й. 62-б.

yilda ko'chirilgan nusxasi ma'lum. Demak, 1486 yilda «Badoe' ul-bidoya» devonining navbatdagi nusxasi ko'chirilishi davrida Navoiy «Navodir un-nihoya» devonini tuzish bilan band bo'lgan yoki uni tuzish ishini yakunlagan.

B. Valixo'jaev devonning Tehrondagi Guliston qasrida saqlanayotgan noto'liq nusxasi haqida ma'lumot beradi. Bu devon nusxasida Alisher Navoiyning o'z dastxati va muhrining aksi bor.⁴⁵ XX asr 80-yillari oxirida adabiyotshunos olim S.G'anieva ushbu devonning Alisher Navoiy muhri bosilgan nusxasi faksimilesini Eron Islom Respublikasi kitob markazidan olib keldi va 1991 yilda «Navoiy dastxati» nomi bilan nashr ettirdi.

«Navodir un-nihoya» devoniga «Ilk devon» tarkibidagi she'rlardan 91, «Badoe' ul-bidoya» devonidan 117 g'azal kiritilgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, «Navodir un-nihoya» ning ilmiy-tanqidiy nashridan (MAT, 20 tomlik, II tom) 862 g'azal o'rin olgan, deb ko'rsatilgan. Aslida devonning bu nashri 860 g'azaldan tashkil topgan. «Yuz o'tida yuz qatra su ne tong xo'yi g'altonidin» va «Necha davron ahlining bedodidin shiddat chekay» misralari bilan boshlanuvchi g'azallar ikki qaytadan – birinchi g'azal 563 va 635 o'rinlarda, ikkinchi g'azal esa 760 va 838 o'rinlarda takror keltiriladi.

Alisher Navoiyning o'zining ma'lumotiga ko'ra, u bu devoniga ham debocha yozgan. Ammo, bu debocha «Navodir un-nihoya» ning bizga ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarida yo'q. Devonning janr tarkibi yakrang, ya'ni faqat g'azallardan tashkil topganligini nazarda tutsak, shoir bu devonga yozgan debochasida g'azal haqida o'zining nazariy va badiiy-estetik qarashlarini chuqurroq rivojlantirgan, degan fikrga kelish mumkin. «Navodir un-nihoya» devonidan joy olgan 860 g'azaldan 851 g'azal keyinchalik shoirning «Xazoyin ul-maoniy» devonlari tarkibiga kiritilgan.

⁴⁵ Маълумот учун қаралсин. Валихўжаев Б. Аlisher Navoiy шеърлри. Қўлланма. Самарқанд: 2001.

IV. «Xazoyin ul-maoniy». (Ma'nolar xazinası). Alisher Navoiy o'zining «Xazoyin ul-maoniy» devonlar kulliyotiga debocha yozar ekan, bu kulliyotning ham yuzaga kelishida barcha imkoniyatlarni Husayn Boyqaro yaratganligini, shunday devon tuzishga yana buyruq bilan muallifni majbur etganligini alohida uqtirgan. Bu bilan buyuk shoir xalq orasida «Chor devon» deb shuhrat qozongan «Xazoyin ul-maoniy» ning yuzaga kelishida Sulton Husayn Boyqaroning beqiyos madadini yuksak baholaydi va o'z devonlar kulliyotini ana shu maqsad evaziga «Xazoyin ul-maoniy» deb ataganligini faxr bilan tilga oladi:

Bu bahrki, ganji lomakoni dedilar,
Har qatrasin obi zindagoniy dedilar,
Shah maxzani tab'idin nishoni dedilar,
Kim, ani «Xazoyin ul-maoniy» dedilar.

Alisher Navoiyning bu qiyin, ammo saodatbaxsh yumushga sa'y ko'rsatgan davri 1490 yillar edi.⁴⁶

A. Abdug'afurov «Xazoyin ul-maoniy» devonlarining tuzilishi davriga oid tadqiqotlarida bu devonlarning Navoiy tomonidan uch qayta tahrir etilganligi va ularning oxirgi redaksiyasi 1498 yilga tegishli ekanligi xususida fikr yuritadi. Olimning xulosalariga ko'ra, Navoiy bu devonlarini yangi yozilgan she'rlar bilan muntazam to'ldirib borgan. Devonlarning ikkinchi redaksiyasi 1498 yilda tahrir etib yakunlanadi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlarining H. Sulaymonov tomonidan tiklangan avtor redaksiyasi 1959-1960 yillarda O'zbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyotida chop etildi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlaridan 3132 asar o'rin olgan. Bular 2600 g'azal, 133 ruboiy, 10 muxammas, 4 musta'zod, 5 musaddas, 4

⁴⁶ Абдугафуров А. «Хазойин ул-маоний» девонларининг тартиб берилган даври ҳақида. //ЎТА, 1995. №3,4; Абдугафуров А. Шеърлри саройи. //ЎЗАС, 1998. 6-феврал, 1-3 бетлар.

tarje'band, 210 qit'a, 10 lug'az, 52 muammo, 13 tuyuq, 86 fard, 1 masnaviy, 1 qasida, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 soqiynoma bo'lib, 16 she'riy janrdagi asarlardir. Devonlardagi baytlarning umumiy soni 22450,5 tadir.

Kulliyot to'rt devondan iborat:

- «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik davrining qiziqarli hodisalari»);
- «Navodir ush-shabob» («Yigitlikning nodirliklari»);
- «Badoe' ul-vasat» («O'rta yoshlik go'zalliklari»);
- «Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydalar»).

Bu asar ham shoir tomonidan debocha bilan ziynatlangan. Debochada adabiyotshunoslikning nazariy masalalari xususida so'z yuritiladi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlariga shoirning avvalgi devonlaridan qanchadan g'azal kiritilgan va kiritilmay qolganligi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

Devonlar	G'azallarning umumiy soni	«XAZOYIN UL-MAONIY» devonlariga	
		Kiritilgan	Kiritilmagan
Ilk devon	389	263	126
Badoe' ul-bidoya	777	735	42
Navodir un-nihoya	860	851	9

Kuzatishlardan shu narsa aniqlandiki, Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy» devonlari uchun 1014 ta yangi g'azal ixtiro qilgan. Shoir «Badoe' ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devonlaridan «Xazoyin ul-maoniy» tarkibiga ko'chirgan 1586 g'azaldan 252 tasini turli mazmun va shaklda tahrirdan o'tkazgan. 1334 g'azal esa «Xazoyin ul-maoniy» ga o'zgartirishsiz kiritilgan.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlari tartib berilgandan so'ng shoirning 1498-1500 yillar orasida yozgan g'azal va boshqa

na'vlardagi she'rlari to'liq holda hozircha fanga noma'lum. Ammo, bu she'riyat durdonalarini qidirish ishlari davom etmoqda.⁴⁷

3.

«Devoni Foni». Bu devonga 1499-1500 (m) yildan oldin, taxminan 90-yillarning ikkinchi yarmida tartib berilgan. Devondagi she'rlarda Foni taxallusi qo'llanilganligi bois «Devoni Foni» deb yuritilgan.

«Devoni Foni» ning Parij (2 ta), Turkiya (2 ta), Hirot (2 ta) va Eron (1 ta) kutubxonalarida saqlanayotgan yetti nodir qo'lyozma nusxalari mavjud. Bulardan Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan ikki nusxa H. Sulaymonov e'tirofiga ko'ra, ancha mukammaldir.

Devon debocha bilan boshlanadi va 9 ta she'riy nav'da yozilgan asarlardan iborat. Bular quyidagilar: qasida – 10 ta, g'azal – 554 ta, musaddas – 1 ta, marsiya – 1 ta, qit'a – 72 ta, ruboiy – 73 ta, tarix – 16 ta, muammo – 373 ta, lug'az – 9 ta. Devondan jami 1109 asar o'rin olgan bo'lib, ular 6197 baytni tashkil etadi.

«Devoni Foni» g'azaliyoti o'zbek va tojik adabiyotshunoslaridan H. Sulaymonov, A. Mirzoev, R. Hodizoda, Sh. Shomammedov, B. Valixo'jaev, A. Shomammedov, Yo. Is'hoqov tomonidan g'oyaviy mazmun va badiiyat nuqtai nazaridan o'rganilgan. Devon tarkibidagi g'azallar shoirning turkiy tildagi she'rlaridan ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, ularni ikki guruhga ajratish mumkin; birinchisi – tatabbu' deb nomlangan g'azallar Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa shoirlar g'azallariga javobiya tarzida yozilgan she'rlardir. «Muxtara» esa «mening ixtirom» degan

⁴⁷ Ф. Сулаймонова. Алишер Навоийнинг янги топилган ва «Хазойин ул-маоний» таркибига киритилмаган 40 ғазалини «Айёми писол ўлди яна...» (Т. 1998) номи тўпламда эълон қилди; М. Салоҳиддинова Султон Маъсуд Мирзо Шохий мухаммаслари таркибидан шoirнинг яна бир янги ғазалини фанга маълум қилди (ном.дисс. Самарқанд, 2004).

ma'noni bildiradi. Navoiy bu turdagi g'azallarni yangi, o'ziga xos uslubda yaratganligi uchun shunday deb ataydi.

Devonda «Dar bayoni voqye» deb nomlangan g'azallar guruhi uchraydi. Bu g'azallar mazmuniga ko'ra voqyeaband she'rlar bo'lib, shoir ularda o'z boshidan kechirgan ba'zi voqyea-hodisalarni hikoya qiladi.

Devondan ikki turkum qasidalar o'rin olgan. Birinchi turkum olti qasidadan iborat bo'lib, «Sittai zaruriya» («Olti zarurat») deb nomlanadi. Shoir asarga alohida debocha yozib, unda asarning tuzilish sababi, yili, qasidalarining joylashtirilish tartibi va har birining mavzusi haqida aniq ma'lumot beradi. Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida bu mavzuda shunday yozadi: «Bu olti qasida hamd va na't va sano va ma'vizatdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma'rifat». Bu qasidalar quyidagilar: 1) «Ruhul-quds»; 2) «Aynul-hayot»; 3) «Tuhfat ul-asfor»; 4) «Quvvat ul-qulub»; 5) «Minhoj un-najot»; 6) «Nasim ul-xuld».

Qasidalarining ikkinchi turkumi «Fusuli arbaa» («To'rt fasl») deb ataladi va o'n qasidani o'z ichiga oladi. Shu o'rinda Navoiy Xoja Salmon qasidasiga javoban yana bir qasida boshlaganligi haqida ma'lumot beradi. Ammo, bu qasida hozirgacha fanga noma'lum.

Alisher Navoiyning forsiy devonidan o'rin olgan boshqa lirik nav' va turdagi she'riyat namunalari ham nihoyatda go'zal ma'nolar va badiiy bezaklarga boy bo'lib, Sharq badiiy tafakkurining betakror namunasi sifatida e'zozlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Alisher Navoiy lirikasining umumiy hajmi va janrlari haqida ma'lumot bering.
2. «Badoe' ul-bidoya» devonida shoir adabiyotshunoslikka doir qanday nazariy masalalarni muhokama etgan?

3. «Xazoyin ul-maoniy» devonlari nashri, devonlar kompozitsiyasi, ularga kirgan asarlar janrlari, mavzulari va g'oyaviy asoslari haqida ma'lumot bering.

4. Alisher Navoiyning har bir devoniga nechta janrdagi lirik asarlar kiritilgan?

5. Ulug' shoir devonlariga kirgan g'azallarni qanday tartibda joylashtirgan?

6. «Ilk devon» qo'lyozmalari va nashr nusxalari haqida nimalarni bilasiz?

7. «Badoe' ul-bidoya» devonining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlangan Toshkent qo'lyozma nusxasi haqida ma'lumot bering.

8. Navoiy devonlarining dunyo kitob xazinalarida saqlanayotgan qo'lyozmalari haqida nimalarni bilasiz?

9. «Devoni Foni» ning tuzilish davri, qo'lyozma nusxalari va tadqiqotchilari haqida ma'lumot bering.

10. «Devoni Foni» tarkibi, mazmun-mundarijasi, asarlar janrlari haqida gapirib bering.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT. XX tomlik. 1-6 tomlar. - Toshkent: FAN - 1987-1990. T. 1. - 1987-724 b; T. 2. - 1987-620 b; T. 3. - 1988-614 b; T. 4. - 1989-558 b; T. 5. - 1990-542 b; T. 6. - 1990-366 b.
2. Alisher Navoiy. Ilk devon. Faksimil nashr.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV tomlik. - Toshkent: O'z FA - 1983-1984-1985. T. 1. - 1983-656 b; T. 2. - 1983-642 b; T. 3. - 1984-622 b; T. 4. - 1985-646 b.
4. Abdug'afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboqlari. (Birinchi maqola) // O'zbek tili va adabiyoti. - 1994. - № 4-5-6. - B.9-16.
5. A. Abdug'afurov. «Xazoyin ul-maoniy» jumboqlari. (Ikkinchi maqola) // O'zbek tili va adabiyoti. - 1995. - № 1. - B.10-18.
6. Abdug'afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboqlari // O'zbek tili va adabiyoti. - 2000. - № 5. - B.3-11.

7. Abdug'afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboqlari //O'zbek tili va adabiyoti. - 1998, №6. - B.3-10.

8. Valixojayev B. Alisher Navoiy she'riyati. Samarqand: SamDU, 2002.

9. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. - Buxoro: Buxoro, 1994. - 176 b.

10. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972 -56 b.

11. Muhiddinov M. Komil inson - adabiyot ideali. Toshkent: «Ma'naviyat», 2005.

12. Salohiy D. «Badoe' ul-bidoya» malohati. Toshkent: Fan, 2003.

13. Sulaymonova F. Ayyomi visol o'ldi yana... - Toshkent: Fan, 1997.

14. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). - Toshkent: "TAMADDUN", 2016.

15. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. - 240 b.

NAVOIY SHE'RIYATIDA BADIY MAHORAT MASALALARI

Dars rejasi:

1. Alisher Navoiy she'riyatida adabiy-estetik tamoyillar va uslub xususiyatlari.
2. Poetik matnda shakl va mazmun masalasiga doir.
3. Navoiy she'riyatining vazn xususiyatlari.

Tayanch iboralar: *muammolar, vazn masalalari, badiiy san'atkorlik, ijtimoiy lirika, shakl, mazmun, yevropa, germeneytika, talqin, tahrir.*

1.

Alisher Navoiy lirikasi xususiyatlarini tekshirish sohasi keyingi yillarda qator ilmiy tadqiqotlar bilan boyidi. Ammo, bu mavzu hana navoiyshunoslikning juda ko'p yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Bunday izlanishlar jarayoni Navoiy poetik uslubining haqiqiy qiyofasini, uning butun boyligi, go'zalligi, mazmunligini kashf etish imkoniyati bo'lib xizmat qiladi.

Navoiyning she'riy uslubini aniq tasavvur etish uchun bir qator ilmiy masalalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bu - shoiming aruz texnikasi sohasidagi mahorati, uning badiiy san'atkorlik sohasida qo'llagan yangi tasvir usullari va kashfiyotlari, she'r kompozitsiyasi sohasidagi yangicha qarashlar, lirikaning ijtimoiy vazifasi haqidagi o'ziga xos mulohazalar va sh.k. masalalardan iborat. Shu masalalarga qisqicha to'xtalsak.

1. Sharq mumtoz adabiyoti tarixida aruz vaznlaridan eng mukammal foydalangan shoirlardan biri Alisher Navoiydir. U o'z badiiy ijodi misolida o'rta asrlarda arab va fors-tojik adabiyotlarida ancha mukammal ishlangan va go'zal lirik she'rlar, devonlar shaklida ommalashgan aruz vazniga asoslangan she'riy san'atni turkiy til imkoniyatlari vositasida badiiylikning eng baland maqomiga ko'tardi va bu bilan aruz fanining yana bir til doirasidagi nazariy va amaliy taraqqiyotiga asos soldi. U o'zining aruz nazariyasiga bag'ishlangan «Mezon ul-avzon» asarida bu ilm sohasidagi ma'lumotlarni yig'ib, tartibga solib, tushuntirib berish bilangina chegaralanib qolmadi. Uning bu risolani

yozishdan maqsadi aruz fanidagi muammolarni ommalashtirish, ularni arab va fors-tojik adabiyotlari maydoniga olib kirishgina emas, «balki aruz problemalarining birmuncha yangi talqinini berish va aruzni boyitish»⁴⁸ dan iborat edi.

Arab alifbosining turkiy til ehtiyojlariga to'liq javob bera olmasligi va bu til imkoniyatlarini ancha chegaralab qo'yishi, aruzda bitilgan nazmiy asarlarda biror harfning notabi'iy cho'zilishi bilan bog'liq nuqsonlar yuz berishi xususida Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrida muhtasar ma'lumot bergan edi. Ma'lumki, vazn she'riy misralarda ko'p noaniqliklarni ravshanlashtiradi. So'z tarkibi, talaffuzi, shakl va bo'g'inlari, majoziy ma'no, ko'p ohanglilik kabi unsurlar vazn talablaridan kelib chiqadi. Agar matnda ba'zi anglashilmovchiliklar ko'zga tashlansa, uni vazn talablari nuqtai nazaridan tekshirib aniqlik kiritish mumkin.

Navoiy lirikasi, epik va nasriy asarlari vaznlari xususida bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilgan bo'lsa-da, ular Navoiyning aruz fanida naqadar mukammal ijod etganligini ta'kidlagan, isbot etgan holda, uning turkiy aruz taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlash uchun yetarli manba' bo'la olmaydi. Bu hol Navoiy ijodiy jarayoni xususiyatlarini ham jiddiy va har tomonlama o'rganishni taqozo etadi. Navoiy asarlari matnlarini vaznlar sohasida qiyoslab o'rganish natijalari esa shoir g'azallari matnlarining mukammalroq, asliyatga yaqinini topish, ilmiy-tanqidiy matn yaratish sohasidagi izlanishlarga muhim yangilik bo'lib qo'shiladi.

Turkiy tili xalqlar ijodiyotida aruz juda uzoq tarixga ega bo'lsa-da, uni adabiyotshunoslik fani talablari nuqtai nazaridan nazariy jihatdan o'rgangan va ommalashtirgan shaxs Navoiy edi. Aruzning amaliy taraqqiyotini ta'minlashda shoimning «Xazoyin ul-ma'oni» devonlarini tuzish davridagi ijodiy mehnati boshqa juda ko'p omillar qatorida o'ziga xos bir bosqich bo'ldi.

Alisher Navoiyning aruz sohasida erishgan yutuqlari va uning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati belgilanar ekan, eng avvalo XIV-XVI asrlarda yashagan barcha fors-tojik va turkiy shoirlar asarlarining poetik matn variantlari qiyosiy tekshirilishi, ikkinchidan, arab, fors-tojik va turkiy

adabiyotlarda mavjud bo'lgan barcha asarlarning vazn tahrirlari sohasi qiyosiy o'rganilishi, uchinchidan, kelib chiqishi turkiy bo'lib, fors-tojik tilida ijod qilgan shoirlarning ham she'riy uslublari o'rganilishi lozimdir. Bu o'z navbatida Navoiy ijodi badiiy yetukligiga asos bo'lgan muhim unsurlarning ochilishi uchun imkon yaratadi.

2. Navoiy o'zining har bir asarida adabiyotga biror yangilik berishni maqsad qilib qo'yadi. Klassik she'riyatning eng ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'ladigan badiiy san'atlar sohasida shoir g'azallari variantlarini o'rganish ham turkiy she'riyatning ba'zi nazariy masalalarini ilmiy idrok etishga, shubhasiz, xizmat qiladi.

Birinchidan, Alisher Navoiy o'z lirikasida badiiy san'at vositalaridan mukammal darajada foydalanar ekan, o'sha davr turkiy she'riyatida avvaldan ma'lum bo'lgan va mustahkam qonuniyatga asoslangan san'atlarning shoir g'oyaviy maqsadini yanada aniqroq aks ettirib faoliyat ko'rsata olishi mumkinligini isbotlab berdi.

Ikkinchidan, Navoiy badiiy adabiyotning vazifasi jamiyatga badiiy shaklda xizmat qilishdan iborat ekanligini, mukammal yaratilgan insonning fikri va so'zi ham go'zal, mukammal, yoqimli bo'lishi lozimligini o'z she'riyati misolida tasdiqlaydi. Bu bilan Navoiy o'rta asr sharq adabiy merosi butun insoniyat kelajagiga daxldor olamshumul ahamiyatga ega bo'lib, uning shaklbozlikdangina iborat emas ekanligini qayta-qayta uqdiradi. Agar lirikaning katta ijtimoiy vazifasi shubhasiz ravshan bo'lmaganda edi, Navoiy o'z she'rlaridagi har bir bayt yoxud so'z mavqeyi masalasiga jiddiy e'tibor bermagan bo'lar edi.

Uchinchidan, shoir turkiy til xususiyatlari, stilistikasi qonuniyatlari, og'zaki badiiy yodgorliklarning yozma adabiyotga, xususan, lirikaga ta'siri masalasi, umuman, XU asr ijodiy poetik uslubi va bu uslub negizini tashkil etuvchi xalqchilik tamoyilini mukammal darajaga yetkazishga muvaffaq bo'ldi. Shoir yangi turkiy so'zlar, iboralar, maqollarni o'z nazmiga kiritdi, ularga sayqal berdi. Demak, turkiy tilning hazrat Navoiy ijodi orqali boyishi va yangilanishi, kamolat cho'qqisiga ko'tarilishida uning o'ziga xos estetik zakovatining ham ma'lum darajada o'z o'imi va hissasi bor ekan.

⁴⁸ Абдулғафуров А. Намойи сатираси. 1-китоб. — Тошкент, Фан, 1966. 267-бет.

To'rtinchidan, «Majolis un-nafois» tazkirasidan ma'lumki, Navoiy o'zidan ilgari o'tgan va zamondosh bo'lgan shoirlar ijodini ziyaraklik bilan kuzatgan, badiiy jihatdan tahlil etgan, ba'zilariga o'z mulohazalarini bildirgan. Navoiy tahlillari chuqur nazariy asosda puxta ishlangan ilmiy tahlillar bo'lib, o'rta asr sxolastikasidan ancha yiroqdir. Navoiy o'z asarlariga ham tanqidiy nuqtai nazardan yondashadi, tahlil etadi, qayta ishlaydi. Demak, Alisher Navoiy bugungi rivojlangan adabiyotshunosligimizdagi analitik uslubning ham boshlovchisi, asoschisi bo'lib qoladi.

Beshinchidan, Navoiy davrida badiiy san'at vositalari haqidagi ilmlarni o'rganib, umumlashtirib va tasnif etib beruvchi ikki asarning⁴⁹ paydo bo'lishi o'sha davrda adabiyotshunoslikning bu sohasiga nisbatan bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Navoiyning o'z she'rlarida badiiy san'atlar takomiliga e'tibor berishi unga zamondosh bo'lgan va undan keyin ijod etgan turkiy tili shoirlarni ham ijodiy izlanishlarga rag'batlantirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy, Ogahiy, Avaz O'tar, Furqat kabi shoirlar ijodi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Alisher Navoiy g'azallari matnlarining badiiy san'at vositalari nuqtai nazaridan tahlili va talqini uning nihoyatda keng dunyoqarashi va zakovati, she'rshunoslik sohasidagi chuqur bilini va o'z davri uchun taraqqiyparvar bo'lgan g'oyaviy-estetik mavqeyidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy badiiy asar kompozitsiyasini ishlashda jahon adabiyoti miqyosida tengi yo'q so'z san'atkorlaridan biri hisoblanadi.⁵⁰ U o'zining birinchi rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya»ga yozgan debochasida g'azal poetikasi va kompozitsiyasi masalalariga to'xtaladi va bir qator tanqidiy mulohazalar bayon etadi.

U she'rning g'oyaviy va badiiy ta'sir kuchiga alohida e'tibor bergani holda, g'azalning g'oyaviy-estetik asoslarini tashkil etuvchi qat'iy adabiy qonuniyatlarni yuzaga keltiradi, deb hisoblaydi. Shu maqsadda shoir sharq devonchiligi sohasida to'plangan an'ana va

⁴⁹ Хусайн Вонз Кошифийнинг «Бадоеъ ал-нафис» ва «Мажлис-ул-нафис» асарлари.

⁵⁰ Бертельс Е.Э. Избранные труды. «Наваи и Джамо». — М., Наука, 1965, С.164.

tajribalarni umumlashtirib, ularni tamoman yangi shakl va mazmunda rivojlantirib dunyoga keltirgan devoni «Badoe' ul-bidoya»ga «Debocha» yozadi. Bu debochada Navoiy badiiy ijodda xalqqa foydali mazmunning muhimligi, badiiy shaklning ham go'zal ishlangan bo'lishi, g'azal yaratganda ko'proq mavzuning yakpora usulda yozilishiga e'tibor berish, har bir lirik janr xususiyatiga ko'ra mazmun tanlash, muhabbat haqidagi she'rlarda ham ma'rifatli fikrlarni joylashtirish, bu nav' she'riyatda behayo tavsifni yo'latmaslik masalalari xususida fikr bildiradi.

Navoiy ijodiy prinsipining muhim ko'rinishlaridan biri sifatida uning o'z devonlarini «Debocha»lar bilan ta'minlaganligi hodisasini qayd etish lozim. Bu mavzu o'zbek adabiyotshunosligida V.Zohidov,⁵¹ M.Solihova⁵² maqolalarida, F.Karimova⁵³ nomli muallifning nomzodlik dissertatsiyasida maxsus o'rganilgan. Shoir o'zi tartib bergan «Badoe' ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlari, «Xazoyin ul-maoniyy» devonlar kulliyotiga maxsus debochalar yozadi. «Navodir un-nihoya» devoniga yozilgan debocha hali noma'lum bo'lib, bizgacha yetib kelgan ikki debocha mazmunidan anglashilishicha, Navoiyni kompozitsiya borasida nafaqat alohida olingan lirik janr doirasidagi, balki, umuman badiiy ijoddagi an'anaviy yakranglik qanoatlantirmay, u bu sohada ham yangilikka, mukammallikka intiladi. Shu jihatdan mazkur «Debocha»lar, shoir devonlari mundarijasi haqida qisqacha ma'lumot beruvchi «muqaddimalargina» bo'lib qolmay, Navoiyning poetika sohasidagi chuqur ilmiy kashfiyotlarini, she'rshunoslikning nazariy masalalari tahlili va taraqqiyotini, qolaversa, yangi adabiy kanonlar majmuasini o'zida aks ettiruvchi ilmiy asarlar hamdir. Bundan ko'rinadiki, Navoiy fehrast yoki debocha kabi bir qarashda katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lmagandek tuyulgan, alohida adabiy janr sifatida e'tirof etilmagan, biroq, devon muallifining adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari xususidagi fikrlarini bayon etishi uchun qulay imkoniyat yaratuvchi ushbu miniatyur

⁵¹ Зоҳидов В. Дебочанинг сирри. Тошкент, 1975; Жаҳон бадияти шарвараклари. Тошкент, 1980.

⁵² Солихова М. Навоий debochalarida jonr biografiasiga doir ma'lumotlar. // Adabiy meros. 1-t. To'plam, 1968.

⁵³ Каримова Ф. Ўзбек адабиётда debocha. (НДА). Тошкент, 1993.

ilmiy asarlar kompozitsiyasiga ham o'ziga xos yangiliklar kiritadi, ularning ilmiy funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu debochalarda va sharq klassik nazmiyotida Alisher Navoiy ko'rsatib bergan asosiy adabiy-estetik prinsiplar haqidagi fikrlar mavjud edi. Shu boisdan ham Navoiy «Xazoyin ul-ma'oni» devonlar kulliyotiga yozgan debochasida «agar mening devonlarimni ko'chirar ekanlar, bu devonlarning yuzaga kelishidan iborat debochamni ham albatta qo'shib ko'chirsinlar», deb uqdiradi.

Navoiyning kompozitsiya masalasida g'azalga nisbatan bo'lgan qator talablari, ya'ni, g'azalning aniq bir mavzusi bo'lishi lozimligi, shoir g'oya-maqsadining shu mavzu orqali ifodalanishi, lirik qahramon kechinmalarining konkret sharoit bilan bog'lanishi, baytlarning mazmunan izchil rivoji, matla' va maqta'ning ham mavzu va mazmun yuzasidan mantiqan o'rinni, g'azal g'oyasi bilan uyg'un bo'lishi kabi masalalar uning o'zi tomonidan nazariy jihatdan ishlanib, qat'iy adabiy kanon darajasiga yetgan edi.

3. Navoiy devonlarida yetuk sharqona falsafiy tafakkurning yuksak badiiy ifodasi bo'lmish hamdlar keng o'rin egallaydi. Ma'lumki, daho so'z san'atkorining umumbashariy ijodi har qanday milliy (tor ma'noda: millat ma'nosida), irqiy, diniy, mafkuraviy hududlarni yorib chiqadi va faqat insonni ulug'laydi, uning kamoloti uchun xizmat qiladi. Navoiy ijodining olamshumul ahamiyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ham uning islom ma'naviy xazinasidan, tasavvuf ilmidan bahramandligi, ilg'or fikrli sufiylar oqimiga mansubligi edi.

Alisher Navoiyning dunyoqarashiga ko'ra, adabiy tafakkur insonning katta jismoniy, ruhiy mehnatlarning zalmatini chekib, o'zini har tomonlama poklab erishadigan bashariy boyligidir. Navoiy adabiy tafakkurining beqiyos, olamshumul parvozigacha sabab bo'lgan narsa uning badiiy tasvir sohasidagi beqiyos san'atkorligidir.

Har qanday devonning birinchi - boshlovchi g'azali muallif nazarida shu devonni tashkil etuvchi boshqa g'azallardan g'oyaviy-badiiy yetukligi, tasvir prinsiplari va ifoda uslubining yangiligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turishi lozim. Ikkinchidan, devonni ochuvchi g'azal o'quvchi nigohida shu devonning badiiy qimmatini, g'oyaviy ruhi, shoir uslubi va poetik stillari,

adabiy an'analarga munosabati, poetika sohasidagi ilmiy-nazariy bilim va imkoniyatlari kabi jihatlardan muayyan tasavvur hosil qiladi. Devonning boshlovchi g'azaliga mazkur ma'nodagi talab va mas'uliyatlarning yuklanishi bu g'azal mavqeyining devon g'azaliyoti doirasida ustunligi haqida fikr o'yg'otadi.

«Xazoyin ul-ma'oni» devonlariga tartib berish davrida hamd ruhida g'azallar Navoiy lirikasida salmoqli o'rinni egallab turardi. Shoir bu devonlar kulliyotining o'z hayoti va ijodi, qolaversa, o'z davri, vatani, xalqi, turkiy til taraqqiyoti uchun naqadar muhim va jiddiy ahamiyatga ega ekanligini his etar edi. Shu boisdan devonlar kulliyotini ochuvchi hamd Navoiyning butun hayoti davomida, ya'ni 7-8 yoshlardan 50 yoshdan oshgunga qadar yaratgan g'azallari ichida eng go'zali, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammali, a'lo maqomdagisi bo'lishi kerak edi. Lirik merosi kulliyotining bu yuksak mavqe'li o'miga Navoiy «Badoe' ul-bidoya» devoni uchun yozilgan «Ashra'at...» bilan boshlanuvchi g'azalni munosib ko'radi. Bu g'azal Navoiy tomonidan eng badiiy yuksak deb baholanishining tasdig'i uning biror satriga tahrir kiritilmaganligida ham namoyon bo'ladi. Demak, bu tanlov orqali Navoiy «Ashra'at...» yozilgan davr, ya'ni o'zining 25-38 yoshlar oralig'idagi ijodi lirik mahoratining cho'qqisi bo'lganligiga bilvosita ishora etadi.

Shoir lirikasida aynan shu davrda janr rang-barangligi ham kuchli bo'lganligini (13 xil janrda ijod qilgan), badiiy san'atlar texnikasi, tasvir usullari va boshqa sohalardagi dinamik rivoj namoyishi ko'zga tashlanadi.

Navoiy o'z hamd va na'tlarida til ilmi qonuniyatlari va qoidalariga, ayrim so'zlar va so'z birikmalari etimologiyasiga, sodda va xalqchil til xususiyatlariga katta e'tibor berdi.

4. O'rta asr adabiyotshunoslari shakl va mazmun munosabatlari tushunchasini «lafzu ma'oni» jumlasini bilan ifodalaydilar va shaklga aloqador bo'lgan barcha unsurlarni «lafz» so'ziga tegishli deb biladilar. Ularning aksariyati o'z asarlarida shakl va mazmunning to'liq mutanosibligini, o'zaro teng darajada uyg'unligini yoqlaydilar. Alisher Navoiy esa bu masalaga yangicha yondashadi, ya'ni, har qanday badiiy asarda, jumladan, lirikada ham mazmun har doim shakldan ustun bo'lmog'i

kerakligi, she'ming go'zal shakli g'oya va mazmunning to'la va yorqin ifodasi uchun xizmat qilmog'i lozimligini birinchilardan bo'lib ta'kidlaydi. Bu hodisa Navoiyning adabiyot va adabiyotshunoslik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va beqiyos yutug'i edi. Alisher Navoiyning badiiy asarda ma'no va mazmunni birlamchi o'ringa qo'yishi, shaklni va uning ma'no va mazmunga nisbatan bo'lgan munosabatlarini ikkilamchi, tobe' unsur sifatida baholashi hozirgi davr adabiyotshunosligining estetik talablariga mos keladi va buyuk ijodkorni taraqqiyparvar adabiyot nazariyotchisi sifatida namoyon etadi.

Alisher Navoiy she'r kompozitsion mukammalligi sohasida ijodiy ish olib borar ekan, avvalo g'azallarining semantik-stilistik strukturasi va ulardagi emotsional tasvir yo'siniga alohida e'tibor berdi. She'r kompozitsiyasini poetik usullar, badiiy tasvimi yangi ko'rinishlari bilan yanada boyitdi. Navoiy nafaqat g'azalning kompozitsion butunligi, undagi qismlarning emotsional-estetik funksiyalari haqidagi qarashlarini, balki, har bir she'riy asarda g'oyaviy mazmun va badiiy shakl garmoniya prinsiplari asosida bequr yaratilishi lozimligini ifoda etdi. Navoiy g'azallar g'oyaviy-badiiy takomilini ko'zda tutib olib borgan ijodiy mehnati g'azal janrining turkiy adabiyotdagi kompozitsion mukammallikka erishuviga katta ta'sir ko'rsatdi.

5. Navoiy lirikasida ijtimoiy masalalarning qo'yilishi va hal etilishi ancha keng doiradagi g'azallarda kuzatiladi.

«Xazoyin ul-maoni» devonlariga avvalgi uch devon tarkibiga kirmagan ijtimoiy mavzudagi 62 g'azal joylashtirilgan. Bu g'azallarning avvalgi devonlarda uchramasligi ularning «Navodir un-nihoya» tartib berilgandan keyin yozilganligiga ishora etadi. Navoiyning 45 yoshdan keyingi hayoti davomida davr voqyealari va zamondoshlariga bo'lgan munosabati, jamiyat ijtimoiy voqye'ligining shoir taqdiridagi aks sadosi uning ushbu davr lirik ijodida o'ziga xos yo'nalishlarda ifoda etiladi. Hamdlarda (orifona g'azallarda) avvalgi devonlarning shu tipdagi g'azallarida ko'rinmagan xususiyat - tasvir ob'ekti bo'lmish Tangri taolaga munojot, iltijo ohanglarining ustuvorligi ko'zga tashlanadi. Badiiy ifodaning vaf, ta'rif, tavsif formasida ijod etilgan hamdlar turkumi shoir keksalik

lirikasida sharti hol, mushohada tipidagi tasviriy usullar vositasida mazmunan kengayib boradi. Mamduhga bevosita murojaat, o'tinch, iltijoli fikrlar Navoiy hamdlarining maqta'dan oldingi baytlari va maqta'larida ifoda etilib, shoiming bu sohadagi estetik prinsiplari asosini belgilaydi.

Navoiyning keksalik davrida yozilgan ijtimoiy ma'no kasb etuvchi g'azallar badiiy tasvir usullari va mazmun-mundarijasiga ko'ra shoir dunyoqarashining bu davrdagi o'zgarishlarini bir necha aspektda ifodalab beradi. Bu g'azallarning barchasida mavzu-g'oya ifodasi, tasvirlanmish va tasviriy imkoniyatlar turlicha bo'lsa-da, yakuniy fikr bir xil ma'noda, ya'ni o'zlikdan kechib, fanoga yuz tutish maqsadi ifodasi bilan intiho topadi. Jumladan, qarilik lirikasi g'oyaviy motivlari shoir tasvir-ifoda uslubining quyidagi yo'nalishlarida talqin etiladi:

- a) munojot tipidagi g'azallarda;
- b) didaktik nasihat yoki tajribali keksaning yoshlarga beradigan pand-o'gitlari ifodalangan g'azallarda;
- v) sufiylik ruhida yozilgan - orifona yoki bevosita tasavvuf masalalarini muhokama va targ'ib etuvchi g'azallarda;
- g) «qariliko» va «yigitliko» mafhumlari vositasidagi mushohadaviy-didaktik g'azallarda.

Ijtimoiy mavzu vositasida yuzaga kelgan didaktika shoir hayotining turli davrlarida o'sha davr mazmuni bilan hamohang ravishda namoyon bo'ladi. Yigitlik davrida u optimistik, hayotsevar tonusda falsafiy mohiyat kasb etadi; o'rta yoshlikda umuman bu foniy dunyodan «qo'l yuvish», uni rad etish ma'nosidagi passiv didaktika shaklida ifodalanadi; keksalik davri g'azallarida didaktik bo'yoq shoirning sufiylik dunyoqarashi asosidagi fikrlarida o'z aksini topadi. Keksalik lirikasida ijtimoiy mavzuning mantiqiy rivoji va xulosasi uchun xizmat qiluvchi didaktikaning avvalgi davr g'azaliyotidan farqli jihati shundaki, unda yana hayotga muhabbat (yigitlik lirikasidagi kabi jo'shqin, ilmiy-falsafiy ohanglarda bo'lmasa-da), uni ongli kechirishga rag'bat targ'ib etiladi.

Navoiyning «Ilk devon» da ijtimoiy mavzu talqini kuchli biografik asosga ega bo'lsa, «Badoe' ul-bidoya» da bu mavzu shoir falsafiy

qarashlarining nazariy masalalarini ham qamrab olgan holda ifoda etiladi. Chunonchi Navoiy «zamon» va «ahli zamon» dan qattiq shikoyat, tanqid ruhida fikrlari vositasida shu zamon noetukligiga sabab bo'luvchi muammolar, illatlarni ochib tashlashga, shu munosabat bilan inson ruhiy dunyosi va jamiyat kasalliklariga davo izlashga intiladi, o'z davrida ma'rifat vositasida komil insoniy jamiyat qurishga umid bog'laydi. Bu g'azallarda yuksak optimistik ruh hukmron bo'lib, ular Navoiyning barcha davrlarda yaratilgan g'azallaridan ana shu jihatlari bilan ajralib turadi. Agar Navoiyning 30-40 yoshlari oralig'ida buyuk Temuriylar davlatidagi g'oyat katta ijtimoiy-siyosiy faoliyatining badiiy ijodiga bo'lgan ta'sirini idrok etadigan bo'lsak, bu hodisaning tabiiy ekanligiga amin bo'larniz. Bu davr lirikasida Navoiy ijtimoiy didaktikani falsafiy didaktika darajasiga ko'tardi. Shoir lirikasida namoyon bo'lgan hayotsevar pafos keyinchalik uning epik asarlarida yanada yuksakroq maqomda o'z ifodasini topdi. Navoiy lirikasi qahramoni keyinchalik uning ijodiy kamoloti cho'qqisi bo'lmish «Xamsa» dostonlari qahramonlari obrazlarida o'zining mukammal siymosiga, ko'rinishiga ega bo'ldi. Shu nuqtai nazardan Navoiyning hayotsevar va insonparvar ijtimoiy linkasini falsafiy-ilmiy-didaktik lirika deb baholash mumkin.

«Navodir un-nihoya» tuzilgandan keyin yozilgan va «Xazoyin ul-maoniy» devonlaridan o'rin olgan ijtimoiy ruhda g'azallar Navoiyning keksalik lirikasida ham g'oyaviy-tematik va badiiy jihatdan muayyan o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Chunonchi, bu davrda shoimning ijtimoiy masalalarga bo'lgan munosabatida sufiylik dunyoqarashining kuchli ta'siri seziladi.

Muxtasar xulosa shundan iboratki, Navoiy o'zining olamshumul ijodi misolida lirikaning jamiyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida tutgan o'rni, uning badiiy ijod, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohaları rivojiga bo'lgan ta'siri doiralarini ham ko'rsatib berdi va bu narsa shoir lirikasini keng ko'lamda – g'oyaviy-badiiy, adabiy-estetik, ilmiy-nazariy aspektlarda yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

2.

O'rta asrlar klassik poeziyasining turli masalalari g'arb adabiyotshunoslari asarlarida o'rganilgan bo'lib, uzoq tarixga egadir. G'arb olimlari o'rta asrlar sharq adabiyotida o'ziga xos mustaqillik, originallik haqida fikr yuritir ekanlar, aksari yevropa poeziyasi materiallariga suyanib ish ko'radilar. Ana shu sababdan ham ularning bildirgan fikrlari va xulosalarida biryoqlamalilik, chegaralanganlik ko'zga tashlanadi. Jumladan, biz nazarda tutayotgan mavzu - badiiylik ilmi masalalarining o'rganilishi xususida ham xuddi shu holni ko'rish mumkin. Bunday g'arb nazariyotchilarining fikrlariga ko'ra, sharq klassik poeziyasida an'anaviylik kuchli bo'lganligi sababli, originallik, o'ziga xoslik faqat badiiy asarning tashqi ko'rinishi, shaklidagina namoyon bo'ladi. Ya'ni, klassik poeziyada mavzu va mazmun avvaldan belgilab berilganligi, har bir shoir o'z mahoratini ana shu mavzuning yangicha talqini, badiiy ishlanilishida ko'rsatishi lozim ekanligi, bu sohada qat'iy an'anani buzishga huquqi yo'k ekanligini ko'zda tutib, g'arb mualliflari: «...avtoru stremyatsya prevzoyti drug drugu v masterstve vladeniya formoy i dostigayut v sopernichestve vysokogo artistizma», degan xulosaga keladilar. Bu nuqtai nazarga ko'ra, o'zining mustaqil ijodkor ekanligini ta'kidlash uchun o'rta asr klassik poeziyasi vakili o'z badiiy yaratmasining shakligagina e'tibor qaratishi lozim (ya'ni, badiiy san'atlar o'yinini ko'rsatishigina kifoya) bo'ladi.

Fransuz olimi P.Zyuntor asarlarida ham xuddi shu mazmundagi fikrlar takrorlanib, u hatto o'rta asr o'quvchisi poetik asardan uning badiiy shaklidan o'zga hech narsa kutmaydi, bu poeziyaning asosiy xususiyati uning namoyishkorligidadir (aynan: «teatralnost» so'zini qo'llaydi) deyishgacha boradi. U e'tirozga o'rin qoldirmaydigan bir tarzda o'rta asr sharq poeziyasida «mazmun, ma'no va axborotga nisbatan shakl katta ahamiyatga egadir», degan fikrni bildiradi.

Arab poeziyasini o'rgangan ingliz olimi X.A.R. Gibbning ta'kidlashiga ko'ra ham, «selyu yego (ya'ni, klassik shoimning - S. D.) bado, razvivaya tu ili inuyu temu po chetko oboznachennoy kanve, ukrasit yeyo vsemi dostupnymi sredstvami iskusstva, prevzoyti svoix predkshestvennikov i

sovremennikov krasotoy, vrazhdelnostyu, sjatostyu frazy, pravdivostyu opisaniya i vospriyatiya deystvitelnosti».

Shunga o'xshash fikrlarni bir-birini takrorlovchi va shu zamindan fikrlarini rivojlantiruvchi boshqa bir qator g'arb va ba'zi rus olimlari asarlarida ham ko'rish mumkin. Qizig'i shundaki, klassik arab, fors-tojik yoki turkiy poeziyaning ayrim davrlari yoxud alohida olingan yozuvchilar zumrasi faoliyati yuzasidan chiqarilgan xulosalar ko'p hollarda umuman O'rta asr Sharq poeziyasi va uning barcha davrlariga nisbat beriladi.

Albatta, bu muammoga turli yondashuvlar, nuqtai nazarlar mavjud bo'lib, jumladan, rus olimlari D.S.Lixachev, I.Ya.Krachkovskiy, M.V.Jimunskiy, A.B.Kudelin kabilar yuqorida keltirilgan mulohazalardan tamoman farq qiluvchi fikrlarni bayon etganlar. Masalan, M.V.Jimunskiy jahon adabiyotshunosligidagi bunday «formalistlar»ni tanqid qilib, klassik arab poeziyasidagi badiiy libos bevosita davr va uslub masalalari bilan ham bog'liq ekanligini, ya'ni har bir davrda adabiy asar ma'lum uslubda yozilib, davr yangilanishi bilan uslub ham yangilanishini ta'kidlaydi va shunday deydi: «...evolyusiya stilya kak sistema xudojestvenno-vrazhdelnux sredstv ili priyomov tesno svyazana s izmeneniem obnogo xudojestvennogo zadaniya, esteticheskix navyakov i vkusov, no takje vsego miroouumneniya epoxi.»

Darhaqiqat, har qanday qalamkash o'z asarini biror maqsadni ko'zlab yaratadi. Islomgacha bo'lgan davr arab sahrolarida bitilgan g'azallarda shoir o'zining nuqtadonligi, topqirligi, fahmi tez va farosatligi, hofiza quvvati bilan boshqalardan ustunligini namoyish etishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, o'rta asrlar nihoyasi, insoniyat sharq o'yg'omish davrining kamolot cho'qqisiga yetgan bir davrda bu davrning eng yetuk vakili Alisher Navoiy, albatta, badiiy asar yaratishdan tamoman o'zga maqsadlarni ko'zlagan edi.

Navoiy ijodida poetik san'atlar shoirning euzu maqsadlari, estetik idealini badiiy ifoda etish uchun vosita bo'lib xizmat qilgan. «Navoiy uchun hiych qachon she'riy san'atlar shunchaki bir san'atkorlikni namoyish qiluvchi vositalar bo'lgan emas. U haqiqiy novator ijodkor sifatida, o'zining butun san'atkorlik mahoratini, muhim ijtimoiy-siyosiy fikrlari, olijanob

g'oyalarni yuksak badiiy saviyada ifoda qilish uchun dadillik bilan ishga solgan».

Alisher Navoiy butun ilmiy va badiiy ijodida, davlat arbobi sifatidagi siyosiy-ijtimoiy faoliyatida islom sarchashmalari bo'lmish Qur'oni Karim va hadisi shariflardagi umumbashariy, ilg'or g'oyalarga tayandi, tasavvuf nazariyasi, uning ilmiy-g'oyaviy asosi bo'lmish vujuduyun ta'limotini chuqur o'rgandi va targ'ib etdi. Buyuk shoir Sharq o'yg'omishi jarayonida yuzaga kelgan eng ilg'or ijtimoiy-falsafiy hamda badiiy tafakkur yutuqlarini o'z asarlarida boy falsafiy mazmun va go'zal badiiy nafosat uyg'unligida o'quvchisiga taqdim etdi. Uning falsafiy badiiy tafakkuri taraqqiyoti islom ma'naviyatini keng idrok qilish va uni o'z ijodiy va ijtimoiy faoliyatida targ'ib etish g'oyalari bilan bevosita bog'liqdir.

Qur'oni Karimda va hazrati islom payg'ambari Muhammad alayhi-s-salom hadislarida ifodalangan fikrlar Alisher Navoiyning badiiy asarlarida go'zal tashbihlar, betakror lavhalar vositasida aks etadi. Shuning uchun ham bu davrni mukammal o'rganmay turib, o'rta asrlar sharq adabiyoti ma'no va mazmun jihatidan cheklangan, deya da'vo qilish biryoqlama xulosalardan o'zga narsa emasdir.

Mavzun (vaznga solingan) fikrning oddiy axborot vositasi bo'lmish tilga nisbatan mafunkor, jozibali va yoqimli bo'lishida badiiy san'at yaratuvchi unsurlarning katta ahamiyatga ega ekanligi bir qator islom ulomolari asarlarida ham qayd etiladi.

Islom ulomolarining uqdirishicha, Qur'oni Karim - ilohiy kitob, «Allohning so'zi» bo'lganligi tufayli, o'zining betakrorligini ta'minlovchi qator xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlarni inson nutqining biror ko'rinishida - oddiy, badiiy, nazmiy yoki nasriy bo'lsin - ifodalash mushkul, to'g'rirog'i, ularni inson zoti o'z tilida ifodalay olmaydi. Buni isbot etish uchun musulmon ulomolari Qur'oni Karim badiiyatini o'rganish va uni arab nazmi va nasrining eng yuksak namunalari bilan solishtirishga ehtiyoj sezganlar. Shu tariqa Qur'oni Karim va musulmon ulomolari bevosita adabiyotshunoslik muammolari muhokamasiga tortiladilar.

Arab musulmon nazariyotchilaridan Abd-al-Qahir Jurjoni o'zining «Dalo'il al-e'jz» va «Kitob asror al-balog'a» asarlarida Qur'oni Karimning

betakror badiiyatini ta'minlashi mumkin bo'lgan barcha omillar ma'nosi anglanishi mushkul bo'lgan so'zlarda (alfoz mufrad), ularning ohangdorligida, harf va harakatlar munosabati yoki ruknlarda, vasi va qofiyalarda, o'xshatish va istioralarda aks etishi mumkinligini taxmin qiladi va bu mulohazalarini ilohiy kitob asosida mukammal o'rganadi. Nihoyat, muqaddas kitobning betakror jozibasi va maftunkorligini yolg'iz shu san'atlar tashkil eta olmasligiga imon keltirgan olim, uning ilohiy go'zalligi o'ziga xos va faqat ungagina munosib bo'lgan uslubi, nazmidadir, degan xulosaga keladi.

Al-Jurjoni badiiy shakl va mazmun uyg'unligida yaratilgan badiiy asarda mazmun yetakchi o'rin tutishini ta'kidlaydi. Biroq, uning fikricha, har qanday mazmun biror shaklda namoyon bo'ladi. Adabiy asarda shakl o'zgarishi bilan mazmun ham ma'lum darajada o'zgaradi. Shu nuqtai nazardan arab adabiyotshunosi klassik adabiyotda shakl mukammalligi ma'no, mazmun mukammalligiga, dinamikasiga xizmat qiladi, degan xulosaga keladi.

O'rta asrlarda Sharq adabiyoti tarixida adabiyotshunoslik masalalari bilan eng ko'p va izchil shug'ullangan Alisher Navoiy bu masala xususida katta ilmiy qimmatga ega bo'lgan fikrlarini bayon etdi.

Shoirning fikricha, poetik asarda badiylikni ta'minlovchi omillardan birinchisi poetik mazmundir. Shoirning katta ishonch bilan uqdirishicha, poetik mazmun badiiy asarning joni bo'lsa, boshqa omillar go'yo unga komillikni, bashariy qiyofani bag'ishlovchi chiroyli libosga o'xshaydi.

Shoir o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida turkiy tilning badiiy asar yaratishdagi imkoniyatlari xususida fikr yuritib «...bu lafzda muncha vus'at va maydonida fus'hat topilur. Kerakkim, munda har nav' suxanguzorlig' va fasehguftorlig' va nazmsozlig' va fasonapardozlig' osonroq bo'lg'ay ...Bu tilda g'arib alfoz va ado ko'pdur», deb yozadi. Buyuk shoir ana shu mulohazalardan kelib chiqib, fikrni badiiy ifodalashda turkiy tilning badiiy shakllari, xilma-xil imkoniyatlaridan g'oyat sam'atkorlik bilan foydalanadi. Shoirning g'azallarda tadrijiylik va yakporalik, voqyeahandlik va voqyabayonlik xususiyatlari haqidagi fikrlari orqali poetik asar

mukammalligini ta'minlovchi omillar badiiy shaklga nisbatan badiiy mazmun bilan, muallifning g'oyaviy maqsadlari bilan ko'proq bog'liq ekanligi anglashiladi.

Navoiy o'zining shu tariqa nazariy qarashlarini turkiy va fors-tojik tillarida yaratgan barcha nazmiy asarlarida barkamol namoyish etdi. U adabiyotshunoslikka oid «Majolis un-nafois» tazkirasida, «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mezon ul-avzon», «Mufradot» kabi asarlarida, bir qator holotlarida biz yuqorida keltirgan ba'zi g'arb tanqidchilarining sharq'azalchiligini «artistizm» dan iborat, degan tushunchalariga nisbatan o'zining sof ilmiy nuqtai nazarini bayon etgan edi, lirikasi misolida esa o'z fikrlarining amaliy ifodasini ko'rsatdi.

3.

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida aruz vaznlaridan eng mukammal foydalangan shoirlardan biri Alisher Navoiydir. U o'z badiiy ijodi misolida o'rta asrlarda arab va fors-tojik adabiyotlarida ancha mukammal ishlangan va go'zal lirik she'rlar, devonlar shaklida ommalashgan aruz vazniga asoslangan she'riy san'atni turkiy til imkoniyatlari vositasida badiylikning eng baland maqomiga ko'tardi va bu bilan aruz fanining yana bir til doirasidagi nazariy va amaliy taraqqiyotiga asos soldi. U o'zining aruz nazariyasiga bag'ishlangan «Mezon ul-avzon» asarida bu ilm sohasidagi ma'lumotlarni yig'ib, tartibga solib, tushuntirib berish bilangina chegaralanib qolmadi. Uning bu risolani yozishdan maqsadi aruz fanidagi muammolarni ommalashtirish, ularni arab va fors-tojik adabiyotlari maydoniga olib kirishgina emas, «balki aruz problemalarining birmuncha yangi talqinini berish va aruzni boyitish»dan iborat edi⁵⁴. «Mezon ul-avzon» asarining mazmuni va shoirning butun poetik ijodi shundan guvohlik beradiki, bu vazifani yetuk qalam sohibi o'z ulug' rufbasiga munosib bir tarzda amalga oshirdi.

Arab alifbosining turkiy til ehtiyojlariga to'liq javob bera olmasligi va bu til imkoniyatlarini ancha chegaralab qo'yishi, aruzda bitilgan nazmiy

⁵⁴ Аlisher Навоий. XV томиш. Т.22. – Тошкент: Адабиёт ва санъат – 1966. 267-б.

asarlarda biror harfining notabiiy cho'zilishi bilan bog'liq nuqsonlar yuz berishi xususida Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrida muxtasar ma'lumot bergan edi. Ma'lumki, vazn she'riy misralarda ko'p noaniqliklarni ravshanlashtiradi. So'z tarkibi, talaffuzi, shakl va bo'g'inlari, majoziy ma'no, ko'p ohanglilik kabi unsurlar vazn talablaridan kelib chiqadi. Agar matnda ba'zi anglashilmovchiliklar ko'zga tashlansa, uni vazn talablari nuqtai nazaridan tekshirib aniqlik kiritish mumkin. Ana shu nuqtai nazarlardan kuzatishlarimiz natijasida «Xazoyin ul-ma'oniyy» devonlaridan ilgari tartib berilgan ikki devondagi ba'zi baytlarning yangi devonga boshqa shakl va mazmun bilan kiritilganligining guvohi bo'ldik. Masalan, «Badoe' ul-bidoya» devonidagi 114-g'azalning ikkinchi bayti fikrimizga dalil bo'la oladi. G'azal:

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim nolavu faryod.

matla'i bilan boshlanadi. Bu matla'ni Navoiy namunaviy misol tariqasida «Mezon ul-avzon»ning hazaj bahriga taalluqli bo'limiga ham kiritgan. G'azalning ikkinchi bayti «Badoe' ul-bidoya»da quyidagichadir:

Ko'zlaringga sayd o'ldi ko'ngul, vah, qutulurmu,
Bir qushki, aning ko'yida bo'lg'ay iki sayyod.

G'azal «Navodir un-nihoya» ga kiritilmagan, «G'aroyib us-sig'ar» ga esa ikkinchi baytining quyidagicha ko'rinishi bilan joylashtirilgan:

Sayd o'ldi ko'ngul ko'zlaringga, vah, qutulurmu,
Bir qushki, aning ko'yida bo'lg'ay iki sayyod.

G'azal aruzning hazaji musammami axrabi makfi'fi maqsur bahrida yozilgan bo'lib, o'zgarishga uchragan baytlarning taqti'larini solishtirib ko'raylik. Baytning «Badoe' ul-bidoya» ko'rinishidagi taqti'i:

Ko'z la: ri/mafulu/ na say do'l di /mafo'iylu/ ko' nul vah qu /mafo'iylu/ tu lur mu /mafo'iyl/

Bir qush ki /mafulu/ anin ko': yi /mafo'iylu/ da bo'l g'ayi /mafo'iylu/ ki say yod /mafo'iyl/.

«G'aroyib us-sig'ar» da o'zgartirib berilgan misra'ning taqti'i:

Say do'l di /mafulu/ ko' nul ko'zla /mafo'iylu/ ri na vah qu /mafo'iylu/ tu lur mu /mafo'iyl/.

Ko'rinib turganidek, bayt musamman bo'lib (sadr hashv hashv aruz⁵⁵ (itido) hashv hashv zarb), baytning sadr va ikki hashvida o'zgarish uchraydi. Aruz ilmidan xabardor o'quvchiga ma'lumki, bayt ruknlarga bo'linib, ruknlar qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning turli birikmalaridan tashkil topadi va buning natijasida bahr vujudga keladi. Sabab, vatad, fosila deb ataluvchi turli hijolardan tashkil topgan juzv yoki ruknlar o'z qafiy qonuniyatlariga ega bo'lib, ulardagi ahamiyatsiz ko'ringan kamchilik ham vaznning buzilishiga yoki ohangning notekisligiga sabab bo'ladi. Demak, bayt xoh arabiy, xoh forsiy, xoh turkiy bo'lsin, aruzning «afoiyb» va «tafoiyb»lari⁵⁶ talablariga rioya qilinishi zarur. Biroq, biz shu o'rinda mazkur qonuniyatlarni arab tilining leksik-semantik va orfoepik xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil topganligini unutmasligimiz lozim. Ana shu jihatdan ham turkiy tilda g'azal yozish shoiridan ikki hissa ko'proq mahoratni talab qiladi. Nazarda tutayotgan baytimizning «Ko'zlaringga sayd o'ldi» birikmasida زو - sababi xafiyf, (aruz vaznining eng kichik ko'rsatkichi sifatida harf va harakatlar tushuniladi. Unli va undosh harflar, fatha, kasa va zamma harakatlaridan tashkil topgan bo'laklar juzvlar deyiladi. Ular sabab (arabcha: bois, bog'lov, arqon), vatad (arab.: qoziq) va fasila (arab.: oraliq, ajralish) bo'lib, har biri o'z navbatida ikkiga bo'linadi: sababi xafiyf, sababi saqiyl, vatadi majmu', vatadi mafruq, fasilai sug'ro, fasilai kubro. Aruzning bu

⁵⁵ А.Рустамов ва А.Абдураҳмоновлар байтнинг садрийи ибтидои, ибтидоийсини эса садр деб хитобинга йўл қўйганлар. Қ.: А.Рустамов, Навоийнинг бадиий маҳорати. Тошкент - 1979, А.Абдураҳмонов, Аруз назарияси. Хўжанд - 1993. Ваҳидинов, арузга доир бирча минхур асарлар, шу жумладан, «Мезон ул-авзон» да ҳам байтнинг биринчи рукин «садр» дейилади.

⁵⁶ Алишёр Навоӣ. XV томлик. Т.22. - Тошкент: Адабиёт ва санъат - 1966. 139-б.

tarkibiy qismlari haqida «Mezon ul-avzon» va «Muxtasar»da sodda va tushunarli ma'lumotlar berilgan. Arab va ba'zi fors-tojik aruzshunoslari asarlarida bu sohada ba'zi bahs-munozarali fikrlar ham mavjud bo'lib, masalan, ularning bir necha turi - sababi mutavosit, vatadi mujtami', vatadi xafiyf, fasilal axaf, fasilal vasati, fasilal xafiyf, fasilal uzma' va b. haqida ham ma'lumotlar bor. Hatto, XVI asr mashhur aruzshunosi Sayfi Buxoroyi ham, masalan, fasilaning asosiy juzv bo'lmay, balki sabab va vatadlarning turli birikmalaridan hosil bo'lishi haqida o'zidan avvalgi fors-tojik mualliflari fikrlariga qo'shiladi. مجرى - vatadi majmu' bo'lib kelyapti. Aslida qisqa bo'g'in bo'lishi kerak bo'lgan - «da» vazn talabi bilan cho'ziq bo'g'in bo'lib kelishga mahkum. Chunki, aruzda prosodik urg'u har doim vatadga tushadi, shu sababdan ham vatad bo'linmaydi. Ma'lumki, nutqda pauzalar yoki sintagmalarda hyech qachon so'zlar bo'linmaydi. Prosodik pauzalar esa albatta so'zlarni bo'lib keladi. Bundan tashqari, bir so'z yonidagi so'zning ham bir qismini olishi mumkin. Masalan: /ko'z/ lo: ri / na say / do'l di / yoki / ko' nul / vah qu / tu lur mu / kabi va h.k. Bu esa rukning tahlilida turkiy til xususiyatlari nuqtai nazaridan so'z ohangida notabiiylik hosil qiladi. G'azal matnining ikkinchi variantida birikmadagi arabcha «sayd» so'zini misra'ning boshiga qo'yilib, sadming - ديسم مديلا ko'rinishiga erishilgan. Ya'ni, bu birikmada سبب - sabab, مديلا - vatad bo'lib, biror hijo zo'raki cho'zilmaydi. Bunda tabiiyki, arab alfaviti bilan kirill yozuvi o'rtasidagi, arab va turkiy tillar o'rtasidagi tafovutni ham unutmaslik lozim, albatta.

Hashvlarda ko'zda tutilayotgan so'z birikmasining sabab va vatad munosabatlari o'zgarmagan. Umuman, baytda aruzning nazariy talablaridan birortasiga ham putur yetmagan, ammo bu yerda she'rshunos o'quvchi nozik tab'ini qoniqtirmagan narsa turkiy so'zdagi bitta hijoning notabiiy cho'zilishi natijasida paydo bo'lgan ohangdagi notekislikdir. Bu bir qarashda «aruz buzilganmikin», degan fikrga ham olib keladi. Baytning keyingi ko'rinishi nihoyatda ravon va xushohangdir.

Xuddi shunday tafovut «Navodir un-nihoya» devonidan «Badoe' ul-vasat» ga ko'chirilgan 555-g'azalda ham uchraydi. G'azal «Badoe' ul-bidoya» devoniga kiritilmagan, «Navodir un-nihoya» da esa 723-o'rinda keladi. G'azal:

Tong'g'a solma va'dai vaslingni bori bu kecha,
Kim meni o'lturg'usi tong intizori bu kecha

matla'i bilan boshlanib, aruzning ramali musammani solimi mahzuf bahrída yozilgandir. G'azalning beshinchi bayti «Navodir un-nihoya» da quyidagi ko'rinishda berilgan:

Bazmida anglading, ey sham'u qadah yig'lab, kuyub,
Buki o'lturdi meni hajr iztirobi bu kecha.

«Badoe' ul-vasat» da bayt quyidagi shakldadir:

Anglading bazmida, ey sham'u qadah yig'lab, kuyub,
Buki o'lturdi meni hajr iztirobi bu kecha.

O'zgarishga uchragan misra'larning taqti'larini solishtiraylik:

1. Baz mi da: an /foilotun/ la: di ney sham /foilotun/ 'u qa dah yig' /foilotun/ lab ku yub /foilun/
2. An la din baz /foilotun/ mi da ey sham /foilotun/ 'u qa dah yig' /foilotun/ lab ku yub /foilun/

Ma'lum bo'layotganidek, baytning birinchi ko'rinishida sadrda ikki cho'ziq hijo ketma-ket kelib, a tovushi zo'raki cho'ziyapti. Sadr - foilotun - ikki sababi xafiyf va o'rtada bir vatadi majmu' birikmasidan tuzilgan. Bu yerda sababi xafiyf - زب , ya'ni - fo, vatadi majmu' esa ديه - ilo, va yana bir sababi xafiyf - گنا - tun-dan iboratdir. Ma'lumki, vatadi majmu' ikki mutaharrik (yoki zarbli) va bir sokindan (yoki harakatsiz, zarbsiz) harfdan tashkil topadi. Keltirayotgan misolimizda esa bir sokin yetishmaydi. Ya'ni, vatad ikki mutaharrik (p) va (s)dan iborat bo'lib qolgan. ¹ (alif) oldidan bir sokin yetishmayotganligi sababli [a] fonemasi talaffuzida ohang zo'raki cho'ziyapti.

Bundan tashqari, [a] fonemasi baytning birinchi hashvida ham cho'ziq hijo sifatida kelib [la:], vazn ohangi buzilmasligi uchun so'z birikmasi notabiiy bir shaklda talaffuz etiladi.

Misra' obangidagi ana shu nuqson so'zlar o'rini almashtirish orqali baytning keyingi variantida tuzatilgan. Kotib aybi bilan baytning birinchi matnida ohang saktaligi yuz bergan bo'lsa, uning ikkinchi matnida (fikrimizcha, baytning muallif nusxasi ham aynan shu matn bo'lishi kerak) ma'no va ohang uyg'unligi, so'zlar va harflar orasidagi uyg'unlik go'zal bir tarzda tiklanadi. Ya'ni, baytning satriidagi vatadi majmu' quyidagi shaklda hosil šilinadi: گنا - sababi hafiyl (fo), غفيل - vatadi majmu' (ilo) va ز - sababi hafiyl (tun). Vatadi majmu' aruzda talab qilinganidek, ikki mutaharrik - ل va د hamda bir sokin - گ dan iboratdir.

Quyidagi baytlardagi o'zgartirishlar ham yuqoridagi nuqtai nazarlar natijasida amalga oshirilgan bo'lib, tag'yirdan so'ng g'azallarning benuqson ravonligiga va xushohangligiga erishilgan. Solishtirib ko'ring:

I. «Badoe' ul-bidoya» devonidagi 585-g'azalning beshinchi bayti:

Tiyg' ila g'amgin ko'ngul o'tig'a taskin bermading,
Elkumdur ohkim tufroqqa ul suv hasratin.

Shu baytning «Favoyid ul-kibar» devonidagi ko'rinishi:

Tiyg' ila g'amgin ko'ngul o'tig'a taskin bermading,
Ohkim, tufroqqa elturnen ul suv hasratin.

O'zgartirilgan misra'laming taqti'lari:

El t kum dur /foilotun/ o h kim tuf /foilotun/ roq qa ul suv /foilotun/ has ra tin /foilun/;

O h kim tuf /foilotun/ roq qa el tur /foilotun/ me n ul suv /foilotun/ has ra tin /foilun/.

II. «Navodir un-nihoya» devonidagi 573-g'azalning uchinchi bayti:

Ishq dardimmu deyin, hajri nabardimmu deyin,
Bu qatiq dard aro vaslining davosinmu deyin?

Bu g'azal «Badoe' ul-bidoya» da yo'q, «G'aroyib us-sig'ar» devonida esa 483-o'rinda keltirilgan. Baytning «G'aroyib us-sig'ar» dagi ko'rinishi:

Ishq dardimmu deyin, hajri nabardimmu deyin?
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?!

O'zgartirilgan misra'lar taqti'lari:

Bu qa tiq dar /foilotun/ da: ro vas li /foilotun/ ni da vo sin /foilotun/ mu de yin /foilun/

Bu qatiq dard /foilotun/ la ra ro vas /foilotun/ li da vo sin /foilotun/ mu de yin /foilun/.

III. «Navodir un-nihoya» devonidagi 283-g'azalning maqta'i:

Ey Navoiy kisvati faqr fano egninga sol,
Yo'qsa xirqang tengdurur gar atlas o'lsun gar palos.

Shu bayt «G'aroyib us-sig'ar» da 230-o'rinda quyidagi ko'rinishda berilgan, «Badoe' ul-bidoya» da esa yo'q:

Ey Navoiy kisvati faqr fano sol egninga,
Yo'qsa xirqang tengdurur gar atlas o'lsun, gar palos.

O'zgartirilgan misra'lar taqti'lari:

Ey na vo yi /foilotun/ kis va ti faq /foilotun/ ru fa no eg /foilotun/ ni na sol /foilun/;

Ey na vo yi /foilotun/ kis va ti faq /foilotun/ ru fa no so /foilotun/ leg ni na /foilon/ va b.

Vazn talablari yuzasidan yana quyidagi ko'rinishdagi o'ziga xos tuzatishlarga duch keldik. Ma'lumki, aruz arab tili xususiyatlari, grammatikasi qonunlariga moslab yaratilgan fan bo'lib, uning o'zga tillarda bunday chegaralar doirasidan chiqishi tabiiydir. Masalan, turkiy aruzda bir harfning bitta qisqa yoki bitta cho'ziq hijo bo'lib kelishi hollari uchraydi. Bu aruzshunoslikda juz'iy xato sanalmagan, balki umuman ayb hisoblanmagan. Misollarga murojaat etaylik. «Navodir un-nihoya» devoniga 358-o'rinda kirgan g'azalning ikkinchi bayti:

Dayr jannatdur gar anda jilvagar har mug'hacha,
Shakl zohir aylar anda huru g'ilmondin bade'.

shaklida berilgan. Bu g'azal «Badoe' ul-bidoya» da yo'q, «Xazoyin ul-maoniy» ning birinchi devoniga kirgan va ko'rinishi quyidagicha:

Dayr jannatdur gar anda jilvagar har mug'hacha,
Shaklikim zohir qilibtur huru g'ilmondin bade'.

O'zgartirilgan misra'laming taqtilari:

Shak l zo hi: /foilotun/ ray la ran da /foilotun/ hu ru g'il mon /foilotun/ din ba de' /foilon/;

Shak li kim zo /foilotun/ hir qi lib tur /foilotun/ hu ru g'il mon /foilotun/ din ba de' /foilon/.

Baytning satrida bir ر (ro) harfi bir hijo bo'lib kelyapti /day r jan nat/ - foilotun, ibtido'da ham shu hol qaytarilgan /shak l zo hi:/ - foilotun. Ko'rinayotganidek, ibtido'da vatadi majmu'da ۛ ۛ bir harakat (fatha, kasra yoki zamma) va bir sokin yetishmayapti. Ikkinchi sababi hafiyf - ح ga ham bir sokin yetishmayapti. Albatta, aruzda bunday ochiq hijolarning cho'ziq o'qilishida hech qanday taajjubli o'rin yo'q. Biroq, g'azalning keyingi variantida baytning avvalgi ko'rinishidagi yetishmayotgan o'rinlar

ko'ldirilgan, «zohir» so'zi /zo: hi:/ sifatida emas, o'zining tabiiy talaffuzida qo'llanilib, bayt ohangi ravonligi yanada oshgan. Bundan tashqari, misra'dagi mazmunan ortiqchalik qilayotgan «anda» so'zi (hol) ham tarkibdan chiqarib tashlangan. Chunki, bu so'z baytning birinchi misra'sida bor bo'lib, uning ikkinchi misra'da ham qaytarilib kelishi natijasida hyech qanday badiiy san'at hosil bo'lmayapti, balki baytga ortiqcha yuk bo'lib tushyapti.

Xuddi shunday yana bir baytga e'tibor qilaylik. «Badoe' ul-bidoya» devoniga kirgan g'azalning matla'i:

Sarvdin gul butmasa qad uzra ruxsori nedur?!
Jon agar shirin desa, la'li shakarbori nedur?!

Baytning «Badoe' ul-bidoya» dagi ko'rinishi («Navodir un-nihoya» da bu g'azal yo'q):

Sarv uza gul butmasa qad uzra ruxsori nedur?!
Jon agar shirin desa la'li shakarbori nedur?!

Yoki:

Bordi Navoyiyo aning ko'yiga zortiq ko'ngul,
Ko'rgil agar inonmasang yo'l uza qonidin asar.
(«Navodir un-nihoya» 225-g'azal)

Maqta'ning «Navodir ush-shabob» dagi shakli:

Bordi Navoyiyo aning ko'yiga yoralig ko'ngul,
Ko'rgil agar inonmasang yo'l uza qonidin asar.

Yoki quyidagi maqta':

Za'fidin maxmurlig yiqti Navoiy jismini,
Yor hazmi ayshida yod aylang ul aftodadin.
(«Badoe' ul-bidoya», 533-g'azal)

«G'aroyib us-sig'an» da quyidagicha keltirilgan:

Za'fdin maxmurliq yiqti Navoiy jismini,
Yor ayshi bazmida yod aylang ul aftodadin.

(478-b.)

«Badoe' ul-bidoya» ning 310-g'azali ikkinchi bayti ham xuddi shunday maqsadda o'zgarishga uchragan:

La'lidin tirguzmak etsam orzu ayb etmangiz,
Hyech kim o'lturmak etmaydur Masihodin tama'.

«G'aroyib us-sig'an» da:

La'lidin tirguzmak etsam orzu ayb etmangiz,
Kim kishi o'lturmak etmaydur Masihodin tama'.

(306-b.)

Shu kabi bir qator baytlarda uchraydigan tafovutlar bir harfning bir hijo bo'lib kelishining oldini olish maqsadida ehtiyoqlikni talab qiladi.

Aruz fani harf va tovushlarning fonetik va orfoepik xususiyatlari, so'zdagi mavqe'i, so'z va so'z birikmalarining o'zaro leksik-semantik va stilistik uyg'unligi jihatlariga bevosita bog'liq fan bo'lganligi sababli ba'zan aruz amaliyotida ko'p uchraganligidan ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan hodisalarga ham diqqatni jalb etishni talab qiladi.

G'azallar matnlarini qiyoslar ekanmiz, ko'p o'rinlarda «erur» fe'lini «bo'lur» bilan, yoki aksincha «bo'lur»ni «erur» bilan almashtirilganligining guvohi bo'lamiz. «Bo'lur» va «erur» orasidagi leksik-semantik farq bu fe'llarning zamonidadir. Ya'ni, «bo'lur» kelasi zamonga oid fe'l, «erur» esa hozirgi zamon fe'l formalari tegishli. Lekin, biz uchratganimiz variantli baytlar matnida bunday tafovut, ya'ni ma'no jihatidan jiddiy ahamiyatga molik biror o'zgarish ko'zga tashlanmaydi. Ammo [e] va [b] fonemalarining xususiyatlari, so'zdagi va gapning stilistik tizimidagi mavqe'i masalalari esa e'tiborga egadek tuyuladi. Shu nuqtai nazardan ba'zi baytlar tahliliga qo'l ursak, A.Rustamovning yozishicha, [e]fonemasi turkiy so'zlarda ochiq

bo'g'inda bir qisqa bo'g'in hosil qiladi,⁵⁷ yopiq bo'g'inda esa bir cho'ziq bo'g'in hosil qiladi va turkiy so'zlarda doim so'z boshida keladi. Navoiyning ba'zi baytlarida bu fonema yolg'iz o'zi bir cho'ziq bo'g'in bo'lib keladi. Masalan,

Men xud o'ldim lek har oshiqki erur pokboz,
Navha tortib motamim tutmoqqa ma'zur o'lmasun.

Ramal bahrda yozilgan bu musammanning uchinchi rukni uchinchi hijosi yolg'iz [e] fonemasidan iboratdir. Xo'sh, buning nimasi ayb, aruzda kerakli o'rinda boshqa unli tovushlar singari [e] ham cho'zib aytilaveradi, degan fikr tug'ilishi tabiiy. Lekin, bu yerda gap shundaki, kitobatda ikki u ning yonma-yon joylashuvi natijasida -l alifining mavqe'i ancha susayib, /مکوشاءوریا/, talaffuzda [e] dan oldin beixtiyor bir j (yo) ham ortirilgandek tuyuladi /j erur/. Bu ham aruz san'atida bor bo'lgan hodisa, ya'ni «...har harfki lafzda kelgay, agarchi kitobatda bo'limg'ay, taqti'da hisobg'a kirg'ay...».⁵⁸

Agar «erur» so'zidan oldin kelgan so'z undosh harf bilan tugaganda, bunday bo'lmas edi, ya'ni bayt uchinchi ruknining vatadi majmu'idagi yetishmayotgan mutaharrik harf o'miga j talaffuz etilyapti. Boshqa matnda bu so'z «bordur» so'zi bilan almashtirilgandan so'ng rukndagi vatadi majmu' ham, sababi hafiyf ham to'liq bo'lib /مکرا - vatad, رود - sabab/, misra' ravon va mukammal ko'rinishga ega bo'ladi:

Men xud o'ldum lek har oshiqki bordur pokboz,
Navha tortib motamim tutmoqqa ma'zur o'lmasun.

Xuddi shunday tahrir «erur» lafzining «bilgil» lafzi bilan o'zgartirilishi natijasida quyidagi baytda ham amalga oshirilgan:

⁵⁷ Рустамов А. Навоий тилининг фонетик хусусиятлари. //Навоий ва адибий таъсир масалалари. Тошкент - 1968, 262-6.

⁵⁸ Алишер Навоий. XV томлик. Т.22. - Тошкент: Адабиёт ва санъат - 1966. 150-6.

Kesgali hushu xirad naxlini erur amae,
Har xaroshbekim junun sharhida faryodimda bor.
[«Badoe' ul-bidoya», 171-b, 6-bayt]

Kesgali hushu xirad naxlini bilgil amae,
Har xaroshbekim junun sharhida faryodimda bor.
[«Favoyid ul-kibar», 136-b.]

Mazkur muqoyasalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilshunosligi Navoiy davri tilining fonetikasiga oid birqator ilmiy ishlarga ega bo'lsa-da, Navoiy tilining fonetik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni to'la to'kis hal qilib beruvchi ilmiy tadqiqotlarga ega emas va bu narsa tilshunoslar va aruzshunoslar diqqatini jalb etishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biridir.

Shoir devonlaridagi nihoyatda ravon va mukammal baytlarning ham bir necha variantlari uchraydi. Bu shunday matn variantlariki, ularning mukammalligini faqat shoirning eng daqiqunazar, she'rshunos o'quvchisigina his eta oladi. Masalan, «Badoe' ul-bidoya» devonidan joy olgan quyidagi baytlarda bir qarashda ma'no va mazmun takomili yuzasidagina tafovut borgan o'xshaydi. Biroq, e'tibor qilinsa, bayt aruzida ikki ketma-ket kelgan undosh harfdan birining qisqartirilishi natijasida baytdagi ohang jilosi yanada tiniqlashgan. G'azal aruzning hazaji musammani solim bahrida yozilgan bo'lib, tafovut g'azalning oltinchi baytida uchraydi:

Sovurg'il aql evin gardun, meni majnun qachon o'lsam,
Tanim tufrog'iyu ohim yelidin girdibod aylab.

Taqti':

Sovur g'i: laq /mafo'iyun/ levin gar dun /mafo'iyun/ meni maj nun /mafo'iyun/ qacho no'l sam /mafo'iyun/

Tanim tuf ro /mafo'iyun/ g'iyu o him /mafo'iyun/ yeli din gir /mafo'iyun/ dibo day lab /mafo'iyun/.

Bu bayt «Navodir ush-shabob» da shunday:

Sovurg'il aql evin gardun meni majnun agar o'lsam,
Tanim tufrog'iyu ohim yelidin girdibod aylab.

Uning boshqa variantidagi misra' taqti':

Sovur g'i: laq /mafo'iyun/ levin gar dun /mafo'iyun/ meni maj nu /mafo'iyun/ nazar o'l sam /mafo'iyun/.

Nazar solinsa, bayt ruknlaridagi sabab va vataqlar mukammal hosil qilingan. Biroq, baytda bitta «qachon» lafzining «agan» lafzi bilan almashtirilishi natijasida misra' ohangida biror o'rinda ham to'xtalish yuz bermayapti.

«Badoe' ul-bidoya» devoniga kirgan bir g'azalning maqta'iga ham o'ziga xos nozik bir tuzatish kiritilgan. Bu g'azal «Navodir un-nihoya» ga ham kiritilgan bo'lib, bu matnda o'zgarish yo'q. Ammo, u «Xazoyin ul-ma'oniyy» devonlaridan «Navodir ush-shabob» ga kiritilishdan oldin o'zgartirishga uchragan. Mana o'sha bayt-maqta:

Ey Navoiy, gar vafosi qolmamish oning sanga,
G'am yemakim, anga husnining vafosi qolmamish.

«Husnining» lafzidagi -ni egalik va -ning kelishik qo'shimchalarining «ni: ni» tarzida ikki qayta takrorlanishi so'z ohangi notabiiyligiga sabab bo'lishi mumkinligi bois «anga husnining» birikmasini «anga ham husnin» birikmasi bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, -ning qo'shimchasi taqti'da bir cho'ziq (-) ni: bo'lib keladi. Bu haqda «Mezon ul-avzon» da shoir shunday yozadi: «Yana ortuqsi «mun» larkim, so'z irtiboti uchun «ming» /مینگ/ lafzida bitilur, misli «oning» va «mening» va «sening» lafzida, andoqkim bayt:

Ey ko'ngul bilgilki bu jon ne seningdur, ne mening,
Balki oningdur desang, kimning deyinkim yoming.

Va bu mazkur bo'lg'on alfozning «kofi» laridurkim, «kofi» o'mida bitilur, ammo talaffuzda «kofi» o'mig'a kirmas. Va yana «nuro» bila «kofi» larkim oning va mening va tong va o'ng va so'ng va nang va tang ...lafzida voqye'durkim, barchasi taqti'da soqit bo'lur».⁵⁹

G'azalning keyingi variantida nuqsli bo'lib ko'ringan bayt tahririga uchragan va shundan so'ng ravon ohangga va go'zal shaklga ega bo'lgan:

Ey Navoiy, gar vafosi qolmamish oning sanga,
G'am yemakim anga ham husnin vafosi qolmamish.
[«Navodir ush-shabob», 273-b.]

Bundan tashqari, -ning lafzi baytning birinchi variantida ikki misr'da ham qo'llanilgan bo'lib, tahrirdan keyin bunga barham berilgan. Mazkur matn variantining yana bir fazilati shundan iboratki, ta'kid ma'nosini berib, shoirning birinchi misra'dagi fikrini dalillab keltiruvchi «ham» bog'lovchisi baytdagi mazmunning mantiqiy rivoji uchun xizmat qilgan.

Xuddi shunday tafovutlar g'azalning matla'iga ham taalluqli. Baytning matnlardagi avvalgi va keyingi holatlarini solishtirib ko'ring:

Manga emdi sarv ila gul muddaosi qolmamish,
Sarv bo'yluq guljabinliklar havosi qolmamish;
Manga emdi sarv ila gul muddaosi qolmamish,
Sarv bo'yluq guljabinlarning havosi qolmamish.

Navoiy devonlaridagi ana shu tariqa rang-barangliklarni ko'zdan kechirar ekanmiz, g'azallar kompozitsiyasiga, mavzu va mazmun uyg'unligiga, badiiy san'atlarning go'zal va mukammal qo'llanilishiga oid matnlar variantlarini o'rganishning, shuningdek, qiyin va murakkab aruz ilmini o'ta nozik qirralariga e'tibor berib, mukammal vaznlarda yozilgan

⁵⁹ Алишер Навоий. XV тоғлиқ. Т.22. – Тошкент: Адабиёт ва санъат – 1968. 153-6.

she'rlarning ba'zi o'rinlarida uchragan tafovutlar hodisasini tahlil etishning ahamiyatiga ega ekanligiga amin bo'ldik. Bu hodisa esa arabiy she'riyati turkiy she'riyatga kirib kelishi munosabati bilan bog'lik bo'lgan qator masalalarni adabiyotshunoslikning tadqiqot maydoniga olib kirilishi uchun vosita bo'lishi mumkin. «Mezon ul-avzon» da Navoiy turkiy she'riyatining juda ko'p jihatlari ochib beruvchi chuqur ilmiy tahlillarni maxsus tillar doirasida amalga oshirdi, turkiy aruzning o'ziga xos qonuniyatlarini aniqladi. Agar «Mezon ul-avzon» ning «Xazoyin ul-ma'oniyy» devonlariga tarix berilgandan so'ng yozilganligini e'tiborga olsak, bu asarning bevosita devonlar tuzish jarayonida shoir ijodxonasida yuz bergan juda katta ijodiy mehnat mahsuli sifatida yuzaga kelganligiga amin bo'lamiz. Yuqorida tahlilga tortilgan misollardan shunday xulosa qilish mumkinki, shoirning «Mezon ul-avzon» ni yozishdan maqsadi aruzdagi muammolarning yangicha talqini berish va uni boyitishdan iborat ekan, bu maqsadning amalga oshirishida uning o'z g'azallarini yaratish jarayonida to'plagan tajribalarini umumlashtirishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Aruz taraqqiyotida yangicha qarashlarni ilgari surgan Navoiy bu ilmining keyingi davr turkiy xalqlar adabiyotshunosligida chuqur o'rganilishi uchun zamin yaratdi. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida aruz turkiyning samarali o'rganilishi va aruz ilmidagi yangi muqatta'alarining kashf etilishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Bobur o'zining «Muxtasar fil aruz» asarida aruz vaznining 21 bahri, axram va axrab tarkimidagi ruboiylar, doira va uning turlari, 500 dan ortiq rukn shoxobchalarini aniqladi. Bobur Navoiyning ruboiy vaznlari tahlili bobida 4 ta xatolik borligini ham aniqlaydi. Biroq, bu adabiyotshunos olimlar fikrlariga ko'ra, kotiblar e'tiborsizligi tufayli sodir bo'lgan bo'lib, «Mezon ul-avzon» ning ilmiy qimmatiga va ahamiyatiga aslo putur yetkazmaydi. Bobur Navoiy tomonidan kashf etilgan 2 doira (doirai mujtamia va dairai muhtalifa) ga qo'shimcha tarzda yana 2 doira (doirai mujtahibai muzoxafa va mujtahibai muxtaraa) ni ixtiro qiladi va vaznlar tarkibiga ham ikki qo'shimcha vazn (ariz va amiyq) ni kiritadi.

Bobur o'z ilmiy tadqiqotlari bilan XV asr adabiyotshunosligida bo'lgan aruz haqidagi bahsa munozaralarga to'liq yakun yasadi, ijodiy kuzatishlari natijasida aruz ilmini yanada yuqori bosqichga ko'tardi.

«Muxtasar» o'zigacha fors-tojik adabiyotida bo'lgan va «Mezon ul-avzon» dagi aruz nazariyasiga oid qarashlarni ijodiy jihatdan umumlashtirganligi va huning natijasida aruz nazariyasi hududlarini kengaytirganligi bois keyingi davrda eng ishonchli nazariy qo'llanma hamda manba' bo'lib qoldi.

Aruz nazariyasining keyingi ilmiy o'rganilishi Abdulrauf Fitrat, Izzat Sulton, Sodiq Mirzaev, Alibek Rustamov, Ummat To'ychiev, Anvar Hojiahmedov va A.Abdurahmonov kabi olimlar faoliyati bilan bog'liqdir. O'zbek aruzining Navoiy va Boburdan keyingi rivoji A.Fitratning «Adabiyot qoidalari», «Aruz haqida», (Toshkent, 1936), I.Sultonning «Adabiyot nazariyasi» (1939), N.Shukurovning «Adabiyotshunoslikka kirish», A.Rustamovning «Aruz haqida suhbatlar» (1972), «Navoiyning badiiy mahorati» (1979), U.Tuychievning «Aruzshunoslikka doir» (1973), A.Abdurahmonovning «Aruz nazariyasi» kabi asarlarining dunyoga kelishi bilan bog'liq. I.Sultonov tomonidan «Mezon ul-avzon» ning (1949), Saidbek Hasanov tomonidan esa «Muxtasar» ning (1971) tanqidiy matnlari tayyorlanib, nashr etirilishi, mashhur sharqshunos olim Sodiq Mirzaevning Navoiy aruziga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi bu sohada qo'lga kiritilgan eng katta muvaffaqiyatlardan biridir.

Adabiyotshunoslikda asarlar matnlarini qiyosiy o'rganish, ularda ko'zga tashlangan turli mazmundagi o'zgarishlarni tekshirish bu fanning ma'lum sohalarida qandaydir yangiliklar kiritilishiga, muammoviy masalalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda aruz ilmining keyingi rivoji va ommalashuvi masalasi davrimiz adabiyotshunosligining dolzarb muqatalaridan biridir. Navoiy asarlari vaznlari va u bilan bog'lik ko'pgina muammolar, jumladan, shoir g'azaliyotida vazn nuqtai nazaridan amalga oshirilgan tahrirlarni jiddiy o'rganish bu sohada ma'lum darajada ijobiy siljishga olib kelishi mumkin. Tojik olimi R.Musulmonqulov o'zining «Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika X-XV vv» nomli kitobida shunday yozadi: «Analiz nablyudeniy srednevekovix avtorov po povodu

russheniy otdelnami poetami nekotorix kanonov aruza pomog boi vnyasnit vopros o proisxojenii i razviti tadjiksko-persidskogo aruza».

Turkiy aruzning ham paydo bo'lishi va taraqqiyoti masalasi fanimizda hanaiz ochiq turgan muammolardan biridir. Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida forsiy va turkiy zabon shoirlar ijodlaridagi qator kamchilik va nuqsonlar haqida nazokat bilan gapirib o'tadi. Biroq, undan keyingi adabiyotshunoslikda aruz qonuniyatlari sohasida turli davr shoirlari ijodida ko'zga tashlangan yutuq va kamchiliklar, ahli tab'ning o'z ijodlariga bo'lgan munosabatlari, o'z ijodiy mahsulotlarini o'zlari isloh qilishlari masalalari bilan bog'liq e'tiborga molik biror tadqiqot ko'zga tashlanmaydi.

Navoiy lirikasi, epik va nasriy asarlari vaznlari xususida bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilgan bo'lsa-da, ular Navoiyning aruz fanida naqadar mukammal ijod etganligini ta'kidlagan, isbot etgan holda, uning turkiy aruz taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlash uchun yetarli manba' bo'la olmaydi. Bu hol Navoiy ijodiy jarayoni xususiyatlarini ham jiddiy va har tomonlama o'rganishni taqozo etadi. Navoiy asarlari matnlarini vaznlar sohasida qiyoslab o'rganishimiz natijalari esa shoir g'azallari matnlarining mukammalroq, asliyatga yaqinini topish, ilmiy-tanqidiy matn yaratish sohasidagi izlanishlarga muhim yangilik bo'lib qo'shiladi.

Turkiy tili xalqlar ijodiyotida aruz juda uzoq tarixga ega bo'lsa-da, uni adabiyotshunoslik fani talablari muqta nazaridan nazariy jihatdan o'rganan va ommalashtirgan shaxs Navoiy edi. Aruzning amaliy taraqqiyotini ta'minlashda shoiming «Xazoyin ul-maoni» devonlarini tuzish davridagi ijodiy mehnati boshqa juda ko'p omillar qatorida o'ziga xos bir bosqich bo'ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Turkiy tili xalqlar ijodiyotida aruz uzoq tarixga ega ekanligi haqida Alisher Navoiy qaysi asarida ma'lumot beradi?
2. Alisher Navoiy o'z lirikasida badiiy san'at vositalaridan mukammal darajada foydalanar ekan, o'sha davr turkiy she'riyatidagi an'analarga qanday munosabatda bo'ldi?

3. Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida qay tariqa o'zidan ilgari o'tgan va zamondosh bo'lgan shoirlar ijodini badiiy tahlil etgan?

4. Navoiy ijodiy tamoyillaridan biri bo'lmish uning o'z devonlarini «Debocha»lar bilan ta'minlaganligi hodisasini qanday tushuntirish mumkin?

5. O'rta asr adabiyotshunoslari tomonidan qo'llangan «dafzu maoniy» jumlasini qanday tushunasiz?

6. Ulug' shoiming ijtimoiy mavzu vositasida yuzaga kelgan didaktik g'azallari haqida nimalarni bilasiz?

7. Shoir hayotining turli davrlarida o'sha davr mazmuni bilan hamohang ravishda namoyon bo'lgan she'riyat adabiyotshunos olimlar tomonidan qanday tavsiflangan?

8. G'arb olimlari o'rta asrlar sharq adabiyotida o'ziga xos mustaqillik, originallik haqida fikr yunitar ekanlar, sharq poetikasiga qanday baho beradilar?

9. Arab musulmon nazariyotchilaridan Abd-al-Qahir Jurjoni o'zining «Dalo'il al-e'joz» va «Kitob asror al-balog'a» asarlarida Qur'oni Karimning betakror badiiyatini ta'minlashi mumkin bo'lgan omillar haqida qanday ma'lumot beradi?

10. Bobur o'z ilmiy tadqiqotlari bilan XV asr adabiyotshunosligida bo'lgan aruz haqidagi bahsu munozaralarga qay tariqa yakun yasadi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Абдугафуров А. Буюх бенлих сабоқлари. - Тошкент, 1995. 184 б.
2. Абдугафуров А. Навоий сатириси. - Тошкент: ФАН, 1966. 316 б.
3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. «Навай и Джамин». - М., Наука, 1965. С.164.
4. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. 2 томлик - Тошкент, 2002. 508 б.
5. Вохидов Р. Алишер Навоий ва илохият. - Бухоро, 1994. 176 бет.
6. Зоҳидов В. Дебочанинг сирри. - Тошкент, 1975.
7. Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоcha. (ПДА). - Тошкент, 1993.
8. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. - Тошкент: "TAMADDUN", 2012.

9. Куделин В.Г. Средневекковая арабская поэтика. - Москва: Наука, 1991. 362 с.

10. Мирзоев А.М. Рудаки и развитие газели. - Сталинабад: Таджикгосиздат, 1958. 71 с.

11. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская поэтика X-XV вв. - Москва: Наука, 1989. 240 с.

12. Мухиддинов М. Компил инсон - адабиёт идеали. - Тошкент: Маънавият, 2005.

13. Османов М.Н. Стиль персидско-таджикской литературы. (X-XII вв.). - Москва: Наука, 1971. 267 с.

14. Проблемы арабской культуры. - Москва: Наука, 1987. 392 с.

15. Проблемы восточного стихосложения. - Москва: Наука, 1973. 184 с.

16. Проблемы исторической поэтики литератур Востока. - Москва: Наука, 1988. 312 с.

17. Сирождидинов Ш. Навоий навоисидан бахра олиб... - Самарканд: "Зарафшон", 1996. - 184 б.

18. Филмор Ч. Основные проблемы лексической семантики. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XI. - Москва, 1983. С. 32-34.

19. Ҳасанов С. Бобурнинг "Аруз рисоласи" асари. - Тошкент: Фан, 1981. 132 б.

20. Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (У1-ХП вв.). - Москва: Наука, 1979. 254 с.

21. Шпет Г.Г. Внутренняя форма слова. - Москва: Наука, 1927. 136 с.

22. Шпет Г.Г. Герменевтика и её проблемы. - Москва: Наука, 1923. 128 с.

NAVOIY IJODIDA TURKIY SHE'RIYAT TARAQQIYOTI MASALALARI

Dars rejasi:

1. Alisher Navoiy ijodida qadimiy turkona she'riyat an'alarining yangilanishi.
2. Ijtimoiy ruhdagi g'azallarda g'oya-mazmun va badiiy obraz takomili.
3. Alisher Navoiyning o'z davrida keng tarqalgan lirik janrlardagi asarlari.

Tayanch iboralar: *"Mezon ul-avzon", poetika, mumtoz she'riyat, turkona, turkiy, jamiyat, ahli davron, sufiyona, keksalik, mafhum.*

1.

Markaziy Osiyoda mo'g'ul istibdodidan so'ng boshlangan turkiy yuksalish davrida turkiy tilda badiiy asarlar yaratishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. X-XII asrlar o'zbek diniy adabiyotida, xususan, Xoja Ahmad Yassaviy ijodida turkiy she'riyatning asosiy tarkibiy omillaridan biri bo'lmish xalqchilik an'anasi – badiiy fikrning til va uslub jihatidan oddiy xalqqa tushunarli, ta'sirchan she'riy ifodasi ko'zga tashlansa, XVI asr boshlaridagi adabiy yodgorliklarda nafaqat mavzu va mazmun, balki shakl jihatidan ham o'ziga xos turkonalikka intilish, aniqrog'i, turkiy qo'shiq uslubi va vazniga murojaat etish hollari kuzatiladi. Nosiruddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziyning «Qisas ul-anbiyo» (1310/11) asarida turkiy qo'shiqning shoyon vaznlaridan biri ramali musammami maqsurda yozilgan she'rning uchrashi bunga bir misol bo'la oladi:

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro'zi,
Kechdi bahman, zamharir qish, qolmadi qori bo'zi...

Haydar Xorazmiy Nizomiyni «Maxzan ul-asror» dostoni tarjimasiga kirishar ekan, turkiy tilda yozilishi lozim bo'lgan nazm asarlarining badiiy jihatdan yuksak, ya'ni tom ma'noda turkona bo'lishi uchun she'rning qo'shiq janri bilan uyg'unligi muhim talablardan biri ekanligini ta'kidlab, «Gulshan ul-asror» dostonida yozadi:

Turk zahuridur o'chunda bukun,
Boshla ulug' yir bila turkona un.
Rost qil ohangi navovu hijoz,
Tuz yotug'on birla shudurg'uni soz.
Turk surudini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolg'u bila ko'kla qubuz.

Turkiy tildagi xalqchil she'riyatning turkiy mumtoz she'riyat darajasiga yetish jarayoni, ma'lum bo'lganidek, XV asrning ikkinchi yarmilarigacha davom etadi. Bu ijodiy takomil jarayoniga Alisher Navoiy lirikasi yakun yasadi. Navoiy qadimgi o'zbek tilining taqdiri yuzasidan Sulton Husayn Boyqaro amalga oshirgan siyosati va amaliy tadbirlarni o'ziga xos yo'sinda qo'llab-quvvatladi. Har ikki tilda (forsiy va turkiy) ijod qilish iqtidoriga ega bo'lgan Husayn Boyqaro o'z asarlarini, asosan, o'zbek tilida yaratganligi tasodifiy emas edi va Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» da yozishicha, uning tomonidan «...iltifot va ixtimom yuzidin ba'zi ma'nilar topib, nazm qilurg'a hukmlar ham joriy bo'ldi va so'z uslubig'a ta'yinlar va adosig'a ta'limlar ham izhori bo'ldi». Binobarin, u «Majolis un-nafois» ning 8-majlisida Husayniy g'azallarining qofiya va radiflaridagi ixtirolarini ta'rif etadi. Navoiy turkiygo'y shoirlar ijodida qofiya masalasiga jiddiy e'tibor berib (Atoiy baytini eslang), qofiyaning ohang jihatidan muvofiq bo'lishini turkona (ya'ni, sodda, xalqona, og'zaki ijod namunalariga yaqin) deb baholaydi. Biroq, bu hodisani klassik Sharq she'riyati badiiy qonuniyatlari talablari nuqtai nazaridan tanqid («aybg'inasi»)

qiladi. Shoirning Husayniy devonidan keltirgan baytlari muvofiqan turkona, qofiyaning asosi bo'lmish raviy nuqtai nazaridan esa klassik adabiyot qofiya nazariyasi talablariga javob beradigan bo'lganligi sababli ham tahsinga sazovor bo'ladi. Demak, shu munosabat bilan Navoiy Husayniyning ijodi turkiy she'riyatni mumtoz adabiyot poetikasi qonun-qoidalari doirasiga kirishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligini bilvosita ta'kidlaydi. Turkiy she'riyatning badiiy qonuniyatlari tizimi talablariga yaqin, tabiiy rivojini yanada tezlatish uning adabiy-estetik o'ziga xosligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun nimalarga e'tibor qilmoq kerakligini Navoiy birinchi bo'lib anglab yetdi. Eng avvalo, shoir turkona uslubiy asoslardagi she'riyatning klassik uslub darajasidagi takomili uchun turkonalik an'analardan katta mahorat bilan foydalanib ijod qildi. Ikkinchidan, turkiy she'riyatni mustazod va musammakat kabi yangi janrlar bilan boyitdi. Bundan so'ng, betakror badiiy tasvir usullari va favqulodda ta'sirchan badiiy lavhalar yaratish bilan bir qatorda, tatabbu va tazmin san'atlarining ham yangicha namoyishini ko'rsatdi.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning «turkona» atamasiga bo'lgan munosabatini aniqlab olish lozim. Navoiy bu atamani ham ijobiy, ham salbiy ma'noda qo'llaydi. Taniqli adabiyotshunos Yo'Is'hoqov Navoiyning turkona she'riyatga bo'lgan salbiy munosabatini quyidagi mulohazalar bilan izohlaydi: «...poetik sintaksisning oddiyligi, yengil vaznlarning (ko'proq yengil vaznga ega ramal va hazaj bahri) qo'llanilishi, qofiya masalasida folklorga yaqinlik (ya'ni, alliteratsion-intonatsion prinsipning saqlanganligi), janr hukmronligi (ko'proq tuyuq) poetikasi (g'azalning hajmi, kompozitsiyasi, tematikasi) borasida ham o'ziga xoslikka ega. Lekin bunday xarakterdagi she'rlar uchun xilma-xil murakkab figuralar xarakterli bo'lmasa-da, tajnis san'ati muhim mavqiyega ega. Shoirning «turkona» ga bo'lgan ijobiy munosabatini esa «turkiy» deb atalmish qo'shiq turiga nisbatan aytilgan mulohazalaridan anglab olish mumkin: «Yana surudedurkim, ani «turkiy» debdurlar,

bu lafz anga alam bo'lubdur va ul g'oyatdin tashqari dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysh ahdig'a sudmand va majlisoro suruddur...» Ko'rinayotganidek, Navoiy turkona she'riyatga shakl va poetika talablari nuqtai nazaridan baho berganda salbiy munosabat bildiradi, mavzu, ma'no-mazmun nuqtai nazaridan yondashganda esa ijobiy fikrlar bayon etadi. «Mezon ul-avzon» asarida shoir turkiy tildagi she'rlarni «asosan, qo'shiqlar» vaznlari nuqtai nazaridan tahlil etar ekan, «turkiy» deb atalmish qo'shiq turiga alohida to'xtaladi. Navoiy yuqorida keltirgan tavsifda «turkiy» ni «surud» deb atagan. Surudning bir ma'nosi – ashula, qo'shiq bo'lsa, ikkinchi ma'nosi she'r – demakdir. Akademik B.Valixojayev mulohazalariga ko'ra, Navoiy «turkiy» ning yozma adabiyot poetikasi qonuniyatlarini qabul qilganligiga e'tibor berib, uning she'rlik ma'nosiga ko'proq moyillik ko'rsatganligi sezilib turadi. Shu nuqtai nazardan, «...shoir «turkiy» ga alohida she'r janri sifatida qaraydi va uning o'ziga xos janriy xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tadi. Bulardan birinchisi shundan iboratki, turkiy eski o'zbek tilida yozilib, shu munosabatda turkiy nomi bilan shuhrat qozongan... Ikkinchidan «turkiy» «g'oyatdin tashqari dilpisand va ruhafzo va majlisoro suruddur», uchinchidan, «turkiy» da fikr ravon til va badiiy jihatdan noziklik bilan ifodalangan, va nihoyat, to'rtinchidan, u ramali musammani maqsur vaznida yozilgan». Shu tarzda olim Navoiyning «Mezon ul-avzon» da bergan ma'lumotlariga asoslanib, «turkiy» ning boshqa she'riy janrlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarini, qisqacha bo'lsa-da, bayon etadi. Ta'kidlash joizki, Navoiyning «Majolis un-nafois» va «Mezon ul-avzon» asarlaridagi boshqa ma'lumotlar ham «turkiy» ning janr xususiyatlarini aniqroq tasavvur etishga imkon beradi.

Bobur ham xalq qo'shiqlaridan tarxoniylar va turkiy haqida ma'lumot berar ekan, «Sulton Husayn Mirzoning zamonida yana bir surud chiqdikim, «turkiy» ga – o'q mavsum bo'ldi, anga ushbu vaznni taqsim qilurlar, ul dag'i ikki davrda bog'lanibdur», – deydi. Demak, Alisher Navoiy va Boburning ilmiy risolalarida maxsus

qayd etilib, muayyan shakl va mazmun hamda tematik jihatdan o'z qiyofasiga ega bo'lgan «turkiy» she'r bu davrda lirik janr darajasiga ko'tarila borgan.

She'riyatda shakl va mazmun munosabatlari masalasida mazmun yetakchiligini doim ta'kidlagan Navoiy «turkiy» ni yangi mazmun va rang-barang mavzular bilan boyitishni maqsad qildi. Ya'ni, Alisher Navoiy «turkiy» si faqat ishq va muhabbat bilan bog'liq bo'lgan kayfiyat bayoni yoki tasviridan iborat bo'lib qolmay, unda falsafiy munosabat kuchayadi, ishq va muhabbat tushunchasi, yor va uning tasviri tushunchasi yanada kengayadi. Shu nuqtai nazardan, Navoiyning «turkiy» uslubda muayyan syujet chizig'iga ega bo'lgan yakpora va tadrijlil g'azallarni ko'plab yaratganligi e'tiborlidir. Xossatan, «Ilk devon» dan «Kecha kelgumdur debon...», «Ul parivashkim...», «Yog'lig'ing, eykim, tikarsen...» kabi g'azallarining o'rni olishi fikrimizga yorqin misoldir.

Navoiy «turkiy» sining yana bir xususiyati shundaki, shoir devonlarida, bir tomondan, oshiqona turkiy she'rlar mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, «turkiy» ga xos vazn va uslubda bitgan ijtimoiy, falsafiy va satirik g'azallar ham uchraydi.

Alisher Navoiyga qadar yashagan va unga zamondosh bo'lgan turkiygo'y shoirilar ijodi, asosan, ma'lum ma'noda tematik jihatdan chegaralangan «turkiy» janridagi she'rlar doirasida qolgan bo'lsa (tuyuq janrini istisno etganda), Navoiy bu janr imkoniyatlaridan, vazni va badiiy tasvir uslubidan foydalanib, yangi mavzu va shakldagi g'azallar yaratdi.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» da qo'shiqlarning bir necha turini tavsiflab beradi, ya'ni, «Birisi «tuyug'» durkim, ...», «Yana «qo'shiq» durkim, ...», «Yana «chinga» durkim, ...», «Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani «muhabbatnoma» derlar...», «Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim... ani «musta'zod» derlar emish...», «Yana Iroq ahli tarokimasida surude shoc'kim, ani «aruzvoriy» derlar...», «Yana sudedurkim, ani «turkiy» debdurlar»

kabi. Ana shu qo'shiq turlaridan bo'lmish musta'zodning Navoiyga qadar ijod qilgan shoirlardan faqat Gadoiy devonida yagona namunasi uchraydi.

Navoiy musta'zod uslubida she'rlar bitib, o'zining birinchi rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya» ga uning uchta namunasini kiritadi. «Xazoyin ul-maoniyy» devonlarning har biriga bittadan asarni joylashtirgan. Shoirning devonlari debochalarida batafsil asoslab bergan tadvinchilik (devon tartib berish) sohasidagi badiiy-estetik tamoyillarini nazarda tutadigan bo'lsak, uning bu hodisadan ko'zda tutgan maqsadi ayon bo'ladi. Buyuk shoir devon tartib berganda imkon qadar bircha lirik janrdagi asarlarni kiritmoq lozimligini ta'kidlar ekan, musta'zodni o'zbek mumtoz she'riyatining lirik janrlaridan biri sifatida o'rnatib qolishini maqsad qiladi. Shu bilan birga, o'zidan keyin devon tartib beruvchilarga bu janrda ham she'rlar ijod qilish lozimligini bilvosita uqdiradi.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz she'riyatida musammat janri taraqqiyotiga asos solgan ijodkordir. Navoiyga qadar musammatning faqat mustaqil (tab'i xud) shakllaridagi namunalari yaratilgan edi. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammat tarixi va rivojini mufassal tadqiq etgan olim R.Orzibekov bu haqda shunday yozadi: «...Musammatning tazmin usulidagi ilk namunalari yaratish bilan Navoiy o'z g'azali asosida musammatlar yaratish an'anasini boshlab berdi. Alisher Navoiy boshqa qator lirik janrlarning reformatori bo'lganidek, Sharq musammatchiligi imkoniyatlarini kengaytirdi. U o'z ijodi misolida bu sohada ham hayotbaxsh adabiy maktab yaratdi. Musammatning muxammas, musaddas va musamman kabi tazmin shakllarini kashf etdi». Olim keyingi yillarida Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» nomli asarining topilishi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishi munosabati bilan yozgan maqolasida garchi Navoiy va Husayniyning ijodida musammatning g'azallar asosidagi tazmin namunalari yaratish usullari kashf qilingan va badiiy ijod tajribasiga joriy etilgan bo'lsa-da, uning mustaqil (tab'i xud)

namunalari XV asr 1-yarmi turkiy-o'zbek she'riyatida ham mavjudligi ayon bo'lganligini qayd etadi. Ya'ni, ta'kidlanishicha, Hofiz Xorazmiyga zamondosh boshqa qator turkiygo'y hamda fors-tojik tilida qalam tebratgan shoirlar ham mustaqil muxammaslar yaratganlar, ammo: «Shu zaminda Alisher Navoiy davri adabiy hayotida musammatning tazmin usulida yaratilgan namunalari ham kashf etilib, turkiy-o'zbek she'riyatining janr tarkibi boyitilgan».

Navoiy «Badoe' ul-bidoya» devoniga 5 ta muxammas kiritgan va shulardan 3 tasi Lutfiy g'azaliga, 2 tasi o'z g'azaliga bitilgan. Devondan joy olgan 2 musaddasning har ikkalasi ham Lutfiy g'azaliga yozilgan.

«G'aroyib us-sig'ar» devoniga kiritilgan uch muxammasning bittasi Lutfiy g'azaliga, ikkitasi o'z g'azaliga bog'langan. Devonga kirgan bir musaddas Navoiyning o'z g'azaliga bitilgan. Shuningdek, «Navodir ush-shabob» dagi uch muxammasdan bittasi Lutfiy, ikkitasi o'z g'azaliga, bir musaddas o'z g'azaliga bog'langan.

«Badoe' ul-vasat» devoniga bittadan Lutfiy va o'z g'azallariga muxammaslar, bittadan yana Lutfiy va Husayniy g'azallariga musaddaslar joylashtirilgan.

«Favoyid ul-kibar» devonidan esa shoirning o'z g'azallariga bog'langan ikki muxammasi, Lutfiy g'azali oltilantirilgan bir musaddas va yana shoirning o'z g'azali sakkizlantirilgan bir musamman o'rin olgan. Demak, Navoiy hammasi bo'lib Mavlono Lutfiy g'azallariga uch muxammas va ikki musaddas, Husayniy g'azaliga bitta musaddas va o'z g'azallariga yetti muxammas, ikki musaddas va bir musamman bog'lagan. Navoiyning o'z g'azallaridan ijodiy foydalanib, yangi lirik janrdagi asarlar yaratganligi haqida navoiyshunos A.Abdug'afurov o'z mulohazalarini shunday bayon etadi: «Xazoyin ul-maoniyy» dagi qolgan o'n musammat Navoiyning o'z g'azallari asosida yaratilgan. Navoiy birinchi galda o'z zamonasida shuhrat qozongan g'azallarni muxammaslar shakliga keltirgan.

Turkiy tildagi xalqchil she'riyatning turkiy mumtoz she'riyat darajasiga yetish jarayoni, ma'lum bo'lganidek, XV asrning ikkinchi yarimlarigacha davom etadi. Bu ijodiy takomil jarayoniga Alisher Navoiy Navoiy Husayniyning ijodi turkiy she'riyatni mumtoz adabiyot poetikasi qonun-qoidalari doirasiga kirishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligini Alisher Navoiyning «turkona» atamasiga bo'lgan munosabatini aniqlab olmoq lozim. Navoiy bu atamani ham ijobiy, ham Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» da qo'shiqlarning bir necha turini tavsiflab beradi, ya'ni, «Birisi «tuyug'» durkim, ...», «Yana «qo'shiq»durkim, Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» nomli asarining topilishi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishi munosabati bilan yozgan maqolasida garchi «Xazoyin ul-maoniyy» devonlarining avvalgi ikkitasida uchtadan muxammas va bittadan musaddas, keyingi ikkitasida ikkitadan muxammas va ikkita musaddas («Favoyid» da bittasi musamman) kiritilgan. Shoir rioya qilgan yana bir estetik qonuniyat shuki, barcha devonlarda Mavlono Lutfiy g'azallariga bog'langan musammatlar birinchi o'rinda keltiriladi. Devon tahlili sohasida mukammal badiiy-estetik prinsiplarni ishlab chiqqan Navoiy shu yo'sinda musammat janrlarining devon kompozitsiyasi uchun muhim tarkibiy unsurlardan biri ekanligini ta'kidlab, uning turkiy tildagi ajoyib namunalarini namoyish etadi.

Navoiy devonlarida yana bir e'tiborga molik jihat mavjud. Bu hodisani badiiy usullardan tazmin va tatabbu qilish san'atida shoirning tutgan o'ziga xos uslubi, deb baholasak bo'ladi. Masalan, shoir «Navodir un-nihoya» ga kirgan yetti baytli 575-g'azal matlaidan foydalanib, «Xazoyin ul-maoniyy» ga yetti baytli yangi g'azal yozib kiritadi. Buni Navoiyning o'z g'azaliga qilgan tatabbusi deyish lozim. Shoir g'azalning matlaini aynan keltirib, uning vazni va uchta qofiyasini yangi kontekstda saqlab qoladi. G'azallar ishqiy mavzuda bo'lib, mazmunan ham bir-biriga juda yaqindir. Ayni shu usulni u «Navodir un-nihoya» dagi 546- va «Xazoyin ul-maoniyy» dagi 433-g'azallarda ham qo'llaydi. Ya'ni, bu

g'azallarning matla'lari bir xil bo'lganidek, hajm jihatidan ham ular bir xil, yetti baytlidir.

Tazmin va tatabbu san'ati ishlatilgan «Xazoyin ul-maoniy» dagi 433-g'azalda avvalgi g'azalning vazni, radifi va beshta qofiyasi saqlangan. Ikkala g'azal ham tasvir asosiga qurilgan bo'lib, semantik-emotsional tasvir g'azallar kompozitsiyasi asosini tashkil etadi. G'azallarni baytma-bayt tekshiradigan bo'lsak, birinchi g'azalda tasvirlangan biror obraz yohud badiiy lavha ikkinchi g'azalda ham shu tasvir ob'ekti yoki u bilan bog'liq voqyealarni yanada yorqinroq, kengroq ifodalab keladi. Ikki she'rda mazmunan mos bo'lgan baytlarning qofiyalari ham bir xil. Endi baytlari yonma-yon qo'yib, muqoyasa qilib ko'raylik.

Avvalo, ko'ngil obrazi bilan bog'liq lavha:

Demang ko'nglung qanikim, hajrdin behush edim,
Qay sori borg'onin ul bexonumonim bilmadim.
(«Navodir un-nihoya», 3-bayt)

Ul pari to jilva qildi bordi ko'nglum, vah, qayon,
Bo'ldi ul ovvorai bexonumonim, bilmadim.
(«Xazoyin ul-maoniy», 5-bayt).

Yorning ta'na qilishi bilan bog'liq lavha, «Navodir un-nihoya», to'rtinchi bayt:

Vaslidin so'z deb bu yanglig' ta'nig'a xush kelmasin,
Bilmadim, ey qotili nomchribonim, bilmadim.

«Xazoyin ul-maoniy», uchinchi bayt:

Demadingmu, dema rashkimniki, boqting g'ayrima,
Bilmadim, ey kofiri nomchribonim, bilmadim.

Maqta'din oldingi bayt ikki g'azalda ham ijtimoiy-falsafiy fikrlar o'zanida, shoirning foniy bo'lmoq, o'zligidan qutulmoq xususidagi mushohadalari asosiga qurilgan.

«Navodir un-nihoya», oltinchi bayt:

O'zlukimdin ranja erdim ichkali jomi fano,
Bexud o'ldum o'ylakim nomu nishonim, bilmadim.

«Navodir ush-shabob», oltinchi bayt:

Do'stdin bildim nishon, to topmadim o'zdin nishon,
Lek o'zdin toki bor erdi nishonim, bilmadim.

G'azallar maqta'larida mazmunan lirik qahramon – shoirning ruhiy holati bayonida tafovut ko'rinadi. Birinchi g'azal maqta'ida oshiqning tushkun, shikoyatomuz holati tasvirlansa, ikkinchi g'azal maqta'i optimistik ruh bilan sug'orilgan:

«Navodir un-nihoya», yettinchi bayt:

Ey Navoiy, oshiq o'lg'onda dedim qolg'ay nihon,
Bo'ylakim olamni tutqay dostonim bilmadim.

«Navodir ush-shabob», yettinchi bayt:

Ey Navoiy, yor ko'ngli mehrmu qildi ayon,
Yo asar qildi anga o'tlug' fig'onim, bilmadim.

Shu va boshqa jihatlariga ko'ra «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritilgan mazkur g'azalni tatabbu san'atining go'zal namunasi deb baholash mumkin.

Shuningdek, g'azallariga o'z baytlarini tazmin qilish hodisasi boshqacharoq shaklda shoirning yana bir g'azalida uchraydi. «Navodir ush-shabob» dagi 468-, 469-g'azallarning ikkinchi baytlari aynan o'xshash, matla'lari esa mazmunan bir-biriga juda

yaqin. Bu g'azallar misolida ham Navoiy tatabbuning ijodiy namunasini, iqtizo san'ati va tazmin san'atining salx shaklini namoyish etadi. Ya'ni, 468-g'azalga tatabbu qilib yaratilgan 469-g'azalning ikkinchi bayti tazmin qilinib, avvalgi g'azal matnidan aynan olingandir. Tazminning salx shakli esa g'azalning matla'i:

- Vahki, o'tlug' chehra ochib xonumonim o'rtading,
- Otashin la'lingdin aytib nukta, jonim o'rtading (468-g').
- Otashin ruxsori ochib xonumonim o'rtading,
- Xonumonim xud ne bo'lg'ay jismu jonim o'rtading (469-g').

To'rtinchi bayt:

- O't aro qil to'lg'onib kuygondak ul yuz shavqidin,
- Nechakim tob urdi jismi notavonim o'rtading (468-g').
- To'lg'onib kuysam ajab yo'q o'tqa tushgan sho'ladek,
- Chun firoq o'tida jismi notavonim o'rtading (469-g').

va maqta'ida ishlatilgan:

- Ey Navoiy, to belu og'zi xayoli aylading,
- Boru yo'q, ya'niki paydovu nihonim o'rtading (468-g').
- To Navoiydek belu og'zing xayoli birla men,
- Ushbu yo'q savdoda paydovu nihonim o'rtading (469-g').

G'azallarning har biri alohida o'z tasvir usuli, ixcham, yaxlit kompozitsiyasiga ega bo'lgan g'azallar ekanligidan dalolat beradi. G'azallarning biri (468) «Navodir un-nihoya» ga 354-o'rinda, ikkinchisi (469) «Badoe' ul-vasat» ga 358-o'rinda o'zgartirishsiz kiritilgan. Demak, Navoiy g'azallarini devonlariga tartib bilan joylashtirar ekan, ularning semantik strukturasi, kompozitsion tuzilishiga alohida e'tibor bergan. Buning natijasida g'azal kompozitsiyasi bilan bog'liq badiiy san'at usullarining (tatabbu', tazmin) o'z g'azaliyotida ijodiy rivojlanishiga va bu sohadagi

an'analarning yangi-yangi o'zanlarda taraqqiy etishiga imkoniyat yaratgan.

Xulosa shuki, donishmand adabiyot nazariyotchisi va mutafakkir shoir Alisher Navoiy benazir lirikada o'zbek she'riyatining qadimiy an'analari va badiiy o'ziga xosliklaridan ijodiy foydalanib ulkan ijodiy muvaffaqiyatlarga erishgan va bu hol avlodlar uchun alohida ibrat va xos maktab vazifasini o'tayveradi.

2.

Insonga yaratguchi tomonidan hadya etilgan iste'dod, qobiliyat harakatga keltirilmasa, sayqallanmasa so'nib ketishi muqarrardir. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida mashhur sufiy Bahouddin Naqshbandning o'z piri ruhoniysi Abduxoliq G'ijduvoni bilan uchrashuvi voqyeasi quyidagicha hikoya qilinadi: «Andoqki, der ermishlarki, mabodii ahvolda bir kecha g'alaboti jazabotdin Buxoro mazorotidin uch mazorga yetishdim. Har mazorda bir chirog'don ko'rdum, yonadurg'on yog'i to'la va fatilalari yog' ichinda. Ammo fatilalarga biror nima harakate bermog' kerak erdiki, yaxshi tutashqay va yorug'ay. So'nggi mutabarrak mazorda qiblag'a mutavajjih o'lturdum va ul tavajjihda g'aybate voqye' bo'ldi. Mushohada qildim. Qibla devori shaq bo'ldi va bir ulug' taxt paydo bo'ldi...

Pire ko'rdum nuroniy. Sakom qildim. Javob berdilar, va so'zlarki, suluk mabdaida va vasatida va oxirida keraklikdur, manga bayon qildilar va dedilarki, ul charog'larki, ul kayfiyat bila sanga ko'rguzdilar ishorat va bashoratdur sanga bu yo'l qobiliyat va iste'dodidin. Ammo iste'dod fatilasini harakatg'a kelturmak kerak, to yorug'ay va asror zuhur qilg'ay...»⁶⁰

Parvardigori Olamning xos bandalari - ahli hol manoqiblarida keltirilgan ushbu parchadan ko'rinayotganidek, hattoki raso aql, e'tiqod, valoyat va juda ko'p fazilatlar bilan oddiy insondan balandroq turguvchi avliyoulloh ham o'zlariga hadya etilgan iste'dod, qobiliyatni muntazam

⁶⁰ Абдулғафуров А. Навоий ситираси. 1-китоб. - Тошкент: ФАН - 1966. - 131 б.

tarbiya qilmoqlari, o'stirmoqlari, rivojlantirmoqlari zarur ekan. Ya'ni, iste'dod inson xilqatida avval qanday zohir bo'lgan bo'lsa, uning umri oxiriga qadar shu ko'rinishda, jiloda hamrah bo'lavermas ekan.

Demak, har bir iste'dod egasi tinmay o'z mahoratini oshirishga, takmil etishga intilmog'i lozim. Ijodkorning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, ilmiy salohiyati, ijodiy uslubi kabi qator tushunchalar esa mahorat jilolarini turli maqomda kuzatuvchi, isloh etuvchi vositalardir. Binobarin, ana shu zikr etilgan fazilatlar uyg'unlikda ma'lum chegaraga yetgach, ijodkor o'z mahoratiga o'zi baho bera oladi. Bu tabiiy hol. Chunki, iste'dod egasi o'z ijodiy imkoniyatlarini mukammal tasarruf eta olganligiga amin bo'ladi, o'z mahorati darajasini chetdan kuzata oladi.

Chunonchi, Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida o'z ijodiga komil ishonch bilan «xayoling'a andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdan quyi innag'ay va tartibim kavkabasi a'lo darajadin o'zga yerni beganmagay», deya yuksak baho beradi. Shoimning bu fikrlari zaminida yotgan katta haqiqat izoh talab etmaydi. Biroq, shu narsa ayoniki, Navoiy benazir shoir va daho mutafakkir sifatida XV asr adabiy hayotida birdan paydo bo'lmadi. U juda kichik yoshligidanoq yorqin iste'dod bo'lib ko'zga tashlandi va o'z asri madaniy, adabiy muhiti ta'sirida buyuk shoir va mutafakkir darajasiga yetdi. O'zidagi ilohiy inoyat - iste'dod ne'matini juda erta anglagan Navoiy uni yuzaga chiqarish uchun qattiq mehnat va mashaqqatlar chekish lozimligini ham tushundi. Xuddi shu narsa, keyinchalik, shoirning olamshumul ijodini tinmay yuksaklikka undovchi kuch bo'ldi.

Bu ilohiy iste'dod o'z ijodiga nishatan nihoyatda talabchan bo'ldi. Navoiy o'z iste'dodiga o'zi hakamlik qildi, asarlariga muttasil yangiliklar, o'zgartirishlar kiritib turdi. Yoshi 50 dan oshgan, salomatligi ancha yomonlashgan bir davrda esa «Xazoyin ul-ma'oni» devonlariga tartib berish kabi juda katta va sermashaqqat mehnatni ham amalga oshirdi. Bu davrda Navoiy nazmiyotining adadi ancha katta bo'lib shoir o'z lirik yaratmalari kulliyotini saylanma sifatida, she'rlarining eng yaxshilarini tanlab tartib bersa ham bo'lar edi. Biroq, har bir asarini o'ziga farzand deb bilgan shoir, bu merosni qaytadan ko'zdan kechirishni, unga yangidan sayqal berib, takmilga

yetkazishni lozim topdi. Shu tariqa bungacha biror shoir yoxud nasrnavis tajribasida ko'rilmagan, o'z davri adabiy jamoatchiligining yuksak etiboriga sazovor bo'lgan «Xazoyin ul-ma'oni» devonlari dunyoga keldi. Ijodiy mahsuldorlikning bu ko'rinishi Navoiydan keyingi adabiyot ahli biografiyasida ham uchramaydi. Navoiy o'zining bu farahbaxsh ijodiy mehnati qay yo'sinda ko'chganligini «Xazoyin ul-ma'oni» debochasida batafsil bayon etadi. Shoimning yoshlik va yigilik davri lirikasida ilohiy ilhom bilan dunyoga kelgan quyma g'azallar uchraydiki, keyinchalik shoir ularning biror satriga ham qalam tegizmagan. «Kecha kelgumdur debon...», «Ul parivashkim...», «Furqatingdin za'faron...», «Orazim yopqoch...» kabi mashhur g'azallar shular jumlasidandir. Biroq, ana shu g'azallar yaratilgan davrdagi yorqin ilhom, yetuk mahorat shoimning keyingi davrlardagi she'riyat sohasida erishgan chuqur bilimi, tajribasi, yuksak ijodkorlik saviyasi uchun asos bo'ldi, desak adashmaymiz. Demak, yoshlik davridagi mahorat yetukligi, keksalik davridagi bilim, tajriba barkamolligi shoir poetik uslubining muntazam takomili uchun xizmat qildi. Shu munosabat bilan shoir devonlari qo'lyozma nusxalarida she'riyat matnlari turli variantlari uchrashi hodisasiga e'tibor qilsak.

«Badoe' ul-bidoya» devoniga tartib berishga kirishgan shoir unga «Ilk devon» dan 161-g'azal kiritadi va g'azallardan 34 tasi variantlarga ega. Jumladan, «Ilk devon» dagi «vaf» radifli g'azalning birinchi misra'siga kiritilgan tuzatish o'n yildan ortiq vaqt mobaynida Navoiy poetik uslubida ijtimoiy ruh keskin ortib, uning bu sohadagi dunyoqarashi g'azallarida yorqinroq aks eta borganligidan dalolat beradi. G'azalning bosh misra'si «Ilk devon» da «Kimsa hargiz ko'rmadi chun nav'i insondin vaf» tarzida berilgan bo'lib, shoir «nav'i insondin» izofali so'z birikmasini «ahli davrondin» birikmasi bilan almashtiradi. Demak, Navoiy 20-25 yoshlarida umuman inson zotidan vaf kutish befoyda, degan xulosaga kelgan bo'lsa, 30-40 yoshlarida esa bu fikrini o'z davri ijtimoiy voqye'ligi sabablari bilan bog'laydi. U davron ahli bevafoqligi konkret, muayyan feodal jamiyatda xalqning ijtimoiy himoyasizligi, siyosiy notinchliklar girdobidagi nochorligi zaminida yuz berayotganligi oqibati ekanligini idrok etadi. Shu bois «Ilk devon» lirikasidan farqli o'laroq, «Badoe' ul-bidoya» da Navoiy tabiat

yetukligi javhari bo'lmish insonga qaratilgan norozilik, shikoyatlarini o'z davrining ma'lum tabaqasi vakillariga, jamiyatning muayyan tipdagi shaxslari - xudbin, johil, munofiq'larga nisbatan bayon etadi. Keyingi devonlardan o'rin olgan ijtimoiy ruhdagi g'azallarda sho'irning davr ahliga nisbatan bo'lgan salbiy munosabati («inson», «nav'i inson» iborolari o'rinda «ahli davron», «ahli zamon», «ahli jahon», «el», «ulus» iborolari vositasida ifodalanadi. «Badoe' ul-bidoya» devonidagi g'azallar esa Navoiyning o'z davri ijtimoiy muhiti voqey'ligiga, bu muhitni ma'naviy tubanlashtiruvchi shaxslarga qaratilgan fikrlari, falsafiy mushohadalari o'zaro rivojlanib, ijtimoiy-falsafiy ruh kasb eta borganligidan guvohlik beradi.

Shu bilan bir qatorda devonning aksari she'rlarida «zamon ahli», «davron ahli» dan shikoyat motivlari ustunlik qiladi. Ma'lumki, sho'irning «Ilk devon» idan bevosita shu mavzuda ijod etilgan 7 g'azal o'rin olgan. Bu g'azallar quyidagi misralar bilan boshlanadi:

- 1) Dahr elidin naf' agar yo'qtur zarar ham bo'lmas;
- 2) Oncha davron birla ko'rdum ahli davrondin jaf;
- 3) Ey kungul bir nav' o'hubmen ahli davrondin malul;
- 4) Bo'lmish andoq munqati' ahli zamondin ulfatim;
- 5) Xalq mehriqana yana yorab meni zor aylama;
- 6) Manga ne manzilu ma'vo ayon, ne xonumon paydo;
- 7) Kimsa hargiz ko'rmadi chun nav'i insondin vaf.

Bu davrda Navoiyning o'z davri va zamonasiga munosabati lirik qahramonning davron va xalqdan shikoyati ohangidagi shaxsiy kechinmalari doirasida torroq mazmunda:

Ey ko'ngul, fikringni qilkim, do'stu dushmanlar yuzun
Ko'rmas erdi bo'lmasa sen xori hayrondin malul

yoki

Turfa ko'rkim xalq komi birla umrum bo'ldi sarf,
Turfaruq bukim, birovg'a yoqmadi bir xizmatim

tarzida ifodalansa, «Badoe' ul-bidoya» devonida mazkur mavzu chuqur sotsial mazmun kasb etib, sho'ir mulohazalari ba'zan falsafiy oqimga

yo'naltiriladi. Zotan, «shoir hayotining turli davrlarida yaratilgan g'azallarda barcha problemalarning qo'yilishi va hal etilishi yo'llari ham turlicha bo'lgan».⁶¹

Shoir «Badoe' ul-bidoya» devoniga bu g'azallardan bittasini («Bo'lmish andoq munqati' ahli zamondin ulfatim») kiritadi. Biroq, u «Badoe' ul-bidoya» ga shu mavzudagi 7 yangi g'azalini joylashtiradiki, ularda davr va davr ahlidin shikoyat, tanqid ijtimoiy falsafiy yo'nalishda g'azaldan g'azalga izchil rivojlantirilib, sho'ir uslubida tendensioz mohiyat kasb etadi:

- 1) Parim bo'lsa uchib qochsam ulustin to qanotim bor;
- 2) El tilidin jonima gar yuz balo mavjud erur;
- 3) Men jahondin kechdimu kechmas mening jonimdin el;
- 4) Bu kun ahli jahondin xastaxotirmen, jahondin ham;
- 5) Mehr ko'p ko'rguzdim ammo, mehribone topmadim;
- 6) Vaf ahlig'a davrondin yetar javru jaf asru;
- 7) Vahki, umrum barcha zoyi bo'ldi el komi bila.

Mazkur g'azallarda «ahli davron», «ahli zamon», «xalq», «dahr eli» kabi iboralar «jahon», «ahli jahon» kabi iboralar orqali kengroq tushunchalar darajasiga ko'tariladi, «el», «ulus» kabi umumlashma obrazlar vositasida sho'irning keskin, murossasiz xulosalari uning «o'z davri haqidagi siyosiy aybnomasi»⁶² sifatida ifodalanadi. Mazkur mavzulardagi g'azallarda «Ilk devon» dagi shu mazmunda yaratilgan g'azallardan farqli o'laroq, sho'irning falsafiy mushohadalari bir necha yo'nalishda taraqqiy ettiriladi. Ijtimoiy ruh hukmron bo'lgan kichik lirik asarga jahon falsafiy tafakkurining o'zak masalalari bo'lmish - inson xilqati va uning ongli umr kechirish borasidagi qarashlari, insonning mukammal shaxs sifatida shakllanuvchi, ana shu shaxsning tom ma'nodagi erkinligi masalalari ham mohitrona singdirib yuboriladi. Shu taxlit lirikaning eng xalqchil navi bo'lmish ijtimoiy ruhdagi g'azal keng falsafiy mohiyat kasb etadi, bu esa o'z navbatida buyuk sho'irning sharq falsafasi taraqqiyotiga qo'shgan qimmatbaho ulushidir. Shoir poetik uslubining bu xususiyati uning 25

⁶¹ Иттиф. Султон. Навоийнинг қалб дафтари. — Тошкент: Адаб. ва сан. - 1973. - 36 б.

⁶² Уша китоби, 42-б.

yoshgacha yaratgan asarlarida ko'zga tashlanmaydi. Navoiyning «jahon» va «ahli jahon» dan noroziligi, zamondoshlari haqidagi tanqidiy mulohazalari uning ijtimoiy voqye'lik va ilg'or falsafiy dunyoqarash asosida shakllangan o'z ijobiy ideali bilan bevosita aloqador tarzda aks etadi.

Shoimning taxminan 1485 yillarda tartib berilgan «Navodir un nihoya» devonini «Ilk devon» va «Badoe' ul-bidoya» devonlari bilan qiyoslab, bu devon uchun yangi yozilgan g'azallarni aniqlash qiyin emas. Ushbu devonga shoimning ijtimoiy mavzudagi 12 yangi g'azali joylashtirilgan:

1. Do'stlar ahli zamondin mehr umidi tutmangiz;
2. Do'stlar, olam eliga yoru hamdam bo'lmangiz;
3. Meni men istagan o'z suhbatig'a arjmand etmas;
4. Qildi dushman rahm baskim, qildi javr izhor do'st;
5. Dahrdin mehru vafo qilma havas;
6. Menku, davron zulmidur ko'ngluma, balki jonga ham;
7. Oncha yig'latti jafodin do'stdur deb sevganim;
8. Qon yutib umri jahon ahlidin bir yor istadim;
9. Shahru kishvardin ilik yub, xonumondin kechgamen;
10. Oshiq o'ldim necha javr ahli zamondin tortayin;
11. Topmadim ahli zamon ichra bir andog' hamdame;
12. Demangiz har kimni kim binyor ila bor ulfati.

Bu g'azallarda ijtimoiy ruh hukmron bo'lsa-da, «Badoe' ul-bidoya» ning shu mavzuda yozilgan she'rlaridagi kabi badiiy tasvirda keng, chuqur falsafiy fikrlarning ijtimoiy masalalar zaminida ifodalanish xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Bu davr lirikasida (shoimning 45 yoshlaridan keyin) tasvir ob'ekti muayyan sotsial masalaning etik plandagi ko'rinishidan iboratdir. Ba'zan ijtimoiy muammolar yechimi shoimning sufiyona mulohazalari zaminida yakun topadi. Navoiyning bu tipdagi g'azallarida «davron», «jahon» va «ahli jahon» dan qattiq shikoyat, norozilik, o'zining bu sohada nochorligi uchun iztirob chekish motivlaridan ko'ra, zamonning nomukammalligi sabablarini mushohada etish, o'zini undan chetga olish kafiylatlari ustun turadi:

Shahru kishvardin ilik yub, xonumondin kechgamen,
Xonumondin kim desun ikki jahondin kechgamen.

Har zamon boshimg'a yuz tig'i halok aylab qabul,
Umrudin tortib etak, billahki jondin kechgamen,
Shahru kishvar, xonumon, ikki jahonu umru jon
Xud ne bo'lg'ay, muncha yuz kom o'lsa ondin kechgamen...

Voizo, aylab yengillik, nechakim kavsar mayin
Maqtasang xoshoki men ratli garondin kechgamen;

Ey Navoiy necha qilg'aylar etakdek poymol,
Men dog'i erdi etak ahli jahondin tortayin;

Yo'q vafo jinsi bani odamda bo'l navmidkim,
Sen vafo ko'rmaq uchun xalq o'lg'usi yo'q odame.

Nukta nozik bo'ldi asru, bo'lg'ay erdi koshki,
Shammai bu ramzdin zohir qilurg'a mahrame.

«Navodir un nihoya» devoni shoir 40-50 yoshlari orasida tuzilganligi, «Badoe' ul bidoya» yaratilgandan keyin (1479-1485 yillar oralig'ida) yozilgan she'rlar shu devondan o'rin olganligi hodisasi mazkur devonning shoir poetik ijodi bu davri xususiyatlarini ifoda etuvchi tekshirish ob'ekti sifatida katta ilmiy qimmatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Navoiy ijtimoiy lirikasi takomili tahlili bu mavzuning «Xazoyin ul-maoniyy» g'azallarida g'oyaviy-semantik va badiiy ifoda uslubi sohasida mavjud bo'lgan yo'nalishlarini kuzatishni ham taqozo etadi.

Albatta, Navoiy lirikasida ijtimoiy masalalarning qo'yilishi va hal etilishi ancha keng doiradagi g'azallarda kuzatiladi. Shoir bu masalaga o'z lirikasida goh bevosita, goh bilvosita munosabat bildiradi. Navoiyning mazkur mavzu doirasidagi muammolarga bevosita yondashuvi uning shu plandagi tadriji g'azallarida aks etadi. Biz o'z mulohazalarimizni asosan shunday g'azallar yuzasidan bayon etmoqdamiz.

«Xazoyin ul-maoniyy» devonlariga avvalgi uch devon tarkibiga kirmagan ijtimoiy mavzudagi 62 g'azal joylashtirilgan.⁶³

⁶³ Н.И.Ильгаров. Бу оғам сарҳиш... Тошкент, 1982, 82-б.

Bu g'azallarning avvalgi devonlarda uchramasligi ularning «Navoiy un-nihoya» tartib berilgandan keyin yozilganligiga ishora etadi. Navoiyning 45 yoshdan keyingi hayoti davomida davr voqeyalari va «davron ahli» ga bo'lgan munosabati, jamiyat ijtimoiy voqeyaligining shoir taqdiridagi aks sadosi uning ushbu davr lirik ijodida o'ziga xos yo'nalishlarda ifoda etiladi. Jumladan, hamdlarda (orifona g'azallarda) avvalgi devonlarning shu tipdagi g'azallarida ko'rinmagan xususiyat - tasvir ob'ekti bo'lmish Tangri taolaga munojot, iltijo ohanglarining ustuvorligi ko'zga tashlanadi. Badiiy ifodaning vasf, ta'rif, tavsif formasida ijod etilgan hamdlar turkumi shoir keksalik lirikasida sharhi hol, mushohada tipidagi tasviriy usullar vositasida mazmungan kengayib boradi. Mamduhga bevosita murojaat, o'tinch, iltijoli fikrlar Navoiy hamdlarining aksari maqta'dan oldingi baytlari va maqta'larida ifoda etilib, shoimning bu sohadagi estetik prinsiplari asosini belgilaganligi ma'lum. Ammo, quyidagi g'azal Navoiyning ko'tarinki ruh, yuksak stilida ijod etilgan vasf tipidagi hamdlaridan lirik qahramon - shoimning ichki kechinmalari, tushkun kayfiyati, shu bilan birga g'oyaviy maqsadining pessimistik ruhdagi ifodasi bilan ajralib turadi. G'azal kopozitsiyasi uning semantik-emotsional planida munojot motivining tadjriiy ifodasiga asoslangan:

Yorab, o'lg'on chog'da jonim jismi vayrondin judo,
Ul bo'lib mundin judo, sen bo'lmag'il andin judo.
Chun judo bo'lsam meni g'amnok yo'qu boridin,
Ne g'amim, sen bo'lmasang men zori hayrondin judo.
Naqdi jon chiqqonda imon gavharin ko'nglumga sol,
Aylag'il jondin judo, lek etma imondin judo.
Xonumondin oyirib, qilg'onda zindon ichra hibs,
Qilma lutfing men aloxonu alomondin judo.
Hashr g'avg'osi aro osiylik'img'a rahm qil,
Lutf ila ilgim tutub, qil ahli isyondin judo.

Garchi o'ldum kofiri ishq ahli islom ichra qot,
Ul zamonkim bo'lg'usi kofir musulmondin judo.

Elga maxlas istasang, yetti tamug'ni ayla kul,
Aylabon bir sho'la bu ohi duraxshondin judo.

Jannat istab aylaganlami ibodat, qilmag'il,
Kavsaru to'biyu qasru huru rizvondin judo.

Borchadin ayru Navoiyg'a qilib vasling nasib,
Qilmag'il, yorab, ani mundin, muni andin judo.

Navoiyning keksalik davrida yozilgan ijtimoiy ma'no kasb etuvchi g'azallar badiiy tasvir usullari va mazmun-mundarijasiga ko'ra shoir dunyoqarashining bu davrdagi o'zgarishlarini bir necha aspektida ifodalab beradi. Ammo, bu g'azallarning barchasida mavzu-g'oya ifodasi, ta'virlanmish va tasviriy imkoniyatlar turlicha bo'lsa-da, pirovard natijada yakuniy fikr, xulosa bir xil ma'noda, ya'ni o'zlikdan kechib, fanoga yuz tutish maqsadi ifodasi bilan intiho topadi. Jumladan, qarilik lirikasi g'oyaviy motivlari shoir tasvir-ifoda uslubining quyidagi yo'nalishlarida talqin etiladi:

- a) munojot tipidagi g'azallarda;
- b) didaktik nasihat yoki tajribali keksaning yoshlarga beradigan pand-o'gitlari ifodalangan g'azallarda;
- v) sufiylik ruhida yozilgan - orifona yoki bevosita tasavvuf masalalarini muhokama va targ'ib etuvchi g'azallarda;
- g) «qariliko» va «yigitlik» ma'humlari vositasidagi mushohadaviy-didaktik g'azallarda.

Ijtimoiy mavzu vositasida yuzaga kelgan didaktika shoir hayotining turti davrlarida o'sha davr mazmuni bilan hamohang ravishda namoyon bo'ladi. Chamonchi, yigitlik davrida u optimistik, hayotsevar tonusda falsafiy mohiyat kasb etadi; o'rta yoshlikda umuman bu foni dunyodan «qo'l yuvish», uni rad etish ma'nolari singdirilgan lirik qahramon tushkun kayfiyati va noumidligi sharhidan iborat bo'lgan passiv didaktika shaklida ifodalanadi; keksalik davri g'azallarida didaktik bo'yoq shoirning sufiylik dunyoqarashi asosida

Ilgari surilgan fikrlarida o'z aksini topadi. Keksalik lirikasida ijtimoiy mavzuning mantiqiy rivoji va xulosasi uchun xizmat qiluvchi didaktik asosning avvalgi davr g'azaliyotidan farqli jihati shundaki, unda hayotni ongli kechirishga rag'bat, hayotning har bir inson o'z mab'dai, Parvardigori Oliyga komil qiyofada qovushmog'i uchun bir vosita, imkoniyat ekanligini anglash lozimligi targ'ib etiladi. Binoharin, «davr», «zamon», «davron ahli» bedodligi, zulmu sitamlari insonni yetuklikka undovchi va unga komil qiyofa baxsh etishga xizmat qiluvchi vosita ekan, bu hodisalarni sabr bilan oqilona idrok etmoqlik va faqat maqsad sari intilmoqlik, foni bo'lib baqo topmoqlik asosiy maqsad ekanligi uqdiriladi. Navoiyning turli davrlarda yaratilgan devonlarini ko'zdan kechirish orqali bunga amin bo'lish mumkin. Masalan, aksari g'azallari yigitlik davriga taalluqli «Badoe' ul-bidoya» devonidagi falsafiy-didaktik pafos bilan ijod etilgan quyidagi baytlarga e'tibor qiling:

Kim sa yuz yil komronlik qilsa, bilkim, arziyas
Dahr aro bir lahza bo'lmoqqa birov komi bila;

- Besha shirin gar zabun qilsang shijoatdin emas,
Nafs itin qilsang zabun, olamda yo'q sendek shujo';
- Gulxaniyidin gulxan olotin tama' qilmoqdurur
Har kishi dunyolik etsa ahli duniyodin tama';
- Chiqib bu dayrdin Isog'a nevcun hamnafas bo'lmay,
Bihamdillah, tajarrud birla himmatdin qanotim bor
va b.

O'rta yoshlik lirikasi - «Navodir un-nihoya» da:

Sabr ko'p qilsang favoyid ko'p deding, nosih, ne sud
Kim ko'ngulning hajar aro bir lahzalik yo'q toqati;

- Kimki davron sog'aridin dam-badam xunob ichar,
G'am yo'q ar har dam g'amin aytug'a topsa hamdame...

Yo'q vafu jinsi beni odamda bo'l navmidkim,
Sen vafu ko'rmaq uchun xalq o'lg'usi yo'q odame;

- Vafu ahlin charx bekom etib,
Jafu xaylini komron qildilo;
- Intihosi ishqning hijron emish, ey ahli ishq,
Vasli davroni aro mag'rur bo'lmang asru ham.

Keksalik davri - «Xazoyin ul-ma'oni» devonlarida:

Zulmu bedod aylab andoq buznamish davron meni,
Kim, topa olg'ay o'zi tuzmakka ham imkon meni;

- Davron guliyo gulshani xoreg'a arziyas,
Gulgun mayi baloyi xumorig'a arziyas,
Ming yil kishi jahon eliga qilsa shohlik,
Bir dam alar ibonatu orig'a arziyas...
- Kirg'il fano yo'lig'a, Navoiyki, dahri dun
Bu umri besabotu madorig'a arziyas;
- Yormangiz Farhodu Majnun oldida ko'ksunimkim,
Botinimning dardu dog'in ahli zohir ko'rmasun.
Kim, Navoiydek fano vodiysig'a istar huzur,
Kechsin o'zidin, balki xud o'zdukni hozir ko'rmasun;
- Dema dardingni nihon tutg'ilki, yuz ming dardni
Maxfiy etsam, qilmish o'lg'aymen nihon mingdin birin;
- Jahonda faqr kasb et, mayli ko'p qilma g'ino suri,
Ki, mundin oz etibdur orzu farzona andin ko'p;
- Ehtiyojimni ulustin uz, xudoyo, faqr ila,
O'yla faqrkim, anga bo'lmas xudog'a ehtiyoj.
Olam aholidin vafu muhtoji bo'lmakim, ular
Ham chekarlar bu mato'i bebahog'a ehtiyoj;

- Navoiyo, tutar ahli fano najot yo'lin,
Erishmak istar esang ishdā, ham alarni erish.

Mazkur baytlarda Navoiyning sufiyona qarashlari uning ijtimoiy, didaktik mushohadalari fonida tasvirlangan. Shoimning bu davr lirikasini A.Hayitmetov «eng sermahsul bosqich» (ya'ni, lirikaning 16 jamrida ijod qilingan) deb ataydi.⁶⁴

H.A.Jo'nev esa «Alisher Navoiy keksalik davri lirikasi» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida shoimning bu davr lirikasidagi avvalgi bosqichlardan farq qiluvchi jihatlarga: sharq klassik she'riyatining barcha janrlariga murojaat qilinganligi, obrazlar tizimi boyiganligini, mavzular doirasi kengayganligi, g'oyalar chuqurlashuvi, dunyoqarashdagi o'zgarishlar singari masalalarga e'tibor qaratadi. Muallif Navoiy keksalik davri lirikasining o'ziga xos g'oyaviy-tematik va badiiy jihatlarni o'rganar ekan, «Navoiyning keksalik davri lirikasini bir necha yirik qismlarga ajratish mumkin: oshiqona, rindona, orifona, tasavvufiy xarakterdagi she'rlardir. Bu she'rlar o'z navbatida yana bir necha turkumlarga (satirik, didaktik, sharhi hol yoki hasbi hol va h.) bo'linadi», degan xulosaga keladi.

Keksalik lirikasining ajralib turuvchi xususiyatlaridan yana biri, shoimning bu davrda yaratilgan g'azallarida «qarilik», «keksa», «men qari» kabi jumalarni qo'llashi, yoshi o'tib qolganligi, zaif ahvolini tez-tez tilga olishi hodisasidir. «Xazoyin ul-ma'oni» devonlarining nomlanishi shartli xarakterga ega bo'lsa-da, Navoiy bu turkum g'azallarini asosan «Favoyid ul-kibar» devoni uchun maxsus ijod etgan bo'lishi ham mumkin. «Yigitligingda qarilarg'a qilmading xidmat», «Qarida garchi sabuk ruhug' farovondur», «Oqara boshladi boshu to'kula boshladi tish», «To yigit erdim, qarilarg'a ko'p erdi xidmatim», «Ul shohu men gadomen, ul tiftu men qari» misralari bilan boshlanuvchi «Favoyid ul-kibar» dan joy olgan g'azallarda shoir yoshining o'tganiga ishora qilish bilan didaktik fikrlari bayoni uchun ruhiy zamin hozirlaydi. Ushbu g'azallar Navoiyning «Visolim shomicha yo'q hajri subhi mehnat afzoyi», «Ko'ngul, qayg'urmakim, dashti fano'g'a

borq'udekturmen», «Tariqi ishq aro gar o'zni fard bilsa birov» kabi orifona g'azallari bilan mavzu va ma'no-mazmun inkishofi, sufiyona va didaktik mushohadalarning mantiqiy yaqinligi jihatidan o'ziga xos uyg'unlikka ega.

Demak, Navoiyning ketma-ket tuzilgan devonlaridagi muayyan bir mavzuga doir turkum g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari shoir poetik uslubi evolyusiyasi haqida ba'zi yakuniy fikrlarga kelish uchun ham asos bo'la oladi:

1. Navoiyning ijtimoiy mavzudagi g'azallari uning har bir devonida son jihatidan ortib borgan. «Ilk devon» da bu mavzuda 7 g'azal joylashtirilgan bo'lsa, «Bado' ul-bidoya» da yana 7 g'azal kiritilgan. Bu 7 yangi g'azal Navoiyning 25 yoshlaridan 38 yoshlargacha bo'lgan hayoti mobaynida ijod etilgan va bevosita shoimning ana shu yillardagi ijtimoiy, falsafiy, ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlarini ifoda etadi.

«Navodir un-nihoya» devoniga bu mavzuda avvalgi ikki devonda bo'lmagan 2 yangi g'azal kiritilgan. Bu g'azallar ham shoimning 38-46 yoshlari oralig'idagi ijodi xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

«Xazoyin ul-ma'oni» devonlariga shoimning avvalgi uch devonidagi barcha ijtimoiy mazmundagi g'azallari kiritilgan bo'lib, uning bu ruhda 1485 yildan (ya'ni, «Navodir un-nihoya» tartib berilgandan) keyin yozilgan 62 g'azali ham o'rin olgan. Bu g'azallar ham shubhasiz Navoiyning qarilik davri falsafiy mushohadalari va ijtimoiy-didaktik qarashlari haqida eng mukammal ma'lumot beruvchi manbalardir. Shunday ekan, shoir ijtimoiy lirikasining butun ijodi misolidagi evolyusiyasi xususiyatlari Navoiy hayotining qaysi davrida qanday ruh va uslubda ijod etganligi to'g'risida ma'lumot bera oladi.

2. «Ilk devon» dan o'rin olgan ijtimoiy ruhdagi 7 g'azal asosida shoimning bekaslik⁶⁵, ma'naviy yolg'izlik, do'stu ag'yor - «zamon ahli» dan vafo o'miga jaf o'rish kabi ohanglardagi shikoyatlari, tanqidiy mulohazalari yotadi. «Bado' ul-bidoya» devonida esa, avvalo bu mavzuni yorituvchi obrazlar turkumi - tasvir ob'ektining hududiy masshtabi kengaygan. Jumladan, bu devonda «zamon», «ahli zamon», «ahli davron», «xalq» kabi iboralarga nisbatan «jahon», «ahli jahon», «dahr» iboralari ko'proq ishlatilgan.

⁶⁴ Хайитметов А. Навоийнинг ижодий метоси масалалари. — Тошкент: ФАН, 1963. — 173 б.

Ikkinchidan, «Ilk devon» da ijtimoiy mavzu talqini kuchli biografik asosga ega bo'lsa, «Badoe' ul-bidoya» da bu mavzu shoir falsafiy qarashlarining nazariy masalalarini ham qamrab olgan holda ifoda etiladi. Chunonchi Navoiy «zamon» va «ahli zamon» dan qattiq shikoyat, tanqid ruhida fikrlari vositasida shu zamon noetukligiga sabab bo'luvchi muammolar, illatlarini ochib tashlashga, shu munosabat bilan inson ruhiy dunyosi va jamiyat kasalliklariga davo izlashga intiladi, o'z davrida ma'rifat vositasida komil insoniy jamiyat qurishga umid bog'laydi. Bu g'azallarda yuksak optimistik ruh hukmron bo'lib, ular Navoiyning barcha davrlarda yaratilgan g'azallaridan ana shu jihatlari bilan ajralib turadi. Agar Navoiyning 30-40 yoshlari oralig'ida O'rta asr Sharqi yuksalishining javhari bo'lmish buyuk Temuriylar davlati doirasida olib borgan g'oyat katta ijtimoiy-siyosiy faoliyatining badiiy ijodiga bo'lgan ta'sirini idrok etadigan bo'lsak, bu hodisaning tabiiy ekanligiga amin bo'lamiz. Bu davr lirikasida Navoiy ijtimoiy didaktikani falsafiy didaktika darajasiga ko'tardi. Shoir lirikasida namoyon bo'lgan bu hayotsevar pafos keyinchalik uning epik asarlarida yanada yuksakroq maqomda o'z ifodasini topdi. Navoiyning ushbu davr lirikasidagi qahramoni keyinchalik uning ijodiy kamoloti cho'qqisi bo'lmish «Xamsa» dostonlari qahramonlari obrazlarida o'zining mukammal siymosiga, ko'rinishiga ega bo'ldi. («Xamsa» ning shu yillarda yozilganligini eslang). Shu nuqtai nazarlardan Navoiyning ushbu davr hayotsevar va insonparvar ijtimoiy lirikasini falsafiy-ilmiy-didaktik lirika deb baholash mumkin.

3. Bu davr lirikasi boshqa mavzulardagi g'azallar misolida ham badiiy tasvir tiplari va ifoda usullarining rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turadi. Buning isboti sifatida shoir barcha devonlarining ochuvchi hamdlari qiyosiy xarakteristikasini keltirish mumkin. Ma'lumki, Navoiyning «Ilk devoni» «Illoho...» deb boshlanuvchi hamd bilan ochiladi. Bu g'azalni Navoiy keyinchalik tahrir qilib «G'aroyib us-sig'ar» devoniga 5-o'rinda joylashtiradi. O'zining birinchi rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya» ni «Ashra'at min aksi shamsil-ka'si anvorul hudo» misrasi bilan boshlanuvchi g'azal bilan ochadi. «Navodir un-nihoya» devonining birinchi g'azali esa

«Zili zuhuri jamoling quyosh kibi paydo, Yuzung quyoshig'a zaroti kavn o'lub shaydo» bayti bilan boshlanuvchi g'azaldir.

Ma'lumki, har qanday devonning birinchi - boshlovchi g'azali muallif nazariy shu devonni tashkil etuvchi boshqa g'azallardan g'oyaviy-badiiy yetukligi, tasvir prinsiplari va ifoda uslubining yangiligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turishi lozim. Ikkinchidan, devonni ochuvchi g'azal o'quvchi nazarida shu devonning badiiy qimmatini, g'oyaviy ruhi, shoir uslubi va poetik stillari, adabiy an'analarga munosabati, poetika sohasidagi ilmiy-nazariy bilim va imkoniyatlari kabi jihatlardan muayyan tasavvur hosil qiladi. Devonning boshlovchi g'azaliga mazkur ma'nodagi talab va mas'uliyatlarning yuklanishi bu g'azal mavqeyining devon g'azaliyoti doirasida ustunligi haqida fikr o'yg'otadi.

«Xazoyin ul-ma'oni» devonlariga tartib berish davrida hamd ruhida g'azallar Navoiy lirikasida salmoqli o'rinni egallab turardi. Shoir bu devonlar kulliyotining o'z hayoti va ijodi, qolaversa, o'z davri, vatani, xalqi, turkiy til taraqqiyoti uchun naqadar muhim va jiddiy ahamiyatga ega ekanligini his etar edi. Shu bois devonlar kulliyotini ochuvchi hamd Navoiyning butun hayoti davomida, ya'ni 7-8 yoshlardan 50 yoshdan oshgunga qadar yaratgan g'azallari ichida eng go'zali, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammali, a'lo maqomdagisi bo'lishi kerak edi. Lirik merosi kulliyotining bu yuksak mavqeyi o'miga Navoiy «Badoe' ul-bidoya» devoni uchun yozilgan «Ashra'at...» bilan boshlanuvchi g'azalni munosib ko'radi. Bu g'azal Navoiy tomonidan eng badiiy yuksak deb baholanishining tasdig'i uning biror satriga tahrir kiritilmaganligida ham namoyon bo'ladi. Demak, bu tanlov orqali Navoiy «Ashra'at...» yozilgan davr, ya'ni o'zining 25-38 yoshlar oralig'idagi ijodi lirik mahoratining cho'qqisi bo'lganligiga bilvosita ishora etadi.

Yo'ls'hoqov («Navoiy poetikasi») asarida shoir lirikasida aynan shu davrda janr rang-barangligi ham kuchli bo'lganligini (13 xil janrda ijod qilgan), badiiy san'atlar texnikasi, tasvir usullari va boshqa sohalaridagi dinamik rivoj namoyishi ko'zga tashlanganligini ta'kidlaydi. Masalan, badiiy

san'atlardan raddul-matla' san'atini qo'llashning eng ko'p foizi (50%) shu davrga to'g'ri keladi.⁶⁵

4. «Navodir un-nihoya» devonidan o'rin olgan ijtimoiy mavzudagi g'azallar avvalgi ikki devon doirasidagi shunday g'azallardan g'oyaviy-mundarijaviy qurilish jihatidan jiddiy farq qiladi. Bu g'azallarda shoir lirik qahramoni kayfiyatidagi tushkun, pessimistik ruh badiiy tasvir jarayonida yorqin fon bo'lib xizmat qiladi. Shoir badiiy obrazlari ana shu fonda talqin etiladi. Bu davr lirikasida sotsial didaktika Navoiyning panteistik dunyoqarashi asosida yuzaga kelgan sufiyona xulosalari bilan uyg'unlashib ketadi (Nukta nozik bo'ldi asru, bo'lg'ay erdi koshki, Shammai bu ramz din zohir qilurg'a mahrame...). «Dahr» va «dahr eli» bevafoqligi, johilligidan qattiq iztirob chekkan shoir bu jahon va undagi insonlar uchun qayg'u'urish befoyda, undan butunlay ko'ngul uzmoq kerak, degan xulosaga keladi. Navoiyning shu mazmundagi eng mashhur baytlarining ham ayni shu davrda yaratilganligi muhim ahamiyatga egadir:

Gar budur olam, kishig'a mumkin emas anda kom,
Haq magarkim kom uchun boshtin yaratqoy olame.
Yo'q vafu jinsi bani odamda bo'l navmidkim,
Sen vafu ko'rmaq uchun xalq o'lg'usi yo'q odame.

«Navodir un-nihoya» devoni shoimning 45 yoshigacha yaratgan g'azallarini o'z ichiga olib, uning «Xazoyin ul-maoni» devonlariga yozgan debochasida keltirgan kishi hayoti fasllari haqidagi o'z e'tiroflariga ko'ra, o'rta yoshlik lirikasini tashkil etadi.

5. «Navodir un-nihoya» tuzilgandan keyin yozilgan va «Xazoyin ul-maoni» devonlaridan o'rin olgan ijtimoiy ruhda g'azallar Navoiyning keksalik lirikasida ham g'oyaviy-tematik va badiiy jihatdan muayyan o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Chunonchi, bu davrda shoimning ijtimoiy masalalarga bo'lgan munosabatida sufiylik dunyoqarashining kuchli ta'siri seziladi.

⁶⁵ Исхорова Ё. *Навоий поэтикаси*. — Тошкент: ФАН, 1983. — 144-б.

Buyuk shoir mumtoz sharq poetikasining o'n olti lirik janridagi asarlardan tarkib topgan birgina "Badoe' ul-bidoya" devoni misolida bo'lsa ham o'z davri poetik uslubiga xos juda ko'p ilmiy masalalarni, xususan turkiy til imkoniyatlari, yozma adabiyotda stilistika qonuniyatlari, og'zaki badiiy ijodning lirikaga ta'siri masalalarini ko'rib chiqib, tahlil qilishga muvaffaq bo'ldi. U she'riyatda g'oyaviy mazmun va badiiy shakl omillarining g'azaldan tashqari o'z davrida keng tarqalgan lirik janrlarda turli ko'rinishlardagi takomiliga erishar ekan, bu mazmundagi estetik tamoyillarining yangi qiralarini namoyish etdi. Xususan, "Badoe' ul-bidoya" devonida o'sha davrda mashhur bo'lgan barcha janrdagi she'rlar kiritilgan. Devonda uchta musta'zod joylashtirilgan:

1. Ey, husnunga zarrofi jahon ichra tajalli,
mazhar sanga ashyo,
Sen lutf ila kavru makon ichida mavli,
olam sanga mavlo...
2. Din ofati bir mug'bachayi mohiliqodur,
mayxoravu bebok,
Kim ishqidin oning vatanim dayru fanodur,
sarmastu yaqom chok...
3. Ne vo'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
ne g'amzayi jodu,
Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,
xurshid anga ko'zgu...

Navoiy "Mczon ul-avzon" asarining beshinchi, turkona she'riyatga bag'ishlangan qismida musta'zod faqat turkiy xalqlar og'zaki ijodida mavjud bo'lib, to'ylarda kuylanishi haqida yozadi. Shoir bu turkiy qo'shiq janrini mumtoz poetika talablari asosida sayqallab, mukammal she'riy janr sifatida

devoniga kiritadi. Shoiming zamondosh tarixnavislari shoh saroyidagi bazmlarda bu "bag'oyat ruhafzo" qo'shiq kurylanar ekan, tinglovchilar zavq shavqdan "yoqalarini chok etgan"lari haqida yozadilar. Musta'zodlar ma'rifiy mazmunda yozilgan. Ammo diqqatga sazovor jihat shuki, buyuk shoir bir mavzu doirasidagi asarlarini ham yangi-yangi tasviriy vositalar bilan boyitadi, fikmi yangi badiiy libos bilan o'raydi. Masalan, quyidagi baytlar fikrimizni tasdiqlay oladi:

Masjid yo'lin asrab necha din ahli yo'luqsa,
rahzanliq etarsan,
Tengri yo'lini asramoq, ey kofiri xudroy,
bu nav' bo'lurmu?

- " -

Ul sho'x Navoiyni dedikim qilayin qatl
bir ko'z uchi birla,
Ey voyki, bir ham anga ko'z solmadi, ey voy,
qatl ushbudur, ushbu!

Devondan joy olgan **muxammas** va **musaddas**larda mavzu tanlash, bandlarga asos bo'lgan baytlar oldingi misralarda kengaytirilib, mazmuni boyitilib kelinishi, qofiyalarning barcha uzvlari uyg'unligi shoir poetik uslubi xususiyatini yorqin namoyon etadi. Muxammaslarning uchasi Mavlono Lutfiy g'azallari asosida yaratilgan, ikkitasi esa "tab'i xud" muxammaslardir. Shoir bu janrlardagi asarlarida ham uz ijodiy uslubiga sodiq holda she'rlarni ijtimoiy-falsafiy ma'nolar bilan to'yintiradi. Masalan, tab'i xud muxammaslarning birida oxirgi band quyidagicha bitilgan:

Shahlik etgandin ne hosil faqr sirin bilmayin,
Hyech kim mulki baqo sultoni bo'lg'onmu ekin,
Foniyi mahz o'lmayin Sulton Abulg'oziy bokin,
Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,
Oni kash etmak fano bo'lmay, ne imkon oqibat?

"Badoe" ga joylangan musaddaslar ham ikkita bo'lib, ular ham Mavlono Lutfiy g'azallari asosida yaratilgan. Bu janrdagi she'rlarga ham Navoiy muxammaslarga qo'llangan talablar darajasida yondashadi. Masalan, Mavlono Lutfiy g'azalidagi bir baytda poetik obraz sifatida qo'llangan bodom, ko'z, qaro so'zlaridan foydalanib, quyma badiiy band yuzaga keltiradi:

Ko'zlaring bodomi hajridin bo'lub jismim saqim,
Chiqti jonim, ey qaroko'z, baski hajring berdi biym,
Bu vasiyat qilmishamkim, mushfiq yoru nadim,
Na'shima ul ko'y tufrog'ini qilg'aylar harim,
Chun qaro bodom tobut uzra rasmedur qadim,
Ko'z janozam sori solkim, sensizin bo'ldim qatil.

Tarje'band janridagi she'rlar buyuk shoiming ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy-sufiyona qarashlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Tarje'bandlarda shoir muayyan turkum masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Xudo va boriqning mohiyati, eng so'nggi haqiqat, odam aqlining tanish qobiliyati, din va tasavvuf kabi bir qancha masalalar shular jumlasidandir. Besh-olti yoshlaridayoq Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" kabi ma'rifiy dostonini yod olgan, bolalarcha ongiga singdirishga intilgan, butun umri davomida tahlil va idrok eta borgan, ilmi va qalbi kamolini istagan shoir tarje'bandlarida o'y-fikrlarini ochiqroq, yorqinroq bayon etdi. U 1476 yilda Abdurahmon Jomiy rahbarligida naqshbandiya sulukiga rasman kirib, o'zini qiziqtirgan savollarga birma-bir javob izladi. Ammo uni qiziqtirgan masalalarni na falsafa, na ilm-fan, na tariqat va suluklar, na din qoniqarli tarzda hal qilib bera oldi. Shu boisdan tarje'bandlarda shoiming chuqur o'y-mulohazalari, uzluksiz savollari, hayratlari va hayrona kayfiyati o'z ifodasini topadi:

Nechun may bila bo'lmasun ulfatim,
Ki jon qasdi aylar g'arnu mehnatim.

Nazar ayla bu korgah vaz'ig'a,
Ki ortar tamoshosida hayratim...

Yoki:

Jahon qasrig'adur suv uzra bunyod,
Chu yo'q bunyodi ondin bo'lmog'il shod.

Ne shod o'lg'ay kishi bir qasrdinkim,
Oni tengri yaratmish mehnatobod.

Emastur qasr, balkim qosiredur,
Ki taqsir aylamas aylarg'a bedod...

Vale ne ishvasig'a i'timode,
Ne oning va'dayi vaslig'a bunyod.

Visoli ko'z yumub-ochquncha oxir,
Firog'i ko'z ochib-yumg'uncha barbod...

Refrent:

Baqosizdur jahon ra'nosi, valloh,
Jahon ra'nosi yo'qkim, mosivalloh!

Buyuk shoir inson umri va jamiyat hayotiga nazar tashlar ekan, uning bag'oyat bebaho va inson uchun baxt-saodat manbai emasligiga ishonch hosil qiladi. Ammo u jamiyatdan yuz o'g'irishni xayoliga ham keltirmaydi, balki qanoat, sabr kabi yuksak insoniy fazilatlar vositasida hayotni oqilona kechirishga da'vat etadi. Uning bu mazmundagi fikrlari **qit'a** janridagi she'rlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Jumladan, u bir qit'asida:

Qanoat tariqig'a kir, ey ko'ngul,
Ki xatm o'lg'ay oyini izzat sanga.

Desang shoh o'lay, yeru ko'k basdurur
Bu bir taxtu ul chatri rifat sanga

deya ko'ngliga nasihat qiladi. Qit'aning davomida shoir bu maqsadni kishi amalga oshirishi uchun naqshbandiylik tariqatini o'zlashtirishi lozimligini aytadi. Hatto naqshbandiylik tariqatining asosiy talablarini bir-bir sanab o'tadi:

Desang, xilvatim anjuman bo'lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.

Vatan ichra sokin o'lub, soyir o'l,
Safardin agar yetsa mehnat sanga.

Nazarni qadamdin yiroq solmag'il,
Bu yo'l azmi gar bo'lsa rag'bat sanga.

Bu to'rt ish bila rub'i maskun aro
Cholimmoq ne tong, ko'si davlat sanga.

Ulug' shoir qit'alarida ko'tarilgan axloqiy-ma'rifiy fikrlar bu beqiyos san'at namunalarining bugungi kunda maqollar, qanotli iboralar tarzida jamiyatimiz hayotida muqimlashishi uchun sabab bo'lgan. Ba'zi misollar:

Viqor gavhariyu hilm ma'dani bo'lako'r,
Desangki, qilg'ay itoat sanga gado ila shoh.

Yana:

Biyik maqomig'a ulkim tilar sabot kerak,
Ki egrilikni qo'yub tuzluk aylasa qonun.

Yana:

Xiromon suda soyir bo'lmoqu uchmoq havo uzra,
Ajah ermas qachonkim, rostravliq qilsa ozoda.

Navoiy o'z qit'alarining ahamiyati haqida shunday yozadi:

Mundoq muqatta'atkim, men yig'misham erur,
Har bir hadiqai xirad aylar uchun farog'.
Majmo'in o'yla kishvare anglaki, sathini,
Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog'.

Bayoni: Men yiqqan qit'alamning har biri osoyishta yashash uchun yaratilgan bilim bog'laridir. Ularning barchasini bir mamlakat deb tasavvur etsang, har bir qit'ani donishmandlik suvi bilan sug'orilgan bog' deb bil.

Devonlarda **ruboiy** janridagi asarlarga keng o'rin berilgan va ularning aksariyati ruboiyi taronadir. Xususan, "Badoe' ul-bidoya" devonidan 85 ruboiy o'rin olgan. Bu ruboiylar orasida tabiat mo'jizalarining go'zal tasviri berilgan mo'jaz lavhalar uchraydi. Misol:

Suv ko'zgusini bog' aro aylarda shitob
Siymob qilur erdi taharruk ila tob.
Day qildi bu siymobni andoq ko'zgu,
Kim ko'zgu aning qoshida bo'lg'ay siymob.

Bayon: Bog'da ko'zgudek jilolanib turgan suv yuzida simob o'ynar edi. Yoki bir sho'la simobdek suv yuzida jilolanar edi, Qish sovug'ining shiddati bu simobni shunday bir ko'zguga aylantirdi-ki, uning tiniqligini ko'rgan ko'zgu simobdek erib ketdi.

Gul vaqti muyassar o'lsa gulfom qadah,
Andin so'ng tutsa gulandom qadah,
Man' aylasa garchi ahli islom qadah,
Kofirmen agar qilmasam oshom qadah.

Bayon: Bahor faslida menga bir gulchehra yor gul rangli qadah tutsayu, men din ahli may ichishni man etganligi tufayli uni olib no'sh etmasam – kofir bo'lay, dindan kechay!

Xuddi shu mazmundagi bir ruboiyda shoir o'z ijodiy uslubiga xos so'z o'yini qiladi. Shoir mug'bacha obrazida, albatta, dayr piri, ya'ni bu dunyodagi bir ma'rifiy yo'lboshchini nazarda tutadi, jonnu may obrazlarida ham, albatta, ma'rifiy suhbatlar, pok muhabbatga intilish nazarda tutiladi. Ammo ushbu ruboiyda bizni o'ziga tortgan hodisa shoir adabiy-estetik prinsiplariga xos so'z o'yinidir. Shoir bir jom may haqqiga jonini beryapti, ikki jom may uchun esa ikki dunyosini hadya etmoqda. Ilohiy muhabbat zavqidan bir tomchisini to'kkanimdan ko'ra, qonim to'kilsin, demoqda ulug' shoir:

Ber jomu ol, ey mug'bacha, jonimni ivaz,
Qo'sh tutqilu, ol ikki jahonimni ivaz,
Oni sumururda qatrac tomsa agar,
Sen ham to'k aning o'miga qonimni ivaz.

Shoimning bu mazmundagi ma'rifiy fikrlari ijtimoiylashgan tarzda ba'zi ruboiylarda namoyon bo'ladi:

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va'daki, aylasa vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.

Bayon: Podshoh bo'lishni istagan kishi saxovatli, va'dasiga vafodur qiluvchi bo'lishi kerak. Faqirlik, darveshlik da'vo qilgan kimsa esa, Allohdan nekim kelsa rizo bo'lib, shukr qilib, maqsadi - hayotiy talablar va ehtiyojlar yukidan o'zini xalos etmoq bo'lishi kerak.

Aksariyat ruboiylarda dunyoviy muhabbatning zavqbaxsh onlari tasviri yoki va'dasiga vafodur qilmagan mahbubaga itob, uning taqdiriga ishora motivlari seziladi:

Bir sori sorig' po'lovu men tutsog' yo'l,
Ne tog'u ne tuz desang, ne obodu ne cho'l,

Yirtuq kepanaktin chiqorub yolong qo'l,
Ul qochsavu men qovsamu, men qochsamu ul.

Bir gul g'amidin dedim qo'yay bag'rima dog',
Berg'ayimu debon atri dimog'img'a farog',
Bargin chu mulavvas ayladi bum ila zog',
Endi ani islamoqqa yuz hayf dimog'.

Lug'az (topishmoq) janridagi she'rlar qalam, tanga, igna, anor, yumurtqa va h. k. lar haqida. Ularda ham shoir har bir narsa – predmetning o'ziga xos xususiyatini badiiy so'z yoki usul bilan bayon etib boradi. Bu topishmoqlarda Navoiyga xos hazil tarzidagi tasvirlar uchraydi. Masalan, igna haqidagi lug'azda hazil aralashgan shunday bayt bor:

Pardai ismatda har gulruhki ursun lofi zuhd,
Ko'nglakining darzi-darzi ichra ko'mushlar ani,

ya'ni, hayo pardasi bilan o'ralgan gulyuzli go'zal o'zining zohidligi, iflos pokizaligi haqida har qancha maqtanmasin, u kiygan ko'ylakning qo'qatlariga igna kirganligini odamlar ko'rishgan.

“Xazoyin ul-maoniy” devonlariga ulug' shoirning **muammo**, **tuyuq**, **fard**, **qasida** janrlaridagi asarlari ham kiritilgan.

Shoiring eng mo'jaz san'at asarlari bo'lmish **fard**larda navoiyona zakovat, mahorat, dilrabo va ruhafzo jibilliy nazokat namoyon bo'ladi. Masalan, mumtoz sharq poetikasida ko'zning tashbehi aksariyat qotil, lab esa obi hayot manbai sifatida tilga olinadi. Navoiy ana shu ancha ommaviylashib ketgan tashbehlardan quyidagicha sahli mumtane yaratgan:

Ikki ko'zingu labing g'amidin
Men xasta o'lib-o'lib, tirildim.

Hayda o'lib-o'lib so'zining ikki bor takrorlanishi – har ko'zing uchun bir xasta jon berdim, ammo labing xayoli meni tiriltirdi, degan ma'noni bildiradi.

Belu og'zingdin, dedilarkim, degil afsonae,
Boshladim filholkim: “Bir bor edi, bir yo'q edi”.

Hayda “bir bor” deganda ingichka belni, “yo'q” deganda og'izni anglash kerak. Quyidagi fardda ham o'ziga xos, yangi so'z o'yini ishlatilgan:

O'q edi, ey tongki, otting jonima vuslat tuni,
Bu jihatdin yoruma dermen seni har subhidam.

Fardning birinchi ma'nosi: ey tong, vuslat (yor vasli nasib etgan) tun jonimga o'q otting. Shu boisdan men seni “yorishma”, deb qarag'ayman.

Ikkinchi ma'nosi: vasl tuni jonimga otgan o'qingni, ey tong, har subhidam yorimga aytib berib, shikoyat qilaman.

Alisher Navoiy ijodida lirik janrlarning poetik jihatdan shu tariqa mukammal darajadagi takomili uni Sharq mumtoz she'riyatini yangi inqilobiy bosqichiga olib chiqqanligidan dalolat beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Turkiy tildagi xalqchil she'riyatning turkiy mumtoz she'riyat darajasiga yetishi jarayoni haqida so'zlab bering.
2. Alisher Navoiy Husayniyning ijodi turkiy she'riyatni mumtoz adabiyot poetikasi qonun-qoidalarini doirasiga kirishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligini qanday tushuntirib beradi?
3. Alisher Navoiyning «turkona» atamasiga bo'lgan munosabatini qanday tushuntirish mumkin?
4. Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» da qo'shiqlarning necha turini tavsiflab beradi?
5. Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» nomli asarining topilishi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishi haqida so'zlab bering?

6. «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga tartib berish davrida hamd ruhida g'azallar mavqeyini Navoiy qay tariqa belgilaydi?

7. Hirot adabiy muhitida shoyon bo'lgan lirik janrlar haqida ma'lumot bering.

8. Ulug' shoir sharq musammachilik an'analarga qanday yangilik kiritdi?

9. Shoir tarjebandlari badiiyati haqida so'zlab bering?

10. Navoiyning mumtoz adabiyotda kichik lirik janrlar taraqqiyoti sohasiga qo'shgan yangiligi nimadan iborat edi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1988. 616 б.
2. Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998. 304 б.
3. Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 17-жилд. – Тошкент: Фан, 2001. 520 б.
4. Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2 жилдлар. – Тошкент: Sharq, 2016.
5. Абдуғафуров А. Навоий сатиреки. 1-қитоб. – Тошкент: ФАН - 1966. 131 б.
6. Иззат Сулгон. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Камалах, 1991. 173 б.
7. Исҳоков Ё. Сўз санъати сўзлуги. – Тошкент: Зарқалом - 2006. 144 б.
8. Олимов М. Рисолаи аруз. – Тошкент: Ёзувчи, 2002. 88 б.
9. Стеблева И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – Москва: Наука, 1993.
10. Хайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Тошкент: ФАН, 1963. 173 б.
11. Хайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Тошкент: Фан, 1970. 331 б.
12. Ҳожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006. 288 б.

ALISHER NAVOIY G'AZALLARINI SHARHLAB O'RGANISH TAMOIYILLARI

1.

“G'aroyib us-sig'ar”, 4-g'azal:

Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan⁶⁶ sanga,
Andoqki, qurb taqvovu toat bilan sanga.

Topmoq ajib fikru taxayyul⁶⁷ bila seni,
yetmak mahol aqlu farosat bilan sanga.

Chun koinot zubdasi ojiz ko'rib o'zni,
Hamd eta olmascha⁶⁸ balog'at bilan sanga.

Izhorij az bizdin adab tarkidur, base,
Yuz ming qusur⁶⁹ nuqsu kasofat bilan sanga.

Har tiyra ro'zgorki, vaslingg'a yo'l topib
Sendin yetib charog'i hidoyat bilan sanga.⁷⁰

Lutfung rafiqim o'lmasa⁷¹ ne hadki, yetkamen
Boshtin ayog' gunohu zalolat bilan sanga.

⁶⁶ G'azal naznga tushishi uchun bu s'uz tistikida “lan” deb uqilib, bir uzun kichik (yatad) sanalsa maksadga muvofik b'uladi.

⁶⁷ Bu s'uz ham MATda “taxayyul” shaklida berilgan. Bunday shaklda s'uz ma'no bildirmaydi, “taxayyul” deynlsa t'ug'ri b'uladi, “xayl” s'uzidan yasalgan.

⁶⁸ Bu misra shunday uqilsa, ham mazmun, ham vazn jihatidan qat'iy b'ulmaydi.

⁶⁹ Nashr matnida bu s'uz oxirida kelgan “u” (“qusuru”) q'ushmachasi naznga putur etkazmoqda.

⁷⁰ Nashr matnida “charog'i” s'uzi naznga tushmayпти. Bu s'uz “rohi” tarzida uqilsa, mazmunga ham, vaznga ham zarar etmaydi.

⁷¹ Bu s'uz “ulsa” shaklidan mazmunan va vazn jihatidan талаб қилинади.

Lutf aylagilki, mumkin emas qilmasang qabul,⁷²
yetmak tamomi umr ibodat bilan sanga.

Chun sendin o'zga yo'q panohim, qochmayin netay,⁷³
Jurmu gunahdin ohu nadomat bilan sanga.

Isyoni ko'p Navoiyning-u, yo'q uyotikim,⁷⁴
Istar yetishsa muncha xijolat bilan sanga.

LUG'AT:

Hamd – 1. Maqtov, madh; 2. Shukr, tashakkur, rahmat; 3. Madhu sano, maqtash va sano aytish.

Mahol – 1. Qiyin, og'ir; 2. Vaqt, zamon.

Fasohat – so'zning ochiq, ravshan, chiroyli va qoidaga muvofiq bo'lishi.

Qurb – 1. Yaqinlik, yaqin bo'lish; 2. Qobiliyat; 3. Loyqlik.

Taxayyul – xayol surish, o'ylash, tasavvur.

Balog'at – yetuklik, barkamollik, benuqsonlik; notiqlik.

Ajz – 1. Ojizlik, zaiflik, kuchsizlik, notavonlik; iqtidorsizlik; 2.

Xastalik; 3. Ojizlikni, xoksorlikni tan olish.

Kasofat – 1. Dag'allik, qo'pollik; g'alizlik; 2. Ifloslik, yomonlik; 3.

Xiralik, tutilish (quyosh).

Hidoyat – to'g'ri yo'l ko'rsatish, to'g'ri yo'l topish, to'g'ri yo'lga kirish.

Zalolat – xorlik, pastlik, haqirlik, tubanlik; gumrohlik, yo'ldan ozganlik.

Nadomat – pushaymon, afsuslanish, taassuf.

Xijolat – uyalish; sharmanda bo'lmoq.

⁷² Бу мисрада ҳам бир ҳаҷо ортиқ.

⁷³ Бу мисрада ҳам вази сакта.

⁷⁴ Мисри куйидагича ўқилса, вази муҳиммал бўлади: “Исёни кўп Навоийни, йўқ ётиким”.

G'azal bahri: rajazi musaddasi solim
Mustafilun mustafilun mustafilun

G'azalning nasriy bayoni

Matla': Ey parvardigor, Seni nihoyatda chiroyli va mazmunli so'zlar bilan maqtash mushkul;

Sidqu ixlos, toat-ibodat bilan Senga yaqinlik hosil qilish ham mushkul bo'lgani kabi.

2. Fikru mushohada, xayollarga berilish bilan ham Seni topib bo'lmaydi;

Aqlu farosatni ishga solib ham Senga yetmoq mushkul.

3. Koinotdagi bor mavjudot Sening qudrating oldida ojiz;

Barcha mavjudot har qancha benuqson bo'lmasin, Sening maqtovingni keltira olmaydi.

4. Biz odobni tark etgan - odobsizlar Sening qoshingda o'z ojizligimizni izhor etamiz;

Bizning yuz ming qusurimiz, nuqsonlarimiz va yomonliklarimiz bor.

5. Dunyo hayotida qorong'ulikda qolganlar Sening vaslingga yo'l topsalar;

Bu Sening o'zingdan yetgan hidoyat nuri tufaylidir.

6. Menga ham Sening marhamating yor bo'lmasa, yetmoqqa haddim bormi;

Umrinning boshidan oxiriga qadar gunohga botib, adashgan bo'lsam?

7. O'zing mendan marhamatingni darig' tutma, qabul etmasang imkoni yo'qki;

Umrin davomida ibodat qilsam ham Senga yetolmayman.

8. Sendan boshqa panohim yo'q, Sening dargohingga qarab qochmasam qandoq qilaman;

Gunohlarim ko'pligidan o'zimni o'zim ayblashdan boshqa ishim yo'q.

Maqta': Navoiy Senga ko'p noto'g'ri so'zlarni aytib isyon qiladi, ammo bundan uyalmaydi ham;

U qattiq xijolat bilan bo'lsa ham Sening dargohingga yetishishni istaydi.

G'azalning umumiy mazmuni

Ushbu g'azal "hamd" atalib, Xoliqi Mutlaq, ya'ni biz bilgan va bilmagan koinotdagi hamda undan tashqaridagi barcha mavjudotni yaratgan, yagona, misli yo'q, azaliy va abadiy bor Zot – Haq taolo madhiga bag'ishlangan. Shoir g'azal matlaiddanoq Buyuk, Yagona, Behamto Zotga hamd aytish mas'uliyati naqadar og'ir ekanligini bayon etadi. Xuddi taqvo (kuchli iymon) va toat (ibodat) bilan Yaratganga qurbat (yaqinlik) hosil qilish qanchalik og'ir bo'lsa, fasohatli til, ya'ni chiroyli va qoidaga muvofiq so'z bilan uni maqtash ham shunchalik mushkuldir. Ikkinchi baytdagi "topmoq" so'zi "tanimoq" ma'nosini beradi: Haq taoloni na fikr, na xayol va tasavvur bilan, na aqliy (dunyoviy) ilm va fahm-farosat bilan tanimoq, anglamoq mumkin.

Bag'oyat yetuklik, betakrorlik, barkamollik, benuqsonlik bilan Haqning o'zi tomonidan yaratilgan koinotdagi bor mavjudot ham Uning maqtovini munosib tarzda ayta olmaydi, kuchi-qudrati yetmaydi.

Shu bois behisob kamchiliklari, xatolari, yomonliklari bo'la turib, "Yaratganga hamd aytaman", deya beadablik qilgan jamiki mavjudot, shu qatorda inson ham o'z ojizligini, notavonligini, iqtidorsizligini tan olishga majbur. Shu ma'noda navoiyshunos olim I. Haqqulov shunday yozadilar: "Navoiy nazmiy va nasriy asarlaridagi murojaatlarida, ayniqsa, "Munojot" asarida Tangrining komil sifatlarini ta'riflash barobarida o'zining ojizligini, unga bo'lgan ehtiyojlarini izhor qiladi. Sharq she'riyatida aynan mana shu

"ojizlik izhori" an'anaviy bayon usullaridan bo'lib, komil insonga xos bo'lmish fazilatlaridan sanalgan."⁷⁵

Hayotda adashgan, turmushi qorong'ulikda qolgan har insonga O'zing hidoyat (to'g'ri yo'l) chirog'ini marhamat aylasang, u ushbu chirog' bilan haqiqiy to'g'ri yo'lni – Sening visolingga eltadigan ma'rifat yo'lini topib oladi, demoqda shoir.

"Men ham boshdan oyog'im gunohu, gumrohman, to'g'ri yo'ldan ozganman, menga lutfing-marhamating yor bo'lmasa, dargohingga yetolmayman." Bu baytda shoir o'zi mansub bo'lgan naqshbandiya tariqatining bir shaxobchasi bo'lmish malomatiya suqta'i nazaridan o'zini o'zi malomat qilmoqda. O'zini har narsadan past va xor ko'rish, biror kichik gunohidan ham qattiq uyaliq, pushaymonlik, o'zini Haq yaratgan mukammallik ichida nomunosib his etish malomatiylarning tafakkur tarzi edi. Navoiyning piri va eng yaqin do'sti Abdurahmon Jomiyning tariqatdagi yo'nalishi naqshbandiyai-malomatiya bo'lgan.

Endi shoir Yaratganga sidq bilan munojot qilmoqda: O'zing menga lutf qilg'ilki (mehr bilan qaragil va ehson qilg'ilki), o'zim bir umrlik toat-ibodat bilan ham senga yetolmayman (roziliginгни topolmayman). Bu yerda shoir Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asarida keltirilgan va keyinchalik xalq maqoliga aylanib ketgan "Tangrini toat bila topmas quli" so'zlari mazmuniga ishora etmoqda.

Shoir o'zini malomat etishda mubolag'a qilaveradi, o'zini benuqson Oliy dargohga munosib ko'rmaydi. Ammo shuncha nokomillik bilan ham o'zi intiladigan boshqa dargoh yo'qligini biladi, shu dargohga qochadi, shu dargohdan panoq tilaydi. Bu fikrlarni bayon etar ekan, Navoiy bevosita Qur'oni karimning ochuvchi "Fotiha" surasi 4-5 oyati karimalari (ma'nosi): "Sengagina ibodat qilamiz, Sendangina madad kutamiz" mazmuniga va 114-"An-Nos" surai karimasi 1-3 oyati karimalari: "Ayting: panohiga

⁷⁵ Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтмиш. – Тошкент: "ТАФАККУР", 2016. 20-6.

qochaman insonlar Rabbining, insonlar Podshohining, insonlar Ilohining" ma'no-mazmuniga ishora qiladi.

Maqta'da aqli, salohiyati, iymoni va ichki madaniyati bag'oyat yuksak insonning Tangri taolo oldidagi xijolati eng baland nuqtaga ko'tariladi. Zero, xijolat hissi, tushunchasi, holati faqat ichki dunyosi boy, ma'rifatli insonlarda rivojlangan bo'ladi. Xijolat tuyg'usi ham Yaratganning o'zi tanlagan insonlarga in'om etadigan katta ehsoni. Bu hisni hayoti davomida biror marta tuymagan insonlar ham bor, juda ko'p. Navoiy - xijolatda, oddiy bir inson sifatida xatosi ko'p. Ammo uning o'zi topib olgan va intiluvchi dargohi bitta - shu dargohga yetish uning hayotiy istagi!

G'azal matnidagi ba'zi nomukammalliklar shoir devonini ko'chirgan xattotlar e'tiborsizligi natijasida yuz bergan bo'lishi mumkin. Shunday ekan, yosh navoiyshunoslar oldida Alisher Navoiy she'riyati ilmiy-tanqidiy matnini yaratish vazifasi dolzarb bo'lib qolaveradi.

2.

"G'aroyib us-sig'ar", 5-g'azal:

Iloho, podshoho, kirdigoro,
Sanga ochug' nihonu oshkoro.

Sabur ismi bila qilsang tajalliy,
Qilib Namrudg'a yuz ming mudoro.

Qachonkim zohir etsang "tanzi'-ul-mulk",
Skandarning bo'lub mag'lubi Doro.

Yo'ling muhlik toshi yoquti ahmar,
Eshiging tiyra gardi mushki soro.

Suho bo'lsa shabistoningda toli',
Bo'lub nuri quyoshdek olamoro.

Navoiy nafs zulmotig'a qolmish,
Sen o'lmay Xizri rah chiqmoq ne, yoro?!

Qiyomatda gunohin avf etarg'a,
Rasulingni shafi' et, kirdigoro.

LUG'AT :

Kirdigoro - yaratuvchi, xudo, tangri taolo

Sabur - sabrli, toqatli, chidamli, bardoshli

Tajalliy - ko'rinish, jilvalanish

Namrud - rivoyatlarga ko'ra, payg'ambar Ibrohim alayhissalomni o'tda kuydirmoqchi bo'lgan podshoh

Mudoro - 1. Murosa qilish, chiqishish, kelishish, iltifot, lutf; 2.

Sulh tuzmoq, yarashmoq

Muhlik - o'ldiruvchi, halok qiluvchi; halokatli.

Ahmar - qizil

Suho - 1. Hulkar to'plamidagi yulduzlarning eng xirasi; 2.

Juda kichik, arzimas

Shafi' - himoyachi, vositachi

G'azal bahri: hazaji musaddasi maqsuri aruz va zarb

Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iyl

G'azalning nasriy bayoni

Matla': Yo Alloh, Yo barcha O'zing tomoningdan mavjud etilgan mulk, borliq saltanatining podshohi, Yo Yaratguchim! Barcha yashirin va oshkor mavjudlik va holatlar faqat O'zinggagina ayon.

2. "Sabrli" degan isming bilan borliqda aks etgan payting. Namrud ismli dushman bilan ham yuz ming bor murosa va madero qilasan.

3. Qachonki Qur'oni karimingda marhamat qilganingdek, birovdan mulkin tortib olmoqchi bo'lsang. Dorodek shukuhli podshoh ham Iskandardek yosh yigit oldida mag'lub bo'ladi.

4. Senga eltadigan yo'l halokatli, toshlari qizil yoqutdan. Eshiging xushbo'y mushk gardlaridan qorayib ketgan.

5. Sho'lasida juda kuchsiz bo'lgan Suhayl yulduzi qorong'u tiningda nur sochsa, Qudratingdan quyoshdek butun olamni yoritadi.

6. Navoiy nafs yuki ostida qorong'ulikda qoldi. Bu qorong'ulikdan O'zing unga yo'ldosh bo'lsanggina chiqadi.

Maqta': Qiyomat kuni Navoiyning gunohlarini avf etish uchun. Rasulingni uning gunohlarini so'rab olguvchi qilgin, ey Yaratguchi Tangri taolo!

G'azalning umumiy mazmuni

Bu – munajat tipidagi g'azal bo'lib, Alisher Navoiyning yoshlik yillarida ijod etilgan. "Ilk devon"ning ochuvchi g'azalidir. G'azal Buyuk Yaratguchining sifatlari tavsifi bilan boshlanadi: U O'zi yaratgan maxluqotini O'zi mukammal biladi, Undan hеч narsa pinhon qolmaydi.

Haq taolo ismlari va sifatlari bilan dunyoda jilvalanib turadi. Agar U Sabur (sabrli, toqat qiluvchi) ismi bilan shu'la sochsa, hattoki, O'zining sevimli do'sti, payg'ambari Ibrohim alayhissalomni o'tda kuydirmoqchi bo'lgan podshoh Namrud alayhilla'naning ham istagini bajaradi. Rivoyatlarda, xususan Burhoniddin Rabb'uziyning "Qisas ul-anbiyo" asarida keltirilishicha, Ibrohim alayhissalom inson qo'li bilan yasalgan

butlarga emas, yagona va misli yo'q Tangri taologa ibodat qilishga da'vat etganlari uchun, butparastlar ibodatxonalaridagi butlarni sindirib tashlaganlari uchun qavmning g'azabiga uchraydilar va Namrud ul zotni o'tda kuydirmoqchi bo'ladi. Payg'ambar sabr qiladilar va tangridan madad bo'lib, o't balosidan qutuladilar. Shunda Namrud "Men Ibrohimning xudosini otib o'ldiraman", deb niyat qiladi. Bir savat yasatib, uning to'rt chetiga to'rtta qushni bog'lab, ularni go'sht bilan boqib, osmonga ko'tariladi va tangrini otish uchun o'q o'qalib turadi. Shunda buyuk va behamto Tangri taolo do'stining dushmani bo'lmish kimsaning ham ko'ngliga qarab, falakda bir baliq timsolini namoyon qiladi. Nodon Namrud: "ana Ibrohimning xudosini ko'rdim", deydi va o'q uzadi. Haq taolo baliqdan qon oqqandek manzarani unga ko'rsatadi. Namrud: "otgan o'qim xudoga tegdi", deya xayol qiladi va yerga tushadi. Hazrat Navoiy Namrud alayhilla'na Haq taoloning Sabur, ya'ni mohiyat e'tibori bilan "sabr qiluvchi" ismi dunyo yuzida jilvalanib turgan bir paytda niyatini amalga oshirmoqchi bo'lganini va Haq taolo u bilan murosa-mudoro qilib, jaholatga o'z hikmati bilan sabr qilib, istagini berganini poetik ifoda etmoqdalar. Ammo shundan so'ng o'z adolatini namoyon etaroq, Haq taolo uni ojiz bir pashsha zulmiga duchor etib, halok qiladi; u "abadiy o'zimmiki", deb o'ylagan mulkini ham tashlab ketadi. Baytda shoir Tangri taoloning Sabur sifatini tafsir qilib, Odil sifatiga ishora etmoqda.

Keyingi baytda shoir Haq taoloning yana bir sifatini madh etish uchun Qur'oni karimning "Oli-Imron" surasi 26-oyati karimasidan iqtibos olib, Mutlaq mulk va davlat egasi bo'lgan Tangri taoloning istagan kishisiga mulk ato etmog'i va istagan kishisidan bu mulkni tortib olmog'i, istaganini aziz va istaganini xor qilmog'i, bor yaxshilik uning qo'lida ekanligi va albatta Uning O'zigina barcha narsaga qodir zot ekanligini o'quvchiga eslatadi. Shayx Abdulaziz Mansurning "Tafsir"ida (Toshkent: "Ma'naviyat", 2002) keltirilishicha, "tanzi' ul-mulk" – "istagan kishidagi bu mulkni tortib olursan", degan ma'noni anglatadi. Hazrat avvalgi

baytdagi Namrud taqdiriga ishora etar ekanlar, agar har narsaga qodir parvardigor istasa, Dorodek shavkatli va ulug' bir shohdosi "mulkni (toju taxt, mamlakatni) tortib olib", uni Iskandardek yosh yigitning oldida mag'lub qiladi, degan fikrni bayon etadilar. Bu baytda shoir oyati karima nihoyasidagi "innaka 'ala kulli shay'in qadiyr" kalimalari mazmuniga ko'ra, Haq taoloning Qodir sifatini vasf etadilar.

Keyingi bayt majoziy tasvir, tashbehu mubolag'alar bilan yaratilgan yuksak badiiy mahorat namunasi bo'lib, unda ham chuqur ma'rifiy mazmun o'z ifodasini topgan. Ma'rifat – Haq taolo dargohiga intiluvchilarning yo'li. Shoir baytda ana shu yo'lni nazarda tutmoqda. Ammo bu yo'lni bosib o'tish nihoyatda qiyin, u – toshloq. Bu yo'ldagi toshlarning har biri qip-qizil yoqut kabi qimmatbaho. Buning siri shundaki, bu yo'lda yurgan Haq oshiqlarining muhabbat shavqidan bag'irlari erib, ko'zlaridan oqqan qon yoshlari tufayli oyoqlari ostidagi oddiy toshlar bebaho la'l, yoqutlarga aylangan! Muhlik, ya'ni insonni vujudan halok etuvchi, uning dunyoviy nafsini ham o'ldiruvchi bu yo'lning nihoyasida Oliy dargoh eshigi mavjud. Bu eshik Haqqa bo'lgan muhabbatdan kuyib, tanlari tuproq kabi to'kilgan, borliqlaridan poklik va sidqu vafod fori, hidlarigina qolgan, toza mushkka aylanganlarning gardi, g'uboridan qorayib ketgan.

Suho yoki Suhayl – eng kuchsiz nur taratuvchi yulduz. Ammo shoir nazdida shu yulduzcha Haqning tungi osmoniga loyiq ko'rilsa, nuri Quyosh nuri singari kuchli bo'lmog'i shubhasiz.

Navoiy maqta'da o'zining dunyoviy ehtiyojlar yuki ostida qolganligini, orzu-istaklarning qorong'u yo'lida qolmoqdaligini, ammo niyati ma'rifat ekanligini bayon etadi. Shubhasiz, ushbu yo'lda shoirming yagona Do'sti, yagona Yori – Haq taoloning o'zi hamroh bo'lmog'i lozim. Agar shunday bo'lmasa, yo'lga chiqmoqdan ma'no yo'q. Baytda Hazrat Navoiy Qur'oni karimda kelgan Muso alayhissalom va Xizr alayhirrahma qissasiga ishora etmoqdalar.

Navoiy g'azallari ichidan birgina shu munojot g'azalda maqta'dan keyin yana bir bayt keltiriladi. Bu bayt bilan shoir Haq taolo ibodatida bardavom, sidqu vafosi chegarasiz, intilishi toxtamas ekanligini ifoda etmoqchi bo'lgandir. G'azalni yakunlar ekan, shoir islom shariati odobiga rioya qiladi, ya'ni Haq taologa hamd aytilgan choqda, uning sevimli payg'ambari, habibi Rasuli akram (s.a.v.)ni tilga olmaslikning iloji yo'qligini biladi, mu'minlikning birinchi talabi – kalimai shahodatni nazarda tutadi. Shoir dunyoviy hayot nihoyasidagi hisob-kitob kunida mahshargohda Haqning sevimli do'sti himoyasida hozir bo'lishni so'rab, munojot qiladi.

G'azalning lirik qahramoni – shoirming o'zi. G'azalning shoir yoshlik yillarida, Hirotdan Samarqandga ketishidan oldin yaratilganligini nazarda tutsak, uning Haq taolo xulqi bilan xulqlanishni istab, o'ziga sabr tilaganligini, Doroni yenggan Iskandar, kuchsizgina Suho yulduzi timsollarida o'zini tasavvur etganligini mushohada qilishimiz mumkin. Ammo bizning bu kuchsiz mushohadamiz "shoir shunday demoqda", mazmunidagi fikrni anglatmaydi.

3.

"G'aroyib us-sig'ar", 6-g'azal:

Ey, nubuvvat xaylig'a xotam baniy Odam aro,
Gar alar xotam, sen ul otkim, erur xotam aro.

Yuz eshiging tufrog'ig'a surta olg'aymenmu deb,
Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro.

Anjum ichra orazing me'roj shomi o'ylakim,
Tushsa durri shabcharog'ye har taraf shabnam aro.

Ne uchun kiymish qaro haryon solib jaybig'a chok,
Furqatingdin Ka'ba gar qolmaydurur motam aro.

Sof ko'nglida yuzung mehrini go'yo asramish,
Tush chog'i har kun quyosh aksi emas Zam-zam aro.

Mash'ale bo'lmish malak ilgida ravzang boshig'a,
Oy charog'i kechalar bu nilgun toram aro.

Qum emas Bathodakim, mehri jamoling hajridin,
Zarra-zarra jismi bir-birdin to'kuldi g'am aro.

Yo'l emas, Yasribda yirtibdur yuzin timog'ila,
Maqdaming to yetmadi ul vodiya xurram aro.

Itlaring maxsus mahzundur Navoiy, koshki
Kirs bu mahrum ham ul zumrai mahram aro.

LUG'AT :

Nubuvvat — nabiylk, payg'ambarlar guruhi, Haq taolo
insoniyatga yuborgan elchilar guruhi

Xotam — muhr

Jayb — 1. Cho'ntak, kissa; 2. Yoqa, kiyimning yoqasi; 3. Yon,
yaqinlik

Ka'ba — 1. Makka shahridagi ziyoratgoh, muqaddas sayilgoh,
musulmonlar qiblas; 2. Ko'ngil.

Zam-zam — 1. Qo'shish, jamlash; 2. Makkai mukarramadagi
muqaddas quduq

Batho — Makkai makarrama atrofida Batho vodiysi

Yasrib — Madina shahrining qadimgi nomi

Nilgun toram — ko'k rangli osmon gumbazi

G'azal bahri: ramali musammani maqsur
Foilotun foilotun foilotun foilon

G'azalning nasriy bayoni

Matla': Ey Odam bolalari ichidan tanlangan nabiylar to'piga
bosilgan muhr. Agar ular muhr bo'lsalar, sen o'sha muhr
o'rtasida o'yib yozilgan otsan.

2. Sening eshiging tuprog'iga yuzini surtish umidida. Qasrga
o'hshash falaklardan Quyosh har kun olamga, dunyoga
tushadi.

3. Me'rojga ko'tarilganingda Sening yuzing go'yoki yulduzlar
ichida shabnam orasidagi kechani yorituvchi dur kabi edi.

4. Nega yoqalarini chok etib, egniga qora kiymasin Ka'baki,
Sening furqatingda motamda qoldi-ku!

5. Go'yoki pokiza ko'nglida Sening yuzingga bo'lgan
muhabbatini asragandek; Zamzam qudug'i suvi yuzida aks
etgan nur aslo quyosh nuri emas.

6. Qabring boshida farishtalar ko'tarib turgan mash'ala
kechalari ko'm-ko'k osmonda nur sochib turgan Oydir.

7. Batho vodiysidagi qumlar albatta qum emas, balki jamoling
mehrini sog'inib, g'amga botib, zarra-zarra bo'lib to'kilib
ketgan jismlardir.

8. Yasrib shahri tomon cho'zilgan yo'llar ham yo'l emas, balki
yuzlarini timoqlari bilan yirtib; Sening muborak qadamingni
orzulab turgan shodu xurram bir vodiya.

Maqta': Eshigingdagi itlaring Sening xususiy mulking, shu
sababdan ham Navoiy hazin, g'amda qolgandirki; Qaniydi u
ham shunday baxtdan mahrum bo'lmay, Sening xonadoning
mulki bo'lsa edi!

G'azalning umumiy mazmuni

Buyuk shoir hamdlarida ham, na'tlarida ham dunyo, bashariyat hayoti, inson shaxsi xususida g'oyatda badiiy fikr yuritadi. Ushbu g'azal na't bo'lib, unda Hazrati Muhammad alayhissalom haqlarida fikr yuritiladi. Ma'lumki, Muhammad alayhissalom farishta emas, bashar farzandi bo'lganlar. Shoir basharning ana shu pokiza farzandini ulug'lash orqali Odam Ato avlodlarini, demakki, oddiy insonni ko'klarga ko'taradi.

Matla' oddiy tuproqdan yaratilgan, ammo oliy darajalar sohibi bo'lgan insonga yuzlanish va uning insoniyat tarixidagi oliy o'rni va'f etish bilan boshlanadi. Muqaddas kalomullohdan keltirilishicha, zalolatga ketayotgan insoniyatni Haq yo'liga hidoyat qilish uchun insonlarning o'zlaridan tanlangan 124 ming (yana aniqrog'ini Haq taoloning O'zi biladi) payg'ambar, yo'l ko'rsatuvchi yer yuziga yuborilgan. Shoir Muhammad alayhissalomni ana shu Odam Ato farzandlaridan bo'lmish payg'ambarlarning oxirgisi, muhri, hujjati, deb ataydi. Baytda muhr vositasida shunday badiiy lavha chizilmoqdaki, ya'ni biror xat yoki hujjat so'ngida shu hujjat sohibi yoki muallif o'z muhrini bosadi. Muhr - qabul qilingan qaror yoki oxirgi hukmni tasdiqlovchi vosita, dalil. Keyingi misrada shoir zanjirli o'xshatish - tashbehi musalsalni davom ettiradi: agar har bir payg'ambar o'z qavmi uchun shohidlik beruvchi bir muhr bo'lsa, Muhammad alayhissalom shu muhr ichida yozilgan (darj etilgan) so'z, ism, deydi. Ma'lumki, muhrning o'rtasida muhr egasining ismi yozilgan bo'ladi. Demak, Muhammad alayhissalom o'zlarigacha o'tgan barcha payg'ambarlarning haqiqatini aks ettiradilar, ul zoti oliygacha o'tgan payg'ambarlarda esa Rasuli akramning (s.a.v.) biror sifatleri yoki bir necha sifatleri o'z ifodasini topgan. Shu bois ul zoti bobarakotga "xotam ul-anbiyo" darajasi berilgan.

Payg'ambarlar elining xotami Muhammad alayhissalom komil inson edilar. Falakning buyuk charog'i Quyosh ham "basharning yetuk farzandi eshigi tuprog'iga yuzimni surtay, uni tavof qilay",

deb har kun Charxdan yerga tushadi. Bu go'zal badiiy lavha bilan Navoiy "komil inson atrofida butun koinot aylanadi", mazmunidagi so'fiyona g'oyani talqin etishga kirishadi. So'fiyona g'oya talqini keyingi baytda davom etadi.

Bu baytda favqulodda go'zal badiiy lavha yaratilgan. Shoir payg'ambar alayhissalomning buyuk mo'jizalari bo'lmish me'roj voqyeasini tasavvurida jonlantiradi. Me'roj kechasida payg'ambar alayhissalomning nur sochuvchi yuzlari yulduzlar (anjum) orasida (birinchi misra); xuddi gul bargidagi shabnamlar orasiga kechani yoritib yuboruvchi qimmatbaho dur - gavhar tushib qolgandek (ikkinchi misra) manzarani namoyon etadi. Baytda osmon - yashil gul bargiga, yulduzlar - tungi shabnamlarga, payg'ambar alayhissalomning yorug' yuzlari - dur, gavharga qiyoslanmoqda.

Keyingi baytda Ka'baning qora rangli libos (ka'bapo'sh)da ekanligini payg'ambar alayhissalom undan bir muddat bo'lsa ham uzoqlashganlari uchun motam libosiga o'ralgan, deb; eshiklar o'rnidagi yoriqlarni esa payg'ambar hajridagi motamzadaning yitilgan yoqalari, deb badiiy tasvir yaratiladi.

Makkai mukarramadagi Zamzam qudug'i suvida ham ana shu insoni komil yuzining shu'lasi mavjud. Payg'ambar alayhissalom, ma'lumki, ko'p marta Zamzam qudug'i boshiga kelganlar, suvidan ichganlar. Ul zoti mukarramning ko'zlari va yuzlaridagi nur tush chog'ida suv yuzida o'ynab, mavjlanib turgan. Binobarin, Zamzam qudug'i suvi yuzidagi nur quyosh nuri emas, balki nabining chehrasi va ko'zlaridan taralgan nurdur. Yana bu baytda Zamzam qudug'i o'zining pokiza qalbida payg'ambarning mehrini asragan, degan ma'nodagi yashirin o'xshatish (tashbehi po'shida) ham bor.

Shoir payg'ambar alayhissalom pok siymolari vasfini tobora avj darajaga ko'tara boradi. Keyingi baytda payg'ambar alayhissalomning muborak qabrlari "nilgun toram" - ko'k rangli osmon gumbaziga qiyos etiladi. Farishtalar esa har kecha Oyni mash'aladek bu qabr boshida ko'tarib turadilar.

Navbatdagi baytda Makkai mukarrama yaqinidagi Batho vodiysi haqida fikr boradiki, payg'ambar alayhissalomning hijratlarini (Makkadan chiqib ketishlarini) sezib, Batho vodiysidagi qumlar endi qum emas, balki nabi hajrida zarra-zarra bo'lib to'kilgan jismlardir.

Yasrib – Madinai munavvaraning qadimgi nomi. Tarixdan ma'lumki, payg'ambar alayhissalom 50 yoshlarida Makkai mukarramadan chiqib, ul zoti oliyni nihoyatda sevgan madinaliklar – ansorlar huzuriga yo'l oladilar va muborak umrlarining oxiriga qadar (o'n uch yil) shu yerda qoladilar. Madinaliklar Hazrati Muhammad habibulloh (a.)ni betoqatlik bilan kutadilar, ul zoti pokka yetishgach, yuksak ehtirom ko'rsatadilar. Baytda Madinaga olib boruvchi yo'llar yo'l emas, yer o'z yuzlarini payg'ambar qadamlarini orzulab pora-pora qilgandan qolgan tirnoq izlaridir, deyilmoqda. yer - tashxis san'ati bilan jonlantirilmoqda, "yer yuzi" iborasi tashbehi po'shida vositasida yashirin iyhom qilinmoqda.

Nihoyat, lirik qahramon g'azalning maqta'ida payg'ambar alayhissalom eshigidagi itlarga havas bilan qaraganligini izhor etadi. Chunki, itlar sharaflari dargoh uchun xos bo'lib, lirik qahramon esa bu sharaftan mahrumdir.

4.

"G'aroyib us-sig'ar", 7-g'azal:

Zihye javlangahing aflok uza maydoni "av adno",
Buroqingg'a to'quz gunbad bu to'qquz gunbadi xazro.

Qilib chun xay gulobi mayli na'layning, bo'lib andin
Malak ra'nolarining jabhasig'a charx sandalso.

Esib rahmat nasimi chun damodam sunbuling sori,
Bo'lub ruhonilar jaybi labolab anbari soro.

Falak qolib buroqingdin, emas vasfi falaksur'at,
Qamar yorub jamolingdin, emas na'ting qamarsiyimo.

Yuzungdin anjum, anjumdin quyosh nur iktisob aylab,
Aningdekkim, quyoshdin oyu, oydin qiyrgun g'abro.

Falak vodiylari qat'ig'a azming chun surub markab,
Xirad paykig'a ham avval qadamda ranj o'lub paydo.

Rafiqing toyir andoqkim Sulaymon ollida hudhud,
Buroqing soyir anjum shohi ustinda sipchroso.

Qilib bu sayr aro ma'shuq vasli ko'yida manzil,
Tilab sargashta ushshoqig'a ham rahmat uyin ma'vo.

Navoiy xush ko'rar olamni oting zikridin, yo'qsa,
Anga do'zax aro o'tdekturur dunyovu mo'fiho.

LUG'AT :

Zihi – go'zal, yoqimli, ko'ngilga matlub; yaxshi, qanday
yaxshi; ofarin; xuddi o'zi, juda, eng

Av-adno – pastroq, yaqinroq

Buroq – Muhammad alayhissalomni me'roj kechasi ko'kka olib
chiqqan ot suratidagi farishta

Xazro – ko'k, yashil; osmon

Xay – ter tomchisi

Na'layn – etik, juft kavush, poyafzal

Jabha – peshona, manglay; yuz, oy yuzli

Anbar – xushbo'y modda, yoqimli hid

Iktisob – o'rganish, kasb qilish, qo'lga kiritish, qozonish

Qiyrgun – qoramoy rangli, qop-qora, tim qora

G'abro – yer, yer yuzi, yer shari

Payk – xabarchi, jarchi; elchi
Sipehroso – osmon, falak kabi; baland, yuksak
Mo fiho – undagi, uning ichidagi

G'azal bahri: hazaji musammani solim
Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun

G'azalning nasriy bayoni

Matla': Sening bag'oyat chiroyli javlon uruvchi maydoning falaklar uzradir, falaklar undan pastroqdir, Ko'm-ko'k to'qqiz qavatli osmon Sen mingan Buroq ismli ot uchun go'yo to'qqiz gumbaz kabitir.

2. Gul suvidek xushbo'y tering kovushlaring sari oqarkan, undan qolgan izdan andoza olib; Chiroyli bo'yli farishtalarning peshonalariga aylanuvchi (charx) sandal daraxti yanglig' tikqadlikni taqdir qilgandir.

3. Har nafas sunbul kabi kokillaring tomonga rahmat shamoli esib turadiki; Bundan ruhlar yoqalari anbar kabi xushbo'y hid bilan labolab to'ladilar.

4. Aylanuvchi osmonlar tezlikda Sening Buroqingga yetolmadilar, shu boisdan endi tez aylanuvchi, tez uchuvchilarni "falaklarga o'xshaydi", deb maqtab bo'lmaydi; Xuddi shuningdek Oy yorug'likni Sening jamolingdan olibdiki, endi Seni vasf etganda "oyyuzli" deb maqtash ham nojoizdir.

5. Yuzingdan yulduzlar, yulduzlardan oy nur sochishni o'rganib olishibdi; Bu go'yoki quyosh nuridan oy shu'la olib, oy nuri esa qop-qora yerni yoritgani kabitir.

6. Osmon vodiylarini bir-bir bosib o'tish uchun ot suribsan; Aql elchisi buni avval tushunmay, ranjib qoldi.

7. Sening Do'sting Sulaymon payg'ambar yonida uchib yurgan Hudhud kabitir; Buroq oting esa yulduzlar shohi – Oy ustida osmon kabitir.

8. Bu sayrdan maqsading sevgili Do'sting ko'chasiga borish edi; Uning sargardon kezgan oshiqlari uchun ham rahmat uyini tilash edi.

Maqta': Navoiy bu olamni faqat Sening otingni tinmay qaytarishdan bahra topgani, lazzat tuygani uchungina xush ko'radi; Aks holda bu yo'q bo'lib ketuvchi dunyo uning uchun do'zax ichidagi olov kabitir.

G'azalning umumiy mazmuni

Bu g'azal ham na't bo'lib, boshidan oxiriga qadar Muhammad alayhissalomning Me'roj kechasidagi mo'jizalari vasfiga bag'ishlangan. Matla'da payg'ambar alayhissalom aylanadigan, javlon uradigan go'zal maydon falaklar uzra bo'lib, to'qqiz qavat osmon ham uning afsonaviy oti – farishta Buroq parvozidan pastroqda qoladi, deyilmoqda.

Gul suvi yanglig' tering torehisi poyafzaling sari oqar ekan, charx go'zalqadli farishtalarning peshonasiga undan andoza olib "sandalso" – sandal daraxti kabi xushqomatlik, zebolik, xushbichimlilikni taqdir qildi.

Dam-badam shamolda tebrangan sochlaring sari rahmat nasimi (shamoli) esib, tarqalar ekan, yo'lingda, osmonlarda uchragan payg'ambarlar ruhlarining yoqalari anbarin xushbo'y hiddan labolab to'lib boradi.

Falaklar Buroqing parvozidan pastda qoldilar, endi yuksaklikni vasf etish uchun ular noloyiq. Oy Sening jamoling shu'lasidan nurlanib, yorug' bo'ldi, endi u Sening jamoling vasfiga tashbeh bo'lishga yaramaydi.

Payg'ambar yuzini ko'rib yulduzlar, yulduzlardan quyosh nur taratishni kasb qilishgani kabi quyoshdan oy, oydan esa qop-qora yer nurga chulg'anadi.

Me'roj tuni falaklar osha parvoz qilish uchun ot surganingda, aql elchisi buni tushunmay, ranjidi.

Me'roj tuni sayrida Sening rafiqing – Hazrati Jabroil alayhissalom xuddi Sulaymon alayhissalom yonidagi Hudhud kabi edi. Buroqing parvozi esa yulduzlar shohi – Oydan ham yuksalib, osmonlardan oshib ketdi.

Payg'ambar alayhissalom bu sayr ichida o'zlari sevgan Zot dargohida bo'ldilar, sovg'alar oldilar, o'zlarini nur ichida ko'rdilar. Ammo tilaklari – barcha Haq oshiqclariga, ma'rifattalab solih insonlarga rahmat uyidan, rahmat nazaridan nasiba tilash edi.

Maqta'da Navoiy sevimli rahnamomiz Rasuli akram (s.a.v.) nomlarini tilida takror etish bilangina bu olamni xush ko'rishini bayon etadi. Chunki, u bu oliy zotni shu olamda tanidi, qattiq mehr qo'ydi, ergashdi. Agar shunday bo'lmaganda, bu dunyo va uning ichidagi bor mavjudot shoir ko'ziga do'zax ichidagi o'tdek dahshatli, noxush bo'lib ko'rinar edi.

5.

“G'aroyib us-sig'ar”, 10-g'azal:

Sinsa ko'nglumda o'qung surtib isig' qondin anga,
Pay masallik chirmag'aymen rishtai jondin anga.

Bodai la'ling mizoji ruhparvardur base,
Go'yiyo mamzuj etibsen obi hayvondin anga.

O'qi ko'nglim sho'lasin gah sokin etti, gohi tez,
Gah o'tun bo'ldi, gahye su urdi paykondin anga.

Dardu g'am bo'stonining tovisidur ko'nglim qushi,
Gul bo'lib jismimda keskan na'l har yondin anga.

Ne kabutar yeta olur ul quyoshqa, ne nasim,
Ey ko'ngul, holingni e'lom ayla afg'ondin anga.

Ko'zga to kirmish xayoling sovug' ohim vahmidin,
Bog'lamishmen qo'ryo⁷⁶ har sori mujgondin anga.

Ey Navoiy, yig'lamoq ohimg'a taskin bermadi,
Vah, bu ne o'tdurki, yo'q ta'sir to'fondin anga.

LUG'AT:

Mizoj – 1. Tabiat, xulq, atvor; 2. Holat, ahvol
Mamzuj – aralash, aralashtirilgan, maxlut
Na'l – 1. Taqa; 2. Etik tovoniga qoqiladigan temir nag'al; 3. Kovush, sandaliya; 4. Taqa shaklidagi tang'a
E'lom – e'lon qilish, bildirish, ma'lum qilish
Qo'ryo – 1. Chodir, kapa; 2. Xarobaxona; vayrona

G'azal bahri: ramali musammami maqsur
Foilotun foilotun foilotun foilon

G'azalning nasriy bayoni

Matla': Ko'nglimga otgan o'qing (chiroyli kipriging orzusi, nazaring yoki biror og'iz so'zing) unga qadalib sinib qoldi. Men ko'nglimning o'q tekkan yeridan oqqan qonni unga surttim va;

⁷⁶ Bu s'uz matnda “x'uro” shaklida berilgan b'olib, ma'no anglatmaydi. Baytning mazmunan t'urri matni “Attiqer Navoiy asarlarini tilni izoqli lug'ati”, 1U- t., 91-betda (To'piqent: “FAN”, 1985) berilgan. Avvalgi matnda vaxnda ham saqtalik yoz bergan b'olib, ANATIL matnda vaxn muqimall namo'n b'ulgan.

Suyakni o'rab turgan pay kabi uni jonim iplari bilan o'rab tashladim.

2. Lablaring sharbati yoki shirin so'zlaringning tabiati kishi ruhini ko'taruvchi;

Og'zingdan chiqqan sharbatni tayyorlashda (ma'noli so'zlar aytishda) tiriklik suvidan foydalanganga o'xshaysan.

3. Ko'nglimga tushgan o'q ba'zan unga sokinlik baxsh etti, ba'zan esa shunday ham yonib turgan ko'nglim olovini yanada alangalatti;

Bu holdan ko'nglim ba'zan o'tin bo'lib yonib tugadi, ba'zan unga kiprikdagi ko'z yoshlari bilan suv sepildi.

4. Mening ko'nglimning qushi dardu g'am bo'stonida tovus kabi xirom etadi;

Jismimda nag'al shaklidek o'yilgan gullar bo'lib, bu shu tovus patlaridagi gullarga o'xshaydi.

5. Quyosh kabi yuksaklikdagi ma'shuqaga na kabutar uchib yeta oladi, na bir shamol;

Ey ko'ngul, endi fig'on chekki, faqat sening kuchli fig'oning ahvolingni unga yetkaza oladi.

6. Sovuq "oh"lar urganimdan qo'rqib, Xayoling ko'zlarim ichiga kirib oldi;

Men esa darhol kipriklarimdan bir chodir yasab, uni ihotalab qo'ydim.

Maqta': Ey navo qilguvchi, har qancha yig'laganing bilan ohing o'ti pasaymadi;

Bu qanday o't ekanki, to'fon ham (to'fonddek kuchli ko'z yoshlari ham) uni o'chirolmasa?!

G'azalning umumiy mazmuni

Bu g'azal matla'dan maqta'ga qadar oshiq qalbidagi hijron g'amining turli holat, ko'rinish, ma'no va mazmundagi poetik

ifodasidan iborat. Matla'da shoir tashbeh san'ati vositasi bilan qiziq bir badiiy lavha tasvirini beradi. Tasavvur qilamiz: oshiq ko'ngli ma'shuqa xayoli bilan band, uning qarshisida hoziru nozir. Ammo ma'shuqa jafakor – bir nazari bilan kiprik o'qini oshiq ko'nglini mo'ljalab otadi. O'q mo'ljalga qadalib, sinib qoladi. Endi oshiqning holi ne kechadi? Shoirning maqsadi ham bechora oshiqning ana shu ahvolini sharhlab, tasvirlab berish va shu munosabat bilan "o'z dardini ham aytib yig'lash".

Bechora oshiq "tilla topgan majnundek" ma'shuqasi tomondan kelgan o'q sinig'ini (kamon o'qi, deb tasavvur qilamiz) ko'ngli zaxmi (o'q qadalgan joydagi yara)dan oqqan issiq qon bilan bo'yaydi. Shundan so'ng jonining iplari bilan uni chirmab-o'raydi. Tasvirda Navoiy insoniyat va hayvonot tanasida suyak atrofi pay bilan o'ralganligiga ishora etmoqda. Ammo bu poetik detal Navoiy davri tarixnavislaridan yetib kelgan bir hodisani ham esga soladi. O'sha davr zodagonlari uchun tansiq taom tayyorlanganda jonliq iligini payga o'rab, sho'rvaga solib pishirishar ekan. Bu - Hazrat Navoiyning ham sevimli taomlaridan biri bo'lgan ekan. Balki oshiq ko'ngliga kirib qolgan o'q sinig'ining noyob, tansiq, zodagonlargagina xos bir narsa ekanligini ta'kidlash uchun shoir shunday tashbeh tanlagandir?

Ma'shuqa la'lining bodasi, ya'ni la'lddek qimmatbaho og'zidan chiqqan mast etuvchi so'zlar tabiati inson ruhini ko'tarib yuboruvchi xislatga ega. Oshiq nazarida ma'shuqaning jonbaxsh etuvchi nutqi uning mizoji yaratilishida – to'rt unsur mutanosibligi yuzaga keltirilishi jarayonida moddaga tiriklik suvidan ham qo'shib, aralashtirib yuborilganligi boisidandir. Shu daqiqada "ko'ngilga qadalgan o'qdek nazar", "ruhparvar jonbaxsh nutq" tashbehlari o'quvchini shoir bir piri ma'rifat haqida so'z yuritmayaptimikin, degan fikrga olib keladi.

Keyingi bayt mazmuni yuqoridagi fikrlarimizni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Ko'ngilga qadalgan o'q – pir nazari yoki uning ruhparvar kalomi oshiq ko'nglidagi muhabbat

shavqiga goh taskin beradi (bu muridi zohiri va botinini aniq ko'rib turuvchi pirning tadbiri, tarbiya uslubi), goh muhabbat shavqini alangalatadi. O'q – jismi jihatidan ko'ngil ichida goh o'tin bo'ladi, asli, ya'ni kipriktan bo'lganligi jihatidan ko'z yoshlarini sepib ko'ngildagi shavq o'tiga taskin beradi.

Ko'ngilga qadalgan o'q tasviri tugagach, lirik qahramon o'z ko'ngli tasvirini chizadi. Bu ko'ngil nihoyatda go'zal bir qiyofa va mazmunga ega. Uning qiyofasining go'zalligi tovu kabidir, jismidagi gul shaklida bosilgan tamg'alar tovu qanotlaridagi shakllar kabidir. Oshiq ko'ngil qushining go'zal mazmuni – uning eng taqchil, topilmas bir bo'ston – dardu g'am bo'stonida tovu kabi xiromon etayotganidir.

Endigi baytda shoir yana ko'ngil murodi, maqsadi bayonini boshlaydi. Ma'shuqa shu qadar yuksakki, ungacha xabarchi qush kabutar ham, shamol ham yeta olmaydi. Faqat oshiq ko'ngli fig'on chekib o'z holini bayon etsagina, ma'shuqa parvo qilishi mumkin. Mutafakkir shoirning bu tashbehi ham "ko'ngil fig'oni" vositasida faqat xos oshiqlar holi bayon etiladi, degan mushohadaga olib keladi.

Navbatdagi baytda shoir yana favqulodda go'zal manzara, badiiy lavha yaratmoqda. Unda avvalgi baytdagi fikrning izchil davomi sifatida oshiqning "fig'onlar chekib, sovuq ohlar tortganligi" mubolag'a bilan tasvirlanadi. Bu ko'ngil fig'oni shu qadar kuchli, vahimali edi-ki, ko'ngilda muqim turgan ma'shuqa xayoli undan qochib chiqadi va endi oshiq ko'zlarini maskan tutadi. Oshiq ham "vaqtni g'animat bilib" ma'shuqa xayoli yashiringan ko'zlari atrofiga o'zining kipriklaridan bir chodir bog'lab qo'yadi.

Maqta'da o'quvchi ko'z o'ngida yana donishmand Navoiy namoyon bo'ladi. U ko'z yoshlarini to'fonga tashbih bermoqda. Yurakdan chiqqan "oh"i esa kuchli alanga, zo'r bir o'tdir. Ammo bu o't to'fonga "bo'y bermaydi", to'fonga taslim bo'lmaydi. Shoir o'quvchisi tasavvurida oshiq qalbidagi abadiy o'chmas bir o't haqida tushuncha hosil qilar ekan, bunday "o't" bevosita ma'rifat

yo'lchisigagina taalluqli bo'lishi mumkinligiga ham ishora etadi. Binobarin, ulug' shoirning zukko o'quvchisi ushbu g'azalning har bir baytidan ilmi ma'rifatga tegishli ramz va ishoralarni topib olaveradi va bu topilmalar faqat uning o'zigagina tegishli bo'lib qoladi.

6.

"G'aroyib us-sig'ar", 373-g'azal:

Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko'ngul
Kim, erur har satri, bal har harfi marg'ub, ey ko'ngul.

Lafz yo'q, har harfi jon hirzi, dag'i har nuqtasi
Mardumak yanglig' biaynih ko'zga matlub, ey ko'ngul.

Ayladim tumor agar tumor etar dafi junun,
Bu meni qilmish junun ilgida mag'lub, ey ko'ngul.

Safhada ermas muhabbat sharhikim, kelmish kiyib
Hullayi kofurgun bir turfa mahbub, ey ko'ngul.

Asru ko'p takror etardin ul parivash nomasin,
Bo'lmisham el ichra majnunluqqa mansub, ey ko'ngul.

G'ayrdin sathangni qilg'il pok, ya'ni aylama,
Xotiring lavhini har xat birla ma'yub, ey ko'ngul.

G'amdin ozod o'ldi xattidin Navoiy, bermasa
Begiga qulluqqa xat bo'lg'aymu mahsub, ey ko'ngul.

L U G' A T :

Marg'ub – yoqimli, sevimli, ma'qul; dilkash, xushro'y
Hirz – 1. Saqlaydigan, asraydigan; 2. Sehr-joduni qaytaradi; 3.
Tumon o'rmini bosadi
Biaynih – xuddi o'zi, aynan
Hulla – bezakli kiyim, ziynat libosi; nafis matodan tikilgan kiyim
Ma'yub – mayib, aybli
Mahsub – hisobga olingan, sherik, bir qatordagi

G'azal bahri: ramali musammani solimi mahzuf
Foilotun foilotun foilotun foilun

Baytlarning nasriy bayoni:

Matla': Ey ko'nglim, menga yorimdan bir ajoyib maktub kelibdi.
Uning har satrigina emas, balki har harfi dilga yoqimli.

2. Gap yo'q, maktubning har harfi mening jonimni balo-qazodan
asraguchi tumor, ko'zimning qorachig'idek xuddi.

3. Shuning uchun uni bo'ynimga tumor qilib osdim. Ammo
tumor devonalikni ketkizsa, bu xat meni devona qilmoqda;

4. Chunki maktub sahifasida muhabbat mavzuidagi so'zlarni
emas, balki oq harir libos kiygan ajoyib bir mahbubani
ko'rmoqdaman;

5. Bu maktubni takror-takror o'qiyverib, nomim devonaga chiqdi;

6. Ey ko'nglim, shu bir maktub tufayli o'z sahifangni nopok
etma, xotirangni har bir xat bilan aybli qilib qo'yma;

Maqta': Navoiy shu xatni oldi-yu, g'amdan ozod bo'ldi. Agar
mahbuba shu xatni bermasa, Navoiyni "qulim", deb hisoblamas
edi.

G'azalning umumiy ma'no-mazmuni:

Alisher Navoiy she'riyatining asosiy qismi "Xazoyin ul-
maoniy" devonlar majmuidan joy olgan. Uning she'riyati mavzusi
uch qismga bo'linadi: falsafiy-tasavvufiy mavzu, ijtimoiy mavzu va
ishq-muhabbat mavzusi.

Navoiyning tushunchasida ishq – eng oliyjanob insoniy
fazilat. U g'ayriixtiyoriy ravishda yuzaga kelgan pokiza his-
tuyg'udir. Shoir "Mahbub ul-qulub" asarida yozishicha, ishq
shunday bir yulduzdirki, bashar farzandlari ko'zining nuri va
ravshanligi undan, so'ngra, u bir quyoshdirki, qayg'uli xotiralar
tikanzori undan chaman hosil qiladi. Xullas, ishq – kishilik tojining
bezagi va inson ishq bilan baholanadi. Muallif ishq haqida keng va
ibratli ta'rif bergach, uni uch qismga bo'ladi: avom (oddiy kishilar)
ishqi, xavos (xos – oliy maqsadga intilgan kishilar) ishq va pok
(mutlaqo ozodlikka erishgan kishilar) ishq. "Xazoyin ul-maoniy"
devonlarida ishqning ana shu uchala qismiga ham taalluqli she'rlar
anchagina. Shoirning "Hayrat ul-abror" dostonida ta'rifi keltirilgan,
"Sittai zaruriya" nomli forsiy qasidalar majmui tarkibiga kiruvchi
"Qasidai Ruhul – qudsi tavhidi bori taolo" asarida podshoh tarzida
tasvirlangan "ko'ngul" obrazi biz tahliliga kirishgan g'azalning
asosiy obrazlaridan biridir. Navoiy lirik she'rlarida ko'ngulning
xilma-xil holatlardagi tasvirlarini chizish bilan o'zining falsafiy,
axloqiy fikrlarini nafis tarannum etishga erishadi. Shoirning ayrim
g'azallarida ko'ngul lirik qahramonning eng yaqin musohibi, muhibi
tarzida gavdalanadi. U lirik qahramon bilan o'zining eng nozik
tuyg'ularini o'rtoqlashadi:

Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko'ngul

Kim, erur har satri, bal har harfi marg'ub, ey ko'ngul.

Lafz yo'q, har harfi jon hirzi, dag'i har nuqtasi

Mardumak yanglig' biaynih ko'zga matlub, ey ko'ngul.

Mazkur baytlarda yordan kelgan maktubning oshiq qalbida
o'yg'otgan tug'yoni mubolag'a va inkor hamda musalsal tashbeh

san'atlari vositasida juda nafis ochib berilgan. Matla'da ma'shuqa maktubi ta'riflanar ekan, bunday ta'rif oshiqning o'zini ham qoniqtirmaydi. U maktubni yanada asosliroq ta'riflashga kirishadi: "Yo'q-yo'q, xatning har so'zi emas, balki har bir harfi jonimni balo-qazodan asraguchi tumordir. Uning har bir nuqtasi esa (arab alifbosidagi harf usti va ostiga qo'yiladigan nuqtalarni tasavvur qiling) ko'z qorachig'i yanglig' aziz va sevimlidir", degan fikrlarni bayon etadi. Baytda shoir favqulodda chiroyli bir sintaktik usul qo'llaydi, u so'zining boshida oddiy xalq tilida mavjud bo'lgan bir iborani keltiradi, ya'ni "kalka" qiladi: "lafz yo'q" – "gap yo'q" (olifta, o'ziga ishonchi kuchli yigitlar qo'llaydigan ibora). Ko'z qorachig'ini esa harflardagi nuqtalarga qiyoslaydi.

Uchinchi baytda yana bir favqulodda poetik fikr bayon etiladi. Ma'lumki, tumor insonning fe'lidagi telbalik asarlarini ketkizsa, ma'shuqaning maktubidan qilingan tumor aksincha oshiqni majnun, ya'ni telbalikka muftalo etadi, kasallik qo'lida mag'lub qilib qo'yadi.

Buyuk shoir g'azal matla'sida tasvirlangan fikrni tadrijiy rivojlantira borib, shunday poetik fikrlarni bayon etadiki, o'quvchi tasavvuri bunday badiiy tasvir qarshisida mo'jizaviy bir holatga yuzma-yuz kelib qolgandek lol bo'lib qoladi. Shoirning tasviricha, tumor qilingan xatning mo'jizasi shunda emishiki, unda mahbuba o'z muhabbati sharhini yozgan emas ekan. Balki o'zi oppoq libos kiyib, ajoyib mahbuba qiyofasida oshiqning oldiga kelgan ekan:

Safhada ermas muhabbat sharhikim, kelmish kiyib

Hullayi kofurgun bir turfa mahbub, ey ko'ngul.

She'ming davomida lirik qahramonning o'sha parivash nomasini qayta-qayta o'qiyverishi (yoki kofurgun – oppoq libosli mahbubani takror-takror ko'raverishi) tufayli el orasida nomi "majnun" – telbaga chiqib qolganligi bayon etiladi. Baytda "parivash" va "majnun" so'zlari vositasida tanosub san'ati ham yaratilgan. Zero, el orasida pari insonga uchrasa, uning aqlu hushini olib devona qilib qo'yadi, degan rivoyat shoyondir. Ana shu

voqyicalardan keyin navbatdagi baytda lirik qahramon ko'ngulga nasihat qiladi: "shuncha ko'rguliklarni boshingdan kechirding, endi hayoting daftari sahifasini pokla, xayolingni har bir xat bilan band qilaverma!". Maqta'dan oldingi bu falsafiy bayt tasavvufiy mazmun kasb etadi. Shoir "go'zallikni ko'rdingmi, u tufayli ishq tug'yonini boshingdan kechirdingmi, endi shu bebaho ne'matlarning, hikmatning, qudratning mushohadasiga o't. Xayolingdan o'tkinchi havaslarni chiqarib tashla, "o'tmaguchi", vaqtincha bo'lmagan mukammal "ishq tug'yonini" bilan band bo'l", demoqchidek bo'ladi.

G'azalning maqta'sida "xat" so'zini ikki ma'noda qo'llashdan iborat yana bir badiiy san'at – iyhom ishlatilgan. Birinchi misrani "ma'shuqa xati tufayli Navoiy g'amdan ozod bo'ldi", degan ma'noda tushunish mumkin. Yana bir ma'noda "Navoiy yorning xattini – labi ustidagi mayin tuklarni ko'rib, zavqu shavqqa to'ldi, hijron g'amidan ozod bo'ldi", degan mazmunda anglasa ham bo'ladi. Oxirgi misrada esa "xat" so'zi uchinchi ma'noda qo'llanilgan. Ya'ni, lirik qahramonning xo'jayini – begi – ma'shuqasi uni g'amdan (mehnat-mashaqqatlardan, tutqunlikdan, qullikdan) ozod etgach, "endi sen ozodsan", deb tilxat bermasa bo'lmaydi-ku! Bu narsa beklik va qullik o'rtasidagi sheriklik qoidasidir, degan fikr anglashiladi. Shu tariqa nuqtadon Navoiy ko'ngul obrazi vositasida majoziy ishqning turfa bir lavhasini yaratadi.

7.

"G'aroyib us-sig'ar", 144-g'azal:

Jonim oromi uchun qosidki jonondin kelur,

Go'yo⁷⁷ jonparvar nasime obi hayvondir kelur.

⁷⁷ Shoirning XX asrdagi MATida bu s'z "g'ayib" tarzida berilgan (3-jild, 132-6.). Misra shu tarzda u'qilsa, nazmda saktalik yoz beradi. Aruz fanining stux nazariyotchisi b'ylmchi Navoiy f'z nazallariida bunday holatga mutlaqo i'yul q'iyman. Bu xato e' xatlotlar etiborsizligini, e'ki transliteratsiya jarayonida sodir b'ulgan. "G'ayib" s'zidaagi ikkinchi "yo" x'ojosi ham aslida

Noma qosid ilgidin, qosid habibim ollidin,
Mujdai jon yeldinu yel mohi Kan'ondin kelur.

Va'dai vasliki jonondin kelur hijron kuni,
Tindurur ko'nglimni so'z yanglig'kim, ul jondin kelur.

Gavharedekduki, chiqmish xomasining no'gidin,
Noma uzra shodlig' ashkimki, mujgondin kelur.

Shodlig'din jon nisor etsam, ne tongkim, bu xabar
Ham ko'nguldin, filmasal, ham ko'nglum olg'ondin kelur.

Vahki, mazmunidur ahli dard sargardonlig'i,
Har balo maktubikim, bu charxi gardondin kelur.

Deb emush nomamg'a qilmaydur Navoiy jon nisor,
Anda jon bo'lsa qachon bu nav' ish ondin⁷³ kelur.

L U G' A T :

Qosid – elchi, xabarchi, qasd qiluvchi, niyat etuvchi
Obi hayvon – tiriklik suvi, abadiy hayot bag'ishlovchi suv
Nasim – shabada, mayin esuvchi shamol
Mujda - xabar
Xoma – qalam

G'azal bahri: ramali musammani solimi mahzuf
Foilotun foilotun foilotun foilon

узун бўлгани ҳолда, қисқа ўқилишга маҳсум, вази шунинг талаб қилади. Чунки, Бобур айтганидек, туркий тил аруз вазилирига ҳар доим ҳам мукамал тушвермайди.

⁷³ Ушбу сўз нашрда "андин" тарзида берилган, ammo вази ва ҳофия илмлари талаблари "ондин", деб ўқилиши тақозо этади.

Baytlarning nasriy bayoni:

Matla': Mening jonimga orom bo'lib jononimdan bir xabarchi keldi. Bu hodisa go'yo hayot baxsh etuvchi suvdan esgan mayin shabadaga o'xshaydi;

2. Xabarchi menga xat keltirdi, xat bir do'stim tomonidan yozilgan. Xatni olgach, Kan'on osmonidagi oydan esgan shabada menga jon keltirgandek bo'ldi;

3. Xatda vasl va'da qilingan edi, bu esa jonimdan chiqqan so'zga o'xshab ko'nglimni tinchlantirdi;

4. Shodligimdan yig'ladim. Kiprigimdan tomgan yosh go'yoki uning qalami uchidan chiqqan gavharlarga o'xshar edi;

5. Ham ko'nglimdan, ham ko'nglim olgan yorimdan kelgan bu xabar uchun jonimni hadya qilsam ham arziydi;

6. Xatning mazmuni dard elining ovorayu sarsonligi vasfidan iborat. Ma'lumki, dardu balo sharhi yozilgan maktublar osmondan keladi;

Maqta': Xat nihoyasida "Navoiy bu xatim uchun jonini fido qilmaydimi?", debti. Axir unda jonning o'zi bo'lsa, bunday ish uning qo'lidan keladi.

G'azalning umumiy ma'no-mazmuni:

Bu g'azalda xabarchi keltirgan maktub tufayli sevimli do'stini sog'ingan lirik qahramonning qalbida tug'yon urgan quvonch hissiyotlari badiiy aks ettiriladi. G'azal xabarchidan kelgan maktub haqida o'quvchiga xabar berish bilan boshlanadi: qosid tomonidan mening jonimga orom bag'ishlash uchun yetkazilgan noma shunday bir jonbaxsh shabbodaki, unda tiriklik suvining bo'yi bor. Noma-ku menga xabarchining qo'lidan, xabarchi esa sevganim yonidan keldi.

Ana shu misra mazmunidan g'azal lirik qahramonning do'stidan – habibidan olgan maktub munosabati bilan yozilganligini mushohada qilamiz. Chunki, xat yuborgan kimsa “mahbuba” emas, “habib” deyilmoqda. Bu o'rta asr lirik she'riyati uslubi bo'lib, ma'shuqadan o'zgaga nisbatan ham muholag'aviy va go'zal istilohlar qo'llanilishi uning badiiy xususiyatlaridan biridir.

Noma o'zi bilan xushbo'y bir nasim olib keldiki, go'yo bu nasim Kan'on osmonidagi Oydan xabar bermoqda. E'tibor qilinsa, ayni shu fikrlarni ifodalashda muallif yonma-yon qo'yish (parallelizm), yashirin o'xshatish (tashbehi po'shida) va talmeh san'atlarini tasvir vositasiga aylantiradi. Chunki, Mohi Kan'on istilohi ostida shoir Hazrati Ya'qub va Hazrati Yusuf (alayhimussalom) qissasi voqyealariga ishora qilmoqda. Qissa mazmunini eslang. Unga ko'ra, yo'qolib ketgan sevimli o'g'lining hajrida g'am chekaverib, ko'zlari ko'r bo'lib qolgan payg'ambarga bolasining hayotligi daragi yetkazilishi munosabati bilan cheksiz shodlik, quvonch hadya etiladi. “Kan'on osmonidagi moh” deyilganda esa Yusuf alayhissalomning ko'rgan tushlari nazarda tutiladi. Lirik qahramon o'zining sevimli do'stini Yusuf sifatli g'oyatda go'zal, do'sti va Yusuf alayhissalomni esa osmondagi oydek go'zal, deb ta'riflamoqda. Bu gapda yana Yusuf (a.) podshoh bo'lgan mamlakat – Misr va uning otasi makon tutgan yer – Kan'on orasidagi uzoq masofaga ham ishora etilmoqda. Demak, agar g'azal shoirming hayotiy taassurotlari asosida yozilgan bo'lsa, bu – Mashhad va Hirot, Hirot va Mashhad, Samarqand va Hirot, Astrobod va Hirot oralig'idagi uzoq masofadan kelgan nomaga ishora etadi.

Navbatdagi baytda yor tomonidan vasl va'da qilib yuborilgan maktub hijron azobida o'rtanayotgan oshiqqa jon bag'ishlovchi jarangdor so'z sifatida baholanadi. Lirik qahramon nazdida mazkur xatni yozayotganda uning habibi qalamining uchidan tomayotgan har tomchi siyoh – gavhardir. Lekin, oddiy gavhar tomchisi emas.

Xatni o'qiyotganda oshiq kipriklaridan tomgan shodlik yoshlariga o'xshagan gavhardir.

Keyingi baytda nomada qandaydir xabar bo'lganligini mushohada etamiz. Shoir “ bu xabar mening ko'nglimdan va ko'nglim olganimdan keldi”, demoqdaki, demak, shoir ko'nglida shu xabarni tugib, kutib yurgan va u nihoyat uning ko'ngli to'ridagi do'stidan keldi.

Navbatdagi misralarda habib yuborgan maktub mazmuni ahli dard kishilarining nomaqbul jamiyatda chekayotgan azoblari bayonidan iborat ekanligi aytiladi. “Ahli dard”, ya'ni jamiyatning asl farzandlari boshiga tushgan dardu balolar charxi gardondan ekanligi qayd qilinib, yorning maktubiga jiddiy ijtimoiy-siyosiy libos kiydiriladi.

G'azal maqta'si ham o'zining milliy ruhi bilan xalqimizga xos so'z o'yini (askiya) uslubidan yaxshi foydalanilganligi jihatidan diqqatni tortadi. Baytning mazmuniga ko'ra maktub egasi “mening nomamga Navoiy jonini nisor qilmaydi”, degan mazmunda qochirim qiladi. Bu qochirimga esa muallif: “koshkiydi, menda jon bo'lsa, bunday ish qo'limdan kelardi, yo'q jonni qanday qilib xatingizga nisor etay”, degan javob qaytaradi. Chunki, u hijron azoblarini torta-torta allaqachon jonsiz tanaga aylanib qolgan edi. Baytda “Anda jon” iborasini iyhom qilib, shoir “Yorim Andijonda bo'lsa (yoki andijonlik bo'lsa), shuncha yo'lga jonni nisor qilib yuburish qanday qo'limdan kelsin”, degan mazmunni ham bayon etadi. Ana shu oxirgi misra mazmunidan buyuk Navoiy bu g'azalni Samarqanddan, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzodan kelgan maktub munosabati bilan yozmadimi ekan?, Bobur Mirzoni go'zal va yosh podshoh Yusuf alayhissalomga, o'zini esa sevimli o'g'lini kutayotgan Ya'qub alayhissalomga o'xshatmadimi ekan, degan mulohazalar yuzaga keladi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, ulug' shoir o'z davrining iqtidor va iste'dod sohiblariga nisbatan nihoyat darajada e'tiborli bo'lgan, ularni tarbiyalash, qo'llab-quvvatlashda g'ayrat va himmat ko'rsatgan. Ayniqsa, badiiy ijod sohasida

iqtidorli bo'lgan temuriy shahzodalarni juda qadrlagan, ijodiy ishlarga rag'batlantirgan. U "Xamsa" dostonlarida Badiuzzamon Mirzoga, Shohg'arib Mirzoga nasihatlar qiladi. Yosh Hisor hukmdori, Boburning amakasining o'g'li Sulton Mas'ud Mirzoga maktub va duolar bitilgan ruboiylar yo'llaydi, bu haqda "Munshaot"dan joy olgan 102-maktub guvohlik beradi. Ulug' shoirning xuddi shunday marhamati Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoga ham nasib etadi. Bu haqda "Boburnoma"da uning o'zi yozadi: "Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitib yiborib edim. Javob kelguncha tafriqa va g'avg'o bo'ldi". O'sha "tafriqa va g'avg'o"da Bobur Mirzoga yetib kelmagan Hazrat Mir g'azallaridan biri shu g'azal emasmikin?

Navoiy g'azali oxirgi misrasidagi "Anda jon" iborasi o'yg'otgan mulohazalarni Bobur Mirzo devonidan joy olgan va oxirgi misrasida xuddi shunday "anda jonidur" iborasi qo'llanilgan bir g'azal ham quvvatlagandek tasavvur o'yg'otadi. G'azal:

Bahor ayyomidur dog'i yigitlikning avonidur,
Ketur soqiy, sharobi nobkim – ishrat zamonidur.

Gahi sahro uzori lola shaklidan erur gulgun,
Gahi sahni chaman gul chehrasidin arg'uvoniydur.

Yana sahni chaman bo'ldi munaqqash rangi gullardin,
Magarkim sun'ning naqqoshig'a rang imtihonidur.

Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,
Qading, ey gul, hayotim bog'ining sarvi ravonidur.

Ne yerda bo'lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,
G'aribingg'a tarahhum aylag'ilkim, andajonidur.

Maqta'dagi "Ne yerda bo'lsang, ey gul" iborasi g'azal bag'ishlangan shaxs muallif yonida emas, balki undan uzoqroqda bo'lganligini anglatadi. "G'aribingg'a tarahhum aylag'ilkim, andajonidur" misrasida ham maktub Samarqanddan yo'llanganligi, bobosining poytaxti bo'lsa ham, yosh podshoh hali o'zini g'arib-musofir his etib, joni uzoqlardagi yori bilan birga ekanligini, iyhom san'atini nazarda tutsak, o'zi asli "andijoniy" - andijonlik ekanligini bayon etmayaptimi ekan? Bobur Mirzoning Hazrat Navoiyga "bitib yiborgan turkiy bayt"i keyinchalik shu badiiy barkamol, betakror g'azal tarzida yuzaga kelmadimi ekan? Hazrat ham yosh hukmdorning "andajoniy" iborasiga payrav qilib yuqoridagi g'azallarini bitmadimi ekanlar? Albatta, qariyb olti asrlik tarix qa'riga yo'llangan bu savollarga javob topish dushvor. Ammo, nima bo'lganda ham ikki "naziri yo'q" ijodkorning bu ikki g'azali bir-birini taqozo etishi, to'ldirishi haqiqatga yaqin.

Navoiy g'azalida "jon" va "ko'ngul" so'zlarining bir necha bor takrorlanishidan iborat san'atlar ham mavjudki, bular she'r badiiy mukammalligini ta'minlashga xizmat qilgan.

8.

"G'aroyib us sig'ar", 183-g'azal:

Fig'onki, yor vafo ahlig'a sitam qiladur,
Niyozu ajz gunohig'a muttaha qiladur.

Naimi vaslig'a xo'y aylagan ko'ngullarni,
Asiri hajr etibon muhtaloi g'am qiladur.

Raqib behuda taqriri birla yuz taqdir,
Zaif g'amzadalar otig'a raqam qiladur.

Ne hukm qilsa vafu ahli jurmida g'am emas,
Bu zulm erurki, jafu ahlini hakam qiladur.

O'z ilgi birla o'ltursa bok yo'q, vahkim,
Raqib ollida aftodavu dijam qiladur.

Muhabbat ahlini, vo hasrato, ko'p o'rtab,
Alarning ohi o'tidin haros kam qiladur.

Chu gul vafosiz erur, necha asrasam, vahkim,
Ko'ngul qushi bu gulistondin emdi ram qiladur.

Zamona o'q kibi tuzlarni sindurub, "yo"dek,
Alarki egridurur, shahg'a muhtaram qiladur.

Navoiy o'lgay edi bo'lmasa umidi visol,
Bu qasdlarki, anga hajr dam-badam qiladur.

L U G' A T :

Niyoz – 1. Ehtiyoj, muhtojlik; 2. Yalinish, yolvorish, iltijo; 3. Atash, nazr qilish

Ajz – 1. Ojizlik, zaiflik, kuchsizlik, notavonlik, iqtidorsizlik; 2. Xastalik; 3. Ojizlikni xoksorlikni tan olish

Na'im – ne'mat, farovonlik; shodlik, xurramlik

Taqrir – muqarrar qilish, tasdiqlash, bayon qilish, so'zlash

Taqsir – qusur, kamchiliklar, ayblar

Jurm – gunoh, xato

Dijam – xorlik, kamsitilish

Haros – qo'rquv, vahima, qattiq hayajon

G'azal bahri: mujtassi (musammani) maxbuni maqtu'
mafoilun failotun mafoilun fa'lun⁷⁹

⁷⁹ G'azalning ba'zi, xususan 2, 5, 7, 9 misralari matnda xatolik b'lganligini sababli vaznga tuymaydi. Matn xatoliklarini esa qul'ima nusxalarini solishtirib, aniqlash mumkin.

G'azalning nasriy bayoni:

Matla': Fig'on chekaman, nega yor vafolilarga sitam qiladi, ojizliklarini tan oldirib, o'ziga yalintiradi?

2. Visoli ne'matidan umidvor bo'lgan ko'ngullarni hijroni g'amiga muftalo qiladi?

3. Vafoli oshiqlar raqibi esa behuda so'zlar bilan bechoralar nomiga yuzlab qusurlarni yozadi.

4. Yor vafolilar ayblari uchun nima jazo tayinlasa ham mayli, ammo u vafolilarga jafokorlarni hakam qiladi.

5. Yor oshiqlarini o'z qo'li bilan o'ldirsa ham mayli, ammo u ularni raqib oldida xo'rlaydi, kamsitadi.

6. Yor shu oshiqlarini ishq o'tida yondirib, ular urgan "oh"lar o'tidan o'z harosoti - g'azabini kamaytiradi.

7. "Qancha asrasam ham gul vafosiz ekan, ko'nglim qushi endi bu gulistondan ketadi".

8. Vafosiz dunyo, zamona ham o'qdek to'g'ri yuruvchilarni yoydek sindirib, egrilarni shoh oldida hurmatli qiladi.

Maqta': Agar ko'nglidagi yoriga yetish umidi bo'lmaganda, bu hijron qasdidan allaqachon Navoiy o'lib ketgan bo'lur edi.

G'azalning umumiy ma'no-mazmuni:

Navoiy ijodida lirik qahramon ruhiy holati, kayfiyatining chuqur mohirona tasviri, uning muallif g'oyaviy maqsadi bilan uyg'un ifodasi asosida qurilgan mukammal ichki kompozitsion ustunga ega bo'lgan g'azallar nihoyatda ko'p. Bu g'azalda ulug' shoir ijodxonasi – ijodiy laboratoriyasiga xos bo'lgan badiiy usul – o'z g'azallarini qayta ko'rib chiqish va zarur ko'ringan o'rinlarni tahrir qilish hodisasi amalga oshirilgan bo'lib, bu g'azal kompozitsiyasida "poetik gradatsiya"ni yoki hissiy kechinmalarning bosqichli tasvirini yetiltirish uchun xizmat qilgan. Bu g'azal «Badoe' ul-bidoya» devonida 175-o'rinda, «Navodir un-nihoy»da esa 248-o'rinda berilgan bo'lib, ikki devonda ham sakkiz baytlidir. «G'aroyib us-sig'an»ga to'qqiz baytli shaklda 183-o'rinda kiritilgan. G'azal

sharhi hol tipida yomimg sitamkor, zolim ekanligidan qattiq shikoyat bilan boshlanadi. Matla'dan to'rtinchi baytga qadar oshiqning ma'shuqasi qilmishlaridan zorlanishi sekin-asta yuqori pardalarga ko'tarila boradi:

1-bayt: yor vafodor oshiqlarini go'yo bevafoqlikda, zaif-notavonlikda ayblab, tuhmat qiladi.

2-bayt: visoli ne'matiga umid qilgan ko'ngullarni hijroni dardiga asir qilib, g'amga muhtalo qiladi.

3-bayt: raqib esa bechora g'amzadalar nomiga yuz qusur - xatoni tirkab qo'yadi.

4-bayt: yor vafodorlar aybi uchun qanday hukm chiqarsa ham mayli, bu ne zulmki, ularga jafokorlarni hakam qiladi.

Ana shu baytlardan so'ng g'azalning keyingi devondagi matniga kiritgan yangi baytida shoir lirik qahramonning zulmpesha yoridan shikoyatini eng avj pardaga chiqaradi. G'azalning birinchi, ikkinchi baytlarida jafokor yor va jabrdiyda oshiqlar munosabatlari bayon etilsa, uchinchi baytda - raqib obrazi kiritilgan. Bu obraz tasviri va u bilan bog'liq lirik qahramon noroziliklari aks etgan mulohazalar to'rtinchi baytda ham davom etiriladi. Yangi kiritilgan beshinchi baytda birato'la oshiq, ma'shuqa va raqib obrazlari bevosita ishtirok etib, ularning har biri o'zining eng xarakterli holatiga, xususiyl jihatlarining mukammal tavsifiga erishadi. Ya'ni, Yor - oshiqqa yolg'iz o'zigina zulm qilmay, uni raqib ta'qibiga ham ro'baro' qiladi.

Oshiq - bemehr yordan va uning zulmi tufayli g'olib raqibidan ranj tortadi.

Raqib - mag'lub oshiq ahvolini mamnuniyat bilan kuzatadi.

Ana shu mulohazalar nuqtai nazaridan bu bayt lirik qahramon hissiyotlari tasvirining g'azaldagi eng baland nuqtasi deb hisoblansa arziydi:

O'z ilgi birla gar o'ltursa bok yo'q, vahkim,

Raqib ollida aftodavu dijam qiladur.

Bu baytdan keyin keluvchi bayt ham badiiy tasvirda oshiq izirolarining kulminatsion maqomini ifoda etadi:

Muhabbat ahlini, vo hasrato, kuyub, o'rtab,
Alaming ohi o'tidin haros kam qiladur.


Keyingi baytlarda lirik qahramon hissiyotlarining badiiy tasviri muallifning hayotiy qonuniyatlar va o'zining tajribalari asosida chiqargan xulosalari, ijtimoiy fikrlariga o'rin beradi. G'azalning yettinchi baytida «gulning vafosizligi ma'lumku, endi ko'ngul qushi bu gulistondan ketadi, ya'ni bu bevafo va muvaqqat dunyo go'zalligiga bog'lanib qolmaydi», degan mazmundagi ham ikki shaxs muhabbatiga, ham umuman bu yuksak insoniy tuyg'uning ijtimoiy mohiyatiga taalluqli fikr aytilsa, sakkizinchi bayt muhabbat mavzuidan xoli tarzda shoimimg chuqur ijtimoiy-falsafiy ma'no kasb etuvchi mulohazasi bilan sug'orilgandir:

Zamona o'q kibi tuzlarni sindurub «yo» dek,
Alarki egridurur shahga muhtaram qiladur.

Maqta'da lirik qahramon hissiy kechinmalarida nolihsdan ko'ra umidvorlik ustun turadi. U o'z ishqida shunchalar qoyimki, visoldan umidini hyech qachon o'zmaydi. Shuning uchun ham bu dunyodagi ayriliqlarning tinimsiz qasdlari benatija qolaveradi. Chunki shoir umid qilgan visol bu - Haq jarnoliga vosil bo'lmoq. Haq taolo O'zining muqaddas Kalomida - kalomullohdan tanlangan, ya'ni O'zining hikmati va inoyati tufayli komillik kasb etgan bandalariga oliy dargohida visol va'da qilgan. (Xususan, Qur'oni karim Baqara surasining 1-5 oyati karimalari).

Ko'rib o'tayotganimiz g'azaldagi kabi lirik qahramon hissiyotlarining gradatsiya (bosqichma-bosqich ko'tarila borish) va degradatsiya (bosqichma-bosqich tushish yoki qaytish) prinsipi asosidagi badiiy ifodasi Navoiyning yetti baytli g'azallaridan ko'ra, kattaroq hajmdagi, to'qqiz va undan ortiq baytli g'azallarida ko'proq uchraydi.

Shoir g'azallarining ichki mazmun-mundarijaviy tuzilmasiga oid tasvir usullarida ko'zga tashlangan xususiyatni yuqorida tahlilga tortgan g'azalimiz misolida sxematik tarzda qo'yidagicha ifodalash mumkin:



Navoiy g'azallari kompozitsiyasida ko'zga tashlangan lirik qahramon emotsional holatining badiiy tasviriga aloqador bunday xususiyatni shoirning turli mavzu va mazmundagi g'azallarida ham kuzatish mumkin.

“G'aroyib us-sig'ar”, 242-g'azal:

Zihi kamol ila kavnayn naqshig'a naqqosh,
Mukavvanot vujudin vujuding aylab fosh.

Vujuding ayladi mavjud ulusnikim, bo'lmas,
Vujud zarrag'a mavjud bo'lmag'uncha quyosh.

Sanga yetishmasa tong yo'q bu aqli zulmoniy
Ki, mehr sham'iga parvona bo'lmadi xuffosh.

Qayu pariyy'aki qilding yuzin quyosh, berding
Ko'ngul jununi uchun anbarin hilol ila qosh.

Angaki, bo'ldi junun ishq ichinda yog'durding
Xirad qushini uchirmoqqa tifflardin tosh.

Aningki, ko'nglida ishq axgarini⁸⁰ yoshurdung,
Nihoniy o'tin ulug' tinmog'idin etting fosh.

Muvasvasiki⁸¹, maoshini aql ila tuzdung,
Fano yo'lida ayading berurg'a aqli maosh.

⁸⁰ Bu s'uz nashrda “axgarini” tarzida berilgan. S'uzning t'ug'ri varianti: “axgarini”, ya'ni “kuloni” degani.

⁸¹ Bu s'uz nashrda “muvasvasiki” tarzida berilgan. Uni “muvasvasiki” deb esa t'ug'ri b'uladi, chunki s'uzning u'zagi “vasvasi”.

Hakimi qudrating ollida charx ila anjum,
Muhaqqar o'ylaki, xashxoshu donai xashxosh.

Yo'lungda o'ldi Navoiyu bo'ldi tufrog' ham,
Yopushsa erdi bu ko'y itlari ayog'ig'a kosh.

L U G' A T :

Zihi – go'zal, yoqimli, ko'ngilga matlub; yaxshi, qanday yaxshi; ofarin

Kavnayn – ikki dunyo, jismoniy va ruhoniylar olam; bu dunyo va oxirat

Mukavvanot – vujudga keltirilgan, vujudga kelgan, mavjudot, maxluqot

Zulmoniy – qorong'i, qop-qorong'ilikka mansub, zulmatli

Xuffosh – ko'rshapalak

Xirad – aql

Junun – jinnilik, aqldan ozganlik, savdoyilik; oshiqlik, beqarorlik

Anbarin – anbar (xushbo'y modda) tusli, xushbo'y, muattar, anbar aralashtirilgan; qorong'i kecha

Axgar – laxcha cho'g', olov; oshiq

Nihoniylar – maxfiy, pinhoniylar

Muvasvasa – vasvasaga soluvchi, vasvasa qiluvchi

Muhaqqar – haqirlangan, tahqirlangan; arzimas, kam, ozgina; past, kichkina

Tifl – bola, bolalar

Fano – baqosizlik, yo'q bo'lish, o'lish; o'zlikdan kechish, o'zni unutish, tasavvuf yo'liga kirish; o'lim, ajal

Xashxosh – ko'knori o'simligi, ko'knori urug'i

G'azal bahri: mujtassi (musammami) maxbuni maqtu'
mafoilun failotun mafoilun fa'lun⁸²

⁸² Ushbu gazal matni boshidan oxirigacha katta va kichik harflar bilan talaffuz qilingan. Demak, bu gazalning manbaidan manbaga kuchi oshgan. Bu transkripsiyada kichik harflar bilan talaffuz qilingan.

G'azalning nasriy bayoni:

1. Oliy go'zallik va komillik bilan ikki dunyo naqshini chekkan Naqqosh – butun yaratilmishlar Sening mavjudliging tufayli yuzaga kelgan;
2. Ulus Sening istaging tufayli vujudga kelgan, Quyosh bo'lmasa nur zarrasi qaerdan paydo bo'lsin?
3. Zulmatdek qorong'ulikda kezib yurgan bu aql Seni topolmasa, ayb emas – ko'rshapalak Quyosh atrofida ucha olmaydi-da!
4. O'z go'zalligidan nusxa olib, biror pari yuzini quyoshdek ko'rkam qilsang, ko'ngillar shavqini yanada toshirish uchun yangi chiqqan oydek egik qosh ham ato aylading;
5. Shavqingda devona bo'lganlar boshidan aql qushini uchirmoq uchun ushoq bolalar qo'lidan ularning boshlariga tosh yog'dirding;
6. Bir oshig'ing qalbiga ishq olovini yoqsang va yashirsang, uning bu pinhon siri – muhabbatini O'zing fosh etasan;
7. Ushbu muhabbatga qarshi vasvasaga soluvchi shaytonning turmushini ham aql bilan bezading, ammo Sening vasling yo'lida o'zdan kechmoq ne'matini uning o'z aqli bilan tuzgan turmushidan ayading, bermading;
8. Sening hikmating va qudrating oldida O'zing yaratganlaring – osmonu falaklar va yulduzlar bor-yo'g'i bir ko'knor urug'ichalik qadr-qimmatga ega emas;
9. Vasling, muhabbating, shavqingda Navoiy fano bo'ldi – jismonan o'ldi va tuproqqa aylandi. Endi koshki Sening yo'lingda yurgan itlar oyoqlariga shu tuproq yopishsa edi?!

G'azalning umumiy mazmuni:

Bu g'azal ulug' shoir Haq taolo madhida ijod etgan hamdlarning eng go'zal va barkamol namunalaridan biridir. Haq taolo qudrati zuhuriga bo'lgan hayratini qalbiga sig'dira olmagan shoir bu holatini fasohatli nutqi bilan ifoda etmoqchi bo'ladi.

Yaratguchi qudrati, hikmati, san'ati kamolini mushohada etib, qalbida jo'sh urayotgan muhabbatini idora eta olmaydi va beixtiyor qo'liga qalam oladi. Uning qaynab toshayotgan tuyg'ulari buloq singari yorib chiqish uchun yo'l izlaydi.

Hamd Buyuk Yaratguchining yagonaligini, u dunyo va oxiratni barkamol san'at bilan yaratganligini, butun mavjudot uning aksidangina iborat bo'lib, u o'z ko'rku kamolini shu tarzda namoyon etayotganligini vasf etish bilan boshlanadi. Haq taoloni shu tarzda idrok etish sharq islom ilmida "tavhid" (arabcha "vahada" fe'lidan – birlik, yagonalik) deyiladi.

Tavhid masalasida shoirning dunyoqarashi qanday? Tasavvuf ta'limotining nazariy masalalaridan bo'lmish «tavhid» tushunchasi Navoiy she'riyatida ancha chuqur ifodasini topgan. Uning komil e'tiqodiga ko'ra, Yaratguchi tabiatga, borliqqa o'z chiroyini, san'atini yoygandir. (Oybek, V. Zohidov, I. Sulton, M. Oripov, A. Qayumov, I. Haqqul, R. Vohidov asarlarini eslang). Xususan, "Go'zallikning dastlabki talabi o'zini namoyon etishidir. Tangri go'zalligida esa oliy va ilohiy sifatlar mavjud bo'lib, Olloh insonni ana shu go'zallikni ko'rish, idrok etish va sevisht uchun yaratgandi."⁸³ Bu – vahdati vujud, panteizm. Panteizm g'oyasi Hazrat Navoiydan ancha oldin, meloddan avvalgi beshinchi asrlarda yunon falsafasida ham yuzaga kelgan bo'lib, bu falsafiy mushohadaning ijodkori Aflotun (Platon) edi. Ammo, Navoiy yunon faylasuflarining falsafiy mushohadalaridan farqli ravishda chuqur asoslangan islomiy ilmlar, irfoniy va tasavvufiy nazariy qarashlarga tayanadi va shu nuqtai nazardan uning tushunchasidagi panteizm yunon olimlari dunyoqarashlaridan katta farq qiladi. Bu farq eng avvalo ulug' shoirning mukammal ilm – islomiy manbalarga tayanganligida namoyon bo'ladi. Shu boisdan Navoiy tushunchasidagi in'ikos (akslanish) – aflotuncha "Haq to'liq tabiatga yoyilgan, tabiatdan chetda mavjud emas", mazmunidagi g'oyani rad etadi. Hazrat Navoiy panteizmning sharqda yirik mutasavvuf olim

Ibn Arabiy asoslagan va takomiliga yetkizgan "vahdati vujud" (yagona mavjudlik) konsepsiyasini yoqlaydi va ko'pincha shu nuqtai nazarni o'z badiiy ijodida ifoda etadi. Ammo, ulug' shoir tavhidni ifodalovchi vahdati vujud g'oyasining keyingi asrlarda yaratilgan mukammalroq ma'nolari, ya'ni vahdati mavjud, vahdati shuhud ta'limotlariga ham ba'zan g'azallarida munosabat bildirib o'tadi. Xususan, o'rganilayotgan g'azal maqta'ida barcha maxluqot Yaratguchi vujudining in'ikosi, zarrasidir, degan fikr bor. Bu – vahdati vujud demakdir:

Zihey kamol ila kavnayn naqshig'a naqqosh,
Mukavvanot vujudin vujuding aylab fosh.

Keyingi baytga esa, Ibn Arabiy asoslab bergan butun koinot, tabiat Alloh taolodan paydo bo'lgan, degan g'oya chuqurlashtirilib, tabiat Haqning sho'lanishidir, ammo mohiyat jihatidan Yaratuvchi bilan bir emas, degan mazmun singdirilgan. Bu – vahdati mavjud ta'limoti:

Vujuding ayladi mavjud ulusnikim, bo'lmas
Vujud zarrag'a mavjud bo'lmag'uncha quyosh.

Navoiy she'riyatida tavhidning vahdati shuhud xususiyatiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Vahdati shuhud – ruhoniyl bir hol sifatida olamda mavjud har narsada Allohni mushohada etmoqdir. Ya'ni, Imom Rabboniy (q.s.) ta'limotiga ko'ra, Yaratguchining zoti va ismi, sifatleri alohida borliqlardir. Koinot Haq taoloning o'zi emas, balki sifatlerining tajalliysi (ko'rinishi) va zuhuri (aks etishi) dan iboratdir. Forobiy ushbu in'ikosni «Substansiya va aksidensiya» deya ta'riflaydi: «Bilgilki, (olamda) substansiya va aksidensiya hamda substansiya aksidensiyanl yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hych narsa yo'qdir».⁸⁴ Ya'ni, Yaratguchi Haq – mutlaq

⁸³ Иброҳим Ҳаққул, Навоийга қайтмиш, 3-китоб. Қўрсатишган нашр, 16-б.

⁸⁴ Фарабий. Рисолалар. Том: «Фан», 1975. 50-б.

borliq, yaratilmish olam esa, nisbiy borliqdir. Yirik o'zbek navoiyshunoslari buni shunday aniq va sodda til bilan tushuntirishadi: "Navoiy... real olam, tabiat, butun mavjudot yagona zotning, bir xil moyaning, birgina borliqning - ilohiy substansiyaning shu mavjudotlar shaklida ko'rinishidir, to'g'rirog'i shular sifatidagi tazohiridir. Bir vaqlar bo'lgan ediki, unda xudo hali "o'zi o'zida" edi, - miqdor jihatidan benihoyat, sifat jihatidan xilma-xil va shaklan behisob konkret narsalarning imkoniyatlarini o'zida saqlar, shu imkoniyatlarning mujassamiday yashar edi... Navoiy tili bilan aytganda, - g'uncha edi. Lekin u shu holatda qola olmadi, to'g'rirog'i, qolgisi kelmadi. U o'zidagi bu yashirin imkoniyatlarni, boyliklarni chinlikka aylantirmoqchi, ro'yobga chiqarmoqchi, o'z mazmunini, o'z abstrakt mohiyatini konkretlikka aylantirmoqchi, guldek ochilmoqchi, o'z husnini va mahoratini namoyon va namoyish ettirmoqchi va shu bilan o'z husnini, o'z jamolini chin go'zalliklar, voqye'liklar orqali ko'rib tamosho qilmoqchi, bahramand bo'lmoqchi bo'ldi... Uning o'zi, - deydi Navoiy "Saddi Iskandariy"da - shu rang-barang buyumlar dunyosida, shu go'zal tabiatda (har bir chaman gulida, insonda, quyoshda, oyda va hokazo) "bir-tilsim" bo'lib yashirindi."⁸⁵ Barcha yaratganlarining a'losi bo'lmish insonga esa (do'sti sifatida) O'zini tanishga intilish, sirlari xazinasiga mahram bo'lish, O'zigagina ixlos va ibodat qilish vazifasini yukladi. U barcha yaratganlari ichidan insonni do'st sifatida tanladi. Shu boisdan ham ulug' shoir "Lison ut-tayr" dostonida yozishicha: "Bunday shohning (xudoga ishora ekanligini yodingizdan chiqarmang!) maqsadi uning husniga shaydo bo'lganlarning, unga intilganlarning, uni axtarganlarning va bu yo'lda azob chekayotganlarning orzularini qondirish edi..."⁸⁶

Ulug' shoirning komil e'tiqodiga ko'ra, ana shunday tengsiz va behamto Haq taoloni insonning qorong'uliklarda kezib yurgan aqli tushuna olmaydiki, ko'zi yorug'likni ko'ra olmaydigan, vujudi

⁸⁵ В. Зоҳидов. Ўзбек адабиёти тарихидан. - Тошкент: ЎзДам.БАН, 1961. 18-6.

⁸⁶ Шу асар, 33-6.

issiqlikni sezmaydigan ko'rshapalakni (ya'ni, aqlni) tabiatan nur va mehrga intiluvchi parvonaga (komil insonga) qiyoslab bo'ladimi?!

Sanga yetishmasa tong yo'q bu aqli zulmoniy

Ki, mehr sham'iga parvona bo'lmadi xuffosh.

Vahdati shuhud falsafasi qalban qilinadigan mushohada, zavq va hol vositasida crishiladigan ma'rifatdir. Parivash yuzini quyosh sifatida mushohada qilish ko'ngul jununiga sabab bo'ladi:

Qayu parig'aki qilding yuzin quyosh, berding

Ko'ngul jununi uchun anbarin hilol ila qosh.

Ma'rifat (Haq taoloni tanish) yo'lida o'zligini yo'qotib, majnun qiyofasiga kirganlarga yosh bolalar (aqli kamlar)ni ro'baro' qilib qo'ydingki, ular otgan toshlardan majnun boshidagi aql qushlari tamom uchib ketdilar (bolalarning ko'chada devonani ko'rib, unga tosh otib, tegishishlariga ishora).

Ammo, demoqda ulug' shoir, bir sevgan bandangning ko'ngliga muhabbat shavqini pinhona solib qo'yding va bu kuchli muhabbat olovi shiddatini o'zing yashirmading, o'z holiga qo'yib qo'yding va nihoyat, oshkor bo'lishiga mone'lik qilmading. (Bu "oshkoralik", balki Hazratning ushbu g'azallari tug'ilishi jarayonidir).

Bir vasvasaga soluvchi, ya'ni dargohingdan quvilib, insonlar ko'ngliga notug'ri fikrlar soluvchi hayotini ham barkamol aql bilan tuzding, ammo fano (yo'qlik) sari yo'nalmoq davlatini, fanoni tushunib yetmoq uchun aql davlatini undan ayading.

Shunday hayratlarga soluvchi qudrating oldida o'zing yaratgan falak va undagi yulduzlar juda haqir va ko'rimsizki, ko'knori donasiga o'xshaydi.

Navoiy ma'rifating yo'lida to'kilib, tuproq bo'lishni orzu qiladi, hycch bo'lmaganda, shu tuproq holida ma'rifating ko'chasida yurgan itlar oyog'iga yopishsa ham koshki edi!

Mirzo Abdulqodir Bedilning bu sohadagi qarashlariga ko'ra, insonda uch quvvat mujassamlikda namoyon bo'lar ekan: jismoniy quvvat, aql-idrok quvvati va ruhiy quvvat. Tavhidga erishishda bu

uch quvvat birday ishga solinmog'i lozim. Shariat amallarini bekamu ko'st bajarish, suluk talablarini chin ixlos bilan qadamba-qadam bosib o'tish, irfon davlatiga musharraf bo'lish uchun zohidlik va qattiq tan riyozati me'yorida bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Ya'ni, mushohada qudrati tan quvvati bilan yanada kuchliroq namoyon bo'lishi mumkin:

Ruhi mutlaq ba arzi donishi fan,
Noz dorad hamon ba quvvati tan.
Quvvati tan salomati a'zost,
Ki havoro dar on tasarrufhost,
Dar salomat agar futur aftad,
Qudratash az kamol dur aftad.⁸⁷

(Mazmuni: tan quvvatida ruhi mutlaq ko'rinadi. Tan quvvati tan salomatligidadir. Unda havo bor. Agar salomatlikka futur yetsa, qudrat ham kamolga yetmaydi).

10.

"G'aroyib us-sig'ar", 364-g'azal:

Ey ko'ngul, yer-ko'k asosin asru bebunyod bil,
Ul kesakni suda ko'r, bu sahfani barbod bil.

Jism uyi chunkim erur foni, tafovut yo'q ani
Gar fano saylobidin vayronu gar obod bil.

To'rt unsur qaydidin to chiqmagaysen, naf emas,
Osmoniy to'rt daftarni tutaykim yod bil.

⁸⁷ Бедил. Куллиёт. Душанбе. Ирфон. 1974. с.111.

Eyki debsen, haqni ne ta'rifu vasf birla bilay,
Vasfdin mustag'niyu, ta'rifdin ozod bil.

Tengri zikrikim, maloyikka g'izoyi ruh erur,
Bu g'izoni haq yo'liga kirgan elga zod bil.

Gar habibim qilsa izhori kalom, cy piri dayr,
Isoyi Maryamni ul dam gungi modarzod bil.

Mantiqi ishq ichra oshiqni tasavvur ayla nav',
Fard bo'lg'onlarni bu yo'lda anga afrod bil.

El oyog'ig'a tushardin boshqa chiqmoq rasmini
May ko'hanpiridin ushbu dayr aro irshod bil.

Ey suluk ahli, qachon maqsud topqumdir desang,
Mosivallohni fano ko'rgan kuni miy'od bil.

Eyki debsenkim, bilay tavid sirridin xabar,
Shar'din nekim tajovuz ayladi ilhod bil.

Do'st vaslin topmag'an dunyovu uqbodin kechib,
Ushbu darding'a Navoiy holin istishhod bil.

L U G' A T :

Foniy – baqosizlik, yo'q bo'lish, o'lish; o'zlikdan kechish, o'zni unutish, tasavvuf yo'liga kirish;

G'izo – oziq-ovqat, yegulik, taom;

Zod – bola, farzand, avlod;

Fard – yolg'iz, yakka, tanho; ajragan, xoli; ma'no jihatidan mustaqil yakka bayt;

Irshod – to'g'ri yo'l ko'rsatish, rahbarlik qilish;

Miy'od – muddat, vaqt;

Shar' – shariat;
Ilhod – dinsizlik, xudoga ishonmaslik;
Istishhod – misol keltirish, dalil, isbot

G'azal bahri: ramali musammani solimi mahzuf
Foilotun foilotun foilotun foilun

G'azalning nasriy bayoni:

1. Ey ko'nglim, bu yeru ko'k asosini barqaror, deb o'ylama. Bir kun kelib yer kesakdek suv ichida erib, yo'q bo'lib ketadi, osmon esa qog'ozdek yirtilib ketadi;
2. Inson jismi ham sel vayron qilgan bir uy kabi bir kun kelib to'kilib, yo'q bo'lib ketadi;
3. Haq taolo tushirgan to'rtta ilohiy kitobni yod olgan bo'lsangda, jisming yaralgan to'rt unurning tabiatidagi xususiyatlaridan to'la qutulmaguningcha, najot topa olmaysan;
4. Bilgilki, Uni hyech mavjudot ta'rif bilan anglata olmaydi, U Zot O'zi yaratganiga anglanishdan pok;
5. Pok va begunoh mavjudotlar – farishtalarning taomlari – Haq taoloni tinimsiz zikr etmoqdir. Haq yo'liga kirgan insonlarning ham tirikchiliklari faqatgina tangri zikridan iborat bo'lmog'i lozim;
6. Ey dunyoning piri, ustoz, agar Haq taolo Habibi (s.a.v.) va mening ham Habibim (s.a.v.) biror so'z aytmoq uchun og'iz ochsalar, o'sha on Maryam (a.) o'g'li Iso (a.) ni onadan gung tug'ilgandek ahvolda ko'r;
7. Ishq mantig'i shunday iboratki, oshiq bo'ldimi – borliqni unutib, yakkalikka, yolg'izlikka intilmog'i lozim. Hamma yolg'izlikdagilarni, fardlarni shunday tasavvur qil;
8. Dunyodagi Haq oshiqlari ustoz "el oyog'i ostida yotmoq" yoki "boshda ko'tarilib yurilmoq" ma'no va hikmatini o'rgatib, seni to'g'ri yo'lga boshlab qo'yadi;

9. Ey tariqatga kirgan solik, qachon maqsadimga yetarkanman, deb o'ylasang – buning muddati barcha narsaning vaqtinchalik, yo'q bo'lib ketuvchi ekanligini tushungan kuning keladi;
10. Yagonalik, bir butunlik, Hazrati Haq taolo mohiyati siridan xabardor bo'lishni istasang, shariatdan chetga chiqishdan, dinsizlikdan ehtiyot bo'l;
11. Dunyo va jannat lazzatlaridan kechib, riyozatlar chekib, hamon Yagona Do'st vaslini topa olmayotgan bo'lsang, bundaylar dunyoda ko'p – bu dardmanlar ahvoli qandayligini birgina Navoiy misolida ko'r!

G'azalning umumiy mazmuni:

Hazrat Alisher Navoiyning oshiqona, orifona, rindona deya nisbiy jihatdan tasnif etilgan lirikasida sof ma'nodagi ilmiy-ma'rifiy yoki ta'limiy-irfoniy asarlar ham mavjud. Bunga uning g'azallaridan va kichik lirik janrlardagi asarlaridan misollar keltirish mumkin. Bunday asarlarda ma'rifat tushunchasi boshdan-oyoq izchil mazmun-mohiyatga ega bo'lgan holda, ba'zan tadriji tarzda bayon etiladi.

Bizni chuqur mushohadaga chorlagan bu g'azalda shoir haqiqat asrorida so'z yuritar ekan, majoziy ma'noda qo'llaniladigan may, ma'shuqa, soqiy kabi badiiy timsollarga murojaat etmaydi. G'azalda hayot haqiqatini izlovchi, istovchi bilan (ko'ngul, solik, do'st, piri dayr) ma'rifiy suhbat quriladi. G'azalda na majoziy oshiqona, na rindona, na dunyoviy ijtimoiy ruh mavjud. Asar chuqur mushohadaviy, irfon asrori saboqlaridan iborat:

Ey ko'ngul, yer-ko'k asosin asru bebunyod bil,
Ul kesakni suda ko'r, bu sahfa barbod bil.

«Ul kesak» – yer kurrasi, «bu sahfa» – ko'k, osmon. Demak, ha'zan abadiyga o'xshab ko'ringan hayot nihoyatda omonat, suvda

crib yo'q bo'lib ketadigan kesakdan ham, yig'ib olinib, g'ijimlab tashlanadigan qog'ozdan ham xor, subutsiz ekan.

G'azalda o'z davri ijtimoiy masalalariga, muammolariga munosabat to'g'ridan-to'g'ri bayon etilmaganligi bois, uni sof irfoniy mazmunga ega, dedik. Ammo, islom shariati va tasavvuf ta'limoti shoir yashagan davrning yetakchi maskurasi bo'lganligi ayon-ku. Shunday ekan, jamiyatning eng chuqur fikrlovchi a'zolari – so'firlar tarbiyasiga kirishgan shoir, avvalo, o'z ilmi, ijodi va pirlik faoliyati bilan jamiyat pokligi va barqarorligi uchun xizmat qiladi. Ushbu g'azalida Navoiy pir sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiyning o'z davri ijtimoiy hayoti masalalariga sufiyona nigoh bilan qay tariqa munosabat bildirganligi diqqatga sazovor. Ma'lumki, shoir ilmiy va badiiy ijodida, davlat arbobi sifatidagi ijtimoiy faoliyatida islom sarchashmalari bo'lmish Qur'oni Karim va hadisi shariflardagi umumbashariy g'oyalarga tayandi, tasavvuf nazariyasi, uning ilmiy-g'oyaviy asosi bo'lmish vujuduyun ta'limotini chuqur o'rgandi va targ'ib etdi. Uning irfoniy-badiiy tafakkuri taraqqiyoti islom ma'naviyatini keng idrok qilish va uni o'z ijodiy va ijtimoiy faoliyatida targ'ib etish g'oyalari bilan bevosita bog'liqdir.

G'azalning avvalgi uch baytida shoir mufassir olim sifatida namoyon bo'ladi. U Qur'oni karim oyatlariga asoslanib yer qiyomat kunida titroqqa tushib, tekis yoyilib qolishi, tog'lar jundek titilib ketishi, osmon yer ustidan sidirib olinib, g'ijimlanishi hodisalariga ishora qiladi. Albatta, inson jismi ham xuddi shunday bebaqo.

Jism uyini yo'qlik seli vayron qilsa ham, obod qilsa ham farq yo'q. To'rt unsur – havo, suv, tuproq, olovdan yaratilgan vujud o'zidagi nafs yukidan qutulmas ekan, shu vujud sohibi hatto to'rt ilohiy kitob – Tavrot, Zabur, Injil, Qur'oni Karimni yod bilsa ham hечch qanday foyda ko'rmaydi.

G'azalning bundan keyingi baytlarida Navoiyni endi tasavvuf olimi sifatida ko'ramiz.

Lirik qahramon navbatdagi baytda sufiyona mushohadaga berilib, Tangri taoloni ta'rifu vasf bilan idrok etmoqchi bo'ladi. Ammo, buning ham imkoni yo'q. Oddiy ko'z bilan Quyoshni ko'rib bo'lmaganidek, oddiy til Yaratguchi sifatlarini munosib tarzda vasf etishdan o'jiz.

Dunyo ne'matlariga mayl etmaydigan pokiza xilqatlar – farishtalarning ruhiy ozig'i Tangri taolo zikridir. Haq yo'liga qadam qo'ygan el poklar safiga qo'shilmoq uchun xuddi shunday oziqqa rag'bat etmog'i darkor.

Har qanday tariqat tarbiyasining asoslaridan biri – zikrdir. Tariqatlarni bir-biridan farqlovchi unsur ham zikr. Pir e'tiqodiga ko'ra dil pokizaligi zikr bilandir. Zikr – botin sabog'i bo'lib, zohiriy saboqlardan ko'ra muhimroqdir. Zikr mevasi esa ma'rifatdir. «Ma'rifat lazzati dilda bo'ladi, - deyiladi Xoja Muhiddinxonning (q.s.) «Maktubot» laridan joy olgan bir maktubda, - Ma'rifat lazzati hamma lazzatlardan yaxshiroq va xushroqdir. Ma'rifat samarasi esa muhabbatdir».⁸⁸

Keyingi baytda Hazrat Navoiy Haq taoloning sevimli do'sti, Haqni sevganlarning ham sevimli do'sti Muhammad (a.) Kalomulloh – Qur'oni karimni qiroat qilganlarida masihantof Iso ham onadan tug'ilgan gung kabi bo'ladi, degan fikrni bayon etmoqdalar:

Gar habibim qilsa izhori kalom, ey piri dayr,
Isoyi Maryamni ul dam gungi modarzod bil.

Fard bo'lmoq – nafs yukidan, o'zligidan ajralmoq demak. Nafs ketgach, ruh qoladi. «Bilsinlarkim, - deyдилar shayx Muhiddinxon (q.s.), - ilm ruhning ta'siridan hosil bo'ladi. Ammo, Haq subhonahu va ta'olo oinaday pok qalbga nazar qiladi». «Maktubot» dagi yana bir tanbehda shunday deyiladi: banda va Haq taolo o'rtasida uch nur bor. Avval – nuri ilmki, uni egallagach, yo'lni ko'radi; ikkinchi nuri

⁸⁸ Шайх Мухйиддин Ургутий. Мактубот. Тош: Мозароуннахр, 2006. 73-6.

hikmatki, uni qo'lga kiritgach Yaratganni topadi; uchinchi nuri haqiqatki, unga yetgach, Hazrati Haqning yuzini ko'radi.⁸⁹ Haq taolo yuzi zuhur etgan qalb esa chin oshiq qalbidir:

May ko'hanpiri – tavhid asroridan solikni ogoh etguvchi piri tariqat, murshid. U solikni bu dunyoda el oyog'i ostida tuproq kabi yastanib yotishi (nafsidagi kibri mutlaqo o'ldirib) natijasida avliyoulloh darajasiga yetib, insoniy ehtiyojlardan xoli bo'lguniga qadar tarbiyalaydi, so'ngra ruxsatnoma beradi:

El oyog'ig'a tushardin boshqa chiqmoq rasmini
May ko'hanpiridin ushbu dayr aro irshod bil.

Ey suluk ahli, qachon maqsud topqumdir desang,
Mosivallohni fano ko'rgan kuni miy'od bil.

Xudodan boshqa barcha borliq yo'q bo'lib ketgan muddatda solik maqsadiga yetadi, ya'ni vahdat hosil bo'ladi. U vujud ehtiyojlaridan qutuladi, unda Haq yodidan o'zga narsa qolmaydi. Unga qadar esa solik tavhid asrorini istab, ma'rifatga intilaveradi. Ma'rifat poydevori esa – shariat ekan:

Eyki debsenkim, bilay tavhid sirridin xabar,
Shar'din nekim tajovuz ayladi ilhod bil.

G'azal maqta'sida shoir o'zining kamolot yo'lida hamon yo'lchi ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, «ey dunyo va jannatdan kechib yagona behamto Do'st vaslini hamon topa olmagan tolib, bunday dard ko'plarning dardi ekanligini bilmoqchi bo'lsang, Navoiy holiga boq, u tasdiqlab beradi».

Bu g'azal «yoshlik davri she'riyati» deb nomlangan devondan o'rin olgan bo'lsa-da, aslida shoirning o'rta yoshlik davri ijodi mahsulidir. Chunki Navoiy g'azallarida ma'rifiy mavzu shoir

⁸⁹ Illy asar, 79-6.

hayotining turli davrlarida o'sha davr mazmuni bilan hamohang ravishda namoyon bo'ladi, chunonchi, yoshlik davrida an'anaga ergashish («Ilk devon» misolida) tarzida, yigitlik davrida hayotsevar falsafiy mohiyat kasb etadi («Badoe' ul-bidoya» misolida). O'rta yoshlikda shoir sufiyaning nazariy masalalariga murojaat etib, ta'limiy-didaktik asarlarga mayl ko'rsatadi. Bu hodisani uning tarjeband, tarkibband, soqiynoma va qit'a janrlarida yaratgan asarlari misolida ham ko'rish mumkin. Qarilik lirikasida esa g'azallarda mavzu-g'oya ifodasi, tasvirlanmish va tasviriy imkoniyatlar turlicha bo'lsa-da, pirovard natijada yakuniy fikr, xulosa bir ma'noda, ya'ni o'zlikdan kechib, fanoga yuz tutish maqsadi ifodasi bilan intiho topadi.

11.

«Navodir un-nihoya», 638-g'azal

Falaktin gar manga har lahza yuz qayg'u kelur o'tru,
Agar har qayg'udin so'ng bir sevinmak bor, emas qayg'u.

Va gar har tiyralikka bir yorug'liqni inonmassen,
Yig'i ko'r charxdin har shom dog'i subhidan kulgu.

Kamol istar esang sidq ahlidin qilma ko'ngul tiyra,
Mukaddar aylarnas xurshid subh anfosidin ko'zgu.

Safo ahlig'a gulruhl⁹⁰ xayolidin tag'ayyur yo'q,
Qachon gul aksi tushmaklik bila gufrang bo'lg'ay su.

⁹⁰ Алшшер Навоий МАТ 20 жилдиги 2 жилди – «Наводир ун-нихоя»да шу тарзда берилган бу сўз «руҳи гулдеклар» деган маънони англатади. Аслида бу сўз «гулруҳлар» – «гулрозлар» тарзида берилиши керак.

Tilarsen g'afllatingni raf' etib ogohlar naqlin
Ki, g'ofil elga u afsonalardin kam bo'lur uyqu.

Fano naqdi hayotingga chu ermas bir zamon ma'lum,
Diram naqdiga umrung har zamon sarf etmagil asru.

Junun zanjirida oshiq yonida hiylagar zohid,
Kishi ko'rsa tasavvur aylagay sher olfida tulku.

Ko'ngul mir'oti ichra jilvagardur yoru sen g'ofil,
Toriqma hajridin ko'pkim, emassen yordin ayru.

Fanoning ham fanosin istagil vasl ersa komingkim,
Bu yo'lda vosil o'lmakning tariqi ushbudur ushbu.

Ketur bir boda, ey soqiyki, ichsam qolmag'ay boqiy,
Fanodin bal baqodin ham zamirim lavhida belgu.

Navoiy dayr aro mast o'lsa, shohdin panoh, andin
O'tarda tutqusi, albatta, bir sog'ar chiqib o'tru.

L U G' A T :

Mukaddar – xiralangan, zang bosgan; xafa, g'amgin, mahzun
Anfos – damlar, nafaslar; til, ovoz, so'z, so'zlash ohangi
Sidoq (ahli sidq) – sodiqlar, sadoqatlilar, to'g'rilar
Safo (ahli safo) – ko'ngli sof, pokiza kishilar, sufiylar
Tag'ayyur – o'zgarish, boshqa tusga kirish; g'azablanmoq
G'afllat – hushyorsizlik, har narsaga befarq qarashlik; loqayd qiladigan, sergaklikni yo'qotadigan uyqu
Asru – juda, nihoyatda; juda ko'p, behisob; tez, qattiq
Junun – jinnilik, aqlidan ozganlik, savdoyilik; oshiqlik, beqarorlik
Fano – baqosizlik, yo'q bo'lish, o'lish; o'zlikdan kechish, o'zni unutish, tasavvuf yo'liga kirish.

G'azal bahri: hazaji musammani solim
Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun

G'azalning nasriy bayoni:

1. Arsh ostidagi "Lavhul-mahfuz"da taqdiring bitilgan. Falaklardan o'sha yozuv dunyoga inib, har lahza qarshingda bir qayg'uli holat sodir bo'lsa, qayg'urma. Chunki har qayg'udan keyin bir shodlik kelar ekan, bu qayg'u hisoblanmaydi.
2. Agar har qorong'ulikdan keyin bir yorug'lik kelishiga ishonmasang, aylanuvchi osmonga boq: yig'iga o'xshash har qorong'u shomdan keyin shodlik kulgusidek musaffo tong otadi.
3. Agar xulqingni kamolga yetishini istasang, to'g'ri yo'ldagi sodiqlardan xafa bo'lib, ko'nglingni xira qilma. Quyosh o'z oynasini, oynadek yuzini tonggi nafaslar sababidan rutubatli, ya'ni g'amgin, mahzun qilmaydi. Quyosh tong jarchisi faqat menman, deb boshqa tongda o'yg'onib, nafas olayotgan maxluqotlardan xafa bo'lmaydi.
4. Pok ravishli – ko'ngli dunyo vasvasasidan xoli kishilar qarshilaridan chiqqan har bir gul yuzli, gulchehralini ko'rib o'zgaravermaydilar. Qachon ko'ribsanki, gul aksi tushishi bilan suv gulrangli bo'lib qolsa? Gul suvi qo'shilsagina suv gulrangli bo'ladi.
5. Umring g'afllatda o'tmasligi uchun ilmlilardan naqlar eshitishni istaysan. Ammo ular aytadigan hikmatlar xuddi afsonalar kabi nodonlarning uyqusini keltiradi.
6. Bu dunyodan qachon ketishing bir daqiqa ham ma'lum emas. Zinhor har daqiqa umringni boylik yig'ish uchun sarf etma.
7. Zanjirband devona yonida zohidning turishi xuddi sher oldida tulkinning turishiga o'xshaydi. Majnun – Haq oshig'i,

zohid esa ta'magir, ibodatni ham nafs uchun qiladigan hiylagar.

8. Qalbing oynasida Haq taolo jamoli jilvalanib turibdi-yu, sen bundan bexabarsan. Ko'p diqqat bo'lma, yordan uzoqda emassan.
9. Agar qalbingdagi yorni ko'rish maqsading bo'lsa, nafsingni o'ldirgach, yana o'lgil. Bu yo'lning qoidasi shu.
10. Ey pir, menga Haq yodi bilan sarhush etuvchi bir ilm o'rgatki, yo yo'l ko'rsatki, toki shundan so'ng ichimdagi oynada na tiriklik, na o'lmakdan biror belgi qolsin.
11. Agar Navoiy bu dunyoda Haq ishq bilan mast bo'lsa, demak uni olamlar shohi bo'lmish Haq taolo o'z panohiga olibti. Undan o'tar payti, dunyodan ketar payti, albatta, yana bir pok ishq to'la idish tutajak.


G'azalning umumiy mazmuni:

G'azal ijtimoiy mavzuda, sufiyona bo'lib, muallif - sufiyning fano va baqo xususidagi falsafiy mulohazalari, tariqat yo'liga kiruvchilarga qaratilgan-maslahat-nasihatlaridan iboratdir. Birinchidan beshinchi baytga qadar donishmand faylasufning umuman inson umri mazmuni mavzuida hayotiy bilimlar asosida chiqargan ilmiy xulosalari - tasavvuf terminologiyasida «aynal-yaqiyn» - badiiy ifoda etiladi. Oltinchi baytda esa tinglovchining bevosita bugungi kuni ehtiyojlaridan yuzaga kelayotgan muammolarga e'tibor tortilib, foni dunyo talablari - moddiy manfaatlar uchun ummi behuda sarf etmaslik alohida uqdiriladi. Ma'no yuzasidan avvalgi besh baytdan farqli o'laroq, muayyan zamon ahli qiziqishlariga ishora etuvchi («dinam yig'ish uchun umringni sarf etma») bu bayt g'azal kompozitsiyasida hayotiy masalalarga yaqin kelishi bilan ajralib turadi. Undan keyin kelayotgan yettinchi baytda ifodalangan mashhur hayotiy misol - o'xshatish orqali she'r semantik qurilmasidagi ana shu tonus - hayotiylik yanada kuchayadi. Bu baytda ifodalangan fikr ikki an'anaviy obraz

vositasida yaratilgan badiiy lavhada aks etadi. Shoir lirikasida aksari yomon nafs - nafs ammora itga, tama'gir zohid esa tulkiga qiyoslanadi. Mazkur baytda Navoiy bu allegoriyadan g'azal mavzui va mazmuni taqozosiga ko'ra foydalanadi. Ya'ni, hiylagar zohid qarshisiga zanjirband oshiqni, tulki oldida esa zanjirband sherni qo'yib tazod yaratadi.

G'azalning keyingi uch baytda oriflik maqomiga erishuv sirlari, fano va baqo tushunchalarining mohiyati xususida so'z boradi.

Maqta'da aniq ob'ekt - podshohning tilga olinishi munosabati bilan g'azalning umumiy mavzuidan uzilish yuz berib, tinglovchi falsafiy mushohadalar olamidan real hayotga qaytadi. Mazkur mavzudagi g'azallarda ko'pincha podshoh, sulton obrazi albatta butun olamlarning yaratuvchisi, sultoni Parvardigorga nisbatan qo'llaniladi. G'azalda «dunyodan o'tayotganimda albatta sulton qarshimdan chiqib, bir sog'ar tutadi», ma'nosidagi fikr bayon etilganligi bois, maqta'da g'azalning umumiy pafosi - tasavvuf g'oyalari tafsiloti yanada kuchayadi. Shoir pok ishq bilan sarhush holda olamdan o'tishni orzu qiladi. Demak, mazkur o'n bir baytli g'azalning oltinchi, yettinchi baytlari uning markaziy nuqtasi, kulminatsiyasi bo'lib, bu baytlargacha va ulardan keyin keluvchi baytlar g'azal semantik qurilmasining simmetrik tomonlarini tashkil etadi. Badiiy tahrir yuzasidan she'rning keyingi - «Navodir ush-shabob» variantida kiritilgan beshinchi bayt esa g'azal kompozitsiyasidagi simmetrik o'sishning bir pog'onasi bo'lib xizmat qiladi. G'azal kompozitsiyasi semantik qurilmasi sxemasini qo'yida keltiramiz:



Albatta, yuqoridagi mulohazalar shoir g'azallari kompozitsiyasidagi badiiy tasviring o'ziga xos bir xususiyati yuzasidan bo'lib, uni umuman Navoiy lirikasiga aloqador tipik hodisa deb baholash noto'g'ridir. Masalan, shoiming bir qator oshiqona, ko'p hollarda tashbihga asoslangan badiiy san'atlar ustuvor bo'lgan vasf tipidagi g'azallarida ta'rif va tavsif bir ohangda, monoton ifodalanadi. Qo'yidagi yakpora g'azalda lirik qahramon hissiy kechinmalari bir tekis, chavgon o'ynovchi ma'shuqa obrazining izchil ta'rif va tavsifi orqali bayon etiladi. Bu g'azalda lirik qahramon hissiy kechinmalarining bosqichma-bosqich o'sa borish yoki asta-sekin pasaya borish hodisasi kuzatilmaydi:

Shahsuvorim tavsani aylarmu oyo po'ya tez,
Yo quyosh turki falak raxshin qilibdur garmxez.

Ul shihob ermaski, maydone aro go'y urg'ali
Sa'd kavkablar tushar yerga qilib ko'kdin gurez.

Gardlig' chavgon hamida axtar o'lg'ay o'ylakim,
Go'yi g'abg'ah davrida chavgoni zulfi mushkbez.

Markabi ter qatnasi birlaki har yon sochilur,
Bir sahobi durfishondur yer yuziga qatra rez.

Go'yi chavgon zarbidin tutmoq bila har dam havo,
Biym erurkim shishai gardunni qilgay rez-rez.

Soqiyo, may berki bu maydon aro go'y urdi ul
Kim falak chavgoni birla qilmadi har dam sitez.

Go'y uchun indi kavokib gardidin yer tutti avj,
Ey Navoiy, voqif o'l, go'yoki bo'ldi rustaxe.

Bu g'azal misolida biz avvalgi g'azalda ko'rganimiz kabi she'r ichki kompozitsion qurilishida ko'zga tashlangan semantik-emotsional tasviring simmetriya asosidagi bosqichli ifodasini kuzata olmaymiz.

Demak, xulosa qilish mumkinki, Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoni» devonlarini tuzish davrida o'z lirik asarlarida badiiy fikrning muallif g'oya-maqsadi yorqinroq aks etgan asar markaziy nuqtasiga qadar izchil va dinamik rivojlanishiga, she'ming davomida keladigan tasviring ham kommunikativ va emotsional jihatdan ma'lum yo'nalishga ega bo'lishiga ahamiyat bergan. Bu umuman, Navoiy lirikasiga xos bo'lgan yetakchi badiiy xususiyatlardan biri - obrazning tadrijiy takomili prinsipiga aloqador badiiy tasviring bir ko'rinishidir. Maqsud Shayxzoda «...tadrij priyomi rus poetikasidagi «magnetanie» terminiga badal bo'la olur», deydi. Shu nuqtai nazardan biz e'tiborimizni qaratgan tadrijiylik asosidagi badiiy tasvir usulini «bosqichma-bosqich o'sish» termini bilan izohlash lozim ko'rinadi.

12.

«Badoe' ul-bidoya», 715-g'azal:

Mening baxtim yuzi g'am kojidin ul kun qaro bo'ldi,
Ki ko'nglum ul ko'zi qoshu qarog'a muftalo bo'ldi.

Qutulmish erdi oshiqliq balosidin ko'ngul, ketmish
Ul oy ko'yiga, hilmom, yona anga ne balo bo'ldi.

Qoshu kirpiklaring ko'nglum uyin qildi kamonxona,
Aliflardin o'qu har na'l anga bir halqa yo bo'ldi.

Labing' g'a qaysi til birla fido dey xasta jonimni,
Anga jonim fidokim, joni la'lingga fido bo'ldi.

Buzulg'on xasta ko'nglumdin o'qin zinhor chekmangkim,
Ul uyg'a bu sutun, ul notavong'a bu aso bo'ldi.

Ajab muhlik emasmu ishq dashti, ey musulmonlar,
Ki bir mo'rig'a har kum to'ma ikki ajdaho bo'ldi.

Fano istar esang ich dayr piri ilgidin jome,
Nedinkim xonaqah shayxi ishi zarqu riyo bo'ldi.

Vujudum foni' aylab oldi din bir mug'bacha, tong yo'q,
Agar zunnor bog'lab maskanim dayri fano bo'ldi.

Navoiy g'ussadin maxlas tilarsen, mastu bexud bo'l,
Ki davron dardu ranjig'a davo bu bo'ldi, to bo'ldi.

L U G' A T :

Koj – shapaloq; iztirob, aziyat

Na'l – taqa; etik va kovushning tagiga qoqiladigan temir nag'al;
kavush, sandaliya; taqa shaklidagi tamg'a

Mo'r – chumoli

Ilg'i – "ilik" – qo'l

zarqu riyo – aldov, makr, riyo, hiyla; munofiqlik, ikkiyuzlamalik, g'iybat,
fisqu-fasod; tezak; qahr, g'azab, jirkanch, yoqmas

zunnor – xristian dinidagilarning beliga bog'laydigan chilvir, belbog'; but,
o'ziga sig'intiruvchi, tortuvchi

g'ussa – g'am, qayg'u

G'azal bahri: hazaji musammani solim

Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun

G'azalning nasriy bayoni:

1. Ko'nglimda qo'zu qoshi qora dilbar muhabbati paydo bo'lgach, baxtim yuzi g'am iztirobidan qop-qora bo'ldi.

2. Ko'nglim oshiqlik balosidan qutulgan edi. Bilmadim, uni yana ne balo urdiki, o'sha oy yuzli dilbar ko'chasiga ketib qoldi.
3. Qoshi kipriklaringdan tinmay o'q otaverib ko'nglim uyini kamoxona misoli qilding, har boqishing ko'nglimga o'q misoli tegdi. "Qosh" va "kiprik" yozuvlaridagi har bir alif o'q bo'lsa, qoshlaring shakliga o'xshagan nag'al shu o'qni otish uchun kamoning yoysimon halqasi bo'ldi.
4. La'ldak lablaringga qanday "jonim fido", deb aytay?! Undan ko'ra, lablaring la'lga jonini fido qilganlarga jonimni fido etaqolay.
5. Xarob va bemor ko'nglim ichida turgan kiprik o'qini aslo olib tashlamang. Bu kiprik buzilayozgan ko'nglim uyining ustuni, ko'nglimning o'zi uchun aso esa – tayoq bo'lib turibdi.
6. Ey musulmonlar, sizga ma'lumki, ishq sahrosi halok etuvchidir. Bu dashtu sahroning har bir chumolisiga ikki ajdaho taom bo'ladi.
7. Agar muhabbat ko'chasida yo'q bo'lib ketishni istasang, dunyoda yo'l ko'rsatib turgan pir qo'lidan bir jom pok ishq sharobini ich, ya'ni ilm o'rgan va ilm darajalarida yuksal. Xonaqah shayxi aldov va hiyla bilan o'zini taqvodor va obid ko'rsatishi mumkin. U seni pok muhabbat ko'chasiga olib kirolmas.
8. Hayron bo'lmoq yo'q, bir mug'bacha (dunyoviy mahbuba) vujudim borligini unuttirib, dinimni ham unuttirdi. Endi belimga g'ayri dinlar belbog'ini bog'lab, turar yerim yo'q bo'lib ketguchi dunyo bo'ldi.
9. Ey Navoiy, agar bu g'amlardan qutulmoq istasang, pok muhabbat shavqidan mast bo'lu, o'zingni unut. Chunki bu davron dardiga davo – to hozirga qadar shu bo'ldi!

G'azalning umumiy mazmuni:

Fikring bir obraz asosidagi izchil rivojini kuzatish uchun ma'no mazmuni ancha tushunarli bo'lgan qo'yidagi g'azal kompozitsiyasida muhim o'rin tutadigan matn variantlari ham e'tiborga molikdir. «Badou' ul-bidoya» devonidagi iyhom va irsoli-masal san'atlari darj etilgan:

Mening baxtim yuzi g'am kojidin ul kun qaro bo'ldi,
Ki ko'nglum ul ko'zi qoshu qarog'a muftalo bo'ldi

matla'i bilan boshlanuvchi bu g'azalning «Navodir un-nihoya» devonidagi matnida to'rtinchi, beshinchi baytlar o'rnini almashtirilgan. Bunday o'zgartirishning sababi g'azal matnidagi ko'ngul obrazi bilan bog'liqdir. Bu obraz g'azalning matnidan boshlab o'rnini o'zgartirilgan baytlariga qadar ishtirok etadi. Ya'ni:

1-bayt: Oshiqning baxti qaroligiga muftalo ko'ngul sababchidir.
2-bayt: Ko'ngul oshiqlik balosidan qutulgan edi, yana o'sha ko'yga ketibdi, unga ne balo bo'ldi?
3-bayt: Ma'shuqa kipriklari o'qi oshiq ko'ngli uyini kamonxona qilibdilar. Unda har alif bir o'qu, har na'l bir egilgan halqa bo'ldi. Bu yerda shoir kitobat san'ati vositasi bilan «kamonxona» so'ziga ishora qiladi. Ya'ni, bu so'zda ishtirok etuvchi ikki ¹ va ikki ² dan istiora yaratadi - من اخذك - ikki alif - kiprik o'qlari, ikki nun - ikki egilgan qoshga qiyoslanadi. G'azalning birinchi variantida to'rtinchi bayt ma'shuqaning la'idek lablari ta'rifiga bag'ishlangan. Beshinchi baytda esa yana ko'ngul obrazi va uchinchi baytda ishtirok etgan «o'q» obrazlari vositasida badiiy tasvir yaratiladi. Ya'ni,

Buzul' on xasta ko'nglumdin o'qin zinhor chekmangkim,
Ul uyga bu sutun, ul notavonga bu aso bo'ldi.

Ma'lum bo'layotganidek, birinchi, ikkinchi, uchinchi va beshinchi baytlarda lirik qahramon kechinmalari ko'ngul obrazi vositasidagi lavhalar badiiy aks etib, bevosita uning ko'ngli bilan bog'liq hodisalar

hayon etilsa, bu baytlar orasidagi to'rtinchi bayt ma'shuqaning lablari ta'rifiga bag'ishlanadi. G'azalning davomi - oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi baytlarda ko'ngul istilohi va unga aloqador tasvir uchramaydi. Ana shu o'rinda Navoiy g'azalga tahrir kiritishni lozim topadi va badiiy fikring ko'ngul obrazi vositasidagi ifodasida semantik izchillik, o'ziga xos dinamikani ta'minlash uchun bu baytlar o'rnini almashtirib, to'rtinchi baytni beshinchi baytdan keyingi o'ringa tushiradi. Buning natijasida g'azal yangi variantidagi boshlang'ich uch baytda lirik qahramon ko'nglining turli-tuman holatlardagi tasviri berilsa, to'rtinchi baytda, nihoyat, bu ko'ngulning xasta bo'lib, buzilganligi, ma'shuqa kipriklaridan otilgan o'qlar uning buzulgan uyiga ustun bo'lib, o'ziga esa aso bo'lib turganligi haqida gap ketadi. Shoir oshiq ko'ngli bilan bog'liq tasviri oxirgi maqomiga yetkizgach, ma'shuqa lablari ta'rifini boshlaydi. G'azalning keyingi to'rt bayti oshiq-ma'shuqa ishqiy mojaralaridan mutlaqo xoli tarzda bevosita shoirning ijtimoiy-falsafiy mazmundagi mushohadalari ifodasiga bag'ishlanadi. Ko'rinib turganidek, g'azal o'ziga xos semantik strukturaga ega bo'lib, Navoiyning bir bayt o'rnini almashtirish orqali kiritgan tahriri uning kompozitsion mukammalligiga xizmat qiladi. Tahrirdan keyin g'azalning kompozitsion qurilmasini ikki bo'limga ajratish mumkin. Ya'ni, boshlang'ich, ko'ngul obrazi bilan bog'liq to'rt bayt - birinchi bo'lim, va lablari ta'rif berilgan beshinchi baytdan keyingi oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi baytlar ikkinchi bo'lim tarzida. Shu o'rinda, agar ta'bir joiz bo'lsa, g'azalning birinchi bo'limini mavzu va mazmun hamda tasvir tipi yuzasidan - oshiqona, ikkinchi bo'limini esa - fano va baqo masalalarini istifoda etuvchi mushohadaviy tipdagi «orifona» deb atash ma'quldir. G'azalning oshiqona bo'limidagi baytlar majmuasi, ya'ni, dastlabki to'rt bayt go'yo qasidaning bosh (nasib) qismini eslatadi, uning orifona qismi esa qo'yidagi mazmundadir:

Ajab muhlik emasmi ishq dasthi, ey musulmonlar,
Ki bir mo'rig'a har kun to'ma ikki ajdaho bo'ldi.
Fano istur esang ich dayr piri ilgidin jome,
Nedinkim xonaqah shayxi ishi zarqu riyo bo'ldi.

Vujudim foniy aylab oldi din bir mug'bacha, tong yo'q,
Agar zunnor bog'lab maskanim dayri fano bo'ldi.

Navoiy g'ussadin maxlas tilarsen, mastu bexud bo'l,
Ki davron dardu ranjig'a davo bu bo'ldi, to bo'ldi.

Navoiy lirikasida uchraydigan bunday murakkab kompozitsiyani Yo'Is'hoqov tavsifiy xarakterdagi g'azallar uchun xarakterli hodisa deb hisoblaydi «...g'azal boshida tilga olingan narsalar (masalan, «Uyg'otur subhi bahor elni fig'on birla sahob» g'azalini eslang) uchinchi, to'rtinchi yoki beshinchi baytdan keyin tushib qoladi. Ular go'yo kadr ortiga o'tib, birinchi planga konkret qiyofa yoki masala chiqib qoladi».⁹¹

Navoiy lirikasining barcha tipdagi g'azallari semantik kompozitsiyasiga xos xususiyatlarni bu tariqa tekshirish uning alohida olingan bir g'azalini oshiqona g'azal, boshqa g'azalini esa orifona yoki sufiyona deb, qolipga solib biryoqlama tasnif etish kabi masalalarni jiddiyoq o'ylab ko'rishga extiyoj tug'diradi. Zero, bu nuqtai nazardan Navoiy g'azallari maqta'lari va maqta'dan ilgari keluvchi baytlarning shoirning oshiqona atalmish g'azallaridagi pozitsiyasi, muallif g'oya-maqsadi ifodasidagi ahamiyati masalalari bugungi navoiyshunoslik talablari doirasida, maxsus monografik mavqye'da hali o'rganilmagan. Albatta, shoir hamd va na'tlari, ba'zi ijtimoiy-falsafiy ruhdagi yakpora g'azallari bundan mustasno.

13.

«Navodir um-nihoya», 26-g'azal:

Jonda qo'ydim chirmag'on maktubini hijron aro,
Bilmon ul maktubdur yoxud alifdur jon aro.

Rishtai oliyki chirmab erdi ochib asradim,
Xunfishon ko'z raglaridek diydai giryon aro.

⁹¹ Исхоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: "Фан", 1970, 61-6.

Notavon jismim ko'rundi za'fdin ul rishtadek,
Baski bo'lg'andim iki ko'zumdin oqqan qon aro.

Noma emas erdikim, bor erdi ul hirzul amon,
Kim g'amim aysh etti yetgach kulbai chzon aro.

Garchi jonondin aziz emas erur jondin aziz
Kim, vasila bo'ldi mahzun jon bila jonon aro.

Ruq'ai chsondin, ey mun'im, gado komini ber,
Kim bu yanglig' ganj topmas kimsa bu vayron aro.

Ey Navoiy, nomai maqsud yetti, xushdil o'l,
Kim xati ozodliq, budur g'ami hijron aro.

L U G' A T :

Za'f – quvvatsizlik, holsizlik, xastalik, kasallik

Hirz – saqlaydigan, asraydigan, saqlanish, omon bo'lish

Kulbai ehzon – hazin uy, g'am, hasrat uyi

Vasila – yo'l, vosita, sabab, bahona, bois; tuhfa, sovg'a

Ruq'a – xat, maktub; yamoq

Mun'im – ne'mat beruvchi, rizq beruvchi, saxovatli

G'azal bahri: ramali musammani maqsur

Foilotun foilotun foilotun foilon

G'azalning nasriy bayoni:

1. Sog'inch va hijron ichida bir chirmalgan maktub oldim va uni jonim turgan yer – yuragim ustiga qo'ydim. Ammo o'zim tushunolmay qoldim: jonim ustida turgan narsa maktubmi yoki "jon" so'zida keladigan alifmi?!

2. Maktub a'lo sifatli ip bilan chirmalgan edi. U qizil rangda ekan, qon yosh to'kuvchi ko'zim tomirlaridek yig'layotgan ko'zlarim ichida asradim.
3. Zaiflikdan o'sha ipdek bo'lib qolgan notavon jismim shu qonli yosh oqimlari orasida qolgandek ko'rindi.
4. Bu maktub emas, balki meni asraydigan tumordek ediki, g'amlarim aysh etib turgan hazin hasrat uyiga kirib kelgan edi.
5. Bu bir maktub bo'lsa, u albatta jononimdan aziz emas, ammo mening jonimdan aziz! Chunki u mening jononimdan menga kelgan tuhfadir.
6. Ey ne'mat beruvchi, bu "hasana" – go'zal maktub bois men gadoning maqsadimni hosil ayla! Mening vayronamda bu yanglig' xazinani hyech kim topa olmaydi.
7. Ey Navoiy, maqsadingni ro'yobga chiqaruvchi maktub yetib keldi, ko'nglingni shod et. Bu sendan sog'inch-hijron g'amlarini ketkazuvchi ozodlik xatidir.

G'azalning umumiy mazmuni:

Ushbu g'azalning mazmuni tushunarli, tili sodda, uslubi ravon. Mubayyin, ya'ni fikrlarini bayon etuvchi shaxs sog'inch ichida yurganida yaqin insonidan qimmatbaho ip bilan chirmalgan bir maktub oladi. Bu maktubi oliy shu qadar uzoq kutilgan va qadrli ediki, muallif uni barcha yomonliklardan asraydigan tumor kabi qabul etdi. Bu maktub uni yaqin kishisi bilan bog'lagan go'zal tuhfa edi. G'azal maqta'sidan ma'lum bo'ladi, lirik qahramonning asl maqsadi shu noma edi. Noma yetib keldi, endi u ozodlikka chiqadi.

G'azal mazmunidan uning ikki yaqin do'st orasidagi munosabatlar bilan bog'liqligi ayon bo'ladi. O'quvchi xayolida Navoiy hazratlari bu g'azalni Samarqandda ekanliklarida yangi taxtga chiqqan do'stlari Husayn Boyqarodan olganliklari yoki Astrobodda hokim bo'lgan yillarida Hirotidan kelgan biror maktub

munosabati bilan yozganliklari mumkinligi haqidagi mulohazalar o'tadi. Hazratning Samarqanddaliklarida Husayn Boyqaro 1469 yilning ramazon oyi birinchi kunida Hirot taxtiga chiqqach, Samarqand hokimi Ahmad Hojibekka maktub yozib, Alisher Navoiyni Hirotga kelishini so'ratganligi ma'lum. Balki shu maktub bahona ushbu g'azal yozilgandir.

G'azal "Navodir un-nihoya" va "Navodir ush-shabob" devonlarida matnda bir oz farqlar bilan joylashtirilgan. Baytlararo mazmunan bog'liqlik nuqtai nazaridan o'tkazilgan tahlil ushbu g'azal joylashtirilgan devonlarda matn yuzasidan ko'zga tashlanadigan tafovutlarning bir necha ko'rinishda uchrashini ko'rsatadi. Masalan, «Navodir un-nihoya» devoniga kirgan bu g'azalning ikkinchi va to'rtinchi baytlari o'mi almashib kelishi ham mazkur ma'nodagi mulohazalarni taqozo etadi. Chunonchi, g'azal birinchi baytida chirmalgan maktub yetib kelishi haqida so'z boradi. Ikkinchi, uchinchi baytlarda esa shu maktubni chirmagan yoki bog'lagan iplar - rishta bilan bog'liq tasvir beriladi. To'rtinchi bayt mazmunan yana maktub ta'rifiga bag'ishlangan. G'azalning boshqa variantida esa noma bilan bog'liq badiiy ifodalar aks etgan birinchi - to'rtinchi baytlar matla' va undan keyingi o'rinda birin-ketin, rishta tavsifidagi ikki bayt esa uchinchi-to'rtinchi bayt tarzida birin-ketin keltirilgan. G'azalning keyingi uch bayti ham noma obrazi asosida yaratilgan badiiy lavhalar bilan ziynatlangan.

14.

«Navodir un-nihoya», 43 - g'azal:

Kimsa hargiz ko'rmadi chun ahli davrondin vafo,
Ulki davron ofatidur ne tama' andin vafo.

Jonimu umumdur ul oy bevafo bo'lsa ne tong,
Qayda ko'rmish kimsa hargiz umr ila jondin vafo.

Gar vafo qilsang erur andinki, bordursen pari,
Yo'qsa kim olamda ko'rmish nav'i insondin vafo.

Vahki, davron ahlidin juz bevafo'lig' ko'rmadi,
Har nechakim ko'rdilar men zori hayrondin vafo.

Chun vafo gulbargi davron bog'ida ochilmadi,
Bejihatdur kimki istab bu gulistondin vafo.

Kimsa ko'nglun kimsadin istab vafo oldurmasun,
Kim, menga xud yetmadi ul ko'nglim olg'ondin vafo.

Ey Navoiy, gar vafosiz chiqti ul sultoni husn,
Topting e'dinkim, tilarsen ermdi sultondin vafo.

L U G' A T :

Juz (juzv, juz') – bo'lak, boshqa, o'zga; mayda, oz, biror narsaning bir qismi,
bir donasi; a'zo, badan a'zolari

Bejihat – sababsiz, o'rinsiz, behuda

G'azal bahri: ramali musammani maqsur
Foilotun foilotun foilotun foilon

G'azalning nasriy bayoni:

1. Biror kishi bu zamona ahlidan vafo ko'rmagan ekan, zamona balo-ofati bo'lgan kuchli shaxslardan vafo umid qilish mumkinmi?
2. Mening hayotim, umrimning mazmuni bo'lgan oyyuzli yor bevafo bo'lsa, hyech ajablanarli joyi yo'q. Biror kishining umri va jonidan vafo ko'rgani ma'lummi?
3. Agar sen vafodorlik da'vo qilayotgan bo'lsang, demak pari jinsidansan. Shunday bo'lmasa, inson zotidan bu olamda vafo ko'rgan birov bormikin?

4. Men zori hayron kimsadan har qancha vafo ko'rsalarda, ammo davron ahlidan ham zarracha bevafo'lig' ko'rmadilar.⁹²
5. Bu dunyo bog'ida vafo guli ochilmagan. Kimki dunyo gulistonidan vafo gulini qidirsan, demak u behuda urinibti.
6. Biror kishi boshqa birovdan vafo istab ko'nglini mahzun qilmasin. Menga ham ko'nglim olgan kimsadan vafo qaytmadi.
7. Ey Navoiy, o'sha husn sultoni vafosiz chiqqan bo'lsa, xafa bo'lma. Eldan vafo topdingmiki, sultondan toparding?!

G'azalning umumiy mazmuni:

Bu - Navoiy hazratlarining ijtimoiy ruhdagi g'azallaridan biri. Ulug' shoir insoniy jamiyatda eng taqchil fazilatlaridan biri bo'lmish – vafo va sadoqat xususida so'z yuritmoqda. Sodda va ravon yozilgan bu g'azal shoimi qattiq ranjitgan biror hodisa munosabati bilan yozilgan bo'lishi mumkin. Shoiming fikrlarini chuqurroq anglash uchun uning adabiy-estetik tamoyillaridan bo'lmish – maqta' va undan oldin kelayotgan bayt mazmuni va mavqeiga e'tibor qaratsak.

Navoiy g'azaliyotida maqta' va maqta'dan oldingi o'rinda kelib, mazmun va uslub jihatidan nisbiy mustaqillik ruhiga ega bo'lgan baytlar muhim poetik mavqe' egallaydi. Shoiming g'azal mavzui va mazmuni yuzasidan chiqargan mantiqiy xulosasini yoki tasvir ob'ektiga nisbatan bo'lgan sub'ektiv munosabatini, xususan, uning muhim falsafiy-ijtimoiy g'oyalarini ifoda etuvchi maqta'dan oldingi baytlarni A.Hayitmetov lirik chekinish sifatidagi baytlar deb atagan. Yo'ls'hoqovning fikricha esa, «Navoiyning muhim falsafiy, ijtimoiy fikr va xulosalarini yuksak emotsional formada ifoda etgan epigramma baytlarini (poetik jihatdan) g'azal ichiga

⁹² Шу байт матнида қайсидир сўз нотўғри ёзилган бўлиши мумкин. Чунки Навоий поэтик услубида бундай тушундирилиш қийин фикр мавжуд эмас.

joylashgan o'ziga xos she'riy janr deb atash mumkin.⁹³ Navoiyning g'azal kompozitsiyasidagi har bir alohida olingan baytlar va semantik bo'laklarni yakuniy mantiqiy xulosa vositasida yaxlit lirik asar qilib birlashtiruvchi maqta' va maqta'dan oldingi baytlarga bo'lgan ijodiy munosabati g'azallar matn nusxalarida ham ko'rinadi. Jumladan, shoimning «Badoe' ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» tarkibiga kirgan maqta'i bo'lmagan g'azallari maqta' bilan ta'minlangan. «Badoe' ul-bidoya» ga 42-chi, «Navodir un-nihoya» ga esa 43-o'rinda kiritilgan biz tahlil etayotgan ushbu mulohazaviy g'azal bunga misol bo'la oladi. Bu g'azal kompozitsiyasi shoimning chuqur ijtimoiy-falsafiy mulohazalari asosida qurilgan bo'lib, uslub jihatidan ham o'ziga xoslikka ega. Ya'ni, g'azal baytlaridagi misralararo bog'lanish o'ziga xos original bir qonuniyatga bo'ysundirilgan. Ana shu jihatdan, ya'ni misralarning uslubiy bog'lanishi yuzasidan g'azalni uch qismga ajratish mumkin. Chunonchi, birinchi, ikkinchi, uchinchi baytlarning birinchi misralarida shoimning ibratomuz xulosaviy fikrlari berilib, ikkinchi misralar ularni bir tomondan izohlab kelsa, ikkinchi tomondan, yana bir bor kinoya, kessatiq tarzidagi umumlashma xulosalardan iboratdir. Baytlarda misralar o'zaro ritorik so'roqlar vositasida intonatsiya yo'li bilan bog'lanadi. E'tibor qiling:

Kimsa hargiz ko'rmas chun ahli davrondin vafo,
Ulki davron ofatidur ne tama' andin vafo?!
Jonimu umrumdurur ul oy bevafo bo'lsa ne tong,
Qayda ko'rmish kimsa hargiz umr ila jondin vafo?!
Gar vafo qilsang erur andinki, bordursen pari,
Yo'qsa kim olamda ko'rmish nav'i insondin vafo?!

G'azalning keyingi ikki bayti (4-5) chuqur ijtimoiy mazmunda shoimning davron va davron ahlidan, bevafo yordan («yor» tushunchasi bu yerda keng ma'noda, ya'ni, barcha lirik qahramon «ko'nglini olishi» mumkin bo'lgan shaxslar ma'nosida) shikoyati motivlari bilan yo'g'rilgandir. Bu baytlarda avvalgi baytlardan farqli o'laroq, xulosaviy fikrlar ikkinchi

misralarda berilib, birinchi misralar ularning sababini izohlab keladi. Jumladan, grammatik vositalar («chun» - «chunki» ergashtiruvchi bog'lovchisi, «vahki» undov so'zi) ana shu maqsad ifodasi uchun xizmat qildirilgan:

Vahki, davron ahlidin juz bevafo'lig' ko'rmasi,
Har nechakim ko'rdilar men zori hayrondin vafo.
Chun vafo gulbargi davron bog'ida ochilmadi,
Bejihatdur kimki istar bu gulistondin vafo.

G'azalning birinchi qismida muallif fikrlari ma'rifiy mazmundagi tezislar shaklida ifodalangan bo'lsa, uning ikkinchi qismida shoir shaxsining ishtiroki ko'zga tashlanadi. G'azalning uchinchi qismi, ya'ni maqta'dan oldingi bayt va maqta'da esa shoir shaxsi oldingi planga chiqadi. Bu baytlarda ham misralar sababiy bog'lanish orqali biri ikkinchisini izohlab keladi. Biroq, ularning avvalgi baytlardan farqli jihati shundaki, avvalgi baytlarda sababiy-mantiqiy bog'liqlik ikki misra o'rtasida yuz bergan bo'lsa, bu baytlarning ikkinchi misralarida butun she'r mazmuniga taalluqli bo'lgan sabab motivlari va muallifning yakuniy mantiqiy xulosalari ifoda etiladi:

Kimsa ko'nglin kimsadin istab vafo oldurmasun
Kim, manga xud yetmadi ul ko'nglun olg'ondin vafo.
Ey Navoiy, gar vafosiz chiqti ul sultoni husn,
Topding eldinkim, tilarsen emdi sultondin vafo?!

G'azalning birinchi varianti, ya'ni «Ilk devon» matnida maqta' bor, uning «Badoe' ul-bidoya» matni esa maqta'siz. Maqta'dan oldin keluvchi oltinchi bayt shoir g'oya-maqsadining xulosaviy ifodasi sifatida she'rga yakun yasagan. Devonlarida g'azallar hajmining yetti baytdan kam bo'lmashligi prinsipiga amal qilgan Navoiy bu g'azal kompozitsiyasini ham hajm hamda semantik-emotsional tasvir takomili borasidagi mulohazalar yuzasidan maqta'li bo'lishini ma'qul ko'rgan. Chunki, g'azalning birinchi

⁹³Исходков Е. Навоий поэтикаси. – Тошкент: “Фан”, 1970, 63-6.

qismidagi baytlar kabi maqta'da misralarning ritorik so'roq vositasida bog'lanishi she'r kompozitsiyasida badiiy tasvir yaxlitligini ta'minlaydi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: nega Navoiy g'azalni «Badoe' ul-bidoya» devoniga maqta'siz holda kiritgan? Uning «Navodir un-nihoya» va «Favoyid ul-kibar» nusxalariga esa chiqarib olingan maqta'ni qaytadan qo'shgan?

Maqta'ni g'azalning umumiy mazmunidan uzilgan holda olib qarasak, u shoiming biror real voqyea-hodisa munosabati bilan yozgan epigrammasi tarzida namoyon bo'ladi. Ammo, u mazkur g'azal nihoyasiga joylashtirilgan ekan, bu taassurot g'azalning umumiy ruhida ham aks etadi. Bu esa bevosita g'azalning yozilish davri haqidagi mulohazalarning o'yg'onishiga sabab bo'ladi.

Albatta, Navoiy maqta'da sulton obrazini tasodifan kiritmagan. Shoiming barcha janrlardagi lirik asarlarida bo'lgani kabi sulton obrazi bu baytda ham o'zining hayotdagi real prototipiga egadek ko'rinadi. Shunday bo'lmaganda, Navoiy bu obrazni umumlashma, tipik obraz sifatida o'tning ko'plik grammatik formasida berishi yoki g'oyaviy fikrlari xulosasi uchun boshqa obrazlar, badiiy lavhalardan foydalanishi mumkin edi. Demak, baytdagi fikr yo'nalishi real sultonga qaratilgan.

Agar maqta'ning «Navodir un-nihoya» devoni tartib berilishi davrida g'azalga qayta qo'shilganligiga e'tibor bersak, uning 80-yillar o'rtalarida shoir davlat ishlaridan rasman o'zini chetga olib, sulton va amaldorlar bilan bo'lgan munosabatlardan qattiq charchagan damlardagi kayfiyati ifodasi bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqadi. Chunki, maqta'da shoiming zamona sultonidan norozi holdagi ruhiy kayfiyati ravshan aks etib turibdi.

G'azal shoiming yoshlik⁷¹⁾ davriga taalluqli. Shoiming yoshlik va yigitlik davri biografiyasida bevosita iz qoldirgan sultonlar - unga nihoyatda g'amxo'r bo'lgan Muhammad Sulton, uning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo va yosh shoiming Hirotni uchinchi marta tark etishiga bevosita sababchi bo'lgan Abusaid Mirzolaridir. Agar g'azal Navoiyning mamlakat sultonidan vafo kutmagan bir davrda, ya'ni Samarqand safari oldidan yozilganligi ehtimolini e'tiborga oladigan bo'lsak, «Badoe' ul-bidoya» ga tartib berish davrida Navoiy ma'lum mulohazalar nuqtai nazaridan uni g'azal tarkibiga

kiritmagan bo'lishi mumkin. Chunki, Sulton Husayn Boyqaroning bevosita g'amxo'rliqi va rahnamoligi ostida o'zining birinchi rasmiy devoniga tartib berayotgan shoir bu devonga eldan va sultondan qattiq shikoyat pafosi ufurib turgan baytni kiritishni istihola qilgan. Keyinchalik esa, «Navodir un-nihoya» ni tuzish davrida g'azal kompozitsiyasi butunligini o'ylab, uni qaytadan g'azal tarkibiga kiritgan. Ana shu mulohazalar quyidagi xulosalami chiqarishga imkon beradi: ko'zda tutilayotgan g'azal Navoiyning ijtimoiy-ma'rifiy yo'sindagi tadriji g'azallaridan biridir. Uch variantda bo'lgan bu g'azalning keyingi variantidagi maqta' o'quvchi diqqatini bevosita muallifning hayoti bilan bog'liq munosabatlar doirasiga tortib, g'azalning umumiy ruhiga voqyeabandlik xususiyatini kiritadi. Bundan tashqari, Navoiyning maqta' yozilgan davrdagi falsafiy-siyosiy qarashlarini ham ifoda etadi. Navoiyning yoshlik lirikasiga tegishli bo'lgan bu g'azal u bu davrda katta muhabbat qo'ygan podshohlar («Har gadokim bo'ryoi faqr erur kisvat ango» va «Ilk devon» dagi boshqa g'azallarni eslang) - Muhammad Sulton (1456) va Abulqosim Bobur Mirzo (1457) vafotlaridan keyin, 1464 yilda Mashhaddan Hirotni qaytib, og'ir qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan bir davrda yaratilganidir. "G'azalning «Ilk devon» dan joy olganligi Navoiyning Samarqand safari oldidan, ya'ni, 1464-1465/66 yillar oralig'ida yozilganligini tasdiqlaydi. Bu esa juda muhimdir. Ma'lumki, «Ilk devon» da shoiming bolalik va yigitlik chog'ida yozgan she'rlari aralash holda joylashtirilgan. H.Sulaymonov ilmiy tadqiqotlarida esa bu devonga kirgan she'rlarning hammasi bolalik (yoshlik) davriga oid, deb qaralgan. Navoiyshunoslik fanining vazifasi imkon boricha shoiming bolalik va yigitlik davrida yozgan she'rlarini bir-biridan farqlab berishdir.»⁷⁴ Keltirilgan g'azal, fikrimizcha, «biz (Navoiyning - S.D.) 15-16 yoshgacha bo'lgan davrini bolalik, undan keyingi davrni yigitlik davri deb oladigan bo'lsak...»⁷⁵ Navoiyning yoshlik emas, balki yigitlik davriga taalluqlidir. Demak, Navoiy lirikasi xususiyatlarini izchil o'rganish orqali ayrim g'azallar matnlaridagi rang-barangliklar vositasida shoir biografiyasining ba'zi jihatlariga oid muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin, shuningdek, g'azallardagi poetik

⁷⁴ Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: "Фан", 1971. 6-8.

⁷⁵ Шу асар, шу саҳифа.

usullar va badiiy tasvir xususiyatlarini ham chuqurroq tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bu g'azal xususida yana shuni aytish munkinki, u shoir ko'ngliga mahbub she'rlardan biri bo'lgan. Keyinchalik Navoiyning bu g'azalga musaddas bog'lab "Badoe' - ul - bidoya" devoniga kiritishi buning isbotidir.

15.

«Badoe' ul-bidoya», 54 - g'azal

Sochsa anjumdin falak boshing'g'a yuz ming durri nob,
Jolayi g'am, bilki, yog'durg'ay bir ofatlig' sahob.

Ne g'araz bu jolani yog'dursa andin o'zgakim,
Umr naxlin sindurub, tan gulbunin qilg'ay xarob.

Ro'ziy ortug' bo'lmag'in har kimki bilg'ay charxdin,
Zol yanglig'durki roziq charxini qilg'ay xitob.

Ofarinish bahridin gardun hubobi besh emas,
Bormu imkon kimsaga bir qatra suv bermak hubob?

Bo'lsa erdi qudratikim lahzac topqay qaror,
Tunu kun tinmay bu nav' etkaymu erdi iztirob?

Ul dog'i o'z holig'a hayron erur andog'ki men,
Anda ham sargashtaliq andoqki menda pechu tob.

Jismi oning ham havodis zarbasidin nilgun,
Topmayin maqsudini mendek necha aylab shitob.

Qudrat ilgida bo'lub ul ham zabun andoqki men,
Olmay ul mendin hisob, andoqki men andin hisob.

Ey Navoiy solik ersang haq vujudin bil vujud,
Mosivallohni adam, vallohu a'lam bissavob.

L U G' A T :

Naxl – nihol

Tan gulbuni – bu yerda: badanning guldek go'zal va pok kulbasi

Zol – qariya (kampir, chol); bir kechalik oy, hilol; adashgan, gumroh, yo'ldan ozgan; yomonlikka yo'llovchi

Gardun – osmon toqlari; dunyo, olam, jahon; arava; yuksak, baland

Hubob – suv yuzida paydo bo'ladigan pufakchalar; osmon gumbazi; foni dunyo; aylana

Besh emas – ortiq emas

Havodis – hodisalar, voqyealar, kundalik o'zgarishlar; ko'ngil g'ashlik hodisasi;

Nilgun – ko'k rangli, ko'k rangli gumbaz, osmon

Solik – yo'lga kirgan, yo'lda yurgan; tasavvuf yo'liga kirgan; zohid; obid; musofir; g'arib; ogoh musofir; sufiylik ixtiyor qilganlar; yo'l topish uchung urinmoq, yo'llanmoq

Mosivalloh – xudodan boshqa

Vallohu a'lam bissavob – to'g'risini Alloh yaxshiroq biladi

G'azal bahri: ramali musammani mahzuf

Foilotun foilotun foilotun foilun

G'azalning nasriy bayoni:

1. Falak boshingdan yuz minglab durdek yulduzlarini sochib turgan bo'lsa ham, ehtiyot bo'l, bitta ofatli bulut g'am jalalarini yog'dirishi mumkin.

2. Jala yog'dirishdan uning maqsadi nima? Albatta sening umring niholini sindirib, guldek taningni xarob qilishdan o'zga narsa emas.
3. Rizq nasibasi ortiq yoki kam bo'lishini har kim ham taqdiridan deb bilar ekan, Adashgan gumrohlar kabi charx (taqdir) ga nolib xitob qiladi.
4. Yaratilish dengizidan osmon toqlari ustun emas, Dengiz turganda uning yuzida suzib yurgan hubob biror kimsaga suv bera olarmidi?!
5. Agar uning kuchi-qudrati bo'lsa, buncha suv yuzida beqaror suzguncha, biror lahza to'xtab, biror yerda qaror toparmidi? Kechayu kunduz bu tariqa iztirob chekmasmidi?!
6. Shu boisdandir balki, u ham xuddi men kabi o'z holiga hayron. U ham boshini har tomonga urmoqda, men aylanib-o'rgulganim kabi.
7. Uning jismi ham har turli hodisalar zarbasidan ko'karib ketgan, xuddi men kabi har qancha g'ayrat qilsa ham maqsadini topolmayapti.
8. U ham taqdir qo'lida mendek zabun, u mendan hol so'rayolmaganidek, men ham undan hol so'rayolmayman.
9. Ey Navoiy, haq yo'lida yurishni ixtiyor etgan solik bo'lsang, o'z vujuding borligini unut va faqat haq vujudini mushohala et, xudodan boshqani yo'q bo'luvchi bil. Yana Alloh bilguvchiroqdir.

G'azalning umumiy mazmuni:

Inson umrini Hazrat Alisher Navoiy bir yo'l deb tasavvur etadilar. Hayoti davomida hech qanday yo'lni ko'rmay, bilmay o'tib ketadiganlar ham bor. Ammo, shoirning tinglovchisi, dil yoruvchisi, hamdardi - mazmun bor yo'lni maqsad qilgan, ya'ni, hayotni oson va chiroyli tarzda o'tkazish uchun zaminlar bor yo'lni topishga qasd qilgan «ahli xirad», «ahli hush» – aql egalaridir.

Shoir tafakkurining mo'jizasi shundaki, unga ko'ra, ma'no va hikmat istab yo'lga chiqqan xiradmand asl ma'noni topgach, hushu xirad unga ortiqcha ekanini tushunadi va bu yukdan o'zini xalos etadi. U ma'noni aql bilan emas, pokiza tuyg'u bilan his etadi. Aql yo'lcini ma'no eshigiga qadar yetaklab keladi. Shunda unga namoyon bo'lgan mukammal mohiyatning bir zarrasigina uni oshiqqa aylantiradi. Shundan boshqa hamma narsadan u bezor, hamma narsa uning uchun bee'tibor bo'lib qoladi. Uning ahvoli xuddi quyosh yanglig' yonishdangina iborat bo'ladi. Bu yonishga na aql, na hush, na fahm, na his parda bo'la oladi, uni pinhon tutishning imkoni yo'q:

Mehrim o'tin hushu aqlu fahmu his yoshurmadi,
Mehri lomi' to'rt burqa' keynidin pinhon emas.

Hazrat she'riyatlarida vasf etilgan barcha oshiqlar hayotdan chin ma'no istab yo'lga chiqqan soliklardir. Ular shoir devonlarida turli badiiy timsollar sifatida namoyon bo'ladilar. Hazrat Navoiyning shunday hammaslaklaridan biri – Hubob ekan!

«Badoe' ul-bidoya» devonidan o'rin olgan bu g'azalda shoir taqdir haqida fikr yuritadi. Chuqur mushohadaga chorlovchi bu g'azal shoir uslubida juda kam ko'rinadigan hodisa – matla'sidanoq o'git bilan boshlanadi. Taqdir hukmi o'zgarmas, deya saboq beradi shoir, garchi falak yorqin dur singari yulduzlarini boshingdan to'kib tursa ham, emin bo'lmaki, bitta ofatlar bilan to'yingan bulut ustingdan g'am jalalarini yog'dirishi mumkin:

Sochsa anjumdin falak boshingg'a yuz ming durri nob,
Jolayi g'am, bilki, yog'durg'ay bir ofatliq sahob.

Balo yog'diruvchi bulutning bunday qilishdan maqsadi, albatta, sening umring niholini sindirib, gul xirmani yanglig' taningni xarob qilishdan o'zga narsa emas:

Ne g'araz bu jolani yog'dursa andin o'zgakim,
Umr naxlin sindurub, tan gulbunin qilg'ay xarob.

Keyingi baytda Hazrat yana taqdir hukmi va Yaratguvchi hikmati xususida mushohadaga beriladilar. Rizqu ro'zi ortiq yoki kam bo'lishini har kim taqdirdan ko'radi. Adashgan, gumrohlari ham qilgan o'zlari qilgan amallarini yaratguvchi taqdiri deb biladilar. Shu nuqtada shoirning jabar va qadar masalalariga munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Ustoz adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqov Navoiyning islomiy, shar'iy dunyoqarashida jabariya va qadariya aqidalarining o'imi, namoyon bo'lishi, ijodidagi talqini xususida ravshan dalillangan tadqiqotlar yaratib, aniq xulosalarini bayon etganlar.⁹⁶ Albatta, ahli sunna val-jamoa c'tiqodidagi shoir jabariya tariqida ham, qadariya tariqida ham bo'lmagan. Ya'ni, har bir yaratilmish avvaldan belgilangan ilohiy taqdir bilan dunyoga keladi. Jabar ahli o'zlarini to'la mahkumi hukm hisoblab, hayotguzaronlikda hyech qanday mas'uliyat his etmaydilar. Ahli sunna esa insonga berilgan idrok, erk, tanlov huquqi nuqtai nazaridan taqdirga o'zgartirish kiritilishi mumkin, deb hisoblaydi. Masalan, inson umrining qanchaligi taqdir qilingan. Uni Yaratguvchigina belgilaydi. Ammo, o'zining hukmiga o'zi marhamati bilan o'zgartirishlar ham kiritib turadi. Masalan, sadaqa qilgan insonning umrini uzaytiradi (bu uzayish asosan umrning barakasida ko'rinadi), har yili qadr kechasida insonning bir yillik amallari hisob-kitobi yuzasidan kelgusi bir yillik taqdiri belgilanadi. Bunda mutlaq adolat namoyon bo'ladiki, Imom al-Buxoriy hazratlari o'zlarining "Al-jomi' as-sahih" asarlarida keltirishlaricha, payg'ambar alayhissalom o'zlarining hadisi shariflarida shunday xabar qiladilar: «Musulmonlar dunyoda yaxshilik ko'rsalar, Allohga hamd aytsin. Agar yomonlik ko'rar ekanlar, o'zlaridan ko'rsin, qilmishlari ularga qaytarilmishdir». Binobarin, yaxshilikni

⁹⁶Исҳоқов Ё. Нақибандия ва ўзбек адабиёти. –Т.: Абдулла Қодирий номидagi ХМН, 2002, 47-91-бетлар.

insonlarga faqat yaxshilik istovchi Yaratguvchidan, yomonlik ham Yaratguvchidan, ammo ba'zan insonning o'z fe'li va amali ham bunga sabab bo'ladi, deb bilgan shoir biz anglashga intilayotgan baytda Zol timsolini iyhom qiladi. Zol – hayotda adashganlar o'zlarining gumrohliklarini Yaratguvchi hukmidan bilib, unga xitob qilar ekanlar, haqiqatan, "c'tiqodda ham adashibdilar", deydi shoir:

Ro'ziy ortug' bo'lmag'in har kimki bilgay charxdin,
Zol yanglig'durki roziq charxini qilg'ay xitob.

Shoir Yaratguvchini dengizga qiyos qiladi. Hubob – har yil kech sumbulada suv yuzida aylanib, suzib chiqib ketadigan suv pufakchalari. Hubobning suv yuzida suzgani – u dengizdan ustun, yuqori degani emas. Chunki, suv – hayot manbai dengizdir. Qani hubob biror kimsaga bir qatra suv bersinchi?

O'farinish bahridin gardun hubobi besh emas,
Bormu imkon kimsaga bir qatra suv bermak hubob?

Hubob dengizdan hosil bo'ladi. Uning yaratilishi ham, imon-ixtiyori ham, taqdiri ham dengizga bog'liq. U o'zi uchun biror narsa qila olish qudratiga ega bo'lmaganligi sababidan o'z holiga hayron, boshini har tarafga uradi. Ana shu o'rinda shoirning qo'liga qalam olishi siri ochiladi. Shoir o'zini hubob timsolida tasavvur qiladi. Hubobning suv yuzida sirg'alib ketishidan maqsadi noma'lum. Haqiqat tolibining esa maqsadi ma'lum, ammo har qancha g'ayrat qilmasin, qasd qilganini topmog'i noma'lum. Shoir hubob taqdiri vasfini davom ettiradi:

Bo'lsa erdi qudratikim lahzae topqay qaror,
Tunu kun tinmay bu nav' etgaymu erdi iztirob?

Ul dog'i o'z holig'a hayron erur andog'ki men,
Anda ham sargashtaliq andoqki menda pechu tob.

Jismi oning ham havodis zarbasidin nilgun,
Topmayin maqsudini mendek necha aylab shitob.

«Nilgun» so'zini iyhom qilib, shoir hubobning ko'kishtob rangi va tolibning hayot zarbalaridan ko'karib ketgan taniga ishora qilyapti. Shoir keyingi baytda ham o'zining taqdirini hubob taqdiri bilan solishtirishda davom etadi. Taqdir qo'lidagi ikki sargashta bir-biriga hisob ham bermaydi, so'ramaydi ham:

Qudrat ilgida bo'lub ul ham zabun andoqki men,
Olmay ul mendin hisob, andoqki men andin hisob.

Maqta'da yana shoirming taqdir masalasidagi nuqtai nazari aniq, ravshan namoyon bo'ladi. U – solik, o'zini qiyoslagani hubob ham – solik. Hubob dengizdan hosil bo'ladi, demak, o'z manbaiga – dengizga intilmog'i lozim. Navoiy esa, faqatgina Haq vujudi mavjud ekanligini tushunsin. Shu vujudan mavjudlik topgan hamma narsa – mosivalloh, ya'ni yo'q bo'lib ketguvchidir. Solik aql va ilhom bilan Haqni tanidi, uning borlig'ida yo'q bo'lib ketishga intildi va bu borada ham Haq taoloning o'ziga tavakkul qildi:

Ey Navoiy, solik ersang Haq vujudin bil vujud,
Mosivallohn adam, vallohu a'lam bis-savob.

Shu tariqa, Yaratganning benihoya ojiz, sirli va yashirin mo'jizasi bo'lmish hubob Navoiy she'riyatining betakror badiiy timsollaridan biri sifatida yangi ma'no kasb etadi. Haqiqatan ham, hubobni hamma ham ko'ravermaydi. U yilda bir marta qish chillasi kelishidan oldin, kech tiyramohda dengiz, daryo yuzidan ko'kish ko'piklar yig'indisi shaklida suzib qayoqqadir o'tib ketadi. Uni

Yaratgan istaganlargina ko'rib qoladi. Xuddi shunday Yaratgan odamlar nazdida ojiz, sirli, yashirin mo'jiza bo'lmish orifini ham o'zi tanlaganlargagina tanitadi. G'ayr, begonalar ko'zidan rashk pardasi bilan to'sib qo'yadi. Orifni, solikni, tolibni taniganlar, ba'zan holini, ba'zan so'zlarini anglaganlar esa, u va Yaratgan orasidagi sirni muqaddas deb bilmoqlari, omonat saqlamoqlari lozim. Agar, aksincha bo'lsa, boshlariga ofat yetmog'i ehtimoli bor. «Lison ut-tayr» da shoir shu ma'noda ogohlantiradi:

Shart bukim, anglag'on sharh etmagay,
To tilidin boshqa ofat yetmagay.

Donishmand Navoiy shu g'azali orqali Tangri taolo o'zi yaratgan barcha maxluqot va maxluqot gultoji bo'lmish insonlar orasidan tanlaganlari bilangina sirlashadi, ma'rifatidan bahramand etadi, demoqchi.

Bu - Navoiy e'tiqod qilgan vahdatul vujud ta'limoti. Navoiy she'riyati muxlisi ham shoir dardini tinglash uchun tanlandimi, demak, sohibe'tibor bo'libdi.

16.

“Badoe' ul-bidoya”, 215 - g'azal:

Menda bir o'tdurki, gar dam ursam aflok o'rtanur,
Asrasam ko'nglumda jonu, jismi g'amnok o'rtanur.

Mehr emas ohim o'tidin ko'kka yetmish bir sharar,
Ayb emastur gar desam, dam ursam, aflok o'rtanur.

Bas tanim o'rtarg'a qonlig' novaking, hijronni qo'y,
Barq ne hojat, bir uchqun birla xoshok o'rtanur.

Sham' o'tin mohiyatin anglay degan parvonadek,
Orazing mehrini fahm aylarda idrok o'rtanur.

Ishq aro ko'nglum necha tolpinsa ortar sho'lasi,
O'tqa tushgan telba qilg'on soyi topok o'rtanur.

Ashk yub jismim kuduratdin, qurutmish oh o'ti,
Lam'ae tushgach uzoring barqidin pok o'rtanur.

Ey Navoiy, chun rutabdek otashin la'li aro
Xasta ko'nglum tushti, tong yo'q, gar bo'lub chok o'rtanur.

L U G' A T :

Novak – o'q, kamon o'qi; kiprik; o'q otmoq, jarohatlamoq

Topok – tipichilash, bezovtalanish

Kudurat – xiralik, g'ashlik, xafalanish; g'am, qayg'u; g'ubor;

Lam'a – shu'la, nur; malohat yog'dusi; sharq quyoshi, nuri;
sevgili yor

Rutab – ho'l, nam

G'azal bahri: ramali musammani mahzuf

Foilotun foilotun foilotun foilun

G'azalning nasriy bayoni:

1. Ichimda shunday o't borki, bir nafas chiqarsam, osmonu falaklar alanga olib ketadi. Agar uni yuzaga chiqarmay ko'nglimda asrasam, g'amda qolgan jonu jismim kuyadi.
2. Osmonda turgan narsa Quyosh emas, balki men "oh" urganimda ko'kka uchgan bir o't. Shu boisdan, har bir nafasim o'tidan falaklar yonadi, desam ayb bo'lmas.
3. Tanimni kuydirib yuborish uchun bir dona qonga bo'yalgan kiprik o'qing yetarli, hijron haqida gapirmay quyaqol.

Chaqmoqning ne hojati bor, xashakdek tanim yonib ketishi
uchun bitta uchqun ham kifoya.

4. Xuddi sham sho'lasi mohiyatini anglamoqchi bo'lgan parvonadek, quyoshdek yuzingni fahmiga sig'dirolmay aqlu idrokim kuyib kul bo'ldi.
5. Ko'nglim ishqing sari qancha talpinsa, shuncha sho'lalanadi, xuddi olov ustiga yiqilib tushgan telba har qancha tipirchilagani sari ko'proq kuyayotgandek.
6. Ko'z yoshlarim jismimdagi g'am-qayg'u g'uborlarini yuvib yubordi, ohlarim o'ti qurutdi. Chaqmoq kabi yuzingdan uchgan bir sho'la sabab butunlay kuyib ketdi.
7. Ey Navoiy, la'ldek yonib turgan ho'l lablari orasiga xasta ko'nglim tushib qoldi. Hyech ajablanadigan yeri yo'q, endi u yorilib-yorilib o'rtanadi, yonadi.

G'azalning umumiy mazmuni:

Adabiyotshunos olim Yo.Is'hoqov "Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti" nomli kitobida "...poktiynat va pokravish oshiq uchun majoz – haqiqatga erishish vositasi, o'sha yo'ldagi ko'prik", deya ta'lim berar ekan, payg'ambar (s.a.v.) ning "majoz haqiqatning ko'prigidir", degan mashhur hadislariga tayanadi va Hazrati Bahouddin Balogardonning mazkur hadis haqidagi fikrlarini keltiradi: "Aytar edilar: "Al-majozu qantaratu-l-haqiqat" shu narsaga ishoraki, barcha zohiriy va botiniy amallar, so'z va fe'l sen uchun hijobdir, to bu yo'lda yuruvchi bulardan kechib o'tmasa, haqiqatga yeta olmaydi".⁹⁷ Sharq orifona she'riyatida bo'lgani kabi Alisher Navoiy ijodida ham "mazhar ishq" ("ishqi majoziy") va "manba muhabbati" ("muhabbati haqiqiy") bir-birini taqozo etadi,

⁹⁷ Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Абдулла Қодирий н-ги ХМН, 2002. 21-б.

uyg'unlashadi, ammo ular orasidagi farq inkor etilmaydi. Shoirning biz e'tibor qaratayotgan g'azali bunga misol bo'la oladi.

G'azal ishqiy mavzuda yozilgan. Unda oshiqning mahbuba sog'inchi, hijroni iztiroblari tasvirlanadi. Uchinchi baytga yetgach, oshiqning "jonu jismidagi g'am" sabablaridan biri mahbubaning chiroyli kipriklari ekanligi ayon bo'ladi. Oshiq o'zining ojiz tanini xas-xashakka, ma'shuqaning uzun kipriklari va bir nazarini xashakni bir chaqnash bilan kuydirib yuboruvchi chaqmoqqa o'xshatadi.

G'azalning to'rtinchi bayti esa mohiyatni ayon etadi. Shoir bu baytda bevosita tasavvuf ramz va timsollaridan so'z ochadi. Birinchi misrada ongsiz parvona mo'jiza ko'ringan Sham' haqiqatini his etmoq uchun o'zini unga urib, uning tanida kuyib, erib ketganligi va maqsadga yetganligiga ishora etilsa, ikkinchi misrada bevosita Yaratguchi timsoli paydo bo'ladi. Shoir oshiqning Mutlaq Go'zallik sohibi bo'lmish Xoliqqa mehrini shu timsollar va ular taqdiriga tashbeh etadi. Ishq haqiqatini anglash yo'lida mashaqqat chekayotgan oshiq uchun aql-idrok ham ojiz ekanligini bayon etadi. Bu tasavvufning o'zak masalalaridan biri. Tangrini toat bilan ham, aql-idrok bilan ham topib bo'lmaydi. Yaratguchini ilm bilan, aql kuchi bilan tanib olaman, deyish metafizika tarafdorlari aqidasi. Tasavvufda esa Tangrini topish uchun toat, aql-idrok bilan birga pok, ravshan va kuyuk ko'ngil kerak. Haqqa oshiqning yoki ma'rifattalab orifning qalbi mahbuba jilva qiluvchi makon va uni muhabbat otashi yoritadi. Tasavvuf bilimdoni buni shunday tushuntiradi: "...orif qalbining ma'rifati va u orqali ilohiy ruh manbaining beqiyos go'zalligini idrok etishga faqat qalb va ruh qodirdir; aqliy mushohada, mantiqiy-tafakkuriy bilish usuli bunga qodir emas". Olimning yana ta'kidlashicha, "Navoiy ibora-timsollarida har doim ikki ma'no – orif qalbi va ruhi mutlaq birgalikda ko'zda tutiladi, zero orif qalbi oliy zot manbaiga olib boradigan bir vosita, ko'prik deb qaralgan".⁹⁸

⁹⁸ Najmiddin Komilov. Kўrsatilgan asr, 164-bet.

Keyingi bayt Navoiy qalami badiiy qudratini beqiyos tarzda namoyon etgan. Tasavvuringizga keltiring, ko'ngil shaxslantirilyapti: Ko'ngil – telba, u olovga yiqilib tushdi. Kuyar ekan, u qancha ko'p tipirchilasa, gulxan o'ti shu'lasi shuncha ziyoda bo'ladi:

Ishq aro ko'nglum necha tolpinsa ortar shu'lasi,
O'tqa tushqon telba qilg'an soyi topok o'rtanur.

Keyingi bayt yana haq yo'liga yuruvchiga ko'rsatma – Haq oshig'i o'z jisini ko'z yoshlari bilan yuvib poklamog'i, ko'p "oh" tortaverganidan uning jismi qurib, chaqmoqdan bir uchqun tushishi bilan kuyib kul bo'lmog'i lozim. Chaqmoq – baytda mahbuba (Xoliq) timsoli. Oshiqning talab yo'lida tinimsiz ko'z yoshi to'kmog'i lozimligi tariqatda qalb poklanishining asosiy vositasi hisoblanadi. Naqshbandiya tariqatining XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi yirik murshidlaridan biri Xoja Muhyiddinxon Urgutiy (q.s.) o'zining "Maktubot" asarida ma'rifattalabning dili kuyuk, ko'zi mudom yoshli, tani iztirob ichida bo'lmog'i lozim ekanligini ta'kidlaydi.⁹⁹ So'z yuritilgan bayt:

Ashk yub jismim kuduratdin, qurutmish oh o'ti,
Lam'ae tushgach, uzoring barqidin pok o'rtanur.

Navoiy ko'p g'azallarida ko'zyoshlari timsolini rang-barang mazmun ifodasi uchun istifoda etadi. Chunonchi, bir g'azalida u ko'z yoshlarini bebaho durga qiyoslaydi va favqulodda qiziq bir lavha yaratadi. Bu lavhadan shunday ma'no anglanadi: ko'zyoshlarimni, garchi ular durlarga o'xshasalar-da, ishqimga mahram qila olmayman. Buning sababi shuki, ularning asli yaratilishlari ko'z yoshi, qimmatbaho javohirotdan emas. Yana bir

⁹⁹ Qarang: Шайх Мухиддинхон Ургутий. Мактубот, – Тошкент: Манароуинахр, 2006.

sababi, ular ishqqa mahramlikka hali kichik yoshlik qiladilar. "Yosh" so'zidan shoir iyhom san'atini yaratadi. Sharhlangan bayt:

Ko'z yoshim durri yatimin mahrami ishq aylamon,
Har nechakim pok gavhardur, valekin yosh crur.

O'rganayotgan asosiy g'azalga qaytsak. G'azal maqta'ida shoir "mening xastalikdan terga botib, ho'l, nam bo'lib (rutab) yotgan ko'nglim ma'shuqamning olovday yonib turgan lablariga tushti, olov barcha narsani kuydirib, kul qilgani kabi, ko'nglimni ham kuydirib, tuproq qilib yubordi", degan mazmundagi fikrni ayon etadi. "Xok", "tuproq", "adam" so'zlari ma'nosini "yo'qlik" ekaniga ishora etar ekan, shoir maqsad yo'lida oshiq o'zligini mahv etmoqligi lozimligini ham aytganday bo'ladi:

Ey Navoiy, chun rutabdek otashin la'li aro
Xasta ko'nglum tushti, tong yo'q, gar bo'lib xok o'rtanur.

Ma'lum bo'lganidek, ushbu g'azalda zohiran dunyoviy ishq kuylangan. Ammo undagi zohiriy ma'no-mazmun ijodkor asosiy maqsadini ochib beruvchi kalitdir. Modomiki, "real dunyo Mutlaq ruh in'ikosi ekan, demak uni sevish va undan bahra olish mumkin. Shu asosda insonning insonga muhabbati ham tabiiy va zaruriy deb topilgan, ya'ni majoziy ishq orqali ilohiy ishqqa qarab borish. Navoiy o'zini ana shu "ishqi majoziy" kuychilari sirasiga kiritadi".¹⁰⁰

Hazrat Alisher Navoiy she'riyati faqatgina kishiga estetik zavq beruvchi vosita bo'lmay, insonning ongi, shuurini uyg'otuvchi, tafakkurini charxlovchi, ilmi va dunyoqarashini boyituvchi, e'tiqodini oshiruvchi noyob ilmiy manbadir.

¹⁰⁰ Нажмиддин Комиллов. Кўрсатилган асар, 171-б.
200

"Badoc' ul-bido'ya", 641 - g'azal:

Vahki, umrum borcha zoyi' bo'ldi el komi bila,
Bodai nob o'mida xunoba oshomi bila.

Kimsa yuz yil komronliq qilsa, bilkim, arzimas
Dahr aro bir lahza bo'lmoqqa birov komi bila.

Zahrni o'z komi birla ichsa ondin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomliq jomi bila.

Yuz dilorom aylagandin ravza hibsi yaxshiroq
Bo'lmoq o'z vayroni ichra ko'ngli oromi bila.

Ey ko'ngul, el subhi ayshi sori boqma, xo'y qil
Fardlig' vayronida mehnat qaro shomi bila.

Qushqa yung maskan aro xushroqdurur ozodlig',
Bo'lg'onidin band aro sayyod ipak domi bila.

Bo'lmoq itlar mun'imi tan to'ma aylab yaxshiroq,
Tanni qilg'uncha samin nokaslar in'omi bila.

Johu markab birla, eykim, bormading maqsad yo'lin,
Qat' o'lur beto'shalig' zodi fano komi bila.

Ey Navoiy, huzn ila o'tkar qoriliq mehnatin,
Chun yigitlik bordi ayshu ishrat ayyomi bila.

L U G' A T :

Ravza – bog', bog'cha; jannat; mozar, ziyoratgoh; bob, bo'lim

fasl

Hibs (habs) – qamash; hibsga solish; qamoqxona, zindon

Fardlig' – yagonalik, birlik, toqlik

Mun'imi – ne'mat beruvchi, rizq beruvchi, saxovatli

Joh – mansab, amal, martaba; davlat, boylik; buyuklik, sha'n-sharaf, shavkat, e'tibor

Beto'shalig' – oziq-ovqatsizlik, yemak-ichmaksizlik; yo'l anjomisizlik

Zodi – oziq-ovqat; dastmoya; ruhiy ozuqa; safar asbobi; bola, farzand, avlod

Huzn – ham, qayg'u, xafalik, g'amginlik

G'azal bahri: ramali musammani mahzuf

Foilotun foilotun foilotun foilun

G'azalning nasriy bayoni:

1. Essiz, butun hayotim el murodi maqsadi yo'lida zoyi' bo'ldi. Tiniq sharob o'rmda qon yuttim.
2. Ammo xulosam shu bo'ldiki, biror kimsa yuz yil davru davron surganining shodligi bir lahza birovning dardiga hamdard bo'lish xursandchiligiga arziyas ekan.
3. Tiriklik suvini birovning qo'lidan ichkandan ko'ra, o'z og'zi bilan zahar ichgan yaxshiroqdir.
4. Yuzlab go'zallar bilan ko'ngilxushlik qilgandan ko'ra, o'z bog'ida sokin bo'lgani, vayrona bo'lsa ham, o'z xonadonida bitta ko'ngliga orom beruvchi yor bilan birga bo'lgani yaxshi.
5. Ey ko'ngil, elning subh kabi rohat va farog'at ichida ekanliklari bilan ishing bo'lmasin. Yakka o'zing vayronangda qaro shom kabi mehnat, ya'ni g'am ichra bo'lgil.
6. Qush ovchining ipak qafasidan ko'ra, tikanlardan yasalgan uyasida o'zini ozod sezadi.

7. Odamgarchiligi yo'q, pasttabiatli zotlarning sovg'alarini kiyib, tanni bezatgandan ko'ra, itning tuvagiga solingan taomga sherik bo'lgan yaxshiroq.

8. Ey inson, mansab-martaba, ulov bilan band bo'lib, haqiqiy maqsad yo'lga kirmading. Ammo bu yo'lning safar anjomi, ruhiy ozuqasi – o'zlikdan qutulib, yo'qlikni maqsad qilmoqdir.

9. Ey Navoiy, endi qariligingni hazinlik, g'am bilan o'tkaz. Chunki yigitliging ayyomi ayshu ishrat bilan o'tib ketti.

G'azalning umumiy mazmuni:

Alisher Navoiy o'z umri va jamiyat hayotiga nazar tashlar ekan, uning bebaho hamda inson uchun baxt manbai emasligiga ishonch hosil qiladi. Biroq, u jamiyatdan yuz o'girishni xayoliga keltirmaydi. Balki, qanoat, sabr kabi fazilatlar vositasida insonni yaxshi axloq va ibratli hayotga tashviq etadi. Uning bunday fikrlari ijtimoiy ruhdagi she'rlarida o'z aksini topgan. Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, Tangri taolo yaratgan narsalar ichida eng sharaflisi insondir. Inson o'ziga nasib etilgan umrni behuda emas, ongli kechirishi, shu bilan birga u erkin va xudo manzuri bo'lishi lozimdir. Shoir shaxs erkinligi masalasini bir necha yo'nalish bo'yicha ta'riflab beradi. Birinchidan, inson ijtimoiy jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham erkin bo'lishi kerak:

Qushqa yung maskan aro xushroqdurur ozodliq,
Bo'lg'onidin band aro sayyod ipak domi bila.

Zahrni o'z komi birla ichsa andin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomliq jomi bila.

Ikkinchidan, erkinlik shaxsning o'z vatani bilan bevosita bog'liq bo'lib turgan paytda qo'lga kiritiladi. Ya'ni, inson o'z sevimli maskanidan chekkada haqiqiy erkin bo'la olmaydi:

Yuz dilorom aylagandin ravza hibsi yaxshiroq,
Bo'lmoq o'z vayroni ichra ko'ngli oromi bila.

Masalaning boshqa, uchinchi bir tomoni ham borki, shaxs ozodligi faqat ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan birovga mutlaq bo'lmaslikdangina iborat emas. Shaxs komil erkin bo'lishi uchun o'zini ruhan poklashi, harom-harishdan, barcha salbiy xususiyatlardan nafratlanishi, adolat, haqiqat sari intilishi lozim. Chunki, ruhiy poklikka mol-davlatga ortiqcha hirs qo'yish bilan ham, mansab yoki birovning qo'llashi bilan ham erishib bo'lmaydi. Biz yuqorida keltirib o'tgan baytlar mavjud bo'lgan g'azalning davomida ham shunday fikrlar bayon etilgan satrlar mavjud. Navoiyning bunday orifona g'azallarida katta ma'rifiy, axloqiy ahamiyatga molik fikrlar uchraydi:

Bo'lmoq itlar mun'imi tan to'ma aylab yaxshiroq,
Tanni qilg'uncha samin pokaslar in'omi bila.

Shu tariqa, Hazrat Alisher Navoiy o'zining pandu o'gitlardan iborat ushbu g'azalida shaxs erkinligi konsepsiyasini mukammal bayon etib beradi.

18.

"Badoe' ul-bidoya", 598 - g'azal:

yctishti bayramu daf' etti ro'za qayg'usin,
Shamol musqili yog'utti boda ko'zguzin.

Sipehr jomi hiloliga jilva berdi magar,
Ki boda zabt eta olmas nashot kulgusin.

Magarki qildi shabistonga azm shohidi iyd,
Ki to'kti charx ayog'iga axtar injusin.

Dalil rohi shafaq rangu jomi miynoni,
Shafaq mayini ko'ru charx jomi miynusin.

Farog'ate tilar ersang, kup og'zi xishtini ol,
Ushat bu xisht bila zuhd nangu nomusin.

Saharki, xalq Musallog'a yuz qo'yar, xush tut,
Borurga dayri fano sari tong qorong'usin.

Navoiy, ich qadahu foniy o'lki, topti baqo,
Biravki, topmadilar el so'rog'u belgusin.

L U G' A T :

Musqil – sayqal, jilo beruvchi; yorituvchi

Yog'utmoq – yog'dirmoq

Nashot – shodlik, xursandchilik

Jom (jomi miyno) – qadah, may piyolasi; bu yerda: shafaq rangli jom

Kup – xum, may quyiladigan katta sopol idish

Musallo – namoz o'qiydigan joy, masjid, namozgoh; joynamoz

G'azal bahri: hazaji musammani maqsur

Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun mafo'iy

G'azalning nasriy bayoni:

1. Ramazon hayiti keldi-yu, ro'za tutish mashaqqatini ketkazdi. Yana sharobning tiniq yuzida yangi oy nuri o'ynay boshladi.

2. Yangi oy jomini jilvalantirgan falakdir, vaholanki bunday shodlikni may hosil qila olmaydi.
3. Ramazon hayiti shohidi bo'lmish Hilol qorong'u osmonda paydo bo'lar ekan, charx uning oyog'i ostiga injudek yulduzlarni sochib yubordi.
4. Bunga dalil shafaq rangli yo'ldagi osmon jomi. Ishonmasang, shafaq mayini bir ko'ru, falaklar tutgan jomni ham bir ko'r.
5. Endi agar rohat istasang, may xumi og'zida turgan g'ishtni ol-da, may ich va shu g'isht bilan riyokor zohidning hiylasini oshkor et, uyaltir.
6. Sahar payti el ibodat uchun joynamozga bosh qo'yar ekan, sen yo'qlik dunyosi sari yo'l olmoqlik paytini g'animat bil.
7. Ey Navoiy, haqiqiy ishq mayidan ichu, o'zlik yukidan qutulib, o'zingning g'am-tashvishingdan forig' bo'lib, yo'qlik sari yuz tut. El umuman tanimagan, e'tiborda tutmagan, biror jihatdan eslamagan kimsa boqiy hayot topadi.

G'azalning umumiy mazmuni:

Islom dinida farz sanalmish shariat ahkomlaridan biri ramazon ro'zasini tutishdir. Har bir mo'min uchun ma'naviy va jismoniy poklanish, e'tiqodini tarbiyalash vositasi bo'lgani sababli ham bu muborak oy yuksak ruhiy ko'tarinkilik, bayramona kayfiyat bilan o'tkazilgan, uning ilohiy fazilatlarini tarannum etilgan. Hazrat Alisher Navoiy nazmiyotlarida orifona va oshiqona, ijtimoiy mavzulardagi, alohida shaxslarga bag'ishlangan turli xil va turdagi g'azallar qatorida ro'zai ramazon, iyd qurbon bayramlari tarannum etiluvchi nazmiyot durdonalari ham uchraydi. Piri komilning «Badoe' ul-bidoya» devonlaridagi:

Yetishti bayramu daf' etti ro'za qayg'usin,
Shamol musqili yog'utti boda ko'zgusin.

matla'li g'azallarida ixlos bilan dil, til va tan ibodatlarini ado etgan musulmonlarning muborak ramazon oyi oxirgi tunini kuzatib, iyd saharini kutib olishlari tasvirlangan. Ammo, matla' mazmuniga e'tibor berar ekanmiz, shoirning zuxdu taqvo, ta'magirona ibodatdan bezgan, o'zining xos o'quvchilarigagina tanish va sevimli bo'lgan lirik qahramoni ko'z o'ngimizda jonlanadi. Zohidu avomning namoyishkorona ibodatlarini tugagan bayram kuni ahli dil yana boda to'la jomni ilgiga oladi. Mayning jilvalanib turgan yuzida uch kunlik oy misoli ma'shuqa jamoli gavdalanadi, balki ma'shuqa jamolining yog'dusi vahdat mayi to'la bo'lgan oshiq ko'ngli jomini jilolantiradi. Axir, ahli dil nafslarini tiyish, imonini sayqallash muddati sanalmish bir oylik ro'zai ramazon o'zini nimalardan pokladi? Uning qalbi Haq taolo muhabbatidan limmo-lim, o'zligidan asar ham qolmagan bo'lsa?! Haq taoloni topib, uning mohiyatiga singib ketgan so'fiy uchun avomga xos ramazon ro'zasini tutish qayg'udan boshqa narsa emas. Chunki, uning foni dunyodagi butun umri ro'za tutishdangina iboratdir. Buning mukofoti ham avom ro'zasining mukofotiga o'xshamaydi. Avom tutgan ro'zasining mukofoti sifatida Alloh taolo roziligi va jannatidan umidvor bo'ladi. Ahli xos esa mahbubi mutlaq visolini talab qiladi. Avom jannat ne'matlariga u dunyoda erishsa, xos oshiq uchun esa tiriklik, o'lim, o'limdan keyingi hayot degan tushunchalar qolmagan, boqiy dunyo mohiyatini u allaqachon tushunib yetgan. U jismonan mavjud bo'lsa ham, o'zining tasavvurida nomavjud, faqat ruh olamidangina iboratdir. Demak, bu ruh o'z mabda'iga intilaveradi va nihoyat, vahdatga erishadi. Uning uchun eng oliy mukofot ana shudir. Shu sababdan ham xos oshiqqa avomning bir oygina davomida o'zini yomon nafslarini ma'lum darajada tiyib, bayram qilayotganligi erish tuyuladi va betoqatlik bilan «etishti bayramu daf' etti ro'za qayg'usin...», deyda hayqiradi. Biroq, oshiq

qalbida kechayotgan bu hayajonlardan qat'iy nazar, tabiat bayram tongini qarshilayveradi:

Sipehr jomi hiloliga jilva berdi magar,
Ki boda zabt eta olmas nashot kulgusin.

Falak shu qadar qorong'u bo'ldiki, jomi hiloliy (may to'la jomga o'xshab ko'ringan Oy) nihoyatda jilolandi, chunki qora rang oqlikni yanada ravshanroq ko'rsatadi. Vaholanki, bayram tongi zavqi, shodligini boda ham bosa olmaydi. Iyd shohidi bo'lmish yangi Oy qorong'u tunda paydo bo'lishi bilan charx uning suyunchisiga inju kabi yulduzlarini sochib yuboradi:

Magarki qildi shabistonga azm shohidi iyd,
Ki to'kti charx ayog'iga axtar injusin.

Shoir iyd tuni manzarasini tasvirlar ekan, yana yangi tashbeh, yangi lavhalar chizishda davom etadi: zangori jom rangiga shafaqning zangori yo'li guvoh bo'ldi, lekin, sen shafaq mayini va falakning shisharang jomini solishtirib ko'rchi, qay biri ustun ekan:

Dalil rohi shafaq rangu jomi miynoni,
Shafaq mayini ko'ru charx jomi miynusin.

Shundan keyingi baytlarda shoir o'z ijodiy an'anasiga ko'ra lirik tasvirdan chekinib, she'rga ijtimoiy-falsafiy tus beradi:

Farog'ate tilar ersang, kup og'zi xishtini ol,
Ushat bu xisht bila zuhd nangu nomusin.

Kup – may solinadigan idish, uning og'ziga g'isht («xisht» - forsha so'z, turkiysi «kirpich») qo'yib qo'yiladi. Baytning zohiriy ma'nosi shuki, kup og'zi g'ishtini ol-da, shu bilan ta'magir zohidning nomusini urib sindir, riyokordan qutulib ko'ngling taskin

topadi, deyiladi. Biroq, baytga chuqurroq e'tibor qilsak, uning ikkinchi ma'nosi ham ayon bo'ladi: kup og'zi g'ishtini ol, uning ichidagi vahdat sharobidan ichsang, Yorga yetishasan va farog'at topasan. Sening bunday baxtdan sarafrozu sarxushligingni ko'rib, benasiba zohid uyatu nomusdan adoi tamom bo'lsin. Keyingi baytda shoir fikrini davom ettirib, mubolag'a qiladi: sahar chog'i xalq ibodat qilish uchun joynamozga bosh qo'yar ekan, sen bu damni g'animat bil va o'tkinchi riyoiy dunyodan qochib qol:

Saharki, xalq Musallog'a yuz qo'yar, xush tut,
Borurga dayri fano sari tong qorong'usin.

Tasavvufning hayotsevar naqshbandiya tariqatiga mansub bo'lgan Navoiyning eng kichik fardlaridan tortib barcha asarlarida ushbu tariqatning o'zak masalalari targ'ib etiladi. Mazkur g'azalda ham hayot ne'matlaridan voz kechib, umrni yolg'iz toat-ibodat bilan uzlatda o'tkazish Yaratganning xohish-istagiga ham zid ekanligi badiiy lavhalar orqali tasvirlanadi. Hali naqshbandiylik tariqati dunyoga kelishidan ancha ilgari Yusuf Bolosog'unliy aytgan «Tangrini toat ila topmas quli» hikmati – ibodat dildan bo'lishi lozimligi, namoyishkorona ibodat esa shuhrattalablik, munofiqlikdan boshqa narsa emas ekanligini uqtiradi. Xuddi shu ma'noda mashhur so'fiy Jaloliddin Rumiy tariqat yo'liga kirgan so'fiylarga shunday deydi: «Muftilar har qancha fatvo bersalar ham, sen olimning fatvosiga quloq os». Zero, Ollohni tanimay turib, gumrohona ado etilgan ro'za ham, namoz ham suratdan o'zga narsa emas ekan. Haqiqiy ibodat Haq vaslidan ogohlik bilan pinhona qilingan ibodatdir. Naqshbandiylik tariqati yo'lchisi o'zi qaerda, qay maqomda va qay tarzda bo'lmasin, biror dam tangri ibodatidan forig' bo'lmaydi va bu faqat uning o'zigagina ayondir. U tangri qoshida juda ulug' martabada bo'lishi mumkin, lekin bundan xalq bexabar bo'lishi lozim. Uning talabi gumnomlikdir. Ya'ni, shuhratdan, xalqqa tanilishdan qochish. Chunki, shuhrat dilni

o'ldiruvchidir. Hazrat Navoiy mansub bo'lgan so'fiylik tariqatining xuddi ana shu hukmi biz tahlil etayotgan g'azalning maqta'sida namoyon bo'ladi:

Navoiy, ich qadabu foni o'liki, topti baqo,
Biravki, topmadilar el so'rog'u belgusin.

Navoiyning mazkur she'ri zohiran ramazon hayiti shodligiga bag'ishlangan g'azal namunasi bo'lib ko'rinsa-da, aslida uning har baytida shoirning g'oyaviy intilishlari, ideallari aks etib, misralarda pinhona yotgan navoiyona dard uchqunlari ziyrak she'rxonni hayratga soladi. Hazrat Navoiy ijodlari boqiy hayratdir. Xullas, Hazrat Alisher Navoiyning ulug'ligi shundaki, u she'rlarida INSON haqida fikr yuritadi. Bu fikr doirasi esa har qanday milliy, diniy, mazhabiy, mafkuraviy hududlarni yorib chiqadi. Shu nuqtai nazardan uning har bitta bayti katta bir risolaviy tadqiqotni talab qiladi.

19.

“Navodir un-nihoya”, 132 - g'azal:

Ey jamoling mehriddin ravshan azaldin to abad,
Zarra yanglig' ul yorug'luq ichra sargardon xirad.

Kunhi zotingdin xirad gar bo'lsa a'mo ne ajab,
Zarrag'a yuz ming quyosh mohiyatin bilmak ne had.

Ham xirad nuri topib husning quyoshidin dimog',
Ham vara' zo'ri olib zikring g'izosidin jasad.

Senga tolib kimki azmi Ka'ba aylar yo'qsa dayr,
Sen murodi kimki zikr ichra sanam der yo samad.

Xalq raddi ne ziyon topqong'a lutfungdin qabul,
El qabulidin ne sud oniki qahring qilsa rad.

Bo'lmag'ay mumkin zalolat chohidin chiqmoq kishi,
Lutfung ilgi rishtai tavfiq ila qilmay madad.

Quvvatingning ojizi gar pili tan, gar sheri zo'r,
San'atingning sho'lasig' gar guljabin, gar sarvqad.

Ham munajat ahlining ko'nglida biyming behisob,
Ham xarobat ahli joninda umiding beadam.

Jurmu isyon chohidin chiqmoq Navoiy iltimos
Sendin aylar, negakim, yo'qtur sanga kufvan ahad.

L U G' A T :

Xirad – aql, fikr, idrok, donish; tushuncha

Kunh – asl haqiqat, mohiyat; zot asli, mohiyati, o'zligi

A'mo – ko'r, so'qir; bilimsiz, nodon, bexabar; ojizlik qilmoq

Vara' – taqvo, parhyezkorlik, xudojo'ylik

G'izo – oziq-ovqat, yegulik, taom

Samad – abadiy, jovidon; xudo sifatlaridan biri

Biym – xavf-xatar, qo'rqinch, vahm, tahlika; bu yerda:

xavotirli umid

Kufvan ahad – (kufv – teng, barobar, o'xshash); bu yerda:
(aslida “kufuvan ahad”) yo'qtur sanga kufvan ahad – senga hyech
bir teng yo'qdir

G'azal bahri: ramali musammani mahzuf

Foilotun foilotun foilotun foilon

G'azalning nasriy bayoni:

1. Ey parvardigori oliy, jamoling quyoshidan azaliy va abadiy borliq nurga cho'mdi. Ammo bu nur ichida mening aqlu tafakkurim nur manbaini topolmay va hyech narsani tushunmay sargardon kezmoqda.
2. Zoting mohiyatini anglamoq yo'lida aql ko'r, ojiz bo'lsa, hyech ajablanarli yeri yo'q. Kichik bir zarra yuz mingdan ham ziyod quyosh mohiyatini anglamog'i mumkinmi?!
3. Aql nuri sening husning quyoshidan kuch olmish, Taqvoning kuchi sening zikring tufaylidir.
4. Ka'ba sari azimat aylagan mo'min ham, dunyo ishqida bo'lgan inson ham sening marhamatingdan umidvor, talabgor. "Sanam" deb zikr etuvchi butparastning ham, "Samad" deb seni etuvchining ham ibodatdan yagona murodi sensan!
5. O'z lufu marhamating bilan siylaganing insonni xalq rad etsa, buning unga hyech ziyoni yo'q. Binobarin, o'z qahru g'azabing bilan rad qilib turganing insonni el e'zozlar ekan, buning unga hyech bir foydasi bo'lmaydi.
6. Agar sen marhamatli qo'llaring bilan tavfiq ipini uzatmas ekansan, hyech bir kimsa zalolat – tubanlik chohidan chiqa olmaydi.
7. Sening betimsol quvvatingning eng ojiz bir ko'rinishi filtanli maxluq yoki kuchli sher bo'lishi mumkin. San'atingning bir ko'rinishi esa bir gulyuzli yoki bir sarvqadli go'zal bo'lishi mumkin.
8. Senga yalinib iltijo qiluvchilarning ko'nglida xavotir to'la umid behisob. Xarobotda tinimsiz zikru ibodat bilan mashg'ul sufiylar joni ichra umiding behad, behisob.
9. Navoiy ham bu dunyoga kelib qilgan gunohu isyonlari chohidan chiqmoq uchun sengagina yalinadi. Chunki

borliq yo'qliqda senga teng keluvchi yo'qdir!!! Ma'nosi:
O'zing yagona yaratguchisan!

G'azalning umumiy mazmuni:

Ushbu g'azal Hazrat Navoiyning munojot ruhidagi hamdlaridan biridir. Shoir Buyuk Yaratguchini qator mushohadali misollar keltirib, birin-birin sifatlab maqtar ekan, shu hamdlar mag'ziga o'zining umidli iltijolarini ham singdirib yuboradi. Matla'da aql hamma narsani ham bilavermaydi, qudrati yetmaydi, ayniqsa ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan g'oyibni bilolmaydi, mazmunidagi tezis yotadi. Bu fikmi shoir bir o'rinda shunday ifodalagan: Aql g'ayb ilmida a'modurur, Ne bilg'usi, tongla kelur nedurur. Keyingi baytda bu fikr rivojlantiriladi: bir zarra yuz quyoshni anglamoqqa qodirmi?! Endi "Aql – murdir", degan mazmun yangi o'xshatishlar bilan ifodalanadi. Ya'ni, u sening husning quyoshidan bir zarra nur olgani bois shuncha havolanib ketti. G'azalning keyingi baytlarini shoir ijodiy laboratoriyasida sodir bo'lgan bir hodisa sharhi vositasi bilan tushunishga harakat qilamiz.


Shoirming bu mashhur hamdi ham ikki matnda mavjud. Navoiy e'tiqodi, ilohiyotni falsafiy idrok etishi yoxud panteizmi barkamol namoyon bo'lgan ushbu g'azalning to'rtinchi bayti «Navodir un-nihoya» devonida quyidagicha:

Senga to'lib kimki azmi Ka'ba aylar, yo'qsa dayr,
Sen murodi kimki zikr ichra sanam der, yo sarnad.

«Navodir ush-shahob» da baytdagi «zikr» so'zi o'rinda «dayr» so'zi keladi. Chunki, Yaratguchining sifatlaridan biri bo'lmish «samad» so'zi zikr ichida aytiladi. Zikr musulmon avliyolarining ibodat turlaridan biri. Demak, «dayr» so'zining ikkinchi misra'da qaytarilishi birinchi misra'dagi fikrning mantiqiy davomini ta'minlaydi. Ya'ni, baytda har misra'da mustaqil, xabar mazmunidagi tugal fikrlar ifoda etilib, birinchi misra' mazmuni

quyidagichadir: «Ka'ba sari otlanganlar ham, «dayr» deguvchilar ham sendan umidvor, marhamatingga intizordurlar».

Ikkinchi misra'da g'azalning birinchi variantidagi «zikr ichida sanam yoki samad» deguchi iboralari - ibodat etuvchilar ma'nosida tushuniladi. Bayt kompozitsiyasi psixologik parallelizm san'ati asosida qurilganligi bois, bu misra'da «sanam» deguvchi butparast obrazi ham ishtirok etadi. Baytning g'azal birinchi variantidagi leksik-stilistik strukturasi ushbu kontrast obrazlar joylashuvining sxematik ko'rinishi quyidagicha:




«Zikr» so'zi «sanam» yoki «samad» deguchi shaxsni «ibodat etuvchi», degan ma'noda tushunishga olib keladi. Demak, baytning ikkinchi misra'sida ikki xil tafakkurdagi obidlar obrazi namoyon bo'ladi (ya'ni, butparast va mo'min). Misra'da tazod obidlarning diniy dunyoqarashi yuzasidangina yaratilgan. Ammo, baytning birinchi misra'sida tom ma'noda ikki qarama-qarshi obraz tasvirlangan. Fikr grammatik ifodasidagi «yo'qsa» - fe'li mohiyatan butunlay qarama-qarshi shaxslar xususida gap ketayotganligini ta'kidlaydi, ya'ni ular Alloh taolaga intihuvchi mo'min va foni dunyoga mayl qo'ygan dunyoparast obrazlaridir.

Matnda «zikr» so'zi o'miga «dayr» so'zi keltirilgach esa, ikkinchi misra'da ham undan oldingi tasvir muqobalasida kontrast obrazlarning yorqin ifodasiga erishiladi. Bu o'rinda baytning birinchi misra'sida «dayr» - ibodatgoh, ikkinchi misra'da esa dunyo, borliq ma'nosida keladi. Misra'ning yangi variantida «sanam» so'zi real ma'shuqa obraziga ishora etib, unda bir ma'nodagi (ya'ni, ibodat etuvchi ma'nosidagi) ikki obraz emas, balki bir-

biriga tamoman zid bo'lgan - o'ltinchi dunyo havasidagi dunyoparast va Alloh taolo talabida bo'lgan orif obrazlari ishtirok etadi.

Bundan tashqari, baytda «Sen murodi kimki dayr ichra sanam der, yo samad» deyish bilan shoir g'oyaviy maqsadining mubolag'ali, yuksak emotsional formadagi ifodasiga ham erishiladi. Chunki, zikr etuvchining murodi - u butga sig'inadimi yoki yagona Xoliqqami - Yaratguchiga intilishdan iboratdir. Ammo, keyingi matndagi fikr «obid mo'min ham, dayrda bir sanam ishqiga mubtalo oshiq ham Sendan marhamat kutadi», degan ma'noni bildiradi. Shu jihatdan baytning keyingi matni sxematik tasviri quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Demak, bu matn variantida baytda psixologik parallelizmining mukammal ko'rinishda aks etishi, shu munosabat bilan tasdir san'atining ham chiroyli namunasi ko'zga tashlanadi.

G'azalning beshinchi baytida ko'ringan tafovutlar ham fikmi sodda, xalqona ifodalash maqsadida saralanishi mumkin. «Navodir un-nihoya» da:

Xalq raddi ne ziyon topg'ong'a lutfungdin qabul,
El qabulidin ne sud oniki qahring qilsa rad.

«Navodir ush-shabob» da:

Xalq raddidin ne g'am topg'ong'a lutfungdin qabul,
El qabulidin ne sud oniki qahring qilsa rad.

Baytda «xalq raddi ne ziyon» jumlasining «xalq raddidin ne g'am» birikmasi o'mida kelishi bilan tasvirming mubolag'ali ifodasiga erishiladi.

G'azalning yettinchi bayti matnlari qiyosida ham xuddi shunday - mubolag'aning kuchaytirilgani hodisasini sezish mumkin. Ya'ni, fil tanli

pahlavon ham, eng kuchli sher ham sening quvvating oldida ojiz, hyech narsaga arzimaydi. Guljabin va sarvqad go'zallar esa san'atkorligining birgina qirrasidir, deyiladi baytning birinchi ko'rinishida. Uning keyingi shaklida esa guljabin va sarvqadlar haqidagi fikr yanada rivojlantirilib, ularning faqat tashqi tavsifi emas, balki botiniy kamoloti ham, ya'ni, tangri taologa shukr aytuvchi ekanliklari ham ta'riflanadi:

Quvvatingning ojizi gar piltan, gar sheri zo'r,
San'atingning sho'hasi gar guljabin, gar sarvqad.

Tahdiliy matn:

Quvvatingning ojizi gar piltan, gar sheri zo'r,
Minnatingning shokiri gar guljabin, gar sarvqad.

G'azal shoiming tangri taologa bo'lgan dardli iltijosi bilan tugaydi:

Jurmu isyon chohidin chiqmoq Navoiy, iltimos
Sendin aylar, negakim, yo'qtur senga kufvan ahad.

20.

"G'aroyib us-sig'ar" 338 - g'azal:

Hajri tobi ichra kim ko'rdi bu jismi zordek,
Kim topibdur barq shakli o'tqa tushg'on tordek.

Ey kabutar, tavq paydo aylagung qumri kibi,
So'zliq nomamni ossam bo'yununga tumordek.

Bo'ldi yuz ming pora jismimda so'ngak, qon qolmadi,
Molishi hajringdin o'lmishmen siqilg'on nordek.

Vah, ne hijrondurki, ham avval tunining tonglasi
Bo'lmisham yillar malolat tortqon bemordek.

Ey ko'ngul, dayr ichra ul kofimi sevding, bilki yo'q
Rishtai¹⁰¹ o'zni anga bog'lar uchun zunnordek.

Yor agar hampoyu po barjo esa bu davrida,
Boshig'a har lahza evrulmak bo'lur pargordek.

Har so'ngak yonimda bo'lmish bir teshuk g'am bazmida
Har birig'a o'zga yanglig' nola musiqrordek.

Boda ichmakka maqome istar ersang, ey rafiq,
Manzile bu ishg'a bo'lmas kulbai xammordek.

Har dam ul oy hajrida ovoralig' istar ko'ngul,
Ey Navoiy, qo'y oni har qayda borsa bordek.

L U G' A T :

Tavq – bo'yinbog', bo'yinga osadigan ziynat; tuzoq; ba'zi qushlarning bo'ynidagi halqa shaklidagi chiziq; tomoq osig'i; la'nat tavqi, aybdorlarni qiynash uchun bo'yniga kiygiziladigan yog'och bo'yunturuq; baqbaqa chizig'i, aylanasi

Molishi hajr – ishqalash, suykash; jazolash, azoblash, qiynash; jazo, tanbeh

Zunnor – xristian dinidagilar beliga bog'laydigan chilvir, belbog'; but, o'ziga sig'intiruvchi, tortuvchi

Hampo – hamqadam, hamroh

Pargor – sirkul, pargar

Musiqr – muzika asbobi; xush ovozli afsonaviy qush

Kulbai xammor – mayxona

¹⁰¹ Bu so'z "rishtae" tarzida e'zilibshi kerak. "Rishtan" ibora asan uchun ishlatiladi.

G'azal bahri: ramali musammani maqsur
Foilotun foilotun foilotun foilun

G'azalning nasriy bayoni:

1. Hajr, ya'ni uzoq sog'inishning zo'ridan mening zor jismim xuddi olovga tushgan qildek to'lg'onadi. Biror kimsa olovga tushgan qilning chaqmoq shakli kabi kuyganini ko'ribtimiz?
2. Ey beg'am kabutar, agar bo'yningga kuyib turgan xatimni osib qo'ysam, u sening bo'yningda xuddi qumriniki kabi bezakli bo'yinbog' bo'ladi.
3. Jismimdagi suyaklarim yuz pora bo'lib ushalib ketti, hatto qonim qolmadi. Bu holatda jismim hajring azoblaridan siqib tashlangan anordek bo'lib ko'rinadi.
4. Bu ne qattiq hijron bo'ldiki, yillar davomida ertayu kech azobda bo'lgan bemordek bo'lib qoldim.
5. Ey ko'nglim, bu dunyoda bir kofirni sevdang, ammo bilki o'zingni unga bog'lashing uchun zunnor kabi bir ip ham yo'q.
6. Yor agar men bilan hamroh, hamqadam bo'lsa, har lahza xuddi pargordek uning boshidan o'rgilaman.
7. Xuddi afsonaviy qush tumshug'idek jismimdagi suyaklarim teshuk bo'lib g'am bazmida har biri bir turli nola qiladi.
8. Ey do'stim, sharob ichmak uchun biror martabali yer istasang, mayxonadan bo'lak yer bunga munosib manzil bo'lolmas.
9. Ko'nglim o'sha oyyuzli nigorni sog'inib ovorayu sarson bo'lishni istaydi. Ey Navoiy, uni qo'y, mayli, qaerga borgisi kelsa, boraversin.

G'azalning umumiy mazmuni:

Bu g'azalda ham asosan majoziy ishq tarannumi etiladi. Biroq, unda oshiqning ma'shuqaga bo'lgan yulqinli muhabbati, orzu umidlari, visol sevinchlari kabi optimistik tuyg'ular ifodasidan farqli o'laroq, hijron iztiroblari, lirik qahramonning qayg'uli holati, umidsizlikka uchragan dil e'tiroflari singari motivlar ustunlik qiladi. G'azal Hazrat Navoiyning ilki devoni "Navodir un-nihoya" devonida 436-o'rinda va "G'aroyib us-sig'ar" devonida 338-o'rinda mavjud. «Navodir un-nihoya» devonidan joy olgan g'azalning uchi baytidan so'ng uning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi matnida bir bayt qo'shilgan. G'azal umumiy mazmun-mohiyatini, keling noan'anaviy tarzda, ana shu bitta qo'shilgan bayt munosabati bilan tushunishga harakat qilaylik.

Bo'ldi yuz ming pora jismimda so'ngak, qon qolmadi,
Molishi hajringda o'lmishmen siqilg'on nordek

baytidan so'ng shoir g'azal yangi variantiga, ya'ni o'zi uning "G'aroyib us-sig'ar" devoniga 338-o'rinda joylashtirilgan matniga:

Vah, ne hijrondurki, ham avval tunining tonglasi
Bo'lmisham yillar malolat tortqon bemordek

baytini joylashtiradi.

Ushbu g'azallarning barcha baytlarida lirik qahramon mahzun kayfiyatining, ma'shuqasidan ham, zamonadan ham, zamona aholidan ham norozi, iztirobli holatining izchil, dinamik ifodasi aks etadi. Aynan ana shu 9 baytli g'azallarda Navoiy she'riyatining o'ziga xos kompozitsion yetukligi, betakrorligini belgilovchi bir xususiyat ko'zga tashlanadi. Ya'ni, Navoiy g'azallari semantik strukturasi ularning g'oyaviy pafosi bilan bog'liq tarzda badiiy tasvirning bosqichli usuli qo'llaniladi. Bizning taxminimizga ko'ra, bunday matn variantlari ijodkoming o'ziga ham tegishli bo'lishi mumkin. Chunki, bunday g'azallar tafovutli variantlari hosil bo'lishida

nihoyatda bilimdon va zukko bir san'atkor muharrirning qo'li borligi shubhasiz. Ammo, bu o'rinda shu narsani ham nazardan qochirmasligimiz lozimki, g'azallarning nokomil ko'rinishlari paydo bo'lishida kotiblarning ishtiroki ham bo'lgan, ya'ni g'azal kompozitsion mukammalligi uchun xizmat qiluvchi muhim mavqye'ga ega bo'lgan ba'zi baytlar e'tiborsizlik bilan tushirib qoldirilgan. Har holda biz poetik matn takomili ko'zda tutilgan variant talqiniga kirishar ekanmiz, agar bunda ijodkor tahriri bor bo'lsa, biz buyuk san'atkorning badiiy tasvir sohasidagi yana bir kashfiyoti, yangi tasvir usulini ochib berishga muvaffaq bo'larniz.

Biz mulohaza etayotgan tasvir usulining mohiyati shundan iboratki, shoir o'z g'oya-maqsadining badiiy fikr vositasidagi manzum ifodasini tasvirming turli ko'rinishlari orqali bosqichma-bosqich yoki baytma-bayt rivojlantira boradi. Muayyan bosqichga yetgach, ana shu bosqichgacha bo'lgan semantik-emotsional ifoda yo'nalishi asta-sekinlik bilan yana o'zining boshlanishidagi vaziyatga qaytayotgandek tasavvur o'yg'otadi. Ya'ni, bunday tasvir ko'rinishida ijodkor she'rning garmonik markazini tashkil etuvchi nuqtaning bo'lishligiga ahamiyat beradi. Masalan, u ayrim ishqiy g'azallarida leksik elementlar vositasida, murakkab stilistik tarkib bilan, badiiy san'at vositalari ko'magida g'azalda sub'ektiv emotsional tasvimi kuchaytira boradi. G'azal kulminatsiyasiga, yoki bu o'rinda garmonik markaziga, desak mosroq bo'lar, yetgach esa, simmetrik qaytish boshlanadi. Ya'ni, lirik qahramon o'z hissiyotlarini asta-sekin jilovlay boradi. Shundan so'ng, shoirming g'oyaviy maqsadi, she'r mavzui va mazmuni nuqtai nazaridan kelib chiqadigan mantiqiy xulosaga navbat keladi. Badiiy tasvirming bunday xususiyati g'azalga nisbatan hajman katta poetik janrlar - qasidalarda, o'rta asrlar arab poeziyasidagi xamriyat, hajviy-satirik xarakterdagi lirik qissalarda uchmaydi. Mazkur tasvir usuli o'rta asrlar arab klassik adabiyoti tadqiqotchilari e'tiborini jalb etib, bunday kompozitsiyaga asoslanib yaratilgan asarlar «garmoniya prinsiplari»ga amal qilingan holda dunyoga kelgan asarlar, deb ta'riflanadi. Arabshunoslar o'z kuzatuvlarini qo'yidagi mulohazalar bilan asoslashga harakat qiladilar: butun koinot ma'lum bir mutanosiblik asosida qurilgan, shunday o'zaro mutanosiblik - garmoniya va «tartiblilikka» insoniyat jamiyati va inson shaxsi ham

intilmog'i kerak. So'z esa, ayniqsa, badiiy so'z, insonning uni boshqa jonzo'lardan ajratib turuvchi yagona sifatidir. Demak, so'z ham, fikr ham bevosita ana shu prinsip yuzasidan shakllanmog'i, aytilmog'i kerak.¹⁰²

Yuqorida tilga olingan tasvir uslubi uni bevosita istifoda etib yaratilgan (garmoniya va simmetriya talablari asosida) asarlar vositasida arab klassikasida o'ziga xos tendensiya sifatida ko'zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan u muhim g'oyaviy-estetik ahamiyat kam kasb etgan. Bu prinsip arabshunoslikda «gradatsiya» termini bilan izohlanadi: «Vajnam kompozitsionnam prinsipom bila takje gradatsiya, narastanie ot nachala k seredine, a zatem spad ot serediny k koncu (v etom sluchae vozmojno razlichnye varianty v zavisimosti ot janra, napravlenosti proizvedeniya, masterstva i talanta avtora, odnako obuzaya sxema ostactsya imenno takoy). Eta sistema kompozitsii xarakterna i dlya prozaicheskix i dlya poeticheskix janrov, osobenno dlya «poslaniy», v chastnosti satiricheskogo xaraktera».¹⁰³

Shu tipdagi kompozitsion sistemani Navoiyning muayyan syujetga asoslangan liro-epik asarlari, dostonlaridagi ayrim o'rnlarda ham kuzatish mumkin.

Navoiy she'ri variantlarini ularning kompozitsiyasi yuzasidan o'rganish uning ba'zi g'azallarida ana shu ta'riflangan tasvir uslubining amal qilganligi hollarini ko'rsatdi. Jumladan, yuqorida keltirilgan g'azallarga murojaat etaylik:

Hajr tobi ichra kim ko'rdi bu jismi zordek,
Kim topibdi barq shakli o'tqa tushgan tordek

matlai bilan boshlanuvchi g'azalning birinchi, ikkinchi baytlarida lirik qahramon hijronli iztiroblarining badiiy tasviri ikki badiiy lavha orqali bayon etiladi. Birinchi baytdagi «kim ko'rdi», «kim topibdi» kabi ritorik so'roqlar oshiq tortayotgan hijron dardining emotsional tavsifini yoki tasvirming

¹⁰² Бу хакда қаранг: Куденни А.Б. Средневековая арабская поэтика. – М.: Наука, 1983. 108-110-с.

¹⁰³ Шадфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (V-XII вв.). – М.: Наука, 1979. 112-с.

emotsional qobig'ini tashkil etsa, qofiyadagi - dek qo'shimchasi, yoki tashbeh vositasi bilan o'quvchiga qaratilgan bunday ta'sir yanada kuchaytiriladi. Ana shu komponentlarsiz bayt mazmunini idrok qilib ko'rsak, u oddiy xabar gapdan iborat bo'lib qoladi.

Ikkinchi baytda kabutarni tavfiqli qumriga qiyos qilib, uning bo'yniga tumor o'mida oshiq dili harorati sezilib turgan xatini osish orqali lirik qahramon hissiyotlarining badiiy tasviri yana bir bosqichga ko'tariladi. G'azalning uchinchi bayti avvalgi ikki baytga nisbatan yanada kuchliroq, dramatik holat tasviri bilan davom ettiriladi: jismimdagi suyaklarim yuz ming pora bo'ldi, qonim qolmadi; hajringda ezilib, siqilgan anordek bo'lib qoldim, deydi shoir.

G'azalning birinchi variantida bu baytdan keyin keladigan to'rtinchi bayt shoiming ko'ngulga murojaati bilan boshlanadi va hissiy kechinmalar tasviri darajasiga ko'ra oldingi baytga nisbatan ancha kuchsizroqdir. Bu baytda, ey ko'ngul, kofimi sevding, biroq uning beliga o'zni bog'lashing uchun bir ip ham yo'q, degan ma'no ifodalangan. Ana shu o'rinda shoir g'azalga tahrir kiritishni lozim topadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, gradatsiya, ya'ni, sekin-asta kuchayib, yuksala borish va eng yuqori bosqichga yetgach, asta-sekin pasayish, qaytish prinsipiga ko'ra, to'rtinchi baytga nisbatan emotsional tasvir jihatidan kuchliroq bo'lgan uchinchi baytdan keyin shu nuqtai nazardan yanada mukammalroq, baquvvatroq bir bayt kiritiladi. Nazarimizda ana shu bayt lirik qahramon his-tuyg'ulari ifodasining garmonik markazini tashkil etadi. Baytda «vah» undov so'zining qo'llanilishi, «ne hijrondurki?!» deya ritorik so'roq qo'yilishi lirik qahramon hissiyotlarining kulminatsion bosqichga chiqayotganligidan darak beradi. Mana o'sha bayt:

Vah, ne hijrondurki, ham avval tuning tonglasi
Bo'lmisham yillar malolat tortqon bemordek.

G'azalning oltinchi baytida oshiqning yoridan shikoyati bayon etilib, yettinchi baytda esa uning har bir suyagi yonidan bir teshik bo'lib, jismining bu abgor holatini g'am bazmida qiluvchi musiqa ashobiga o'xshatadi.

Nihoyat, maqta'dan oldin keluvchi sakkizinchi baytda g'azal uchinchi, to'rtinchi baytlarida ko'zga tashlangani kabi oshiq psixologik holatining kuchli tasviri ko'rinmaydi, balki shoiming do'stga murojaati bilan boshlanuvchi lirik chekinish mazmunidagi fikr bayon etiladi. Ya'ni, ey do'st, agar boda ichmoqchi bo'lsang, kulbai xammor, ya'ni may sotuvchining uyiga bor, deydi shoir. Maqta'da lirik qahramon - shoir his-tuyg'ulari, hayajonlari tasvirining undan oldingi baytga nisbatan ham bir pog'ona pasayganini ko'ramiz. Endi shoir dil izhorining poyoniga yetayotganini sezgach, unga yakun yasaydi, yuqoridagi sharhi holidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosasini bayon etadi:

Har dam ul oy hajrida ovoralig' istar ko'ngul,
Ey Navoiy, qo'y oni har qayda borsa bordek.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlamoq lozimki, maqta'da his-tuyg'ular tasviri pasayishi mumkin, ammo badiiy fikr ifodasi maqta'da avj nuqtaga, shoir maqsadi bayonidan iborat bo'lgan kulminatsiyaga chiqadi.

Navoiy ijodida lirik qahramon ruhiy holati, kayfiyatining chuqur mohirona tasviri, uning muallif g'oyaviy maqsadi bilan uyg'un ifodasi asosida qurilgan bunday mukammal ichki kompozitsion ustunga ega bo'lgan g'azallar nihoyatda ko'pdir.

Alisher Navoiy o'rta asming o'ziga xos muhitida yashab, ijod etdi. U hayot kechirgan davr – ro'nessans, ya'ni inson go'zalligi va har sohadagi mukammalligini kashf etish davri edi. Tashqi ko'rinishdan nihoyatda mukammal yaratilgan insonning ichki dunyosi va shu ichki dunyoni ifodalovchi tili ham go'zal bo'lishi lozim edi. Shu boisdan ham she'riyat bu davrning ruhiyatiga aylangan edi. Navoiy insoniyatni ma'rifatlantiruvchi o'lmas ijodi bilan ana shu romantik sharoitga hayotiy realistik oqimni olib kirdi va she'riyatni o'z davrining faol, kurashchan, insonparvar kuchlaridan biriga aylantirdi. Xuroson Vaziri a'zami Nizomiddin Mir Alisher Navoiy uchun aynan shu narsa kerak edi. Buyuk shoir ijodining umrboqiyligi va umumbashariyati ham uning yetuklikka intilgan inson va jamiyat muammolarini ko'tarib chiqishida, bu muammolarning betakror asarlarda ajoyib yechim topishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan buyuk Alisher Navoiy serqirra ijodini chuqur o'rganish, bu bebaho xazinaga tinimsiz murojaat etish yosh avlod ma'naviyatini boyitadi, ularni zamonasining to'g'ri fikrlovchi, ongli va toza vijdonli kishilar sifatida shakllanishlari uchun xizmat qiladi.

- Av-adno** – pastroq, yaqinroq
Ajz – 1. Ojizlik, zaiflik, kuchsizlik, notavonlik, iqtidorsizlik; 2. Xastalik; 3. Ojizlikni xoksorlikni tan olish
Anbar – xushbo'y modda, yoqimli hid
Anbarin – anbar (xushbo'y modda) tusli, xushbo'y, muattar, anbar aralashtirilgan; qorong'i kecha
Anfos – damlar, nafaslar; til, ovoz, so'z, so'zlash ohangi
Asru – juda, nihoyatda; juda ko'p, behisob; tez, qattiq
Argar – laxcha cho'g', olov; oshiq
Ahmar – qizil
A'mo – ko'r, so'qir; bilimsiz, nodon, bexabar; ojizlik qilmoq
Balog'at – yetuklik, barkamollik, benuqsonlik; notiqlik.
Batho – Makkai makarrama atrofidagi Batho vodiysi
Bejihat – sababsiz, o'rinsiz, behuda
Beto'shalig' – oziq-ovqatsizlik, yemak-ichmeksizlik; yo'l anjomisizlik
Besh emas – ortiq emas
Biaynih – xuddi o'zi, aynan
Biym – xavf-xatar, qo'rqinch, vahm, tahlika; bu yerda: xavotirli umid
Buroq – Muhammad alayhissalomni me'roj kechasi ko'kka olib chiqqan ot suratidagi farishta
Vallohu a'lam bissavob – to'g'risini Alloh yaxshiroq biladi
Vara' – taqvo, parhyezkorlik, xudojo'ylik
Vasila – yo'l, vosila, sabab, bahona, bois; tuhfa, sovg'a
Gardun – osmon toqlari; dunyo, olam, jahon; arava; yuksak, baland
Dijam – xorlik, kamsitilish
Yog'utmoq – yog'dirmoq
Jabha – peshona, manglay; yuz, oy yuzli
Jayb – 1. Cho'ntak, kissa; 2. Yoqa, kiyimning yoqasi; 3. Yon, yaqinlik
Jom (jomi miyno) – qadah, may piyolasi; bu yerda: shafaq rangli jom
Joh – mansab, amal, martaba; davlat, boylik; buyuklik, sha'n-sharaf, shavkat, e'tibor
Juz (juzv, juz') – bo'lak, boshqa, o'zga; mayda, oz, biror narsaning bir qismi, bir donasi; a'zo, badan a'zolari
Junun – jinnilik, aqldan ozganlik, savdoyilik; oshqlik, beqarorlik

Jurm – gunoh, xato

Zalolat – xorlik, pastlik, haqirlik, tubanlik; gumrohlik, yoʻldan ozganlik.

Zam-zam – 1. Qoʻshish, jamlash; 2. Makkai mukarramadagi muqaddas quduq

Zarqurʻiy – aldov, makr, riyo, hiyla; munofiqlik, ikkiyuzlamalik, gʻiybat, fisq-fasod; tezak; qahr, gʻazab, jirkanch, yoqmas

Zihi – goʻzal, yoqimli, koʻngilga matlub; yaxshi, qanday yaxshi; ofarin

Zod – bola, farzand, avlod;

Zodi – oziq-ovqat; dastmoya; ruhiy ozuqa; safar asbobi; bola, farzand, avlod

Zol – qariya (kampir, chol); bir kechalik oy, hilol; adashgan, gumroh, yoʻldan ozgan; yomonlikka yoʻllovchi

Zulmoniy – qorongʻi, qop-qorongʻilikka mansub, zulmatli

Zunhor – xristian dinidagilar beliga bogʻlaydigan chitvir, belbogʻ; but, oʻziga sigʻintiruvchi, tortuvchi

Zunhor – xristian dinidagilarning beliga bogʻlaydigan chitvir, belbogʻ; but, oʻziga sigʻintiruvchi, tortuvchi

Iktisob – oʻrganish, kasb qilish, qoʻlga kiritish, qozonish

Ilg – “ilik” – qoʻl

Ithod – dinsizlik, xudoga ishonmaslik;

Irshod – toʻgʻri yoʻl koʻrsatish, rahbarlik qilish;

Istishhod – misol keltirish, dalil, isbot

Kavnayn – ikki dunyo, jismoniy va ruhoniylar olami; bu dunyo va oxirat

Kasofat – 1. Dagʻallik, qoʻpollik; gʻalizlik; 2. Ifloslik, yomonlik; 3. Xiralik, tutilish (quyosh)

Kaʻba – 1. Makka shahridagi ziyoratgoh, muqaddas sayilgoh, musulmonlar qiblasi; 2. Koʻngil

Kirdigoro – yaratuvchi, xudo, tangri taolo

Koj – shapaloq; iztirob, aziyat

Kudurat – xiralik, gʻashlik, xafalanish; gʻam, qaygʻu; gʻubor;

Kulbai xammor – mayxona

Kulbai ehzon – hazin uy, gʻam, hasrat uyi

Kunh – asl haqiqat, mohiyat; zot asli, mohiyati, oʻzligi

Kup – xum, may quyiladigan katta sopol idish

Kufvan ahad – (kufv – teng, barobar, oʻxshash); bu yerda: (aslida “kufuvan ahad”) yoʻqtur sanga kufvan ahad – senga hyech bir teng yoʻqdir

Lamʻa – shuʻla, nur; malohat yogʻdusi; sharq quyoshi, nuri; sevgili yor

Mamzuj – aralash, aralashtirilgan, maxlut

Margʻub – yoqimli, sevimli, maʼqul; dilkash, xushroʻy

Mahol – 1. Qiyin, ogʻir; 2. Vaqt, zamon.

Mahsub – hisobga olingan, sherik, bir qatordagi

Maʼyub – mayib, aybli

Mizoj – 1. Tabiat, xulq, atvor; 2. Holat, ahvol

Miyʻod – muddat, vaqt;

Mo fiho – undagi, uning ichidagi

Molishi hajr – ishqalash, suykash; jazolash, azoblash, qiynash; jazo, tanbeh

Mosivalloh – xudodan boshqa

Muvasvasa – vasvasaga soluvchi, vasvasa qiluvchi

Mudoro – 1. Murosa qilish, chiqishish, kelishish, iltifot, lutf; 2. Sulh tuzmoq, yarashmoq

Mujda – xabar

Mukavvanot – vujudga keltirilgan, vujudga kelgan, mavjudot, maxluqot

Mukaddar – xiralangan, zang bosgan; xafa, gʻamgin, mahzun

Mumʻim – neʼmat beruvchi, rizq beruvchi, saxovatli

Moʻr – chumoli

Musallo – namoz oʻqiydigan joy, masjid, namozgoh; joynamoz

Musiqor – muzika asbobi; xush ovozli afsonaviy qush

Musqil – sayqal, jilo beruvchi; yorituvchi

Muhaqqar – haqirlangan, tabqirlangan; arzimas, kam, ozgina; past, kichkina

Muhlik – oʻldiruvchi, halok qiluvchi; halokatli

Nadomat – pushaymon, afsuslanish, taussuf

Namrud – rivoyatlarga koʻra, paygʻambar Ibrohim alayhissalomni oʻtda kuydirmoqchi boʻlgan podshoh

Nasim – shabada, mayin esuvchi shamol

Naxl – nihol

Nashot – shodlik, xursandchilik

Na'im – ne'mat, farovonlik; shodlik, xurramlik
Na'l – taqa; etik va kovushning tagiga qoqiladigan temir nag'al; kavush, sandaliya; taqa shaklidagi tamg'a
Na'layn – etik, juft kavush, poyafzal
Niyoz – 1. Ehtiyoj, muhtojlik; 2. Yalinish, yolvorish, iltijo; 3. Atash, nazr qilish
Nilgun – ko'k rangli, ko'k rangli gumbaz, osmon
Nilgun toram – ko'k rangli osmon gumbazi Zih – go'zal, yoqimli, ko'ngilga matlub; yaxshi, qanday yaxshi; ofarin; xuddi o'zi, juda, eng
Nihoniy – maxfiy, pinhoni
Novak – o'q, kamon o'qi; kiprik; o'q otmoq, jarohatlamoq
Nubuvvat – nabiylik, payg'ambarlar guruhi, Haq taolo insoniyatga yuborgan elchilar guruhi
Obi hayvon – tiriklik suvi, abadiy hayot bag'ishlovchi suv
Payk – xabarchi, jarchi; elchi
Pargor – sirkul, pargar
Ruq'a – xat, maktub; yamoq
Rutab – ho'l, nam Ravza – bog', bog'cha; jannat; muzor, ziyoratgoh; bob, bo'lim fasl
Sabur – sabrli, toqatli, chidamli, bardoshli
Samad – abadiy, jovidon; xudo sifatlaridan biri
Safe (ahli safe) – ko'ngli sof, pokiza kishilar; sufiylar
Siddiq (ahli siddiq) – sodiqlar, sadoqatli, to'g'ri
Sipehroso – osmon, falak kabi; baland, yuksak
Solik – yo'lga kirgan, yo'lda yurgan; tasavvuf yo'liga kirgan; zohid; obid; musofir; g'arib; ogoh musofir; sufiylik ixtiyor qilganlar; yo'l topish uchun urinmoq, yo'llanmoq
Suho – 1. Hulkar to'plamidagi yulduzlarning eng xirasi; 2. Juda kichik, arzimas
Tavq – bo'yinbog', bo'yinga osadigan ziynat; tuzoq; ba'zi qushlarning bo'ynidagi halqa shaklidagi chiziq; tomoq osig'i; la'nat tavqi, aybdorlarni qiynash uchun bo'yniga kiygiziladigan yog'och bo'yunturuq; baqhaqa chizig'i, aylanasi
Tag'ayyur – o'zgarish, boshqa tusga kirish; g'azablanmoq
Tajalliy – ko'rinish, jilvalanish

Taqrir – muqarrar qilish, tasdiqlash, bayon qilish, so'zlash
Taqsir – qusur, kamchiliklar, ayblar
Tan gulbuni – bu yerda: badanning guldek go'zal va pok kulbasi
Taxayyul – xayol surish, o'ylash, tasavvur.
Tifl – bola, bolalar
Topok – tipichilash, bezovtalanish
Fano – baqosizlik, yo'q bo'lish, o'lish; o'zlikdan kechish, o'zni unutish, tasavvuf yo'liga kirish; o'lim, ajal
Fard – yolg'iz, yakka, tanho; ajragan, xoli; ma'no jihatidan mustaqil yakka bayt;
Fardlig' – yagonalik, birlik, toqlik
Fasohat – so'zning ochiq, ravshan, chiroyli va qoidaga muvofiq bo'lishi.
Foniy – baqosizlik, yo'q bo'lish, o'lish; o'zlikdan kechish, o'zni unutish, tasavvuf yo'liga kirish;
Xazro – ko'k, yashil; osmon
Xay – ter tomchisi
Xashxosh – ko'knori o'simligi, ko'knori urug'i
Xijolat – uyalish; sharmanda bo'lmoq.
Xirad – aql
Xoma – qalam
Xotam – muhr
Xuffosh – ko'rshapalak
Shar' – shariat;
Shafi' – himoyachi, vositachi
E'lom – e'lon qilish, bildirish, ma'lum qilish
Yasrib – Madina shahrining qadimgi nomi
Qiyrgun – qoramoy rangli, qop-qora, tim qora
Qosid – elchi, xabarchi; qasd qiluvchi, niyat etuvchi
Qurb – 1. Yaqinlik, yaqin bo'lish; 2. Qobiliyat; 3. Loyqlik
Qo'ryo – 1. Chodir, kapa; 2. Xarobaxona; vayrona
G'abro – yer, yer yuzi, yer shari
G'afiat – hushyorsizlik, har narsaga befarq qarashlik; loqayd qiladigan, sergaklikni yo'qotadigan uyqu
G'izo – oziq-ovqat, yegulik, taom

G'ussa – g'am, qayg'u Za'f – quvvatsizlik, holsizlik, xastalik, kasallik

Havodis – hodisalar, voqyealar, kundalik o'zgarishlar; ko'ngil g'ashlik hodisasi;

Hamd – 1. Maqtov, madh; 2. Shukr, tashakkur, rahmat; 3. Madhu sano, maqtash va sano aytish.

Hampo – hamqadam, hamroh

Haros – qo'rquv, vahima, qattiq hayajon

Hibs (habs) – qamash; hibsga solish; qamoqxona, zindon

Hidoyat – to'g'ri yo'l ko'rsatish, to'g'ri yo'l topish, to'g'ri yo'lga kirish.

Hirz – 1. Saqlaydigan, asraydigan; 2. Sehr-joduni qaytaradi; 3. Tumon o'rmini bosadi

Hubob – suv yuzida paydo bo'ladigan pufakchalar; osmon gumbazi; foni dunyo; aylana

Huzn – ham, qayg'u, xafalik, g'amginlik

Hulla – bezakli kiyim, ziynat libosi; nafis matodan tikilgan kiyim

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуғафуров А. «Хазойин ул-маоний» жумбоқлари // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1998, №6. - Б.3-10.
2. Абдуғафуров А. «Хазойин ул-маоний» жумбоқлари // Ўзбек тили ва адабиёти. - 2000. - № 5. - Б.3-11.
3. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. 184 б.
4. Абдуғафуров А. Навоний сатираси. 1-китоб. - Тошкент: ФАН - 1966. 316 б.
5. Абдуллаев В. Навоний Самарқандда. - Тошкент: Бадний адабиёт, 1968. 136 б.
6. Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоний. Тошкент: ФАН, 1966. 152 б.
7. Алишер Навоний асарлари тилининг изохли луғати. IV томлик. - Тошкент: Ўз ФА - 1983-1984-1985. Т. 1. - 1983-656 б; Т. 2. - 1983-642 б; Т. 3. - 1984-622 б; Т. 4. - 1985-646 б.
8. Алишер Навоний ижодий меросини ўрганиш проблемалари. Илмий мақолалар тўплами. - Самарқанд: СамДУ, 1990. 182 б.
9. Алишер Навоний. Илк девон. Факсимил нагр.
10. Алишер Навоний. МАТ. 20 жилдлик. 14-жилд. - Тошкент: Фан, 1998. 304 б.
11. Алишер Навоний. МАТ. 20 жилдлик. 17-жилд. - Тошкент: Фан, 2001. 520 б.
12. Алишер Навоний. МАТ. 20 жилдлик. 3-жилд. - Тошкент: Фан, 1988. 616 б.
13. Алишер Навоний. МАТ. XX томлик. 1-6 томлар. - Тошкент: ФАН - 1987-1990. Т. 1. - 1987-724 б; Т. 2. - 1987-620 б; Т. 3. - 1988-614 б; Т. 4. - 1989-558 б; Т.5. - 1990-542 б; Т.6. - 1990-366 б.
14. Алишер Навоний: комусий луғат. 1-2 жилдлар. - Тошкент: Sharq, 2016.
15. Атоуллох Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. 400 б.
16. Бертельс Е.Э. Избранные труды. «Навон и Джами». - М., Наука, 1965. С.164.
17. Бобур Захириддин Мухаммад. Бобурнома. / Хозирги ўзбек тилига В. Рахмонов ва К.Мудлахўжаева таъдйли. - Тошкент: MA NAVIYAT, 2004.
18. Бобур Захириддин. Мухтасар. / Нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. - Тошкент: Фан, 1971. 413 б.
19. Болтабоев Ҳ. Мушгоз сўз кадри. - Тошкент: АДОЛАТ, 2004.
20. Борев Ю.Б. Теоретическая история литературы. / Теория литературы. Т.4: Литературный процесс. - Москва, 2001.

21. Бройтман С.Н. Историческая поэтика. – Москва, 2001.
22. Валихўжаев Б. Алишер Навоий шеърят. Самарканд: СамДУ, 2002.
23. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. 2 томлик. Тошкент, 2002. 508 бет.
24. Вохидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. Бухоро, 1994. 176 бет.
25. Vohidov R., Eshonqulov N. Ozbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: OzYU Adabiyot jamgarmasi nashriyoti, 2006.
26. Гієсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: "Akademnashr" – 2018. 370 б.
27. Захриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. 368 б.
28. Зоҳидов В. Дебачанинг сир. Тошкент, 1975;
29. Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Камалак, 1991. 173 б.
30. Исмоков Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: ФАН, 1965. 140 б.
31. Исмоков Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: ФАН, 1983. 168 б.
32. Исмоков Ё. Сўз санъати сўзлуги. – Тошкент: Зарқалом – 2006. 144 б.
33. Имомназаров М. Навоийнинг поэтикаси. – Тошкент: ТДШН, 2015.
34. Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебча. (НДА). Тошкент, 1993.
35. Комилов Н. Маънолар олами сафар. – Тошкент: "TAMADDUN", 2012. 316 б.
36. Кудешин В.Г. Средневековая арабская поэтика. – Москва: Наука, 1991. 362 с.
37. Қанонов А. Алишер Навоий. – Тошкент: Камалак, 1991. 173 б.
38. Мирзоев А.М. Рудак и развитие гезели. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1958. 71 с.
39. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская поэтика X-XV вв. – Москва: Наука, 1989. 240 с.
40. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият – 2005. 208 б.
41. Олтинов М. Рисолаи аруз. – Тошкент: Ёзувчи, 2002. 88 б.
42. Османов М.Н. Стиль персидско-таджикской литературы. (X-XII вв.). – Москва: Наука, 1971. 267 с.
43. Пардьева И. Алишер Навоий тарихий асарлари бадияти. Ф.ф.ФДД. /Самарканд, 2018.
44. Проблемы арабской культуры. – Москва: Наука, 1987. 392 с.
45. Проблемы восточного стихосложения. – Москва: Наука, 1973. 184 с.
46. Проблемы исторической поэтики литератур Востока. – Москва: Наука, 1988. 312 с.
47. Раззоков А. Алишер Навоий шеърятда илм ва маърифат талқини. Ф.ф.ФДД. /Қариш, 2019.

48. Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972 –56 б.
49. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. 308 б.
50. Салоҳий Д. «Бадоеъ ул-бидоя» малоҳати. Тошкент: Фан, 2003.
51. Салоҳий Д. Мутафаккир ва мумтоз шеърят. – Самарканд: Имом Бухорий калқаро маркази, 2018. 220 б.
52. Сирождидинов Ш. Навоий навосидан баҳра олиб... – Самарканд: "Заришон", 1996. – 184 б.
53. Сирождидинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиссий-типология, текстология таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011.
54. Семантика образа в литературах Востока. – Москва: "Восточная литература", 1998.
55. Стеблева И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – Москва: Наука, 1993.
56. Стеблева И.В. Жизнь и литература доисламских тюрков. – Москва: "Восточная литература", 2007.
57. Сулаймонова Ф. Айёми висол ўлди яна... – Тошкент: Фан, 1997.
58. Теория жанров литератур Востока. – Москва: "Восточная литература", 1998.
59. Филлимер Ч. Основные проблемы лексической семантики. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XI. – Москва, 1983. С. 32-34.
60. Хонмунинюв Ж., Ҳазраткулов Ж. Форсий адабиётнинг жаҳон адабиётдаги ўрни. – Тошкент: "Yangi asr avlodi", 2012.
61. Шайхзодов М. Асарлар. VI томлик. 4 т.: Ҳазрат мулкнинг султони. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1972. 372 б.
62. Шарк мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар – Тошкент: Ozbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 429 б.
63. Шомухамедов Ш.М. Форс-тожик адабиёти тарихидан қисқича курс: Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТошДУ, 1987.
64. Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI-XII вв.). – Москва: Наука, 1979. 254 с.
65. Шпет Г.Г. Внутренняя форма слова. – Москва: Наука, 1927. 136 с.
66. Шпет Г.Г. Герменевтика и её проблемы. – Москва: Наука, 1923. 128 с.
67. Эргашев К. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навоий. – Тошкент: Фан, 2009.
68. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғонини адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: "TAMADDUN", 2016. 302 б.
69. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-2 жилд. – Тошкент: Фан, 2005, 2007.

70. Қўюмов А. Асарлар. 10 жиллик. – Тошкент: "MUMTOZ SOZ", 2007-2010.
71. Ганисва С. Навоий ёдга олган асарлар. – Тошкент, 2009.
72. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. 227 б.
73. Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: ФАН, 1975.
74. Хайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Тошкент: ФАН, 1963. - 173 б.
75. Хайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Тошкент: Фан, 1970. 331 б.
76. Ҳақимов М. Навоий асарлари қўлбзмаларининг тавсифи. – Тошкент: ФАН, 1983. 199 б.
77. Ҳаққулов И. Ғазал гулшани. – Тошкент: ФАН, 1991. 70 б.
78. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеъринг. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 240 б.
79. Ҳаққулов И. Шеъринг – руҳий муносабат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. 240 б.
80. Ҳаққулов Иброҳим. Навоийга қайтиш. 3-китоб. – Тошкент: "TAMADDUN", 2016. 316 б.
81. Ҳасанов С. Бобурнинг "Аруз рисоласи" асари. – Тошкент: Фан, 1981. 132 б.
82. Ҳоҷнаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006. 288 б.
83. www.ziyoue.uz
84. www.literature.uz

M U N D A R I J A

Taqdim.....	3
Alisher Navoiy she'riyatida lirik janrlar taraqqiyoti	6
Alisher Navoiy she'riyati.....	26
Navoiy she'riyatida badiiy mahorat masalalari.....	43
Navoiy ijodida turkiy she'riyat taraqqiyoti masalalari.....	76
Alisher Navoiy g'azallarini sharhlab o'rganish tamoyillari.....	113
1-g'azal.....	113
2-g'azal.....	118
3-g'azal.....	123
4-g'azal.....	128
5-g'azal.....	132
6-g'azal.....	137
7-g'azal.....	141
8-g'azal.....	147
9-g'azal.....	153
10-g'azal.....	160
11-g'azal.....	167
12-g'azal.....	173
13-g'azal.....	178
14-g'azal.....	181
15-g'azal.....	188
16-g'azal.....	195
17-g'azal.....	201
18-g'azal.....	204
19-g'azal.....	210
20-g'azal.....	216
So'ngso'z.....	224
Adabiyotlar ro'yxati.....	231

NAVOIYSHUNOSLIK

ALISHER NAVOIY G'AZALLARINI SHARHLAB O'RGANISH

Universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni
o'qitish (o'zbek filologiyasi), pedagogika institutlarining
o'zbek tili va adabiyoti fakultetlari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir

J. Bozорова
L. Xoshimov
N. Isroilov

2019 yil 20 dekabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2019 yil 27 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 60x84_{1/16}. "Times new roman" garnituras. Offset qog'oz.
Shartli hosna tabog'i – 14,75.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 12/8.

ISBN – 978-9943-6316-7-0

SamiDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



